ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(mart-aprel)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

	4	Abdulla Avloniy merosi – ta'lim-tarbiya xazinasi

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

B. Abdullayeva, M. Barotova	6	Abdulla Avloniyning Turkiy guliston yoxud axloq asarining pedagogik ahamiyati
O'. Tolipov	10	Uchinchi renessans davrida ta'lim tizimidagi islohotlarning ahamiyati
B. Shermuhammadov	15	Yoshlarda sog'lom e'tiqodni shakllantirishning asosiy tamoyil va shartlari
Sh. Shodmonova, H. Hamzayev	18	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarda ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish motivlari
A. Zaparov	22	Oliy o'quv yurtlari talabalarida kreativ fikrlashni rivojlantirishga innovatsion yondashuv
A. Qambarov	27	Oliy ta'lim muassasalari talabalarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish
N. Abdullayeva	31	Uzluksiz ta'lim muassasalari o'qituvchilarida pedagogik mas'uliyatni shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish
N. Mannapova	34	Talaba-yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik asoslari
Z. Pulatova	38	Oliy ta'lim muassasasi talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish
Z. Mamaraimova	42	Talaba-yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini rivojlantirishda oilaning roli
M. Xalimov	45	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Aksonometrik proyeksiyalar" mavzusini o'qitishda innovatsion yondashuv
L. Boymirzayeva	49	Ona tili darslarida nostandart mashq va topshiriqlarni qo'llashning ahamiyati
M. Shodiyeva	53	O'qituvchining kasbiy va ijodiy rivojlanishini tashkil etish tamoyillari

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

P. Maxsudov	57	Professional ta'lim o'qituvchisining metodik faoliyati
S. Yuldashev	61	O'qituvchilarni texnologik ta'limga kreativ yondashishga tayyorlash metodikasi
B. Qo'yliyev, O. Quvondiqov, K. Tursunmetov	68	Ma'ruza – ta'limning eng faol usuli
R. Kazakov	72	8-sinf kimyo darsligidagi mavzularni o'zlashtirishda uy tajribalarini takomillashtirishning ahamiyati
I. Suvanova	78	Uyda ta'lim olayotgan o'quvchi bilan ishlash usullari

TA'LIM SIFATI

M. Djumayev	81	Ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlar to'g'risida

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

J. Pardaboyev	85	Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirishda STEAM-ta'lim texnologiyasi



TA’LIMDA IQTISODIYOT VA MOLIYALASHTIRISH

U. Tursunova **89** Bo‘lajak iqtisodchilarda kasbga yo‘naltirilgan muloqot kompetensiyasini rivojlantirish



KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISH

Z. Muratxo‘jayeva **93** Integrativ yondashuv asosida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish-pedagogik muammo sifatida



MADANIYAT, SAN’AT VA MUSIQA TA’LIMI

S. Bulatov **96** Badiiy tahlil jarayonida talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash

N. Mansurov **100** Ta’limda zamonaviy tasviriy san’atni o‘qitish va uni idrok etishning metodik ahamiyati



MAKTABGACHA TA’LIM

M. Esonov **104** Matematik tushunchalarini rivojlantirishda maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot muhitining o‘rni

G. Ergasheva **107** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘rgatishning didaktik asoslari



ATROF-MUHIT MUHOFAZASI

K. Abrorxonova, F. Berdibekova **111** Ekologik tarbiya va shaxsning har tomonlama rivojlanishi



ILM, MA’RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

M. Jo‘rayev **115** Informatika va axborot texnologiyalari fanining o‘quv-metodik ta’minotini ishlab chiqishda uzviylikni ta’minlash



QIYOSIY PEDAGOGIKA

O. Qo‘ysinov **120** Finlandiya va O‘zbekistonda texnologiya fani o‘quv maqsadlarini belgilashda qiyosiy tahlil



KORREKSION PEDAGOGIKA

M. Jalilova **126** Og‘ir nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarga logopedik yordamni tashkil etishda ota-onalarni jalb etishning ilmiy-metodik asoslari



ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ

А. Махмудов **129** Шахматы – как новый учебный предмет для развития творческого мышления у учащихся начальных классов

У. Холмирзаев **133** Использование домашнего опыта при формирование понятия адсорбции



ПОВЫШЕНИЕ КВАЛИФИКАЦИИ И ПЕРЕПОДГОТОВКА

И. Чориев **137** Методологические особенности формирования и развития готовности к педагогическому проектированию в процессе повышения квалификации



КУЛЬТУРА, ИССКУСТВО И МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Г. Абылова **140** Компьютерные композиции, музыкального моделирования

ABDULLA AVLONIY MEROSI – TA'LIM-TARBIYA XAZINASI

Abdulla Avloniy aytadi: "Tarbiya qilguvchilar tabib kabidirki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, "poklik" degan davoni ustidan berib, katta qilmog'i lozimdir". Bu gaplar zamirida yuksak tajriba samarasi o'laroq, tarbiyani tarbiyachi o'zidan boshlamog'i zarurligi tushuniladi. Zero, bola eshitganlaridan ko'ra ko'proq ko'rganlariga ergashadi. Bola tarbiyasiga kirishishdan oldin tarbiyachining o'zi ham tarbiyalangan bo'lishi kerak.

Tarbiya shaxs ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda tarkib toptirish va rivojlantirish jarayoni, kishilarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotda faol ishtirok ettirishga qaratilgan barcha ta'sirlar majmuidir.

Quyida Abdulla Avloniyning merosi – ta'lim-tarbiya xazinasi durdonalaridan keltirib o'tishni lozim topdik.

TARBIYA

Tarbiya – "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda bir oz so'z so'ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ulgan kundan boshlamak, vujudimizi quvvatlandurmak, fikrimizi nurlandurmak, axloqimizi go'zallandurmak, zehnimizi ravshanlandurmak lozim ekan.

BADAN, FIKR, AXLOQ TARBIYASI

Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila terisi kabidur.

Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdur. Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan oyrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur.

Axloq tarbiyasi: insonlarga eng muhim, ziyoda sharaf, baland daraja berguvchi axloq tarbiyasidur. Shuning uchun tarbiya qiluvchi muallimlarning o'zlari ilmlariga omil bo'lub, shogirdlarga ham bergan darslarini amal ila chaqushturub o'rgatmaklari lozimdur. Bu ravishi ta'lim ila berilgan dars va ma'lumot shogirdlarning diliga tez ta'sir qilub, mulloyi boamal bo'lurlar.

XULQ

Inson ikki narsadan murakkabdur. Biri jasad, ikkinchisi nafsdur. Jasad ko'z ila bor narsalarni ko'rur. Ammo nafs idrok ila yaxshini yomondan, oqni qoradan ayirur. Jasadning ham, nafsning ham biror surati bordurki, yo yaxshi va yo yomon bo'ladur. Jasadning surati hammaga ma'lum bir narsadurki, har vaqt ko'zga ko'rinib turadur.

Ammo nafsning surati ko‘zga ko‘rinmaydurgan, aql ila o‘lchanadurgan bir narsadurki, buni xulq deb atalur.

YAXSHI XULQ, YOMON XULQ

Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo‘lmishlar. Agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikg‘a tavsif bo‘lub, “yaxshi xulq” agar tarbiyatsiz o‘sub, yomon ishlaydurgan bo‘lub ketsa, yomonliqg‘a tavsif bo‘lub “yomon xulq” deb atalur.

Yaxshi xulq: bir qismi o‘z nafsimizga, bir qismini bir-birimizga qarshu ishlatmak uchun kerakli bo‘lgan yaxshi xulqlar: fatonat, diyonat, islomiyat, nazofat, g‘ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, ilm, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison, iqtisod, viqor, xavf va rajo, itoat, haqshunoslik, xayrixohlik, munislik, sadoqat, muhabbat va afvdur.

FATONAT

Fatonat aql egasi bo‘luv demakdir. Ilm insonlarning madori hayoti, rahbari najotidur. Ilm o‘rganmak, olim bo‘lmak uchun maktabga kirmak, muallimdan ta’lim olmak lozim. Aqlsiz kishilar na maktabga kirar va na muallimni bilar.

NAZOFAT

Nazofat deb a’zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni pok va toza tutmoqni aytilur. Poklik zehn va idrokingni keng va o‘tkur qilur. Xalq orasida e’tibor va shuhratga sabab bo‘lur. Poklik ila har xil kasallardan qutulub, jonimizning qadrini bilgan bo‘lurmiz. Pok bo‘lmak salomatimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadur.

Yirtiq, eski kiyimlar kiymak ayb emas, yangi kiyimlarni kir qilub, yog‘ini chiqarub yurmak zo‘r ayb va gunohdur. Ifloslik balosidan poklik davosi ila qutulmoq kerak. Baliqning hayoti suv ila o‘ldig‘i kabi, insonning salomatligi havo iladur. Agar tan pok bo‘lub yuvilib turmasa, quloq kir bo‘lsa, eshitmagani kabi badan ham o‘ziga kerak bo‘lgan havoni ichiga ololmas, ichidagi rutubat ham kirdan o‘tub chiqub ketolmas, chunki badan elak kabi ko‘zlikdur. Agar ko‘zi kir olsa, un turub suv ham o‘tmas, shuning uchun tamiz bo‘lmagan kishilar qo‘rqinch kasallarga tezgina giriftor bo‘lurlar. Shodliqlari g‘amda, oltundan qadrli umrlari kassalxonalarda o‘tar.

SA’Y VA G‘AYRAT

Sa’y va g‘ayrat deb ustiga yuklangan xizmatlarni harakat birla ado qilmakni aytilur. Dangasalik har vaqt insonni xor, tama balosiga giriftor qilur. Bir ishga mashg‘ul bo‘lgan kishilar vaqtning o‘tganini bilmas, yalqov kishilar uchun bir soat o‘tkarmak qiyomatdan qiyindur. G‘ayrat vujudimizga quvvati mas’ud va baxtiyor bo‘lishimizga sababdur. Shuning uchun har birimiz sa’y qilub, o‘z kuchimiz ila maishatimizga kerak bo‘lgan narsalarni topub, boshqalarga muhtoj bo‘lmay rohat-rohat yashamoq lozimdur. Sihatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, qanoatimiz, sabrimiz, fazilatimiz, alhosil, butun hayotimiz harakatimizga bog‘lidur. Harakatlik kishilar tezgina maqsudlariga yeturlar. Yalqov kishilar har narsadan mahrum, doim boshqalarning yordamiga muhtoj bo‘lub xorlikda qolurlar.

Davomini keyingi sonda o‘qishingiz mumkin.

Barno ABDULLAYEVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, pedagogika fanlari doktori, professor
Marjona BAROTOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 1-bosqich magistranti

ABDULLA AVLONIYNING "TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARINING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunda tarbiya va intizom, ilm olishning mazmuni yoritilgan. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asaridagi pedagogik yondashuvlar, bugungi kunda bu asarning mohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari, manbalari, maqsad va vazifalari hamda namoyon bo'lish shakllari haqida fikr mulohazalar, pedagogik qarashlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Tarbiya, talim, boshlang'ich sinf, ilm, intizom, pedagogik qarashlar, shakl, sifat, ko'nikma.

В статье рассматривается содержание образования и дисциплины, науки на сегодняшний день. Педагогические подходы в работе Абдуллы Авлани "Тюркский Гулистан, или мораль", излагаются мнения о сущности этого труда, его специфике, источниках, целях и задачах, а также формах проявления, педагогических взглядах.

Ключевые слова. Образование, обучение, начальный класс, знания, дисциплина, педагогические взгляды, форма, качество, мастерство.

The article describes the content of education and discipline, education today. The pedagogical approaches in Abdullah Avlonty's "Turkish Gulistan or the work of morality", the essence of this work today, its specific features, sources, goals and objectives, as well as forms of expression, pedagogical views are described.

Key words. Education, training, primary class, knowledge, discipline, pedagogical views, form, quality, skill.

Abdulla Avloniy atoqli pedagog, murabbiy sifatida butun hayotini ma'rifat rivojiga baxsh etdi. O'zining ilmiy asarlari, darsliklarida adib Vatan, vatanparvarlik, ilm-hunar, axloq-odob, ma'rifat, inson kamoloti, jamiyat rivoji haqida fikrlar bayon qildi. Abdulla Avloniy kishilarni yaxshilikka undash, dunyodagi barcha insonlarga nisbatan ezgulik istagi bilan yashashni chinakam oliyjanoblik hisoblaydi. Uning bu pedagogik fikri ta'limoti milliy pedagogika tarixi rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Avloniy bayon etgan fikrlar hozirgi davr ta'lim rivojiga ham xizmat qilmoqda.

Avloniyning ilm, tarbiya, intizom, haqqoniyat, itoat va xulq haqidagi asarlarida hozirgi pedagogikaga kerakli va pedagoglar uchun juda katta ahamiyati bor. Biz bu asarlardan dars jarayonida va bola tarbiyasiga kerakli bo'lgan ma'lumotlar olishimiz, uni bolalarga misollar bilan tushuntirib o'rgatishimiz mumkin.

Tarbiya – "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda bir oz so'z so'ylaymiz. Bolaning salomi va saodati

uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan, “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmak lozimdur. Zeroki, “Hassinu axloqakum” amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg‘a amr o‘linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadur. Axloqimiz(ning) binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordur. Ba’zilar “tarbiyaning axloqqa ta’siri yo‘q, insonlar asl yaratilishida qanday bo‘lsalar, shunday o‘sarlar, tabiat o‘zgarmas”,

“Yomon xo‘ tuzalmaydi darmon ila,
Ipak o‘lmas ip, rangi alvon ila,
Boqing, bir daraxt mevasidur yomon,
Bo‘lur yaxshi payvand, parvo bilan.
Bilur har kishi aslini rangidan,
Va yokim ulangandagi zangidan”, demishlar.

Lekin bu so‘z to‘g‘ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqga, albatta ta’siri bo‘ladur. Aromizda masal borki, “Sut ila kirgan, jon ila chiqar”, mana bu so‘z to‘g‘ridur. Rasuli akram nabiyyi muhtaram sallallohu alayhi vasallam afandimiz: “Beshikdan to mozorga borguncha ilm o‘rgan”, demishlar.

Bu hadisi sharifning ma’nosi bizlarga dalildur. Hukamolardan biri:

“Har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur”, – demish. Shariati islomiyada o‘z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak otalarga farzi ayn, o‘z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadur. Payg‘ambarimiz: “Bolalaringizni yetti yoshida namozga o‘rgatingiz. Agar o‘n yoshida o‘qumasa uringiz”, – demishlar. Har kishining dunyoda oromi joni tarbiyat, Balki oxirida erur dorulamoni tarbiyat. Tarbiyat hamroh etadur hur ila ruzvonlara, Gar desam bo‘lmas xato jannat makoni tarbiyat. E, otalar! Jonlaringizdan suchuk farzandingiz, G‘ayrat aylang o‘tmasun vaqt-zamoni tarbiyat. Moyai zilli humodur tarbiyatning soyasi, Bizda anqo tuxumidek yo‘q oshiyoni tarbiyat. Avloniyning tarbiya haqidagi bu misralarida biz ota-onalar va murabbiylar bolalarga yoshlikdan to‘g‘ri tarbiya berishimiz, ularni to‘g‘ri yo‘ldan olib borishimiz, e’tiborsizlik qilmasligimiz aytilgan. O‘zimizning xatti-harakatimiz, gapirish madaniyatimiz, o‘zimizni qanday tutishimiz ham katta rol o‘ynaydi, zero, qush uyasida ko‘rganini qiladi deb bejiz aytilmagan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham Abdulla Avloniyning ilm-tarbiya to‘g‘risidagi fikrlarini har bir maktab binosida bo‘lishi shartligi haqida shunday deganlar: “Abdulla Avloniyning Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” degan so‘zlari har bir maktab binosida yozib qo‘yilishi shart”. Bundan tashqari prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 23-avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda prezidentimiz maktab ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir” degan fikrini alohida ta’kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to‘xtaldi. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ularda jamiyat islohotlari avvalo, ta’lim tizimidan, bog‘cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko‘ramiz. Chunki maktabni o‘zgartirmasdan

turib, odamni, jamiyatni o‘zgartira olmaymiz. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori esa bu – maktab. So‘nggi uch yilda yurtimizda 157 ta umumta’lim maktabi yangidan qurildi. “Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak”, dedi Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 29-apreldagi farmoniga muvofiq, Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlandi. Unda 48 ta maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish bo‘yicha aniq mexanizmlar belgilandi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, hududlarda 6 ta pedagogika institutlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Respublika ta’lim markazi, Abdulla Avloniy nomidagi xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti mavjud. Maktablardagi ma’naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish, “Milliy g‘oya”, “Odobnoma”, “Dinlar tarixi”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona “Tarbiya” fanini joriy qilish zarurligi qayd etildi. Maktablarga buyuk allomalar, davlat va siyosat arboblari, mashhur sarkarda ajdodlarimizning nomlarini berish muhimligi ta’kidlandi.

Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin.

Boshlang‘ich sinflarda tashkil etiladigan ta’lim-tarbiyaviy tadbirlar o‘quvchilik davr, ya’ni ularning maktab ostonasiga ilk qadam qo‘ygan kunlaridan boshlanadi. Boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy tadbirlar quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Tadbirni rejalashtirish.

2. Tadbir yuzasidan o‘quvchilarga tushuncha berish.

3. Tadbirni tashkil etish jarayonida sinf o‘quvchilarining barchasi ishtirok etishni ta’minlash.

4. O‘quvchilarning imkoniyatlari darajasidan kelib chiqqan holda ishlarni taqsimlash.

5. Tadbirni amalga oshirish.

6. Tadbir natijalarini tahlil qilish va baholash. Bosqichlarning har biri o‘qituvchi tomonidan oldindan chuqur o‘rganilgan bo‘lishi lozim.

Milliy bayramlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan birgalikda nishonlash, avvolo, o‘quvchilarda ona-Vatan, tabiat va jonzotlarga nisbatan mehr-muhabbat, g‘urur va iftixor hissini shakllantiradi. Bu kabi tarbiyaviy tadbirlar natijasida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning so‘z boyligi oshadi, dunyo qarashi kengayadi, asosiysi darsda olgan bilimlarni mustahkamlaydi, bunday tadbirlar ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi.

O‘qish darslarida 3-sinflar uchun dars ishlanma darsning mavzusi: “Sumalak” rivoyati.

Darsning maqsadlari:

– O‘quvchilarni ifodali, ravon o‘qishga, voqealar jarayonini atroflicha bayon eta olishga o‘rgatish. – Milliy va ma’naviy qadriyatlarimizga e’tibor berish ruhida tarbiyalash. Ezguliklarga hamohang bayramlarimiz haqida tushuncha berish.

– Mustaqil fikrlashga, o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rgatish.

– Darsning uslubi: Noan’anaviy. Darsning jihozi: Bahor manzarasi tasvirlangan rasmlar, bukletlar, tarqatma materiallar, texnika vositalari, o‘stirilgan bug‘doy-maysasi.

Darsning borishi: O‘qituvchi bolalar bilan salomlashadi. Ularning darsga tayyorligini so‘raydi.

O‘quvchilar: O‘qish – bu odob ilmi, Berar bizga hayotdan saboq. U bordirki, hayot sururli, U bordirki, kelajak porloq.

O‘qituvchi: Ushbu dars yoqar kimga? Qani, aytingchi, menga.

O‘quvchilar: Sizga, bizga, hammaga, Yoqar ushbu darsimiz.

O‘qituvchi: Rahmat, bolajonlarim. O‘tiringlar, marhamat. Savollarimga faqat, Javob beringiz o‘ylab.

O‘quvchilar: O‘ylab javob berishga qilamiz biz harakat.

Darsimiz davomida g‘olib guruhlarga bahorning eng sevimli guli hisoblanmish lolalardan berib boriladi. Eng ko‘p lola olgan guruh g‘olib sanaladi.

1 guruh: Binafshaxon, binafsha, Kulishlaring chiroyli. Bog‘imizda ochilib, Turishlaring chiroyli. 2 guruh: Bahor keldi elimizga, Ko‘m-ko‘k bo‘ldi bog‘, dala. Quvonch to‘lib dilimizga, Terib keldik biz lola. 3 guruh: Bahordan berding darak, Oson bo‘lmadi ko‘rmak. Senga talpingan yurak, Sevgan gulim – boychechak. Demak, hozir biz “Binafsha”, “Lola” va “Boychechak” guruhlariga bo‘linamiz. Guruh sardorlari saylanadi. Guruhlarga “Ochqichso‘z” beriladi.

1-guruh – “Bahor”, 2-guruh – “Navro‘z”, 3-guruh – “Sumalak” so‘zlari asosida ko‘klam, bu fasldagi tabiat o‘zgarishlariga ta’rif beradilar. A’lo darajada uddalagan guruh g‘olib hisoblanadi. O‘qituvchi: Mana, bolalar, o‘lkamizga o‘zining go‘zalligini ko‘z-ko‘z qilib ko‘rkam bahor fasli kirib keldi. Butun borliq, tabiat yanada go‘zallashdi, yoshardi. Davraga bahoroy kirib keladi va she’r aytadi. Chor atrofga atrim sochib, Novdalarim g‘uncha ochib, Jannat yurtga shoshib-shoshib, Mana, keldim sabo bilan. Barcha bilan salomlashgach, o‘quvchilarga savol beradi. – Aziz bolajonlar, bahor fasli haqida nimalarni bilasiz? O‘quvchilar uning savoliga bahor haqidagi she’rlar bilan javob beradi. 1-o‘quvchi: Osmon tiniq, ko‘kshosh, Oq bulut kezar gohi. Gullarga ko‘miladi, Qancha ko‘rikningshosh. 2-o‘quvchi: Bog‘bon chiqar bog‘iga, Cho‘pon ketar tog‘iga. Bolarilar g‘uvillab, Qo‘nar gul yaprog‘iga.

3-o‘quvchi: Suvlar shildirab oqar, Qo‘shig‘i dilga yoqar. Bizga shodlik keltirding, Salom senga, gul bahor. O‘qituvchi: Bolajonlar, bu fasl nafaqat go‘zalligi bilan, balki bayramlarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Mana, yaqinda qo‘shig‘ini kuylaydilar. Test savollari tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajargunlaricha sardorlar bellashuvi o‘tkaziladi. Bunda sardorlarga “Bahor taomlari” boshqotirmasi beriladi. Boshqotirmani tez yechgan sardor g‘olib sanaladi. Bo‘yiga: 1. Bahoriy ko‘katlardan tayyorlanuvchi xamirli taom. 2. Masallig‘i: Bug‘doy, go‘sht. 3. Yalpiz, ismaloqdan tayyorlanuvchi ko‘k. Eniga: Navro‘zning sevimli taomi. O‘qituvchi: Aziz bolajonlar! Mustaqil O‘zbekistonimizning kelajagi siz yoshlar qo‘lidadir. Aziz vatanimizni sevish, uni ko‘zqorachig‘idek asrash, kerak bo‘lsa jonimizni ham fido qilish har birimizning farzandlik burchimizdir. Bugungi mavzumizda biz milliy va umumiy soni qadriyatlar, o‘zbekona urf-odatlar, go‘zal an’analar haqida to‘xtaldik. Jannatmakon yurtimizning har bir go‘shasida bu ajoyib qadriyatlar tantana qilmoqda. Bu – istiqlol sharofatidandir. Dars so‘nggida guruhlarning to‘plagan lolalari hisoblanib, g‘olib aniqlanadi va rag‘batlantiriladi. O‘qituvchi: “Sumalak” rivoyatini yana bir bor savollar bilan mustahkamlab, darsga yakun yasaydi. Uyga vazifa: Rivoyatni o‘qish, bahor bayramlari haqida gapirib berish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turkiy guliston yoxud axloq. To‘plam. – T.: TDPU, 2020, 15-b.

2. Uza.uz

3. library.ziyonet.uz

O‘tkir TOLIPOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori

UCHINCHI RENESSANS DAVRIDA TA’LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada ta’lim sohasida uchinchi renessansning amalga oshirishiga asos bo‘layotgan islohot yo‘nalishlari, mavjud imkoniyatlar hamda pedagogik oliy ta’lim dargohida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar borasida fikr yuritilgan. Shuningdek, sohadagi uchinchi renessansga poydevor qurishdagi shart-sharoitlar, mezon va tamoyillari aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Uchinchi renessans, yo‘nalish, mavjud imkoniyatlar, ma’naviy-intellektual salohiyat, ongu tafakkur.

В статье рассматриваются направления реформ, лежащих в основе реализации третьего возрождения в сфере образования, существующие возможности и работа, которую необходимо проделать в педагогическом вузе. В нем также изложены условия, критерии и принципы, лежащие в основе третьего возрождения отрасли.

Ключевые слова. Третий ренессанс, направление, доступные возможности, духовный и интеллектуальный потенциал, сознание.

The article discusses the directions of reforms that are the basis for the implementation of the third renaissance in the field of education, the existing opportunities and the work that needs to be done in pedagogical higher education. It also outlines the conditions, criteria, and principles for laying the foundations for a third renaissance in the industry.

Key words. The third renaissance, the direction, the possibilities, the spiritual and intellectual potential, the consciousness.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy hamda ta’lim sohasida keng islohotlar amalga oshirilib, ular favqulodda umidli natijalar bera boshlagani hech kimga sir emas. Davlat boshqaruvida “Davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” tamoyili ishga tushdi, xalq bilan faol muloqot tizimi yaratildi. Inson manfaatlari ustuvorligi ta’minlandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etildi. “Mening fikrim” jamoaviy murojaatlar portali ishga tushirildi. Bularning barchasi jamiyatimizda demokratiya haqiqiy ma’noda tantana qila boshlaganidan darak beradi. Jamiyat ijtimoiy boshqaruv tuzilmasida yuz bergan hayotbaxsh o‘zgarishlar renessansning markaziy figurasi hisoblangan ta’lim tizimini ham chetlab o‘tgani yo‘q. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekistonda davlat boshqaruvi, ishlab chiqarish va ta’lim sohasidagi islohotlar yangi uyg‘onish davri, ya’ni uchinchi renessansga poydevor bo‘layotganini ta’kidlab: “Bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so‘z ketganda “Yangi O‘zbekiston” iborasi tilga olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo‘yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e’tirofidir. Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo‘ladi. Chunki bugungi O‘zbekiston – kechagi O‘zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”[1], deb uqtirdilar. Zero, “Aholi hayot darajasi

[1] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. - http://ngo.uz/

va sifati ko‘p jihatdan mamlakat raqobatdoshligining asosiy ko‘rsatkichiga aylangan bugungi sharoitda taraqqiyotning muhim omili sifatida ta’limning roli ortib bormoqda”.[2] Ta’kidlash joizki, ushbu uyg‘onish davrining ulug‘ bobokalonlarimiz ma’rifatparvar jadidlar Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat, Ubaydulla Xo‘jayev, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin, Usmon Nosir kabilar juda orzu qilishgan, lekin chor Rossiyasi va sho‘ro tuzumining gardlari qo‘ngan ezgu orzular armonligicha qoldi. Bugun mustaqil O‘zbekiston aynan shu orzularning ushalishi sari dastlabki zalvorli qadamlarini qo‘ydi.

Davlat rahbarimizning Uchinchi renessans poydevorini qurishda ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratayotgani, bu sohada katta islohotlar amalga oshirilayotgani barchaga ayon haqiqatdir. Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, birinchi renessans (IX-XII asrlar) davrida yurtimizda Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy Abu Nasr Farobiy, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy, imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Motrudiy, Abul Muin Nasafiy kabi ulug‘ mutafakkirlar, ikkinchi renessans davri (XV asr)da imom Buxoriy, imom Termiziy, Imom Motrudiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abul Muin Nasafiy kabi ulug‘ ulamolar, Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug‘bek, G‘iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi singari benazir olimlar, Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi qudratli qalam sohiblari, Mahmud Muzahhib, Kamoliddin Behzod singari musavvirlar madaniyat va ma’rifat maydoniga chiqqan bo‘lsa, albatta, uchinchi renessans ham o‘z peshqadamlarini yetishtirib beradi. Buning uchun mustahkam poydevor qurilmoqda.

Prezidentimizning “O‘qituvchi va murabbiylar” kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqlari[3]ga asoslangan holda, mamlakatimizda ta’lim sohasidagi uchinchi renessansga poydevor qurishda quyidagi shart-sharoitlar, mezon va tamoyillarga asoslanish zarur deb hisoblaymiz:

Tayanish zarur bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar:

– yangi Renessans poydevorini yaratish uchun bizda barcha imkoniyatlarning mavjudligi (quyida ushbu imkoniyatlarga to‘xtalamiz);

– maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi sifatida rivojlanib borayotgani;

– bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizdan iborat yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustunining mavjudligi hamda ota-onalar bu tashabbusni albatta qo‘llab-quvvatlab, yangi Renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo‘la olishlari.

Nazarda tutiladigan asosiy tamoyillar:

– ta’lim-tarbiyada buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma’naviy merosiga tayanish;

– ta’lim muassasalari, oila va mahalla hamkorligi;

– kam ta’minlangan oila farzandlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash;

– qizlar ta’lim-tarbiyasini moddiy-ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash;

– o‘qituvchilarning ijodiy ishlash;

– o‘qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqini kafolatlash;

[2] Shavkat Mirziyoyev. Bugun ma’rifatga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. - https://www.gazeta.uz/

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. - http://uza.uz/

– ilg‘or o‘qituvchilar pedagogik tajribalarini ommalashtirish (Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z murojaatlarida Qorako‘l tumanidagi Xalqaro matematika maktabi muallimi To‘xtamurod Jumayevning pedagogik faoliyati va o‘qitish usullarini ibrat-namuna sifatida keltirdi);

– ta’limda yuqori samaralarga erishgan maktablar tajribasini ommalashtirish.

“To‘rtinchi renessans” amalga oshgach, erishilgan natijalarni baholashda asos qilib olinadigan baholash mezonlar:

– O‘zbekistonning yuksak sifat va samaradorlik, zamonaviy ma’no-mazmun, ilm-ma’rifat va tarbiya tizimiga ega milliy ta’lim modeli;

– o‘ziga xos milliy-pedagogik o‘qitish tizimi;

– 4 ta tilni mukammal biladigan axloqiy barkamol, vatanparvar, xalqparvar, tashabbuskor va ijodkor yoshlar.

Quyida ta’lim sohasida uchinchi renessansning amalga oshirishiga asos bo‘layotgan islohot yo‘nalishlari, mavjud imkoniyatlar hamda pedagogik oliy ta’lim dargohida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan ishlar borasidagi tavsiyalarga alohida to‘xtalib o‘tamiz:

1. Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, Xalqaro matematika maktabi, ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablar singari zamonaviy o‘quv dargohlari tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Nukus, Xiva, Toshkent va Namangan shaharlarida tashkil etilgan dastlabki Prezident maktablariga asosiy qabul imtihonlari Cambridge Assessment International Education tashkiloti vakillari tomonidan o‘tkazildi. Bu maktabni tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsadni izohlab, O‘zbekiston Xalq ta’limi vaziri Sherzod Shermatov shunday degan edi: “Prezident maktablarini tashkil etish tashabbusi ta’lim tizimiga katta o‘zgarishlar olib keladigan tashabbus bo‘ldi. Mamlakatimizdan qancha-qancha allomalar chiqqan. Shuncha allomalarni yetishtirgan yurtdan yana allomalar chiqishi kerak. Prezident maktablarining asosiy vazifasi ham xuddi shu – eng iqtidorli va bilimga chanqoq bolalarni saralab, ta’lim olishi uchun zarur barcha sharoitlarni yaratish – xorijdan o‘qituvchilar chaqirib, eng zamonaviy metodologiyada ularni tarbiyalashdir”.[4]

2. Kitobxonlik. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusning 4-si – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu sohada ham ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda yoshlarning ma’naviy-intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, Ona-Vatanimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan, el-yurt koriga yaraydigan barkamol avlodni tarbiyalashda kitobxonlik va kitob targ‘ibotini kuchaytirish, axborot-kutubxona faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qator me’yoriy hujjatlar qabul qilindi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarorida keng jamoatchilik, xususan, ta’lim institutlari oldiga “Kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir targ‘ibot ishlarini tizimli va samarali tashkil etish, bu borada kitobxonlar, kutubxonachi va targ‘ibotchilar o‘rtasida “Eng kitobxon maktab”, “Eng kitobxon mahalla”, “Eng kitobxon oila”, “Eng faol kutubxonachi” kabi ko‘rik-tanlovlarning saralash va respublika bosqichlarini yuqori

[4] https://kun.uz/news/list

saviyada o‘tkazishni yo‘lga qo‘yish[5]” vazifasi yuklatildi. O‘zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qarori[6] e’lon qilindi. Ushbu qarorda belgilangan vazifalarga ko‘ra, dasturni muvaffaqiyatli amalga oshirish va kitobxonlikni rivojlantirish infratuzilmasining doimiy ishlashi uchun tashkiliy shart-sharoitlar yaratilmoqda. Xususan, O‘zbekistonda kitobxonlik rivojlanishining hozirgi holati va keyingi bosqichlarining maqsadli hamda ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi. O‘zbekiston televideniyesi orqali namoyish etilgan “Yosh kitobxon” Respublika ko‘rik tanlovi o‘zining keng qamrovliligi, turli yosh guruhiga mansub bolalar va yoshlar o‘rtasida amalga oshirilgani, ishtirokchilarning yuksak bilim darajasi butun o‘zbek xalqining e’tiborini o‘ziga jalb etdi. Xalqda kitobxonlikka havas ortdi. Bilimdon va kitobxon farzandlar tarbiyalashga intilish kuchaydi.

Afsuski, pedagogika sohasida yosh avlodda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan tadqiqot ishlari yetarlicha amalga oshirilmagan. Bu borada o‘qituvchilarimiz pedagog olimlarning ilmiy tadqiqotlariga, metodik tavsiyalariga, metodistlar tomonidan ishlab chiqilishi zarur bo‘lgan ilmiy-metodik qo‘llanmalarga katta ehtiyoj sezayotganlari muqarrar. Vaholanki, bolalarni kichikligidan matn bilan ishlashga o‘rgatish, bu jarayonda unda kitobga muhabbatni tarbiyalash har birimizning eng muhim vazifamiz hisoblanadi.[7]

3. Umumiy o‘rta ta’limdagi o‘zgarishlar. Kuni kecha Prezidentimiz maktabda o‘qitish metodlarini yangilash taklifi bilan chiqdilar hamda Finlandiya ta’limini namuna sifatida ko‘rsatdilar. Finlandiya ta’limining jozibadorligi nimada? Finlandiyada darsni yuqori ko‘rsatkichlar bilan o‘zlashtirgan o‘quvchi bilan past ko‘rsatkich bilan o‘zlashtirgan o‘quvchining bilim sifati o‘rtasidagi farq juda kichik bo‘lib, buning asosiy sababi ta’limning o‘quvchi shaxsiga qaratilganligidadir. Maktablarda ijobiy ajratish metodi asosida dars beriladi. O‘zlashtirishi sust bo‘lgan, alohida e’tibor talab qiladigan yoki fin tilini bilmaydigan bolalarga alohida mablag‘ ajratib yordam ko‘rsatiladi.

E’tiborli jihati, Finlandiyada o‘qituvchi nufuzini saqlash va oliy pedagogik ta’lim jarayonida o‘qituvchilarni talab darajasida tayyorlashga katta e’tibor bilan yondashiladi. Bunda pedagoglarning faqatgina ilmiy darajada tayyorligi yetarli bo‘lmay, pedagogik ta’limda ham nazariy tayyorgarlik, ham amaliy bilimlar, ham pedagogik amaliyot davomida qo‘lga kiritiladigan qobiliyatlar birlashadi. Amaliyot bo‘lg‘usi pedagogning tajribali pedagog boshqaruvida sinf bilan ishlaydigan universitet maktablari yoki munitsipalitet maktablarida o‘tib boradi. Universitet maktablarida o‘quv fanlarini o‘qitish uslubiyatini ham o‘rgatishadi. Finlandiyada o‘qituvchilik kasbi ayniqsa, o‘z davrining iqtidorli odamlarini jalb qiladi. Pedagogik ma’lumot oliy ma’lumot talab qilinadigan boshqa faoliyat yo‘nalishlariga ham eshiklarni ochib beradi. Ta’lim dasturi shunday ishlab chiqilganki, u faqat pedagogik talablar bilangina chegaralanib qolmaydi. O‘qituvchi diplomini olganlar o‘z pedagogik bilimlarini har qanday insoniy faoliyat turida ham qo‘llashlari mumkin”.[8]

Oliy pedagogik ta’limdagi o‘zgarishlar tarkibida “yo‘l xaritasi” qabul qilingani, talabalar

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida. 2017-yil 13-sentabr. PQ-3271-son. / Xalq so‘zi gazetasi, 2017-yil 14-sentabr, 184 (6878).

[6] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori. 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi to‘g‘risida. - VQL-3666/20.

[7] R.X.Djurayev. Uzluksiz pedagogik jarayonda o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish imkoniyatlari./ “Uzluksiz ta’lim jarayoni subyektlarining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish: muammolar va yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2020-yil 20-21-oktabr, 160-b.

[8] Finlandiyaning 100ta ijtimoiy innovatsiyasi. Finlandiya qanday qilib Finlandiya bo‘ldi: siyosiy, ijtimoiy va maishiy innovatsiyalar. – T.: Sharq, 2019. – 336-bet.

bilimini baholashning zamonaviy, shaffof va adolatli (avtomatlashtirilgan, portfolio, test sinovlari, ijodiy ish, antiplagiat va h.k.) usullari joriy etilgani, oliy ta’limga kirish testlarini o‘tkazishda shaffoflik ta’minlangani hamda abituriyentga yondosh ixtisoslik yo‘nalishida erkin tanlov imkoniyatining taqdim etilgani bo‘ldi. Jahon tajribasida sinovdan o‘tgan bunday usul va vositalarning O‘zbekiston oliy pedagogik ta’limi tizimiga kirib kelishi pedagogik kadrlar tanlash, tor ixtisoslikka samarali yo‘naltirish, eng muhimi, yoshlarning bilim olishiga keng sharoit yaratib berishda katta ahamiyat kasb etadi.

Islohotlar mazmuni va yo‘nalishlarini hisobga olgan holda, pedagogika oliy o‘quv yurtlari quyidagi jabhalarda shoshilinch chora-tadbirlarni amalga oshirishlari zarur.

– Mirzo Ulug‘bek va Muhammad Xorazmiy nomidagi iqtidorli bolalar maktablari, ijod maktablari, “Temurbeklar maktabi”, Prezident maktablari, xususiy maktablardagi o‘qitish usullarini o‘rganib, ular bilan oliy pedagogik ta’limda qo‘llanilayotgan innovatsion ta’lim metodlarini imkon qadar uyg‘unlashtirish, salohiyatli o‘quvchi oliy ta’limda oldin bilim olgan ta’lim dargohidagi iliqlikni his etishiga imkoniyat yaratish, ya’ni unda oliy pedagogik ta’limga adaptatsiyaning ijobiy kechishiga erishish lozim;

– pedagogika universiteti o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilarini yoshlarda kitobxonlikni tarbiyalash borasidagi ilmiy tadqiqot ishlariga keng jalb etish zarur;

– pedagoglar tayyorlash tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar, xususan, Finlandiyada pedagoglar tayyorlash sohasida qo‘llanilayotgan ta’lim metodlari va usullarini ijodiy tatbiq etish asosida takomillashtirishga qaratilgan nazariy-amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va pedagogik amaliyotga joriy qilish lozim.

Shubhasiz, yuqorida qayd etilgan yangilanishlar va unga muvofiq ravishda biz qayd etgan vazifalar ta’lim sohasidagi islohotlarning muhim bir qismiga tegishli, xolos. Nazar-e’tiborimizda turishi zarur bo‘lgan muhim masala shundaki, ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar boshqa sohalardagi islohotlar samarasini belgilab beradi. Chunki mutaxassis tayyorlash orqali O‘zbekiston kelajagini ta’min etish aynan ta’lim sohasiga yuklatiladi. Aynan shu sohadagi islohotlar samarasi, davlat rahbarimiz tomonidan ta’kidlanganidek, O‘zbekistondagi yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davrining poydevoriga mustahkam zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – http://ngo.uz/

2. Mirziyoyev Sh. Bugun ma’rifatga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. – https://www.gazeta.uz/

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – http://uza.uz/

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida. 2017-yil 13-sentabr. PQ-3271-son. / “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 14-sentabr, № 184.

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2020-2025-yillarga mo‘ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi to‘g‘risida. – VQL-3666/20.

Bahodirjon SHERMUHAMMADOV,
pedagogika fanlari doktori

YOSHLARDA SOG‘LOM E’TIQODNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY TAMOYIL VA SHARTLARI

Annotatsiya

Maqola yoshlarda sog‘lom e’tiqodni shakllantirishning asosiy tamoyillari va shartlariga doir asosiy vazifalar, uning mazmuni vamohiyatini qamrab oladi. Muallif ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish, yoshlarga sog‘lom e’tiqodni singdirish, bu jarayonda pedagogik faoliyatni tashkil etish bo‘yicha o‘z taklif va mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. E’tiqod, qarash, fidoyilik, daxldorlik, mas’uliyat, idrok etish, ilm, bilim, hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik.

В данной статье рассматривается основные принципы, смысл и условия формирования здорового убеждения молодежи. Автор даёт идеи и предложения по организации духовно-просветительской работы, воспитанию здорового образа жизни и педегогической деятельности.

Ключевые слова. Убеждение, мировоззрение, патриотизм, прикосновенность, ответственность, сознательность, знание, жизненная позиция, социальная активность.

The main principals, notion and terms of forming the healthy idea of the youth are given in this article. The author gives some ideas and suggestions on organization spiritual works, bringing up healthy lifestyle and pedagogical activity.

Key words. Assure, outlook, patriotic, responsibility, knowledge, life position, social activity.

Yoshlarni ma’naviyatini yuksaltirishdan ko‘zlangan asosiy maqsadularni o‘z yurti va millati taqdiriga jonkuyar bo‘lishi, mamlakat yutuqlaridan faxrlanishi, jamiyat hayotidagi muammolarga befarq bo‘lmaslik kabi fazilatlarni shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lib, bugungi jamiyatimizning yangilanayotgan davrida eng dolzarb pedagogik vazifa sifatida saqlanib turibdi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yoshlar forumida so‘zlagan nutqida o‘zbek xalqi va jamoatchilikka murojaat etib, “... men hurmatli ota-onalar, bobolarimiz va momolarimizni, jonkuyar ustoz va murabbiylarni, muhtaram ziyolilarimiz, keng jamoatchiligimizni bu masalaga befarq bo‘lmasdan, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishga da’vat etaman”, deb ta’kidladi. Darhaqiqat bugun yoshlarni tarbiyasiga barchamiz mas’ul bo‘lishimiz zarur. Chunki sog‘lom e’tiqodli inson xalqning ma’naviy-ruhiy kuchi, qudrati, g‘urur va iftixoridir. U millatning ezgu orzu-intilishlari, ulug‘vor manfaatlarini o‘z xulq-atvorida mujassamlashtirgan va shu yo‘lda xalq, jamiyat, mamlakat manfaatlarini ko‘zlagan holda bor bilim, ilm va tajribasini buyuk ishlarga safarbar eta oladigan fidoyi insondir.

Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan bosh g‘oyani o‘rtaga tashladi. Shu sababli fidoyi va vatanparvar yoshlarni tarbiyalashda avvalo, ularda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishga e’tibor berishimiz zarur. Sog‘lom e’tiqodli kishi mohiyatan millatning tarixini chuqur biladigan, bugungi kuni va kelajak

taraqqiyot yo‘lini anglab olgan, Vatanni rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘sha oladigan, jamiyat a’zolarining ijtimoiy, moddiy, ma’naviy holatini yaxshilashga, undagi qarashlar, etnik xususiyatlarga bag‘rikeng munosabatda bo‘la oladigan, yurt ravnaqi yo‘lida yagona maqsadni ifoda eta oladigan ijtimoiy faol jamiyat a’zosidir.

Ta’kidlash joizki, sog‘lom e’tiqodli insonlarni tarbiyalash murakkab tarbiyaviy jarayon bo‘lib u turli ma’naviy-moddiy shart-sharoitlar tizimi bilan bog‘liqdir. Bu jarayonda inson hayotini qamrab oluvchi ijtimoiy jarayonlar, mikromuhit, makromuhit, internet tarmog‘i, ommaviy axborot vositalari, ta’lim-tarbiya tizimida yo‘lga qo‘yilgan qoidalar katta ahamiyat kasb etadi.

Inson o‘z xatti-harakatini amalga oshirishdan avval mazkur faoliyatni amalga oshirishning rejasini tuzib chiqadi. Mazkur xatti-harakat keltirib chiqaradigan natija va oqibatlarni xolis fikrlash orqali ro‘y berishi mumkin bo‘lgan oqibatlarning umumiy tizimini shakllantiradi. Yoshlar ijtimoiy jarayonlardan olgan ma’lumotlarni o‘z hayoti va faoliyati bilan qiyoslashi kerakki, unda jamiyat a’zosi sifatida o‘z tevarak-atrofidagi hodisalar va jarayonlarni hamisha chuqur his-tuyg‘u bilan qabul qilishi kerak. Insonning his-tuyg‘ulari kechinmalar orqali o‘tganidagina uning qarashlari e’tiqodga aylana boshlaydi.

E’tiqod insonning fikr va qarashlaridagina emas, balki uning emotsional holatida, his-tuyg‘ulari va kechinmalarida ham aks etadi. His-tuyg‘ular qarashlar va e’tiqodlarga singib ketib, vatanparvarlikning tizimli unsurlaridan biri sifatida tarkib topadi. Sog‘lom e’tiqodni shakllantirish – maktab hayotidagi ma’naviy-tarbiyaviy tamoyillarga asoslanadi. Undan ko‘zlangan asosiy maqsad ma’naviy illatlarga umuman olganda, g‘oyaviy tahdidlarga nisbatan murosasizlikni tarbiyalashdan iboratdir.

Umumta’lim maktablarida sog‘lom e’tiqodni shakllantirish jarayonida ijobiy ta’sir etishning shunday usul va vositalaridan foydalanish zarurki, ular yoshlarning hissiy dunyosini boyitishi, tasavvuri va emotsional ta’sirchanligini rivojlantirishi,voqea va hodislarga xolisona munosabat bildira olishi qobiliyatini tarkib toptirishi kerak. Xolis fikrni bildirish yoshlarda xilma-xil munosabatlar, faoliyat va harakatlar asosida shakllanadi. Fe’l-atvor, harakatlar, munosabatlar, umuman faoliyatning butun bir murakkab jarayoni insonda sog‘lom e’tiqodni shakllantirshga asosiy irodaviy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlarda atrofdagi turli voqea va hodisalarga nisbatan sog‘lom e’tiqod nuqtayi nazaridan qarashni shakllantirishda barcha narsani ilmiy asosda o‘rganish, egallash va amalda qo‘llay olishni talab etadi. Shu bilan birga sog‘lom tafakkurni shakllantirish prinsipial darajada o‘ta muhimdir. Yoshlarga sog‘lom e’tiqodni singdirishga qaratilgan jarayonda sohaga doir bilimlarni boyitib borish e’tiqodning mutassil rivojlanishi va dinamik jihatdan o‘sishib borishini ta’minlaydi.

Sog‘lom e’tiqodni shakllantirishda quyidagi tamoyillarga asoslangan holda faoliyatni tashkil etish maqsadga muvofiq:

– hayot qonunlari va kishining jamiyatda tutgan o‘rni haqidagi to‘liq tasavvurlarni tushunib yetish;

– shaxsning shakllanish jarayoni va jamiyat hayoti, uning rivojlanishidagi o‘rni va rolini tushuntirish;

– yaxshi inson, halol va rostgo‘y do‘st bo‘lishga intilish;

– ish va o‘qish joyida jamoat tartib qoidalariga rioya etishga intilish;

– hayotning doimiy raqobatdan iborat ekanligi, buning uchun kishi o‘z ustida doimo ishlashi va o‘zini rivojlantirib borishga o‘rgatish;

– ijtimoiy-siyosiy qarama-qarshiliklarning tabiatini (ro‘y berayotgan hodisa va voqealar mohiyatini) anglashga o‘rgatish;

– tarixiy jarayonlardagi xalqimizning hayoti, erishgan yutuqlari va boy tajribasi to‘g‘risidagi tasavvurlarni hosil qilish;

– jamiyatimiz hayotida shakllangan milliy g‘oyaning tarixiy asoslarini chuqur o‘rganish, milliy qarashlarimizning asosiy tamoyillarini anglash;

– davlat tomonidan milliy ma’naviyatimizni rivojlantirishga qaratilgan harakatlarni qo‘llab-quvvatlash;

– yangi jamiyat barpo etish jarayonida shaxs omilining o‘rni, vatanparvarlik, daxldorlik fazilatlarini tarkib toptirish.

Sog‘lom e’tiqodni shakillantirishda ayrim pedagogik-psixologik shartlarni bajarish muhim hisoblanadi.

– umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan har bir o‘quv fanining ahamiyatini oshirish orqali fanlararo aloqalarni mustahkamlash, o‘quv mavzularini chuqur va mustahkam o‘zlashtirish negizida murabbiylar tomonidan o‘qishdan tashqari va mustat qilish jarayonlarida inson ma’naviyatini shakllantirishga qaratilgan g‘oyalarni singdirib borish;

– sog‘lom e’tiqodni shakllantirshga qaratilgan g‘oyalarni o‘qitilayotgan fanning mazmuniga singdirish, uni pedagogik jihatdan asoslash, yoshlarning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini inobatga olish hamda o‘quvchilarning dunyoqarashlariga mosligini ta’minlash;

– sog‘lom e’tiqodni shakllantirishga doir ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi faktlar, hodisalar, voqealarni tahlil qilishi, hayotiy haqiqatlarni yoshlarning shaxsiy tajribasi bilan bog‘lashi, ularning idrok etish imkoniyatlarini hisobga olgan holda jarayonga xolis baho berishga o‘rgatmog‘i lozim;

– mavzular bo‘yicha o‘tilayotgan materiallarning mazmuniga sog‘lom e’tiqodni shakllantirishga doir tamoyillar singdiriladi hamda ular har bir ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar rejasida, o‘quvchilarning mustaqil ishi uchun berilgan topshiriqlarda aks ettirilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa tariqasida aytish zarurki, sog‘lom e’tiqodni shakllantirish yoshlarda jamiyat hayotida ro‘y berayotgan voqea va hodislarga mustaqil munosabat bildirish, atrofidagi voqealarni idrok etish, o‘z shaxsiy mushohadasi doirasida qaror qabul qilish, mas’uliyatni his qilish, faol hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lish kabi fazilatlarni shakllantiradi. Albatta, sog‘lom e’tiqodni shakllantirishga qaratilgan tarbiya jarayonida boy tajriba va qat’iy shaxsiy qarashlarga ega bo‘lgan, psixologik va metodik jihatdan puxta tayyorlangan pedagog va murabbiylarning yordami katta bo‘ladi. Bunda murabbiyning oddiy, samimiy, qalbdan aytilgan so‘zlari, uning sog‘lom etiqodi va ma’naviy tarbiyaviy yo‘lda namuna ko‘rsata olishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi”. Xalq so‘zi. 2020-yil 30-dekabr, 276-son.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston yoshlar forumida so‘zlagan nutqi”. 2020-yil 26-dekabr, 273-son.

3. Otamurodov S. Globallashuv va milliy-ma’naviy xavfsizlik –T., O‘zbekiston, 2015. 456-b.

4. Yahyo, Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. –T., Movarounnahr, 2016. -672-b.

Shoira SHODMONOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Ijtimoiy pedagogika” kafedrasi professori
Haqnazar HAMZAYEV,
Jizzaz davlat pedagogika instituti dotsenti

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY FAOLLIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MOTIVLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish motivlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ijtimoiy faollikni motivlashtirish omillari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ijtimoiy faollik ko‘nikmalari, shakllantirish motivlari, faollikni motivlashtirish, rivojlantirish.

В статье рассматривается мотивация будущих учителей начальных классов к развитию у учащихся навыков социальной активности. Выявлены также факторы, мотивирующие социальную активность.

Ключевые слова. Навыки социальной активации, мотивационная мотивация, мотивация, развитие.

The article examines the motivation of future primary school teachers to develop students’ skills of social activity. The factors motivating social activity were also revealed.

Key words. Social activation skills, motivational motivation, motivation, development.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan dastlabki kunlaridan boshlab ta’lim tizimi bo‘yicha aniq maqsadga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, mazkur jarayon ishtirokchilarining moddiy va ma’naviy turmush sharoitini yaxshilash, ta’limga turli yangi innovatsion texnologiyalarni olib kirish va bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ma’lumki, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining yangi bosqichida oddiydan-murakkabga, eskilikdan-yangilikka qarab harakat qiluvchi, yangicha fikrlaydigan, ijodiy tafakkur va qobiliyatga ega bo‘lgan ijtimoiy faol yosh mutaxassislarni tarbiyalashga alohida yondashilmoqda. Aytish joizki, yaratilayotgan bunday imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda oliy o‘quv yurtlarida ta’lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish, ilg‘or ta’lim-tarbiya metodlarini va vositalarini tanlash hamda innovatsiyalarni ta’lim jarayoniga to‘la tatbiq etish zamon talablariga mos ijtimoiy faol, yuksak malakaga ega mutaxassislar tayyorlashga to‘g‘ri motiv bo‘la oladi. Innovatsion jarayonning ushbu kasbiy xususiyatlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan faoliyat mazmuniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ta’limning zamonaviy sharoitdagi rivojlanishi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilaridan innovatsion xulqni, ya’ni pedagogik faoliyatda faol va tizimli ijod qilishni talab etadi. Innovat-

sion xulq moslashuvchanlik emas, balki individuallikni, o‘z-o‘zini faollashtirishni maksimal darajada rivojlantirishdir. Kimdir o‘zining qadriyatlari va ideallarining bir qismidan voz kechgan, o‘zining axloqiy va intellektual yaxlitligini buzgan, baxtsizga aylangan, erkini yo‘qotgan paytda o‘qituvchi fikran uning ongiga kira olishi kerak. Ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion faoliyatni tashkil etishni ham motivatsiyasiz tasavvur etish qiyin. Albatta, mazkur jarayonni tadqiq qilishda ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega motivatsion yondashuv samarali hisoblanadi. Motivatsion yondashuvning nazariy ahamiyati shunda ko‘rinadiki, o‘quvchini o‘qishga jalb qilishning, samarali ta’lim berishning psixologik mexanizmlarini, o‘ziga xosliklarini zamonaviy talablar darajasida va yangicha yondashuvlar vositasida o‘rganish bo‘lsa, amaliy ahamiyati – nazariy bilimlarga asoslangan holda o‘quvchilarda ijobiy motivlarni shakllantirish va rivojlantirishga daxldordir. Demak, motivatsion yondashuv o‘quvchilarning ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini o‘stirishda o‘ziga xos omil bo‘lib xizmat qiladi. Bunday vazifalar o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi, balki bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘quvchilarning qiziqishlari, ehtiyojlari va imkoniyatlarini o‘rganishi, o‘quv faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirish orqali ularda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini oshirishi muhim sanalib, bunda motivlashtirish o‘ziga xos ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, mazkur jarayonni motivlashtirish bo‘lajak o‘qituvchilarning ijtimoiy faolligi darajasi bilan belgilanadi. Shunday ekan, motivdeganda nimani tushunish mumkin? Ijtimoiy faollikni shakllantirishda qaysi motivlar muhim ahamiyat kasb etadi? O‘quvchilarda motivlar oldindan shakllangan bo‘lishi mumkinmi? Motivlarning qanday turlari mavjud? Psixolog olim Y.P.Ilinning fikriga ko‘ra, motiv – odamni muayyan xatti-harakatlarga undaydigan bosh sabab. Odamni faoliyatiga undovchi asosiy sabab uning ehtiyojlaridir. Binobarin, ehtiyojlarning turiga qarab motivlar ham har xil bo‘ladi. Ba’zi hollarda motiv alohida harakatlarga undab, bu harakatning maqsadi bilan bevosita mos keladi. Ko‘pincha, murakkab faoliyatda motiv harakat maqsadiga mos kelmay, bir maqsadni amalga oshirish uchun bir qancha harakatlarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun faoliyat predmeti motiv harakatining o‘zidir. Haqiqatda, motivlar faollashgan, maqsadga qaratilgan, faqat xayolda amalga oshuvchi yoki idrok qilingan bo‘lishi mumkin.

Bilimdon talabalar uchun ichki motivlar ahamiyatli bo‘lib, ularda o‘z kasbini yuksak darajada egallash ehtiyojlari borligi, mustahkam kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalar olishga intilishlari mavjudligi o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bilimi sayoz talabalarning motivlari vaziyatga bog‘liq tashqi motivlar bo‘lib, ular yomon o‘qiganligi uchun jazodan qo‘rqish, stipendiyadan mahrum bo‘lish omillari va boshqa omillar bo‘lishi mumkin. Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirish uchun motivlarining turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari, ularda mavjud bo‘lgan ehtiyojlarni, tushunchalar va tasavvurlar, dunyoqarash va qiziqishlarni, shaxsga yo‘naltirilgan ta’sirning o‘ziga xos xususiyatlarini, xatti-harakatlari, intilishlari kreativ va tizimli yondashuvlarning hamda innovatsion faoliyatning zaruriyatini motivlashtirish jarayoni samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar sifatida inobatga olinishi zarur sanaladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirishda motivlashtirish jarayoniga ta’sir etuvchi quyidagi ko‘rsatkichlar alohida ahamiyatga ega: bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmasini shakllantirishga oid asosiy tushunchalar va ularning qiziqishi, ehtiyoji, dunyoqarashi, tafakkuri, tasavvuri

va imkoniyatlaridan foydalanishning zaruriyatini belgilovchi xususiyatlar; ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirishda ko‘zlangan maqsadlarni muvaffaqiyatli hal etish natijalariga mos keluvchi motivlar, omillar va vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari; bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishda zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi kreativ jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari;

– bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonlarini tashkil etishda ijodiy yondashuv, tizimli yondashuv, innovatsion yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan faoliyatli yondashuv, akmeologik yondashuvlardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari;

– bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish tizimini takomillashtirishda axborotlarning ishonchliligi va yangiligiga asoslanishning o‘ziga xosligi.

Aslida tarbiya ijtimoiy hodisa, ijtimoiy voqelik bo‘lib, shaxsni mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik ruhida ma’naviy-axloqiy jihatdan o‘z-o‘zini tarbiyalashi negizida ijtimoiy-kasbiy munosabatlarga tayyorlab borish jarayonida motivatsiya muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy faollik va uning turlari rang-barang ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradigan mehnatsevarlik, g‘oyaviy-siyosiy, ma’naviy, aqliy-bilish, estetik fazilatlarining namoyon bo‘lishidir. Y.P.Sokolnikov ular ichidan quyidagi fazilatlar va komponentlarni ajratib ko‘rsatadi:

Ijtimoiy fazilatlar: a) dunyoqarash (tabiatga, jamiyatga, tafakkurga, ideallarga, e’tiqodlarga doir umumiy qarashlar); b)yuqori ma’lumotlilik (o‘qimishlilik) (umumiy va kasbiy tayyorgarlik darajasi) va madaniyat (mehnat, muloqot, yurish-turish, umumiy eruditsiya); v) intizomlilik va uyushqoqlilik.

Psixologik fazilatlar: a) rivojlangan intellekt (tushunchalarni tahlil qilish, hodisalar mohiyatini ochish malakasi), qobiliyat (umumiy va maxsus), tuyg‘ular (axloqiy, estetik tuyg‘ular dinamikasi, yuqori kayfiyat); b) faollikni rag‘batlantiruvchi irodaviy aktlar: maqsad, harakat motivi, vosita tanlash, qaror qabul qilish; v) ijtimoiy manfaatlar qondirilishiga yo‘naltirilgan intellektual ehtiyojlar, qiziqishlar, qoidalar; g) kommunikativ malakalar.

Jismoniy fazilatlar: a) mustahkam sog‘liq; b) yuqori ish qobiliyati (ishchanlik).

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘quvchilarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida ijtimoiy faollikning har xil turlari orqali komponentlarning umumiy guruhlariga ajratish mumkin. Mazkur guruhlar orqali ijtimoiy faollikning o‘ziga xos xususiyatlari asoslaniladi.

O‘z navbatida komponentlar quyidagi turlarga ajraladi:

Ijtimoiy faollikning ma’naviy yo‘nalganligini xarakterlovchi komponentlar. Ular faollikning maqsad va motivlarini ifodalaydi, shaxsning uning oldiga obyektiv qo‘yiladigan vazifalarga munosabatni izohlab, hayot faoliyatining shakli bo‘lgan ijtimoiy faollik strukturasida yetakchi va belgilovchi yetakchi hamda shaxs fazilati sifatida o‘rin egallaydi. Ushbu komponentlarni ikkita kichik guruhga ajratish mumkin:

Ma’naviy bilimlar. Ma’lumki, inson bilimlari uning ongida voqelikning tasavvurlar, tushunchalar, mulohazalar, nazariyalar shaklida adekvat aks etishidir. Inson bilimlari, uning tafakkuri kabi shaxs ongi faoliyatining shakli hisoblanadi. Ular shaxs ma’naviy qiyofasining o‘ziga xos yadrosini tashkil qiladigan dunyoqarash asosida yotadi.

Ijtimoiy faollikning har xil turlari insondan turli bilimlarni talab qiladi, lekin ulardan

har biri strukturasining zarur komponenti ma'naviy bilimlar hisoblanadi. Ular insonning jamiyatning ijtimoiy munosabatlarini va rivojlanish istiqbollarini aks ettiradigan siyosiy va ma'naviy ideallar, prinsiplar, me'yorlar va talablarni bilishidan iborat. Bu bilimlar, shaxs "ichki pozitsiyasi"ning, dunyoga munosabatining zarur komponenti bo'lib, ko'pincha bu munosabatlarni belgilaydi;

Ijtimoiy faollik motivlari. Ular subyekt faolligini uyg'otuvchi har xil hodisalar va holatlardir. Shaxsning real hayot bilan o'zaro munosabati jarayonida vujudga kelib va bevosita faoliyatga undab, uning ehtiyojlari sistemasini o'zining ilk asosi qilib oladi. Faollikning u yoki bu motivlarining paydo bo'lishida shaxsning ma'naviy bilimlari, tuyg'ulari, tafakkuri, dunyoqarashi va qobiliyatlari hamda individ faollik ko'rsatadigan o'zaro munosabat holatlari muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy faollikning predmetini xarakterlaydigan komponentlar. Komponentlarning bu guruhi shaxsning ijtimoiy voqelikning u yoki bu predmetlari va hodisalari haqidagi amaliy bilimlar va ularga mos malakalar hamda ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Shaxs tomonidan ma'naviy va predmetli amaliy faoliyat turlarida ko'rsatiladigan ijtimoiy faollik ularga mos har xil bilimlar, malakalar va ko'nikmalar bo'lishini ham ko'zda tutadi. Shaxs tomonidan siyosiy, mehnat yoki estetik faollikni namoyon qilish undan bir xil bilim, malaka va ko'nikmalar talab qilmaydi. Shu bilan birga, tahlillarning ko'rsatishicha, ijtimoiy faollikning barcha turlarida zarur bo'lgan amaliy bilimlar, malakalar va ko'nikmalarni ajratish mumkin. Ularni shakllantirish ham ijtimoiy faollikning zarur sharti va tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Ijtimoiy faollikning o'ziga xos xususiyatini ifodalash darajasini xarakterlaydigan komponentlar. Ko'rib chiqilayotgan integral fazilat komponentlarining bu guruhiga quyidagilar kiradi: shaxsning u ko'rsatayotgan faoliyatdagi tashabbuskorligi, mustaqillik, qat'iylik, uzoq harakat qilish, qiyinchiliklarni yengishda sobitlik. Bu fazilatlarning namoyon bo'lishi shaxsga faoliyatni shaxsiy namuna darajasida amalga oshirishga imkon beradi. Ijtimoiy faollik komponentlari guruhining shakllanganlik darajasi uning ifodalanganlik darajasini belgilaydi. U shaxs faoliyatining sur'atlarida, uning ma'naviy va jismoniy kuchlarining safarbarligida, o'zi uchun, jamiyat uchun obyektiv ahamiyatli masalalarni tanlash va hal qilishga ijodiy yondashuvda namoyon bo'ladi. Ijtimoiy faollik komponentlarining ta'kidlangan guruhlari mazmunan o'zaro bog'liq. Bu guruhlardan qaysidir birining sust rivojlanishi boshqalarining faoliyatiga ta'sir qiladi va shubhasiz, albatta, uning namoyon bo'lish darajasini pasaytiradi. Ularning ichida yetakchisi ijtimoiy faollikning ichki fazilati, ya'ni ma'naviy-axloqiy yo'naltirilganligini belgilaydigan motivatsiyadir. Biroq uning rivojlanish darajasi nafaqat shu asosda yotadigan motivlar tizimi bilan, balki shaxsning axloqiy ongi, ma'naviy bilimlari, tafakkuri rivojlanishi bilan ham belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni. QHMMB: 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.

2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, NMIU, 2017. – 488-b.

3. O'zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 2017-yil 19-sentyabrdagi 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. – AQSh, 2017.

Abduqahhor ZAPAROV,
Andijon davlat universiteti professori v.v.b.

OLIY O‘QUV YURTLARI TALABALARIDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqolada kreativlikni shaxsiy fazilat sifatida aniqlashga turli yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Kreativ-qadriyatli ta’lim texnologiyalarini oliy kasbiy ta’lim tizimida amalga oshirish zaruriyati ta’kidlangan, oliy o‘quv yurtlari talabalari kreativligini rivojlantirishning asosiy usul va texnikalari aniqlab berilgan.

Kalit so‘zlar. Kreativlik, kreativlik sifatlari, kreativ fikrlash, shaxs kreativligi, kreativlik zehni.

В данной статье рассматриваются различные подходы к определению креативности как личностного качества. Подчеркивается необходимость реализации креативно-ценностных образовательных технологий в системе высшего образования, определены основные способы развития и техника креативности студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова. Креативность, креативные качества, креативное мышление, креативность личности, креативний ум.

This article discusses various approaches to the definition of creativity as a personal quality. The necessity of implementation of creative-value educational technologies in the system of higher education is emphasized, the main methods of development and technique of creativity of students of higher educational institutions are determined.

Key words. Creativity, creative qualities, creative thinking, personality creativity, creative mind.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan ilgari surilgan 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida uzluksiz ta’lim darajasini oshirish ham nazarda tutilgan.

Jamiyatdagi zamonaviy o‘zgarishlar ta’lim jarayonini doimiy takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ta’lim muassasasining vazifasi yuqori texnologiyalar va yangi muammolar dunyosida hayotga har tomonlama tayyor shaxsni shakllantirishdir.

Bugungi kunda ijodkorlikdan faol foydalanadigan, jamiyat va texnologiyalardagi barcha o‘zgarishlarga tezkorlik bilan javob bera oladigan o‘qituvchilarga talab yuqori. Oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchisi talabaning potensialini ishga solishi kerak, bu har bir talabaning yutuqlarini sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqishga, uning individual ijodiy qobiliyatlarini ochib berishga yordam beradi. Talabani ijodiy kreativ fikrlashga o‘rgatish uchun o‘qituvchi o‘zi mahoratga ega bo‘lishi kerak. Shunda u talabaning aqliy faoliyatini boshqarishi, undagi ijodiy faollikni rag‘batlantirishi mumkin bo‘ladi.

Mavjud o‘quv dasturlari va bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga yondashuvlarni tubdan o‘zgartish zarur, shunda o‘qituvchilar o‘zlari ham kreativ fikrlashni o‘rganadilar. Shuning uchun tayyorgarlik jarayonida asosiy e’tiborni nafaqat o‘quv materialini taqdim etishga, balki talaba, bo‘lajak o‘qituvchi kreativlikni rivojlantiradigan sharoitlarni shakllantirishga qaratish kerak. Ta’lim tizimida subyekt-subyekt munosabatlari birinchi

o‘ringa chiqishi kerak. Mavjud pedagogik texnologiyalarni jiddiy islohot qilmasdan, rivojlantirmasdan bu masalalarni hal etib bo‘lmaydi.

Kreativlikni samarali rivojlantirishga qaratilgan ta’lim texnologiyalari fikrlash jarayonlarini rag‘batlantiradi, ma’lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatini shakllantiradi va o‘z xulosalarini chiqaradi. Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishni quyidagi pedagogik metodlar va texnologiyalar yordamida amalga oshirish mumkin: IMHQN (ixtirochilik masalalarini hal qilish nazariyasi), ijodiy topshiriqlar, modellashtirish, sinektika, algoritmizatsiya, aqliy hujum, evristika, KTD, analogik va alternativalar usuli, tasviriy va konseptual fikrlashni rivojlantirish, taxmin qilish, fikrlash xaritasi (aqliy xaritalar, mental xaritalar). Ularning ajralmas xususiyatlari orasida quyidagilar mavjud: ijodkorning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash va amalga oshirish; ijtimoiy taraqqiyotning zamonaviy tendensiyalariga mos ravishda shakllangan tizimli harakatlar to‘plami.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi”.

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P. Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi.

Ta’limdagi hozirgi sharoit texnika oliy o‘quv yurtlarida bakalavrlarni tayyorlash jarayoniga o‘zining yangi talablarini qo‘yishi bilan tavsiflanadi. Bu talablar olingan maxsus bilimlarning o‘zi, bitiruvchini raqobatbardosh kadr sifatida shakllanishi uchun yetarli bo‘lmasligini ko‘rsatmoqda. Shaxsning individualligini yorqin ko‘rsatib bera oladigan va ijodiy qobiliyatlarini namoyon qila oladigan salohiyatlarini rivojlantirish talab etilmoqda. Bular hozirgi vaqtda, texnika oliy o‘quv yurtlarida bakalavrlarni o‘qitishda asos qilib oladigan, o‘quv jarayonini yangilashni boshqaruvini ta’minlovchi bir necha asosiy me’yoriy hujjatlarda o‘z aksini topmoqda.

Texnika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lajak bakalavrlarni tayyorlash jarayonida o‘qitiladigan “Chizma geometriya va muhandislik grafikasi” fani (turli yo‘nalishlarda turlicha nomlangani bilan, asosan chizma geometri va muhandislik grafikasi asoslarini o‘zida birlashtirgan bu fan) doirasida yuqorida keltirilgan muammolar o‘ziga xos ahamiyat etadi. Eng avvalo, bu fan birinchi kursda o‘qitilishi va bo‘lajak muhandislarni shakllantirish jarayonining debochasida ekanligini unutmasligimiz kerak.

Texnika oliy o‘quv yurtlarida kasbiy ta’limni tashkil etishning asosiy maqsadi salohiyatli va yuqori malakaga ega bo‘lgan bitiruvchilarni tayyorlash sanaladi. Ular nafaqat amaliyotda, o‘z bilim, malaka, ko‘nikmalarini qo‘llay biladilar, balkim, kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarda o‘ziga xos texnik yechim va

nostandart qarorlarni qabul qilishi bilan ajralib turishlari kerak.

Kreativlik uchun to‘siq bo‘lishi mumkin bo‘lgan omillar. Biz ko‘p hollarda, ijodiy fikrlashdan qochishga urinamiz, pirovardida esa, boshi berk ko‘chaga kirib qoladi. Bunday to‘sqinlik qiluvchi omillarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

1. Qoidalarga bir tomonlama amal qilish.
2. Amaliylikka haddan tashqari berilish.
3. O‘yin-bu ish emas (aqliy o‘yin ijodni rag‘batlantiradi).
4. Men “jiddiy” insonman.
5. Xilma-xillikdan qochish.
6. “Xato qilish yomon!”.
7. “Men ijodiy shaxs emasman”.

Jamoa bo‘lib ishlashdagi kreativlik. Masalalar yechimini olishda jamoa bo‘lib ishlash ko‘proq qo‘llaniladi. Jamoa bo‘lib ishlashda kreativlik qanday ko‘rinishda namoyon bo‘ladi? Jamoaviy ijodiy muhitni shakllantirishda. Turli yosh, jins va soha vakillarini o‘ziga qarab olgan, uncha katta bo‘lmagan, guruhlar samaraliroq sanaladi. Biroq, ma’lumki, jamoa bo‘lib ishlashning o‘ziga xos yutuqlari va kamchiliklari mavjud bo‘lib, yutuqlariga quyidagilar kiradi:

• Ko‘pchilik ko‘p miqdordagi bilim zaxiralariga ega bo‘lishi;

• G‘oyalarni amalga oshiruvchilarning o‘zlari, uni ishlab chiqarishda ishtirok etsa, g‘oyalarni tushunish, qabul qilish oson bo‘lishi;

• Izlanuvchanlik maydonining kengligi;

• Tavakkal qilishlarni jiddiy baholay olish imkoniyati;

• G‘oyani yana rivojlantirishning guruh uchun yengil kechishi.

Jamoa bo‘lib ishlashning o‘ziga xos kamchiliklariga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

• Guruhning ijodiy natijaga kelishi uchun ko‘p vaqt sarflanishi;

• Ishtirokchilar ko‘pchilik oldida o‘z g‘oyalarini bayon qilishga tortinishlari;

• Guruh tomonidan bo‘lgan “bosimning” g‘ayri oddiy g‘oyalarni o‘rtaga tashlanishiga xalaqit berishi;

• Guruh yetakchiligini qo‘lga kiritgan shaxsning o‘z fikrini o‘tkazishga bo‘lgan intilishi;

• Haqiqatan innovatsion g‘oyalarning murosasozlik tufayli qadrsizlanishi yoki umuman rad etilishi.

Yuqorida ta’kidlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun turli-tuman usul va texnikalar o‘ylab topilgan.

G‘oyalarni topish jarayoni. Odatda, yangi g‘oyalarni maqsadli yo‘naltirilgan holda izlash quyidagi bosqichlarni qamrab olishi kerak (qavs ichida qo‘llanilishi ko‘zda tutilgan usul yoki texnika keltirilgan):

1. Mavzuni, izlanish yo‘nalishini aniqlash.

• Tahlil (material to‘plash, izlanish ko‘lami, o‘z-o‘zini tahlil qilish, tashqi muhit tahlil, vaziyatlarni taqqoslash)

• Qo‘yilgan masalani shakllantirish (asosiy tushunchalarni almashtirish, istiqbolni kengaytirish, so‘zlar o‘rniga obrazlarni tanlash, “Nimaga?” degan savolga javob topishga urinish, mavzuga bo‘lgan talablar)

2. G‘oyalar oqimini ochish.

• Xalaqit beruvchi to‘siqlarni yengib o‘tish (“Ha, biroq”ning o‘rniga “Ha, va”, qo‘llash maqsadlari);

• G‘oyalar to‘plamini topish (obrazli fikrlash, morfologik yashik, kalit shakllar tahlili, semantik intuitsiya, g‘oyani rivojlantirish, aqliy hujum, mijoz foydasiga matritsa, teskari

fikrlashdan kelib chiqadigan savollar);

• G‘oyalarni takomillashtirish yoki o‘zgartirish (mavzuning tarkibiy qismlarini almashtirish, g‘oyalarni mushtaraklashtirish, qayta tuzilmalashtirish).

3. Eng yaxshi g‘oyalarni identifikatsiyalash.

• Tanlov (yangilik darajasi bo‘yicha tartibga solish, daslabki rusumlash);

• Aniqlashtirilgan g‘oyalarni qayta ishlash (g‘oyaning afzalliklari va kamchiliklari, abstraktlashtirish, g‘oyalarni qayta takomillashtirish yoki o‘zgartirish);

• Baholash (g‘oyaning foydaliligini tahlil qilish, g‘oyaning o‘ziga xos qirralarini aniqlash, g‘oyani qaror qabul qilish uchun qulay bo‘lgan shaklda taqdim etish);

• Hujjatlashtirish (g‘oyaning xomaki varianti, g‘oya pasporti);

• Afzal yo‘nalishlarni belgilab olish (olti shlyapa g‘oyasi, ikkinchi rusumlash);

4. G‘oyani amalga tatbiq etish (tadbir rejasi, g‘oyalar kommunikatsiyasi, g‘oyalar sikli).

Ko‘plab usul va texnikalarning ma’nosi nomidan bilinib turibdi. Shunday bo‘lsa-da, ayrimlari xususida to‘xtalib o‘tamiz.

Izlanishlar ko‘lami. Yig‘ilgan ma’lumotlarga asoslanib, mavzuning eng to‘la sharhini tayyorlash kerak. Koordinatalar sistemasini chizing, kvadrantlarni muammo, maqsad, yechimlar, to‘siqlar deb belgilang. Kvadrantlar ichiga mavzuning barcha qirralari va faktlarini kiriting.

O‘z-o‘zini tahlil qilish. Kuchli va kuchsiz tomonlar tahlili. Uchta ustunli jadval chizing. Bular mezonlar (siz baholamoqchi bo‘lgan), kuchli tomonlar, kuchsiz tomonlar ustunlari bo‘ladi.

Tashqi muhit tahlili. Mavjud vaziyat, imkoniyatlar, tavakkal qilishlar ustunlari bo‘lgan uchta ustunli jadval. Birinchi ustunda tashqi muhitning dolzarb muammolarini, kuzatilayotgan an’analarni sanab o‘ting.

So‘z almashtirish. “Siz qanday qilib, ... erishishingiz mumkin edi” shaklidagi savol tarzida mavzuni yozing. Asosiy tushunchalarni ma’no jihatidan o‘xshash bo‘lganlari bilan almashtiring va masalaning qo‘yilishi qanday o‘zgarishini kuzating. Mos keladigan iborani tanlang.

Istiqbolni kengaytirish. Savolni turli nuqtayi nazardan olib qaragan holda ifodalang. Siz o‘zingizni mulk egasi, ishchi, mijoz deb tasavvur qiling. Barcha ifodalashlarning barcha shakllarini bitta shaklga keltirishga urinib ko‘ring.

Kutish va talablar. Jadval: majburiy, ixtiyoriy, juda a’lo. Talablar, jihatlar, tasavvurlar bilan to‘ldiring. Tahlil qilib ko‘ring: “Nimaga erishmoqchisiz?”.

G‘oyalar tennisi. G‘oyani rivojlantirishni o‘rganib olish kerak. “Biz qanday qilib, qilishimiz mumkin edi?” ko‘rinishidagi savol tarzida mavzuni shakllantiring. Birinchi ishtirokchi o‘zining g‘oyasini taklif etadi. Ikkinchisi, hamkorining g‘oyasiga asoslangan holda, o‘zining g‘oyasini taklif etishi kerak, ya’ni u urilgan zarbni, to‘pni qaytaradi va h.k..

Birinchi rusumlash. G‘oyalarni tahlil qilish va eng yaxshilarini tanlab olish kerak. Siz qancha g‘oyani rivojlantirish niyatingiz borligini aniqlab oling (6 tadan 12 tagacha tavsiya etiladi). Har bir ishtirokchi, o‘zining nuqtayi nazaridan, eng qadrli g‘oyalarga ochko beradi. To‘plangan ochkolariga bog‘liq ravishda, guruhlarga (eng yaxshi, yaxshi, nol saviyali) g‘oyalarni taqsimlang. Siz keyinchalik ishlamoqchi bo‘lgan g‘oyalarni tanlang.

Ikkinchi rusumlash. Eng yaxshi g‘oyani tanlab olish kerak. Har bir ishtirokchida dastlabdan, 3 dan 6 gacha ballar mavjud bo‘ladi. Jamoaning barcha ishtirokchilari g‘oyani ballar qo‘yish orqali baholaydilar. Bitta g‘oyaga 2 balldan ortiq berilmaydi. To‘plangan ballarga qarab g‘oyalar (tatbiq etish, kamchiliklarini tugatish, qaytadan ishlab chiqish) guruhlariga taqsimlanadi.

Olti qalpoq usuli. Muhokamaga sizning mavzuingiz olib chiqilishi kerak va u turli nuqtayi nazarlar tomonidan muhokama qilinishi kerak. Oltita rangli kartochka tayyorlab qo‘yiladi. Ular turli rangdagi oltita qalpoqni bildiradi. Har bir qalpoq ma’lum bir nuqtayi nazarni ifoda etadi.

• Oq qalpoq – betaraflik va obyektivlikni bildiradi. Hech qanday shaxsiy fikrlar va hissiyotlarga berilmay, e’tiborga faqat faktlar qabul qilinadi.

• Qizil qalpoq – shaxsiy fikrlar va hissiyotlar. G‘oya to‘g‘risidagi har qanday fikr, tanqidiy mulohazalardan qo‘rqmagan holda, hech ikkilanmay aytiladi.

• Qora qalpoq – barcha salbiy qirralar. Loyihaga qarshi bildirilgan barcha fikr va mulohazalar qabul qilinadi.

• Sariq qalpoq – loyihani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan barcha ijobiy qirralar inobatga olinadi (yechimlar, g‘oyalar).

• Yashil-kreativlik. Bu paytga qadar so‘z ham bo‘lishi mumkin bo‘lmagan barcha narsaga ruxsat etiladi.

• Ko‘k qalpoq – xulosa qilish va qaror qabul qilish.

Muhokama davrida qalpoqlar almashinadi. Ketma-ketlik quyidagicha bo‘ladi. Boshlovchi ko‘k qalpoq bilan boshlaydi va u bilan yakunlaydi.

Qo‘yilgan muammoning dolzarbligi uning ijtimoiy-pedagogik, ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan muhimligi va uni texnika yo‘nalishlari bakalavrlari uchun yetarli darajada o‘rganilmaganligi bilan isbotlanadi.

Talabalarning innovatsion yondashuv asosida kreativ fikrlashlarini shakllantirishning yuqori darajasiga erishishni ilmiy asoslash uchun Amerikalik pedagog Patti Drepeau tomonidan taklif etilgan “Kreativlik xaritasi” asosida bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarida kreativ fikrlashni shakllantirishning algoritmik xaritasi ishlab chiqildi.

Ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalarning qo‘llanilishi har bir texnik fanga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirishni: yangi o‘quv-uslubiy adabiyotlar avlodini yaratishni va ularda talabalarning ijodiy faoliyatiga katta e’tibor berishni talab etadi. Bo‘lajak bakalavrlarni o‘qitish jarayoni, ijodiy salohiyatga ega va kreativligi shakllangan shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zR Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoni.

2. Рындак В. Г. Педагогика креативности: монография / В. Г. Рындак. - М.: Издательский дом “Университетская книга”, 2012. С.- 284.

3. Кречетников К. Г. Проектирование креативной образовательной среды на основе информационных технологий в вузе. Монография / К. Г. Кречетников. – М. : Госкоорцентр, 2002. С.- 296.

4. Каримова М.Н. Проблемы и перспективы преподавания предмета “Технология” в общеобразовательных школах // Вестник Академии наук и образования. 2019. №2-2 (56).

5. Ибрагимова Г.Н. Формирование культуры креативного мышления у будущих учителей в системе непрерывного образования // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. 2014. №2.

Adham QAMBAROV,
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti
“O‘zbek tili, pedagogika va ijtimoiy madaniyat” kafedrasi mudiri

OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINI KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’lim talabalarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish haqida so‘z borgan. Bundan tashqari talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish muammosi aniq nazariy metodologik yondashuvlar to‘g‘risida atroflicha fikr mulohazalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Oliy ta’lim, talaba, yondashuv, muammo, malaka, ko‘nikma, kasbiy-iqtisodiy bilim.

В этой статье рассказывается, как повысить профессиональные навыки студентов высших учебных заведений. Кроме того, подробно обсуждаются конкретные теоретико-методологические подходы к формированию профессионально-экономических знаний и навыков у студентов.

Ключевые слова. Высшее образование, студент, подход, проблема, квалификация, навыки, профессиональные и экономические знания.

This article discusses how to improve the professional skills of higher education students. In addition, the problem of the formation of professional and economic knowledge and skills in students is discussed in detail, as well as specific theoretical and methodological approaches.

Key words. Higher education, student, approach, problem, qualification, skill, professional and economic knowledge.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi tuzilmaviy va sifatiy o‘zgarishlar davrida mehnat va ta’lim xizmatlari bozorining rivojlanishi, iqtisodiy ta’lim samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim beruvchilarniig kasbiy-iqtisodiy bilimi va malakasi darajasiga, shuningdek, har bir shaxsning bozor faoliyati turlariga moslasha olish qobiliyatiga bog‘liq. Bundan kelib chiqadiki, bugungi kunda iqtisodiy ta’lim tizimining eng asosiy vazifalaridan biri – bo‘lajak mutaxassislarda hozirgi zamon iqtisodiy o‘zgarishlariga ijobiy munosabat uyg‘otish. Zero, u bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har qanday mutaxassis o‘z kasbining ustasi bo‘lishi uchun kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni mukammal egallashi lozim. Talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish muammosi aniq nazariy metodologik yondashuvlarni talab etadi. Zero, bunday yondashuvlar bo‘lajak mutaxassislar iqtisodiy tayyogarligini oshirishning o‘ziga xos tizimini yaratish va uning tuzilmaviy va vazifaviy komponentlarini ishlab chiqish, shuningdek, uni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va uni amalda joriy etish imkonini beradi. Talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish tizimini yaratish hamda uni ta’lim jarayonida joriy etishdan asosiy maqsad ularda kasbiy va shaxsiy ahamiyatga ega sifatlarni, ehtiyoj va qiziqishlarni, qadriyatlarni, amaliy faoliyat motivlarini, eng muhimi, kasbiy-iqtisodiy

bilim va malakalarni rivojlantirishdir. Kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish tizimining asosiy vazifasi talabalarda iqtisodiy fikrlash madaniyatini rivojlantirish, ya’ni ularda iqtisodiy hodisalar mohiyati va ularning o‘zaro bog‘liqligi haqida adekvat tasavvurlar shakllantirish, iqtisodiy masalalar bo‘yicha asosli mulohazalar yuritish, aniq iqtisodiy vaziyatlarni tahlil etish malakasini rivojlantirish, amaliy kasbiy tajribasini orttirish; jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga talabalarning ijtimoiy moslashuvi va unda yo‘nalish ola bilishini ta’minlash, shuningdek, ularning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘ladigai tayanch iqtisodiy bilimlarini oshirish; ularda mas’ul iqtisodiy qarorlar qabul qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllantirish; o‘z-o‘zini kamol toptirish, mustaqil ta’lim olish qobiliyatini rivojlantirish, ularni tashabbuskor va faol bo‘lishiga o‘rgatish. Talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish tizimini yaratish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1) gumanistik kasbiy yo‘nalganlik;

2) yaxlitlilik;

3) rivojlanuvchanlik;

4) tizimlilik.

Quyida ana shu tamoyillarning har birini qisqacha ta’riflab o‘tamiz.

•Gumanistik kasbiy yo‘nalganlik tamoyili. Talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish tizimining gumanistik yo‘nalganlik tamoyilida shaxsning o‘z-o‘zini kamol toptirishi va kasbiy rivojlanishi, shaxsiy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, tashabbuskorik va faollik, mustaqil qarorlar qabul qilish, o‘z-o‘zini ijodiy namoyon etish sifatlarini rivojlantirish nazarda tutiladi.

•Yaxlitlilik tamoyili. Talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish tizimining barcha tuzilmaviy (ta’lim maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakli va metodlari) va funksional (qadriyatiy-motivation, bilish va faoliyatiy-ijodiy) komponentlarining o‘zaro bog‘liqligini, kasbiy tayyorgarlikning maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakli va metodlari integrastiyasini, bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarining nazariy va amaliy tayyorgarligining o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning bir-biriga o‘zaro ta’sirini aks ettiradi.

•Yaxlitlilik tamoyili. Talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish tizimining rivojlanuvchanlik tamoyili tizimning doimiy rivojlanishini, o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarga muntazam moslashuvini, shuningdek, uning shakllanishi, rivojlanishi va takomillashish davrida barqaror faoliyatini ta’minlashni taqozo etadi.

•Tizimlilik tamoyili. Tizimlilik tamoyili bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish jarayoni bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq, bo‘lgan ketmaket amallar tizimidan iborat bo‘lishini nazarda tutadi. Ushbu tamoyilni joriy etish talabalarning yuqori darajadagi mustaqilligi va faol pozistiyasini ta’minlash, ularga o‘quv materiallarini jadal taqdim etish, doimiy qayta aloqani o‘rnatish, amallar aniqligi va algoritmi izchilligini ta’minlashni taqozo etadi.

•Talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish tizimining asosiy tashkil etuvchilari quyidagilardan iborat:

1. Jamiyatning talabalarni oqilona faoliyatga, hozirgi zamon iqtisodiy shart-sharoitga tayyorlash bo‘yicha ijtimoiy buyurtmasi.

2. Maqsad – talabalarda iqtisodiy bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish.

3. Umummadaniy, psixologik-pedagogik va predmet bloklarini qamrab oluvchi ta’lim mazmuni. Umummadaniy blok vatanimiz va jahon ijtimoiy-madaniy tajribasini o‘zlashtirishga, fuqarolik ruhida tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Psixologik-pedagogik blok

o‘qituvchining pedagogik o‘z-o‘zini anglashini, uning ijodiy individualligini rivojlantirishni ta’minlaydi, uni pedagogik faoliyatga tayyorlaydi. Predmet bloki aniq ilmiy bilimlar mazmunini o‘zlashtirish imkonini beradi.

4. Kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish darajasi.

5. Talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish tizimining amaliy natijasi. Shuni qayd etib qo‘yish joizki, talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish tizimining maqsadga muvofiqligi ma’lum natijaga erishish bilan belgilanadi. Shu bois, uning maqsadi tizim hosil qiluvchi komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida, xususan bo‘lajak iqtisodchi-pedagog mutaxassislarda kasbiy iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish tizimining yuqorida qarab o‘tilgan barcha funksional komponentlari bir-biri bilan uzviy va mustahkam bog‘liq. Umumiy iqtisodiy ta’limning asosiy vazifalarining maqsadidan kelib chiqqan holda belgilanadi:

– o‘qitish sohasida-talabalarning hozirgi zamon iqtisodiyoti, uning mavjud bo‘lishi va rivojlanish qonuniyatlari hamda tamoyillari haqidagi asosiy bilimlarni o‘zlashtirish;

– o‘z-o‘zini anglash sohasida – o‘zining individual iqtisodiy faoliyati imkoniyatini anglash, ongli ravishda fuqarolik xulq-atvorini shakllantirish;

– motivastiya sohasida – iqtisodiy muammolarga qiziqishni, iqtisodiy bilimlarga doimiy ehtiyojni rivojlantirish; tadbirkorlik sir-asrorlarini o‘zlashtirish, bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash muammosini yechish va ularning hozirgi zamon iqtisodiyotiga moslashishini osonlashtirish. Shuni ta’kidlash joizki, talabalarda bilim va malakalarni shakllantirish tizimining yaxlitligi, rivojlanishi va samaradorligiga uning tuzilmaviy hamda funksional komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro ta’sirini ta’minlash orqali erishiladi. Shunday qilib, oliy ta’lim muassasalari talabalarida, xususan, bo‘lajak iqtisodiy ta’lim o‘qituvchilarida kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish bir-birlari bilan o‘zaro bog‘langan tuzilmaviy va funksional komponentlardan tashkil topgan tizimdir. Bunday tizimlar esa maxsus ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish tizimi o‘z ichiga tuzilmaviy (o‘qitish maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari) va funksional (qadriyatiy-motivastion, bilish va faoliyatiy-ijodiy) bloklarni qamrab oladi. Shuningdek, talabalarda kasbiy-iqtisodiy bilim va malakalarni shakllantirish tizimi umumkasbiy tayyorgarlikning uchta bloki (umummadaniy, psixologik-pedagogik va predmet bloki) hamda maxsus tayyorgarlikning ikki bloki (umumiy va milliy-mintaqaviy komponentlar) orqali tavsiflanadi. Bu o‘zaro bog‘liqlik va ta’sirni uning yaxlitligi, integrativligi, rivojlanuvchanligi, moslashuvchanligi, texnologik xarakterini ta’minlab beradi. Shunday qilib, bo‘lg‘usida tayyorlanadigan mutaxassislarning iqtisodiy va tarbiyaviy ta’lim tizimiga talabni oshirmasdan turib talabalarni tejamli iqtisodiy tarbiyalab bo‘lmaydi. Bu yo‘nalishda quyidagi ishlarni olib borish maqsadga muvofiqdir:

1. Ijtimoiy fanlarni ayniqsa iqtisodiy nazariyani chuquroq va sifatli o‘qitishni ta’minlash.

2. Ta’lim muassasalarida ilmiy uslubiy va o‘quv-tarbiyaviy ishlarni uzviy bog‘lash.

3. Ijtimoiy-siyosiy amaliyotni, ijtimoiy mutaxassisliklar fakultetini, ishlab chiqarish otryadlari ishlarini talabalфкning iqtisodiy bilimlari darajasini oshirishga qarab yo‘naltirish.

4. Amaliyotda talabalardagi yangi iqtisodiy tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyatini oshirish. Talabalarga iqtisodiy tarbiya va ta’limni berishni asosida iqtisodiy nazariyasi kursi yotadi. Faqat iqtisodiy nazariya iqtisodiy hodisalarni tahlil qilish qobiliyatni hosil qiladi, iqtisodiy omillarni ilmiy qarash bilan baholashni shakllantiradi, iqtisodiy nazariyani o‘qitishdagi rasmiyatchilikni yengish va o‘quv jarayonini tashkil qilishga talabni kuchaytiradi. Talabalarning diqqatini nazariya va amaliyotini bog‘lanishiga, jamiyatdagi

murakkab iqtisodiy hodisalarni tahlil qilishga qaratish lozimdir. Iqtisodiy bilimlarni chuqurroq o‘qitishda seminarlarda aniq iqtisodiy masalalarni yechishda muammoli, munozarali usullarni qo‘llash katta samara beradi.

Ma’naviy-axloqiy munosabatlarni tashkil etuvchi komponentlarning o‘zaro bog‘liqligini tashkil etish bo‘lajak pedagogning kasbiy tarbiyalanganligi darajasi haqida so‘z yuritishga imkon beruvchi asosiy komponentlarni ajratish mumkin bo‘ladi. Bu komponentlar ayni bir vaqtning o‘zida tekshirib ko‘rilayotgan yoki tadqiq etilayotgan talabaning tarbiyalanganlikning qaysi tipiga tegishlili hisoblanadi. Bu ko‘rsatkichlar aniq shaxsiy sifatlarni namoyon etadi. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

– kognitiv sohada ma’naviy-estetik qiziqishlarning kengligi va barqarorligi, shaxsning haqiqiy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga yo‘nalganligi. Uning ma’naviy-axloqiy nuqtayi nazarining shakllanganlik darajasi;

– emotsional sohada – chuqur emotsional reaksiyaga layoqati, borliq predmetlari va hodisalarini ma’naviy-axloqiy jihatdan qabul qilish va his etish;

– faoliyatiy-amaliy sohada – ijodiy va kasbiy faoliyatda faol, ongli holda ishtirok etish, muloqot, munosabat, turmush sohalarini, xususiy qiyofani go‘zallashtirish. Bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy-kasbiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlashga imkon beradi va uning borliqqa munosabatlari komponentlari kompleksi ehtiyoji, qiziqishi, qadriyatlari, intilish-holatlari, didi, ideallari, bilimi, his etishi, baholashi, fikr yuritishi, faoliyati, shaxsiy sifatlarining rivojlanishi haqida mulohaza bildirishga imkon beradi. Tanlangan ko‘rsatkichlar munosabatlarning kognitiv, emotsional va faoliyatiy-amaliy tomonlarini teng darajada ko‘rsatib beradi.

Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy malakalarni shakllantirish bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda ilk kasbiy malakalar shakllantiriladi. Ilk kasbiy malakalarni shakllantirish bosqichida talaba kasbiy faoliyat maqsadi va avval egallagan bilimi hamda malakalariga tayanib, ularni amalda qo‘llash usullari haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Bu kasbiy faoliyat usullari amalda sinab ko‘radi va bu jarayonda yo‘l qo‘ygan xatolarini tahlil qiladi. Ikkinchi bosqichda talabalarga avval egallagan, ammo ayni kasbiy faoliyat uchun xos bo‘lmagan malakalarga tayanib, amallarni bajarish bo‘yicha bilimlar beriladi. Uchinchi bosqichda talabalarda turli xil faoliyatda zarur bo‘ladigan kasbiy malakalar, masalan, o‘z faoliyatini rejalashtirish va tashkil etish ko‘nikmalari shakllantiriladi. To‘rtinchi bosqichda talabalar ayni kasbiy faoliyatida egallagan bilim va malakalaridan boshqa faoliyatida ijodiy foydalanishga o‘rgatiladi. Bunda ular nafaqat faoliyat maqsadini, balki maqsadga erishish usullarini tanlash motivlarini ham anglab etadilar. Beshinchi bosqich mahorat maktabidir.Bu bosqichda talabalar turli kasbiy malakalaridan ijodiy foydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shodiyev X.T. “Bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy sifatlarining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning psixologik asoslari”. “Xalq ta’limi” jurnali, 2007-yil 4-son, 29-33-b.

2. Muxitdinova Z. “Talabalarda kasbiy halollik va poklik fazilatlarini o‘stirish”. Xalq ta’limi jurnali, 2008-yil 2-son, 78-79-betlar.

3. Inog‘omov R., Toshmurodova H. Pedagogika fani XXI asrda. –T.: Yangi asr avlodi nashriyoti. 2000-yil.

Nasiba ABDULLAYEVA,
Andijon davlat pedagogika universiteti “Umumiy pedagogika” kafedrasi mudiri

UZLUKSIZ TA’LIM MUASSASALARI O‘QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK MAS’ULIYATNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada uzluksiz ta’lim tizimida barkamol shaxsni tarbiyalashda o‘qituvchining tarbiyachi sifatidagi faoliyati mazmuni yoritilgan. Uzluksiz ta’lim muassasalari o‘qituvchilarida pedogogik mas’uliyatni shakllantirish texnologiyalari bayon qilingan. Bo‘lajak o‘qituvchilarda tarbiyachilik malakalarini tarkib toptirishning nazariy amaliy jihatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘qituvchi, tarbiyachi, ta’lim, tarbiya, uzluksiz ta’lim, uzluksiz tarbiya, uzluksiz ta’lim tizimi.

В статье раскрывается содержание роли учителя как воспитателя в развитии разносторонней личности в системе непрерывного образования. Описаны технологии формирования педагогической ответственности у учителей дополнительного образования. Рассмотрены теоретические и практические аспекты формирования педагогических навыков у будущих учителей.

Ключевые слова. Педагог, образование, воспитание, непрерывное, образование, система непрерывного образования.

This article describes the content of the teacher’s role as an educator in the development of a well-rounded person in the system of continuing education. Technologies for the formation of pedagogical responsibility in teachers of continuing education are described. Theoretical and practical aspects of the formation of pedagogical skills in future teachers are considered.

Key words. Teacher, educator, education, upbringing, continuing education, continuing education, continuing education system.

So‘nggi yillar davomida barcha sohalarda bo‘lgani kabi uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator strategik islohotlar amalga oshirildi. Oliy ta’lim sifatini yaxshilash bevosita barkamol avlodga ta’lim-tarbiya beruvchi bo‘lajak pedagoglarni har tomonlama yetuk kadr bo‘lib yetishishlarini kafolatlaydi. Chunki, pedagogik kasb bir paytning o‘zida ham islohotchilik, ham boshqaruvchilik kasbi sanaladi. Shaxs kamolotini boshqarish uchun esa kompetent bo‘lishi lozim. Shuning uchun o‘qituvchini kompetentligi tushunchasi uning pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligi hamda yuksak darajadagi mahoratini ifodalaydi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 5-moddasida “Yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega” ekanligi ko‘rsatilgan. Shunga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetentligi tarkibi pedagogik ko‘nikmalar orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Bugungi zamonaviy ta’lim tizimiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, pedagogning mahorati, uning kasbiy kompetentligi ta’limni sifatli amalga oshirish garovi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Binobarin, texnologik kompetentlik ham kasbiy kompetentlikning asosiy qismlaridandir. Bizga ma’lumki, XXI asr axborot texnologiyalari asri bo‘lishiga qaramay pedagoglarimiz ta’lim jarayonida bu borada hali ham oqsashmoqda. Ko‘plab pedagoglarimiz faoliyati quruq ma’ruza bilangina cheklanib qolyapti, zotan buyuk rus pedagogi Y.A.Komenskiy ta’kidlaganidek:

“Eshitsam unutaman, ko‘rsam eslab qolaman, bajarsam anglab yetaman”, degan edi. Shunday ekan, bo‘lajak pedagoglarimiz ta’lim jarayonini pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, multimedia, slayd, audio-video vositalari bilan boyitishi uchun ularda texnologik kompetentlikni, mahoratni shakllantirish lozim. Bu esa o‘z navbatida, pedagogning o‘z ustida ishlashiga, mavjud zamonaviy axborot texnologiyalaridan, zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishga undaydi.

Yosh avlodni barkamol, komil inson bo‘lib yetishishida pedagog, tarbiyachi va o‘qituvchilarning roli katta. Olimlar ta’kidlaganlaridek, “Birovni o‘qitadigan, tarbiya beradigan inson, avvalo, o‘zi har tomonlama barkamol bo‘lmog‘i shart”. Shu tufayli, pedagoglar ish faoliyatini yanada yuksaltirish, kasbiy mahoratini oshirish asosiy birinchi vazifa sifatida qayd etilmoqda. Bugungi kunda ta’lim beruvchilarning kasbiy kompetentligini samarali olib borilishini ta’minlash dolzarb masalaga aylandi. Barcha ta’lim muassasalarida ta’lim beruvchilarning kasbiy kompetenti muhim o‘rin egallaydi.

Bo‘lajak pedagoglarning texnologik kompetentligini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarninng ahamiyati katta.“Texnologiya” so‘zi – ishlov berish, holatni o‘zgartirish san’ati, mahorati, malakasi va metodlar yig‘indisi degan ma’nolarni bildiradi. Pedagogik texnologiya esa – natijani qo‘lga kiritish uchun ta’lim doirasida zarur bo‘lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tatbiq etish demakdir. Pedagogik texnologiyaning muammoli o‘qitish texnologiyalari, o‘yin texnologiyalari, tanqidiy fikrlashni o‘stiruvchi metodlar, mualliflik texnologiyasi, shaxsni ko‘zda tutishga asoslangan pedagogik texnologiyalar, o‘qitishni jadallashtirish texnologiyasi, o‘quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil etish asosiga qurilgan pedagogik texnologiyalar, o‘qitishni individuallashtirish hamda dasturlashtirilgan o‘qitish texnologiyalari kabi yo‘nalishlari mavjud. Hozirgi oliy o‘quv yurtlaridagi samarali o‘qitish texnologiyasi – bu muammoli o‘qitishdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli o‘qitish ijodiy, faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi. Muammoli o‘qitish jarayonida talabaning mustaqilligi o‘qitishning reproduktiv shakllariga nisbatan tobora o‘sib boradi. Muammoli o‘qitishning mohiyatini, o‘qituvchi tomonidan talabalarning o‘quv ishlarida muammoli vaziyatni vujudga keltirish va o‘quv vazifalarini, muammolarini va savollarini hal qilish orqali yangi bilimlarni o‘zlashtirish bo‘yicha ularning bilish faoliyatini boshqarish tashkil etadi. Bu esa bilimlarni o‘zlashtirishning ilmiy-tadqiqot usulini yuzaga keltiradi. Mana shunday muammoli ta’lim texnologiyalaridan biri muammoli leksiyadir. Muammoli leksiya talabalarning faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi bo‘lishini taqozo qiladi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-manaviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Shu bois, O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim sohasini tubdan takomillashtirish, ta’lim sifatini oshirish, intellektual salohiyatli, jismoniy barkamol avlodni shakllantirish, aniq fanlarni chuqurlashtirib o‘qitish va iqtisodiyotning turli sohalari uchun malakali kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Mamlakatimizda shakllanayotgan milliy ta’lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotida innovatsion yondashuvlar, izlanishlar, tadqiqot muammolariga oid yechimlar, ilmiy-amaliy tavsiyalar yaratildi. Oliy ta’lim tizimi uzluksiz ta’lim tizimiga – maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, malaka oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari, ta’lim tizimi uchun mutaxassislar tayyorlab berar ekan, ularning kasbiy tayyorgarligi, ma’naviy-axloqiy qiyofasiga, o‘qituvchilarning tarbiyachilik darajasiga alohida talablar qo‘yilmoqda. Uzluksiz ta’limida ishlaydigan har bir mutaxassis

kasbiy pedagogik ma'lumotga ega bo'lish bilan cheklanmasdan, aynan shu yoshdagi o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishga maxsus tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bo'lajak mutaxassislar o'zini o'qituvchi sifatida emas, ixtisoslik sohasida kasbiy kamol topishga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Natijada, bunday kadrlar pedagogik faoliyat yuritganda ixtisoslik fanidan chuqur bilim berishga harakat qiladi, lekin tarbiya jarayonining o'ziga xos qonuniyatlari, tamoyillari, mazmun-mohiyati, metodlari, vositalari va shakllarini professional darajada tatbiq etishga qiynaladi. Ular uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarga ustoz-murabbiy bo'la olishi, har tomonlama ibrat-namuna ko'rsatishi davr talabiga aylandi. Shuning uchun ham uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'qituvchi tayyorlashda bir qancha jihatlarga alohida e'tibor qaratish talab etiladi:

– o'z fanini mukammal darajada bilish va amaliy faoliyatda tatbiq etishi;

– psixologik-pedagogik bilimlar bilan qurollangan bo'lishi, milliy urf-odat, an'ana, qadriyatlardan xabardor bo'lishi;

– o'zidagi shaxsiy-kasbiy-bilim, ko'nikma va malakalarini o'quvchilarga yetkaza olishi;

– o'qituvchi faqat bilim beruvchi emas, tarbiyachi hamdir. O'zgalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'zi mukammal tarbiya ko'rgan, ma'naviy dunyosi boy, axloqiy qiyofasi pok, estetik didi yuqori, o'qituvchi-tarbiyachi o'quvchi-tarbiyalanuvchilarga xos namuna bo'la olishi zarur.

Hozirda uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning ma'lum bir qismi yuqoridagi talablarga to'la javob beradi deb bo'lmaydi. Ma'lumki, har bir darsning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadi bo'lib, o'qituvchi maqsadlar katalogini ishlab chiqishda uning yechimiga amal qilishi zarur. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim berishning yangi tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bevosita jahon ta'lim tizimidan o'rin olishga yo'naltirilgan. Bu jarayon ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy kuchi, xalqning turmush-tarzining yuqori bo'lishi, jahon hamjamiyatidagi o'rni va nufuzi shu mamlakatning ta'lim-tarbiya tizimining rivojlanishi bilan aniqlanadi. Umuman jamiyatning rivojlanishi va texnologiyalarni kiritish sifati mamlakatning ta'lim berish ishining yo'lga qo'yilganligi va shu sohani axborotlashtirish jarayoni bilan bog'liqdir.

Zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarning kun sayin oshib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begimqulov U.SH. Pedagogik ta'lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. //Ped. fan. dok. diss. – T.: 2007.- 305-b.

2. Taylaqov N.I. Uzluksiz ta'lim tizimi uchun informatikadan o'quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari. Monografiya. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti, 2005. – 160-b.

3.Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiya: Nazariya va amaliyot. – T.: Fan, 2005. 20-b.

Nargiza MANNAPOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsent v.v.b

TALABA-YOSHLARDA SOG‘LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH VA MOTIVATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada talaba-yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va to‘g‘ri tashkillashtirish kelgusida ularning ko‘p yillik ijodiy mehnat faoliyatiga tayyor intellektual salohiyatli o‘qituvchi bo‘lib yetishishining eng muhim omillari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzi motivatsiyasi shakllanganligini baholash mezonlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Sog‘lom turmush tarzi, motivatsiya, fiziologik qonuniyatlar, intellektual salohiyatli, shakllantirish.

В статье рассматриваются вопросы формирования и правильной организации здорового образа жизни у студентов, важнейшие факторы их дальнейшего развития как интеллектуально одаренных учителей, готовых к многолетнему творческому труду. Также существуют критерии оценки формирования мотивации к здоровому образу жизни.

Ключевые слова. Здоровый образ жизни, мотивация, физиологические закономерности, интеллектуальный потенциал, формирование.

The article discusses the formation and proper organization of a healthy lifestyle among students and the most important factors for their future development as intellectually gifted teachers ready for many years of creative work. There are also criteria for assessing the formation of a healthy lifestyle motivation.

Key words. Healthy lifestyle, motivation, physiological laws, intellectual potential, formation.

Sog‘lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish demakdir. Sog‘lom avlodni tarbiyalash ikki jihatdan yosh avlodni jismoniy sog‘lom etib tarbiyalash va ularni ma’naviy barkamol bo‘lishi lozim. Bu oddiy hol, ammo u jamiyatimiz rivoji – kelajakni ta’minlovchi omildir. Har bir mamlakat aholisi uchun tabiatning tozaligi zarur bo‘lsa, subyektiv omil – sog‘lom turmush tarzi, tibbiy ongning shakllanganligi va yoshlarni hayotga tayyorlab borishning takomillashganligini asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi. Fan-texnika taraqqiyoti davrida ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanib borishi talaygina omillarga bog‘liq. Biroq inson hayotini, ijtimoiy faoliyatining barcha sohalaridagi munosabat tizmini ijtimoiy falsafiy va ilmiy jihatdan yangicha idrok etilishini va inson salomatligini iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy qadriyatlar sifatida qarashni taqozo etadi. Bu bolalarni bashorat qilish, sog‘lom avlodni voyaga yetkazishni rejalashtirish murakkab muammo bo‘lib qolaveradi.

Mamlakatimizda inson va uning sihat-salomatligi haqida g‘amxo‘rlik qilish davlat siyosatining ustuvor vazifasiga aylanib qolgan so‘nggi yillarda aholi orasida sog‘lom turmush tarzining hayotiy falsafasini shakllantirishga intilish bir oz bo‘lsada jonlandi. Hozirgi kunda sog‘lom turmush tarzi masalasi davlatimiz siyosati darajasida o‘z yechimiga ega bo‘lib bormoqda. Barkamol avlod tarbiyasi uchun intilish yo‘lida tashkil etilayotgan

qator sport musobaqalari, qurilayotgan sport inshootlari, olib borilayotgan ma'naviy, ma'rifiy tadbirlar, turli sog'lomlashtirish dasturining bajarilayotgani fikrimizning yorqin ifodasidir. Har tomonlama barkamol shaxsni – sog'lom avlodni voyaga yetkazish mamlakatimizda huquqiy davlati va fuqarolik jamiyatini barpo etish nuqtayi nazaridan eng zaruriy negiz hisoblanadi. Haqiqatan, barkamol shaxsgina taraqqiy etgan demokratik davlatning haqiqiy faol fuqarosi bo'la oladi.

Bugungi shiddat bilan o'tib borayotgan kunda sog'lom tafakkur bilan bog'liq birlamchi elementlar, ya'ni g'oyalar, qarashlar, tushunchalar, ularning inson hayotida maxsus say-harakatga aylanishi, ularning harakatga aylanishi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy-pedagogik tizimning mavjudlik darajasi yetarlidek ko'rinadi. Shuni unutmaslik kerakki, eng avvalo, sog'lom turmush tarzini shakllantirishda toza havoda sayr qilish ya'ni turizmning kishi organizmiga har tomonlama ta'sir etadigan, uning asosiy fiziologik jarayonlarini kuchaytiradigan, garmonik rivojlanishiga yordam beradigan maxsus tanlangan mashqlar tizimi mavjuddir. Ayniqsa, bugungi kunda ta'lim tizimi negizida yosh avlodni tarbiyalash va kamolotga yetkazish masalasiga alohida e'tibor qaratib kelayotganligi o'z samarasini bermoqda.

Yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va motivatsiyani rivojlantirishning pedagogik asoslarini tadqiq etish ilmiy muammo ekanligi asoslangan, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarida sog'lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari, tamoyillari, shart-sharoitlari va mazmuni hamda davlat siyosati nuqtayi nazaridan ochib berilgan, ta'lim jarayonidagi vaziyat ilmiy-pedagogik jihatdan o'rganilgan va umumlashtirilgan.

Ilmiy-nazariy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi kunda sog'lom turmush tarzi tushunchasi – insonning bir jamiyatda, muhitda ifodalaniladigan hayot, mehnat dam olish va boshqalarni o'z ichiga olgan tushuncha bo'lib, ijtimoiy-siyosiy, ishlab chiqarish, bo'sh vaqtlardagi faollik, ijtimoiy madaniy kabi faoliyatlardan iborat tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

Sog'lom turmush tarzi shunday yashash tarziki, unda odamlar salomatligiga ta'sir ko'rsatuvchi zararli omillar bo'lmasligi, inson ulardan ongli ravishda o'zini chetga olishi kerak.

Sog'lom turmush tarzi yoki oqilona yashash tarzi tushunchalari keng qamrovli bo'lib, o'z ichiga insonning tug'ilishidan boshlab, umrining oxirigacha aql-farosat bilan yashash, zararli odatlardan holi bo'lish, to'g'ri ovqatlanib, to'g'ri dam olish kabi ko'plab boshqa ijobiy xislatlarni qamrab oladi.

Olimlarning fikricha, "Turmush tarzi" va "Sog'lom turmush tarzi" tushunchalari batafsil o'rganilishi, ularning har biri mohiyatan chuqur, ilmiy asosda yoritilishi zarur.

Muayyan turmush tarziga ega bo'lish – bu insonning yashash uchun zarur bo'lgan turmush sharoitlarini o'zlashtirishi demakdir. Bunday turmush tarzini o'zlashtirish usuli sog'lom turmush tarzi va nosog'lom turmush tarzi kabi ikki xil darajaga ajratiladi, sog'lom turmush tarziga ega bo'lish uchun uni fan sifatida o'rganish, shakllantirish va rivojlantirish, boshqa fanlar bilan aloqasi hamda maqsadini bilish, vazifalarini o'zlashtirish zarur.

Oliy ta'lim muassasalarida sog'lom turmush tarzi samaradorligini rivojlantirishning uch asosiy yo'nalishi mavjud bo'lib, ular pedagogik, jismoniy va gigiyenik ta'lim-tarbiya sohalaridir. Mazkur uch yo'nalish o'zaro teran aloqador bo'lib, birining rivojiga boshqasining takomillashuvi orqaligina erishish mumkin. Xususan, yoshlarda sog'lom muhitga intilish tuyg'usini, shunga muvofiq tarzda irodaviy sifatlar, mehnatkashlik, sof ma'naviy-axloqiy qarashlarni tarkib toptirmasdan turib, ularni jismonan va gigiyenik

salomatligini saqlay oladigan inson qilib voyaga yetkazish mumkin emas. Bu borada Sharqda nihoyatda takomillashgan tarixiy-pedagogik qadriyatlar mavjud bo‘lib, zamonaviy pedagogik g‘oyalar undan bevosita oziqlangan holda rivojlanmoqda.

Yoshlar tarbiyasida sog‘lom turmush tarzining o‘rni va ahamiyatini, kun tartibini oqilona tashkil etish, ruhiyat va tana takomilining o‘zaro aloqadorligi, psixogigiyena kabi qator muammolar yo‘nalishida ilmiy-metodologik g‘oya va qarashlar tizimi tarkib topmoqda. Ammo ayrim yoshlarimizning turmush tarzi, faoliyat jabhalariga kengroq nazar tashlasak, ular hali o‘zining mustaqil fikriga ega emasliklari, psixologik qaramlik, loqaydlik, boqimandalik kayfiyatida ekanliklari, mustaqil iroda, yetuk ong va dunyoqarashni namoyon eta olmayotganliklarini ko‘rish mumkin.

Albatta, yoshlarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muayyan samaradorlikka erishish uchun ta’lim maskanlarida maqsadga qaratilgan ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan maxsus dasturlar asosida o‘quvchi va talabalarda pedagogika, gigiyena va fiziologiyaga oid bilim, tushuncha va malakalarni shakllantirish va motivatsiyani rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur.

Bizning fikrimizcha, “Motivatsiya” atamasi o‘z mazmuniga ko‘ra, shaxsning ma’lum bir faoliyat shaklini bajarishga kirishishi, shu qatori uni sog‘liqni saqlash uchun harakatga keltirish, shuningdek, uning muhimligini asoslash va anglashdan iboratdir. Motivatsiya omili odamlarga sog‘lom xulq sohibi bo‘lish lozimligini, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lish kerakligini uqtiradi. Shu sababli sog‘liqni saqlash tizimi, pedagoglar va tibbiyot xodimlari oldida birinchi navbatda yechilishi lozim bo‘lgan vazifalardan biri – aynan sog‘lom turmush tarzini shakllantirishni yo‘lga qo‘yish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiyani takomillashtirishdir.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ichki va tashqi motivatsiyaning roli juda katta. Ichki motivatsiya – bu odamning ichidan turtib turadigan, doimo biror narsaga intilishga, bir joyda turib qolmaslikka, o‘z ustida doim ishlashga undab turadi. Ichki motivatsiya – bu qiyinchiliklar davrida insonni ushlab turadigan va uni harakatga keltiruvchi “yoqilg‘i” hisoblanadi. Masalan, salomatlik, maqsadlar amalga oshganligi, jismoniy faollikning o‘sishi, o‘zida ishonch hosil qilish, kun tartibiga amal qilish, shaxsiy rivojlanish.

Tashqi motivatsiya – bu tashqi ijtimoiy muhitda sizning erishganlaringizni ko‘rsatib turuvchi narsalardir. Masalan, qaddi-qomatning to‘g‘ri shakllanishi, turmush tarzining yuqori darajada bo‘lishi, kayfiyatning ko‘tarinki ruhda bo‘lishi, organizmning kasalliklardan holi bo‘lishi, asab tizimining mustahkamlanishi, reproduktiv salomatlik.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiyani takomillashtirishda muvaffaqiyatga erishishining eng muhim siri – bu ichki motivatsiyani pasaytirmasdan, doim yuqori holatda ushlab turishdir. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiyani takomillashtirishga erishishning ikkinchi siri – ichki va tashqi motivatsiyalar bir-biri bilan o‘zaro mos bo‘lishi hamda ichki va tashqi motivatsiyalar orasidagi muvozanatning saqlanishidir.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida sog‘lom turmush tarzi motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan ta’kidlovchi tajriba-sinov ishlarining asosiy mazmuni yoritib berilgan.

Talaba-yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va to‘g‘ri tashkillashtirish kelgusida ularning ko‘p yillik ijodiy mehnat faoliyatiga tayyor intellektual salohiyatli o‘qituvchi bo‘lib yetishishining eng muhim omilidir. Shuning uchun oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarga ta’lim-tarbiya berish jarayonida quyidagi yo‘nalishlarni amalga

oshirishlari zarur:

a) ta’lim;

b) tarbiya;

v) rivojlantirish;

g) sog‘lomlashtirish;

d) hayotga tayyorlash kabi vazifalar.

Sog‘lom turmush tarzini to‘g‘ri shakllantirish uchun oliy ta’lim muassasalari talabalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tizimi pedagogik imkoniyatlar (kognitiv, tashkillashtirish va amaliy faoliyatda qo‘llash) asosida takomillashtirilgan.

Mazkur tizimda oliy ta’lim muassasalari talabalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy yo‘llari (ma’ruza, seminarlar, amaliy mashg‘ulotlar), sog‘lom turmush tarzi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish manbalari, sog‘lom turmush tarzi asosida tarbiyalash orqali sog‘lom turmush tarzi shakllangan talabalarni tarkib toptirish mujassamlashgan.

Talaba-yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiyani takomillashtirish jarayoni ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini anglab olishni taqozo etadi.

Sog‘lom turmush tarzi motivatsiyasi shakllanganligini baholash uchun quyidagi mezonlarga tayandik:

– sog‘lom turmush tarzi tushunchasi va uning tarkibiy qismlarini ongli ravishda o‘zlashtirib olish;

– sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiyaning shakllanganligi (qiziqish, ehtiyojlarni inobatga olish, individual yondashish, hamkorlik, subyektivlik va tashabbusni qo‘llab-quvvatlash);

– sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish;

– sog‘lom turmush tarzining tarkibiy qismlarini amaliyotda qo‘llanishida mas’uliyatni his etish kabilar.

Tadqiqot natijalarini tahlil etish jarayonida qayd etilgan mezonlarga ko‘ra, talabalarda sog‘lom turmush tarzining shakllanganlik darajasi yuqori, o‘rta va past baholash shkalasi asosida izohlandi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish motivatsiyasini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Oliy ta’lim muassasasi talabalarida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda motivatsiyani takomillashtirishga xizmat qiladigan o‘quv metodik qo‘llanmalar, tavsiyalar, elektron adabiyotlar yaratilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish motivatsiyasini nafaqat auditoriyada, balki auditoriyadan tashqarida – oilada, mahallada takomillashtirishni tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Innovatsion fan-ta’lim tizimini rivojlantirishning barkamol avlodni voyaga yetkazishdagi roli va ahamiyati ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. I kitob 30-may 2014-yil.

Ziyoda PULATOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARINING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Annotatsiya

Maqolada oliy ta’lim muassasasi talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif oliy ta’lim jarayonini rivojlantirish maqsadida tashkil etilayotgan pedagogik faoliyat samaradorligi ushbu jarayonda tarbiya tamoyillari hamda ta’lim metodlarining uyg‘unligini ta’minlashni aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Ijtimoiy faolligini oshirish, samarador, intellektual, ma’naviy salohiyat, shakllantirish.

Статья посвящена повышению социальной активности студентов вузов. Автор также отметил, что эффективность педагогической деятельности, организованной для развития процесса высшего образования, заключается в обеспечении совместимости образовательных принципов и методов обучения в этом процессе.

Ключевые слова. Повышение социальной активности, продуктивности, интеллектуального, духовного потенциала, формирование.

The article focuses on increasing the social activity of university students. The author also noted that the effectiveness of pedagogical activities organized for the development of the process of higher education is to ensure the compatibility of educational principles and teaching methods in this process.

Key words. Increase of social activity, productivity, intellectual, spiritual potential, formation**.**

Mamlakatimizda barcha sohalarda bo‘layotgan islohotlar, ijtimoiy o‘zgarishlar, oliy ta’lim sohasida ham o‘z aksini topmoqda. O‘zbekistonda odob-axloq ilmiga, ta’lim-tarbiya, ma’naviyat masalalariga katta e’tibor berilmoqda, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy qiyofasini shakllantirishga, uning ijtimoiy faolligini oshirishda bosh vazifa sifatida qaralayotgani bejiz emas.

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ta’lim-tarbiya tizimini o‘zgartirish, uni hozirgi zamon talablari darajasiga ko‘tarish, shu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirishga bog‘liq. Shu maqsadni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish va boshqa vazifalar ta’lim tizimi sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi.

Bugungi kunda zamonaviy jamiyat o‘zining tez va chuqur o‘zgaruvchan tavsifiga ega bo‘lib, bunday o‘zgarishlar jamiyatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, demografik siyosat, urbanizatsiya jarayonlarida ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Ta’lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o‘z tuzilishi va faoliyat mazmunini o‘zgartirishi zarur.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va bu sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish bilim olishga, iqtisodiyot sir-asrorlarini o‘rganishga bo‘lgan harakatni, fanni chuqur o‘rganishga bo‘lgan talablarni ham kuchaytiradi. Bu esa o‘z navbatida, iqtisodiy qonunlarni yaxshi biladigan, turli vaziyatlarni taqqoslash, iqtisodiy resurslar cheklanganligi sharoitida samarali xo‘jalik yuritish uchun muqobil variantlarni to‘g‘ri tanlash va qaror qabul qilish malakasiga ega bo‘lgan iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashni ham talab qiladi.

Mamlakat miqyosidagi tub o‘zgarishlar natijasida, insonlar psixologiyasida mustaqil fikrlash va ish yuritish, rejalarni ro‘yobga chiqarish yo‘llarini izlash imkoniyatlari vujudga keldi. Bugungi kundagi talaba ijtimoiy hayotdagi munosabatlar, ularning tuzilishi va mohiyati bilan boshqaruv jarayonida yaqindan tanish bo‘lishini taqozo etadi. Rahbar shaxsi barkamolligi, qat’iy xarakteri, milliy etnik xususiyatlardan tashqari bir qator qobiliyatlarga ega bo‘lishi tabiiy ravishda obro‘ qozonishga puxta poydevor hozirlaydi, lavozimning keyingi bosqichlari uchun imkon yaratadi, istiqbol rejalarni ro‘yobga chiqaradi.

O‘zbekistonning buyuk kelajagini bunyod etish asosan, bugungi yosh avlodning zimmasida ekan, ularni bilimli, madaniyatli, mehnatsevar, tashabbuskor, izlanuvchan etib shakllantirish hayot tajribasiga ega, qiyinchiliklarda toblangan yoshi ulug‘larimiz, faxriylarimizning, shu bilan birga mazkur ishga da’vat etilgan tarbiyachilar, muallimlar, olimlarning va umuman barchaning asosiy vazifasi bo‘lib qoladi. Bu borada yoshlar tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Yoshlar muammolari instituti, iste’dodlarni tanlash markazlarining tashkil etilishi yoshlarni ma’naviy va jismoniy shakllantirish, iqtidorli yoshlarni tanlash, rag‘batlantirish borasida davlatimiz olib borayotgan siyosatning namunasidir.

Jamiyat uchun har bir shaxsning o‘z iste’dodini to‘liq namoyon etishi, tabiat in’om etgan aqliy qobiliyatini rivojlantirishi uchun imkoniyat yaratilishi ahamiyatga molik masala hisoblanadi. O‘qimishli kishining ma’naviy olami e’tiborga molik bo‘lib, u nisbatan boy, uning hayoti esa, faqat moddiy farovonlik bilangina cheklanib qolmaydi. Bu hol mavjud davlat, mamlakat aholisining aqliy salohiyatini yanada rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yoshlar jamiyatda sodir bo‘ladigan har qanday voqeliklarga o‘zgacha, ruhiy his-kechinmalar doirasida munosabat bildiradilar, qiyinchiliklar vujudga kelganda esa ehtiroslarga beriladilar. Shuning uchun bizning oldimizda turgan muhim masala – yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash, bunda oiladagi tarbiya bilan birgalikda jamoatchilikning uzviy hamkorligini ta’minlash taqozo etiladi. O‘sib kelayotgan yoshlarimizning salomatligini mustahkamlash, yoshlarni Vatanimizning munosib farzandlari etib tarbiyalash masalasi borasida mahalliy dasturlarni ishlab chiqib ularni amalga oshirish zarur.

Bugungi kunda biz, mustaqillik tufayli jamiyatimizning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy asoslarini mustahkamlash borasida ko‘pgina ishlarni amalga oshirdik. Ularni davom ettirish esa yoshlarimiz qo‘lidadir. Shu sababdan ham mavjud imkoniyatlarimizdan to‘liq foydalanib, “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”da yoshlarimizga bo‘ladigan e’tiborni yanada kuchaytirishimiz darkor. Zero, yoshlar tarbiyasiga burch va mas’uliyat nuqtayi nazaridan yondashish kelajagimizni shakllantirish garovi bo‘lib qoladi.

2021-yilni mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e’lon qilinganligi munosabati bilan bizning universitetimizda ham bir qator vazifalarni bajarish ustuvor etib belgilanganligi ham, talaba-yoshlarimizga berilayotgan e’tiborning yuksakligidan dalolat berib turadi. Bu vazifalar sirasiga:

1. Universitetda tayyorlanayotgan mutaxassislarni real iqtisodiyot tarmoqlari va sohalari bilan uyg‘unligini inobatga olgan holda talaba-yoshlarga ta’lim berish jarayonini samaradorligiga erishish, yoshlarimizning barkamol shaxslar etib bilim berishga, kasbga yo‘naltirishda, xorijiy tillarni o‘rgatishda, ta’lim muassasamizda olib boriladigan ta’lim jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishga erishish.

2. Talaba-yoshlarimizni jahon ta’lim standartlariga mos raqobatbardosh mutaxassislar bo‘lishlari uchun Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy adabiyotlar, elektron darsliklar, multimedia vositalarini yanada takomillashtirish, yoshlarimizni kelgusida yetuk mutaxassis sifatida ishga joylashishi masalasini hal etishda korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik shartnomalarini tuzishga e’tiborni qaratish.

3. Talaba-yoshlarni iqtidori va qobiliyatini ro‘yobga chiqarishi uchun yetarli sharoit yaratishga ahamiyat berish, buning uchun universitetda talaba-yoshlarning intellektual salohiyatini aniqlab olib, ularni turli tanlov va olimpiadalarda ishtirok etishlariga hamda kelgusida ilmiy faoliyatga jalb etishga tizimli amaliy yondashuvni tashkil qilish.

4. Universitetimiz yoshlarining ma’nan, jismonan sog‘lom bo‘lishlari masalasini ustuvor vazifa sifatida ko‘rib, sog‘lom turmush tarziga rioya etishlariga, yomon illatlardan yiroq bo‘lishlariga jiddiy e’tiborni qaratish zarur, shuningdek, turli ma’naviy tahdidlar ta’siri, “ommaviy madaniyat” xurujlaridan himoya qilishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash uchun milliy an’analarimizni, tarixiy sanalarimizni, milliy qadriyatlarimizni ulug‘laydigan tadbirlar hamda bayramlarni universitetning jamoat tashkilotlari: xotin-qizlar qo‘mitasi, kasaba uyushmasi, “Yoshlar ittifoqi” kabilar ishtirokida tashkil etishga e’tiborni doimiy qaratish.

O‘zbekiston ijodkor yoshlarining “El-yurt umidi” jamg‘armasi, “Yoshlar ijtimoiy harakati”, “Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi” va boshqa qator jamoat tashkilotlari yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash borasida qator tadbirlarni amalga oshirdilar. Vatanimiz taraqqiyoti taqdirini shubhasiz, ma’naviy jihatdan yetuk shaxslar hal qiladi, yuksak bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma’naviy barkamollik asosidagi mustaqil fikrlash orqali olib borilishi zarur.

Bugungi kunga kelib, aholining deyarli 60 foizdan ortig‘ini yoshlarimiz tashkil etadi. Bizning eng asosiy vazifamiz, oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy boy, huquqiy va siyosiy teran, ijtimoiy faol, axloqiy pok, jismonan sog‘lom, milliy urf-odatlarimiz va an’analarimizga sodiq, irodasi mustahkam, yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalashdan iborat ekanligi bor haqiqat.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy munosabatlar va yoshlarning komilligiga bo‘lgan talablarni orttiradi, o‘zini namoyon qila olish xususiyati esa, yetakchilik qobiliyatisiz vujudga kelmaydi. Shu bois, zamonaviy shaxslardan mavjud iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sharoitlarning o‘zgaruvchanligiga tez moslashish (adaptatsiya), ular harakatchanligi va faoliyatdorligi, shu bilan birga mutaxassis sifatidagi ilg‘or tamoyillarga nisbatan sezuvchanligi va ularni ko‘ra bilishi kabi xususiyatlarni egallagan bo‘lishi talab etiladi. Bu xususiyatlar esa, biror bir iqtisodiy yo‘nalishda emas, balki jamiyat rivojining barcha sohalarida talab etiladi.

Talabalarning qobiliyati, iste’dodi va mahoratini rivojlantirish, mustaqil fikr yuritish malakalarini kengaytirish, insonparvarlik, mehr-muruvvat hislarini tarbiyalash,

mehr-oqibatni mustahkamlash, muomala madaniyatini o‘stirish, axloqiy-estetik idealni kamolatga yetkazish, mehnat va tabiatga muhabbat ruhini singdirishda ma’naviy-tarbiyaviy ishlarning va ijtimoiy-gumanitar fanlarning roli benihoya kattadir. Demak, oliy ta’lim muassasalari oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biri, milliy va umuminsoniy, ma’naviy qadriyatlarga tayangan holda ta’lim-tarbiya mazmunini insonparvarlik g‘oyasi bilan boyitish, demokratlashtirish, uzviylik, izchillik va dunyoviylikni ta’minlashdan iboratdir.

Hozirgi kunda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida tarbiya texnologiyalarini joriy etish, talabalarga majburiy tarzda bilimlarni berish emas, balki ularda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ichki ehtiyoj, qiziqish hamda rag‘batni yuzaga keltirish, ularning mustaqil, erkin harakat qilishlariga imkoniyatni yaratish, ijodiy fikrlashga undash, ijtimoiy, ta’limiy faolliklarini yuzaga keltirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil qilish zarur.

Demak, oliy ta’lim jarayonini rivojlantirish maqsadida tashkil etilayotgan pedagogik faoliyat samaradorligi ushbu jarayonda tarbiya tamoyillari hamda ta’lim metodlarining uyg‘unligini ta’minlash asosida kechadi.

Umuman olganda, bizning dunyoqarashimiz, faolligimiz va bilimlarimiz darajasi yoshlarimizning shaxs sifatida shakllanishiga, ularning fikrlash qobiliyati va jamiyatimiz uchun naqadar foydali inson bo‘lib yetishishiga katta ta’sir ko‘rsata oladi. Shu sababli, avvalo, o‘zimizdan boshlab, yoshlarimizda dunyoqarashni to‘g‘ri shakllantirishimiz, ijtimoiy faolligini oshirishimiz hozirgi vaqtning dolzarb vazifalaridan biridir. Bugungi yoshlar davlatimizning kuchli salohiyati va buyuk kelajagidir. Buni unutmaslik va ularning kuch-qudratlarini to‘g‘ri yo‘naltira olish, oliy ta’lim muassasalari talabalarida ijodiy faollikni oshirish bugungi kun talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O‘zbekiston, NMIU, 2018.- 448-bet.

2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti. // ped.fan.dokt. ilmiy dar.uchun diss. –T., 2007-yil, 305-bet.

3. Musurmanova O. Pedagogik texnologiyalar-ta’lim samaradorligi omili: Monografiya.–T.:Yoshlar nashriyot uyi, 2020.-184-b.

4. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat. Darslik. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2011-yil, 425-bet.

5. Hakimova M.F. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari: Nazariya va amaliyot (Monografiya). – T.: TDIU, 2019. – 190-b.

6. Hakimova M.F. Zamonaviy iqtisodchining shaxsi. - T.: Iqtisodiyot, 2019. – 160-bet.

7. Fayzullayeva N.S. Ijtimoiy pedagogika. – T.: TDIU, 2012.

Zebo MAMARAIMOVA,
Termiz davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

TALABA-YOSHLARDA MILLIY IFTIXOR TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISHDA OILANING ROLI

Annotatsiya

Maqola talaba-yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini rivojlantirishda oilaning roli masalalariga bag‘ishlangan. Muallif o‘zbekona milliy qadriyatlar negizini ifodalovchi o‘zbek xalqi fazilatlari turkumi bag‘rikenglikni ifodalovchi omillardan biri ekanligi ta’kidlab o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Milliy iftixor tuyg‘usi, bag‘rikenglik, milliy qadriyatlar, milliy mafkura, oila, urf-odatlar.

Статья посвящена роли семьи в воспитании у учащихся чувства национальной гордости. Автор подчеркивает, что набор качеств узбекского народа, лежащий в основе узбекских национальных ценностей, является одним из факторов толерантности.

Ключевые слова. Чувство национальной гордости, толерантности, национальных ценностей, национальной идеологии, семьи, традиции.

The article focuses on the role of the family in instilling a sense of national pride in students. The author emphasizes that the set of qualities of the Uzbek people, which is the basis of Uzbek national values, is one of the factors of tolerance.

Key words. A sense of national pride, tolerance, national values, national ideology, family, traditions.

Ma’lumki, mustaqillik, milliy mafkura, milliy taraqqiyot kabi muqaddas qadriyatlarni xalq keng va teran idrok etmoqda. Qisqa vaqt ichida mamlakatimiz hayotida olamshumul o‘zgarishlar yuz berdi. O‘zbekiston Respublikasining nomi xalqaro maydonda mustaqil davlat sifatida e’tirof etildi. Bu o‘zgarishlar odamlarning ongi va tafakkuriga ham ijobiy ta’sir etmoqda. Binobarin, o‘sib kelayotgan yangi avlod dunyoqarashida milliy iftixor tuyg‘usi tarzida namoyon bo‘lmoqda. Bu tuyg‘uni rivojlantirish, barqaror e’tiqodga aylantirish ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Milliy iftixor tuyg‘usining shakllanishiga asos bo‘luvchi omil milliy o‘z-o‘zini anglashdir. Milliy o‘z-o‘zini anglash millatning rivojlanish va taraqqiyot tarixini yaxshi bilish, taraqqiyotning turli bosqichlarida erishilgan yutuq va muvaffaqiyatlar asosini to‘g‘ri talqin eta olish, milliy qadriyatlar mohiyatini anglay olish, ijobiy milliy-mental xususiyatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish, salbiy xislatlar (masalan, mustaqil fikrga ega bo‘lmaslik, ota-ona yoki yaqinlarga tobe bo‘lib yashash, o‘ta andishalilik, qat’iyatning yetishmasligi)ni ko‘ra olish, milliy madaniyatning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini yetarli darajada baholash, Vatan taqdiri uchun befarq bo‘lmaslik, uning istiqboli uchun kurashish demakdir.

O‘zbekistonda ta’lim tizimining asosiy maqsad va mohiyatidan kelib chiqib shuni e’tirof etish mumkinki, yoshlar ongiga mustaqillikni mustahkamlash, xalqi bilan faxrlanish, milliy iftixor tuyg‘ularini singdirishda “pedagog-talaba”, ”tarbiyachi-tarbiyalanuvchi” munosabatlarida mamlakatda ozod va obod Vatanni, erkin va farovon hayotni

barpo etish bevosita talaba-yoshlarga ham bog‘liqligini tushuntirishdir. Buni amalga oshirish uchun esa ta’lim jarayonida ularning jamiyat taraqqiyoti va ravnaqini ta’minlash, shuningdek, yoshlar tomonidan dunyoviy bilimlarning puxta o‘zlashtirilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi fanlar asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyoj hamda qiziqishini qaror toptirishga e’tibor qaratish lozim.

Yana bir muhim jihat shundan iboratki, yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda balandparvoz gaplar, quruq nasihatgo‘ylikdan qochish kerak. Talabalarning “kattalik hissiga” tayanib, Vatan va el-yurt taraqqiyotida ularning bevosita mas’ul ekanliklari, tarixda ota-bobolarimiz hayoti yuksak ma’naviyat egasi ekanligimizga asos bo‘lishini jiddiy turib, ularning shaxsiy fikrlariga qo‘shilgan holda, bo‘lajak ma’lum kasbkor egalari sifatidagi bilimlarini o‘rgangan tartibda yondashish kerak bo‘ladi.

Talaba-yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda talaba-yoshlar quyidagilarga e’tibor qaratsa maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

– o‘quv mashg‘ulotlarini olib borishda talabalarning yoshi, tafakkuri, dunyoqarashi va qiziqishlarini hisobga olish;

– ta’lim-tarbiyaning ilg‘or, ta’sirchan vositalaridan, zamonaviy o‘qitish texnologiyasi imkoniyatlaridan keng foydalanish;

– ayrim tushunchalarni haddan ziyod soddalashtirish, ta’limning eskicha uslub va tamoyillarini qo‘llash natijasida fanning qadrsizlanishiga yo‘l qo‘ymaslik;

– ta’lim jarayonida tazyiq o‘tkazmasdan ma’rifiy asosda ish tutish, yoshlarning mustaqil va erkin fikrlash, bahs-munozara yuritish ko‘nikmalarini oshirishga e’tibor qaratish;

– o‘qituvchi va tinglovchilar o‘rtasida o‘zaro hamfikrlik va hamkorlik muhitini shakllantirish, mavzuning tushuncha va tamoyillarini sharhlashda hayotiy misollar, bugungi dunyoda ro‘y berayotgan voqealar tahlilidan, matbuot materiallaridan keng foydalanish;

– yoshlarda g‘oyalar o‘z ma’no-mohiyatiga ko‘ra; bunyodkor yoki vayronkor bo‘lishi haqidagi hayotiy va haqqoniy tasavvurlarni shakllantirish;

– milliy istiqlol g‘oyasining insonparvarlik mohiyatini ko‘rsatish asosida mustaqillik biz uchun eng oliy qadriyat, uni asrab-avaylash esa har birimizning muqaddas burchimiz ekanini talabalarning qalbi va ongiga singdirish.

Shu ma’noda, talaba-yoshlar ongiga milliy iftixor tuyg‘usini singdirish masalasi millatning yutuqlari, obro‘-e’tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o‘z eliga, millatiga jonkuyar bo‘lish; o‘z millatining moddiy, ma’naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an’analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o‘z millatiga mehr-muhabbatini amalda namoyon qilish; o‘zga millatlarni hurmat qilish; ajdodlar xotirasi oldida vorislik mas’uliyatini his qilish kabi tarbiya jarayonining jiddiy va kechiktirib bo‘lmas vazifalari bilan bog‘liq.

Masalan, Yaponiyada talabalar xalq tarixi, adabiyoti, madaniyati, musiqasi, o‘ymakorlik san’atiga doir har qanday savolga bemalol javob qaytara olar ekanlar. Chunki shu sohalar maktabdanoq boshqa predmetlar qatori o‘qitilar ekan. Bolalar yoshlik paytidan e’tiboran o‘z xalqi tarixiga aloqador narsalarni ko‘proq bilishlari kerak. Shunda ular boshqa xalqlar tarixini ham oson o‘zlashtiradi.

Yoshlarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishda asosan ular o‘qiydigan, o‘rganadigan barcha turdagi ma’lumotlar (kitoblar, ommaviy-axborot vositalari, muloqot jarayonlari, bevosita ularga o‘qitiladigan fanlar) – shakllanadigan yangicha tasavvurlar, yangicha tarbiya va yangicha dunyoqarash uchun zamindir.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish nafaqat

professor-o‘qituvchilarimizning, balki bevosita ota-onalarning savodxonligi, ularning tarbiyalanganlik darajalari bilan ham bog‘liqdir.

Shaxs ma’naviyati, tarbiyasi, dunyoqarashi – asosan oiladan boshlanadi. Milliy iftixor tuyg‘usi dastlab farzandlarimizga bobolar o‘giti, ota ibrati, ona mehri orqali singdiriladi. Oilasini sevgan, yaqinlarini e’zozlagan tarbiyalanuvchi shaxs hyech qachon Vataniga qarshi bo‘lmaydi, uni sevadi, ardoqlaydi, kelajagi uchun kurashadi. Milliy iftixor tuyg‘usi, avvalambor, o‘zbek oilasidagi tarbiya an’analari va ularni takomillashtirish, milliy qadriyatlarimizni turmush tarzining ajralmas bo‘lagiga aylantirish, o‘zaro muloqotda Sharqona madaniyat va zamonaviy shakllarni uyg‘unlashtirish, xalqimizga ota-meros mehnat tarbiyasi, uning farovon hayotning asosi sifatida qadrlanishiga erishish orqali shakllanib boradi. Ota-ona oilada bolaning nima ish bilan shug‘ullanishi, qanday kitoblarga qiziqishi, qanday filmlar tomosha qilishi, qanday musiqaga qiziqishi, kasb tanlashdagi intilishlari kabi harakatlarini kuzatib, ularni nazorat qilib, maslahatlar berib borishi lozim bo‘ladi. Zamonamizning yana bir unchalik e’tibor qaratilmayotgan, lekin e’tibor berishni talab qiladigan tomoni shundaki, hozir o‘zbek oilalarida avvalgiday ko‘p bolalilik an’anasi kamayib bormoqda. Avval ko‘proq bolalar aka-ukalari, opa-singillari bilan yaqin bo‘lib, tarbiyada ularning ta’siri ko‘proq sezilgan bo‘lsa, hozirgi kunda asosan, ota-ona bitta yoki ikkita farzandining yaqin maslakdoshi bo‘lib qolmoqda. Bu o‘rinda, ayniqsa, ota-onaning savodxonlik darajasi ham inobatga olinishi kerak bo‘ladi.

O‘zbek oilalarida tarbiyaning yana bir muhim jihati shundaki, bobolar va buvilar bola tarbiyasida bevosita ishtirok etadilar. O‘zbek farzandiga kattalarni hurmat qilish kerak, degan gap kam aytiladi, chunki unga ota-onasining o‘zidan kattalarga muomalasi, qariyalarni tashlab qo‘ymaslik, kasallarning holidan xabar olish, chorasizlarga yordam berishni jonli misollarda har kun ko‘radi. Bu xislatlar bizga ota-bobolarimizdan meros va bizning milliy iftixorimizdir. Tarixda ham, masalan, Amir Temur shahzodalarning tarbiyasi bilan yoshi ulug‘ buvilari shug‘ullanishlarini lozim topgan, Shohruh Mirzoning, nabiralari Muhammad Sulton Mirzo, Xalil Sulton Mirzo, Ulug‘bek Mirzolarning tarbiyasi bilan Saroy Mulk xonim shug‘ullanganlar.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish joizki, talabalarda milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish jarayonida bu muammoning psixologik jihatlarini o‘rganish, yoshlarning dunyoqarashlari, qiziqishlari, iqtidorlarini inobatga olib, tarbiyachi va ota-onalarning ta’sirini kuchaytirish orqali harakat qilinsa, kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009.

2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2018.

3. Тишков В. Очерки теории и политики этничности в России. – М.: Институт этнологии и антропологии РАН, 1997, – С.165-166.

Moxir XALIMOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA “AKSONOMETRIK PROYEKSIYALAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Aksonometrik proyeksiyalar” mavzusini o‘qitishni yangicha yondashuvi yoritilgan. Shuningdek, muallif o‘quvchilar koordinata o‘qlari bilan birga obyektning eskizini yasalishini chizmalar orqali ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Aksonometrik proyeksiyalar, model, standart, pedagogika, koordinata, innovatsiya, proyeksiya.

В статье описан новый подход к преподаванию аксонометрической проекции в общеобразовательных школах.

Ключевые слова. Аксонометрические проекции, модель, стандарт, педагогика, координата, инновация, проекция.

The article describes a new approach to teaching Axonometric Projections in general secondary schools. The author also showed students how to make a sketch of an object with coordinate axes.

Key words. Axonometric projections, model, standard, pedagogy, coordinate, innovation, projection.

Ma’lumki, aksonometrik proyeksiyalarda vizual tasvirlar uzoq yillardan buyon umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tasvirlarni chizish jarayonida o‘rganilgan. Vaqt o‘tishi bilan maktabda rasm chizishni o‘rgatishning maqsadi va vazifalari hayot uchun maktab tomonidan qo‘yilgan talablarga muvofiq o‘zgargan. Shu bilan birga, o‘quv metodikasi, rasm chizish orqali o‘quvchilarga yetkaziladigan bilimlarning hajmi va mazmuni o‘zgardi. Biroq, kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, “Aksonometrik proyeksiyalar” mavzusidagi bilimlar miqdorini oshirishda quyidagilarni, xususan, proyeksion va vizual tasvir tushunchasi, aksonometrik proyeksiya tushunchasi, shuningdek, turli geometrik jismlar izometriya va boshqa aksonometrik proyeksiyalarda tasvirlash texnikasining xususiyatlari bilan tanishish va boshqalarni bilish talab qilinadi.

Aksonometrik proyeksiyalar yangi buyum loyihalanayotganda, badiiy loyihalashda, ilm-fanda, texnikada asosiy tasviriy vosita hisoblanadi. Ular oson o‘qiladi va proyeksiyalarda berilgan buyum chizmalarini tez o‘qishga yordam beradi. Ba’zi bir qismda detallarni qiynalmasdan o‘qishga yordam beradi.[1]

O‘quvchilarga proyeksion usul haqida tushuncha berish maqsadida soha olimlari turli xil usullardan turlicha maqsadda foydalanib kelmoqdalar. Masalan, rossiyalik olim I.D.Sigov buning uchun maxsus ekranni ishlatishni va proyeksion chiroq yoki boshqa yorug‘lik manbai yordamida simli modellar yoki uch o‘lchamli narsalarning soyalaridan foydalanadi. Ushbu usul qulaydir, chunki o‘quv jarayonida o‘quvchilar o‘zlarining

[1] Z.Mirzaliyev. Chizma geometriya va texnik rasm. Navro‘z, T-2014, 135-bet.

kundalik tajribalariga asoslangan proyeksiyalar haqida tasavvurga ega bo‘ladilar, o‘quvchilar esa proyeksion tasvirni olish uchun umumlashtirilgan elementlarni – nuqtayi nazarni, proyeksion nurni va proyeksiyalar tekisligini ta’kidlashlari kerak. Yana bir rossiyalik olim V.O.Gordon esa proyeksiyalash usulini nuqta, tekis shakl yoki kubni proyeksiyalash misolidan foydalanib tushuntiradi. Ushbu usul geometrik sxema bo‘lib, uning yordamida proyeksiyalash usullarining mohiyatini aniqlash va proyeksion moslamaning elementlarini ajratib ko‘rsatish oson. Biroq, ushbu usuldan foydalanib, o‘quvchilar ma’lum bir mavzuni namoyish etganda proyeksion elementlarni yaratish qiyinlashadi. Pedagogik amaliyotda ko‘plab o‘qituvchilar ushbu ikkala usulni ham birlashtiradilar. Birinchidan, tasvirni olish jarayoni yorug‘lik soyasi misolida ko‘rsatiladi, so‘ngra proyeksion apparatni shakllantirishning geometrik naqshlari namoyish etiladi. Xulosa qilib aytganda, aksariyat o‘qituvchilar o‘quvchilarning e’tiborini proyeksiyalash usullarining ikkita muhim xususiyatiga – proyeksion va qismga qaratadilar. O‘zbek olimlaridan I.Rahmonov muallifligidagi 9-sinf uchun Chizmachilik darsligida aksonometrik qoidalarga amal qilib to‘g‘ri bajarilgan detalning ichki tuzilishini qirqim qo‘llanilmagan bo‘lsa o‘qish qiyinlashadi. Shu boisdan, to‘g‘ri burchakli ko‘rinish chizmalaridagi kabi detalning ichki tuzilishini aniqlash maqsadida aksonometrik proyeksiyada ham qirqim qo‘llanilishi aytiladi.[2] Y.Qirg‘izboyev va boshqalar muallifligidagi mashinasozlik chizmachiligi darsligida detalning ish chizmasi bilan birga uning ko‘rgazmali tasviri berilishi o‘quvchi yoki talabalar tomonidan tez va oson o‘qilishi aytilgan.[3]


Yosh tadqiqotlardan K.Malikov agar aksonometrik proyeksiyalarning hosil bo‘lish qonuniyatlarini, ya’ni o‘qlari orasidagi burchak va o‘qlar bo‘ylab qisqarish (o‘zgarish koeffitsientlari) qiymatlarini grafik usul bilan aniqlash modeli – apparatini ishlab chiqishga erishilsa o‘quvchi va talabalarning bu mavzuning mazmun hamda mohiyatini o‘zlashtirishlari oson va qulay kechadi, degan ilmiy farazni ilgari surgan.[4]

Aksonometrik proyeksiyalar mavzusida mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun turli xil o‘qitish usullarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quv jarayonida o‘quvchilar aksonometrik proyeksiyalar haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lmaydilar. Chunki barcha holatlarda aksonometrik tasvir to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita vizual tasvir sifatida aniqlangan, unda tasvirlangan obyekt elementlarining parallelizmi saqlanib qolgan. Biroq, bunday tasvirda parallelizmni saqlash zarur, ammo, bu detal to‘g‘risida yetarlicha ma’lumot degani emas. Ko‘rib chiqilgan o‘qitish usullarining muhim kamchiliklari, bizning fikrimizcha, maktab o‘quvchilar o‘rtasida koordinata usuli to‘g‘risida bilimlarning yetishmasligi, tushunchasi matematikadan va 7-sinf o‘quvchilariga rasm chizish darslarida aksonometriyada tasvirlarni qurish usullari bilan tanishgandan keyin yetkaziladi. Shu bilan birga, turli xil obyektlar va ko‘pgina geometrik jismlarning perspektiv ko‘rinishini ongli ravishda qurish o‘quvchilardan koordinata usulini bilishni talab qiladi. Shunday qilib, masalan, uchburchak prizma tasvirini qurishda, uning aksonometriyasini qurish uchun bazaning bitta uchini ikkita koordinatasini, boshqa ikki uchini esa proyeksiya ustiga qo‘yish kerak (1-chizma).

[2] Raxmonov I. va boshqalar. 9-sinf. Chizmachilik darsligi. O‘zbekiston, T.,–2019, 26-bet.

[3] Qirg‘izboyev Y. va boshqalar. Mashinasozlik chizmachiligi darsligi. O‘qituvchi, T.,–1981, 93-bet.

[4] Malikov K.G. Aksonometrik proyeksiyalarni hosil qilishning amaliy ahamiyati. Xalq ta’limi -4-son.2020-yil, 40-bet.



a. ***1-chizma*** b.

Aksonometrik chizmada tasvirlangan obyekt elementlarining nisbiy o‘rnini aniqlash uchun koordinatalar usulidan foydalanish o‘quvchilar obyektning geometrik elementlarining (nuqta va chiziqlar) koordinatalarini aniqlash, ularning tasvirlarini ushbu koordinatalar yordamida qurish, shuningdek, tasvirlangan obyektni tabiiy koordinatalar tizimiga nisbatan to‘g‘ri yo‘naltirish qobiliyatiga ega ekanliklarini bildiradi. Ammo, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilarida bu ko‘nikmalarni shakllantirishga e’tibor berilmaydi. Hozirgi maktablarda chizmachilikni o‘qitish tizimida o‘quvchilarga koordinat usuli to‘g‘risida ma’lumot berilmasa, aksonometrik tasvirlarni yaratish masalasi qanday hal qilinadi? Aksariyat o‘qituvchilar aksonometrik proyeksiyani qurish usullarini, odatda, oddiy obyektlar yoki individual geometrik jismlarning rasmlarini qurish misolidan foydalanib tushuntirishadi. Shu bilan birga o‘quvchilarga bunday rasmlarni yaratishning umumiy usuli to‘g‘risida ma’lumot berilmaydi va har bir alohida holatda bajarilishi kerak bo‘lgan inshootlar ko‘rsatiladi. Ushbu tavsiflar retseptiv xususiyatga ega bo‘lib, unda harakatlar tartibi bo‘yicha ko‘rsatmalar mavjud, maktab o‘quvchilariga ushbu harakatlarning mantiqiy asoslari berilgan bo‘ladi. Ushbu o‘qitish metodikasi yordamida o‘quvchilar berilgan geometrik jismning tasvirini qanday yaratishni o‘rganadilar va eslaydilar, obyekt shakli avvalroq ko‘rib chiqilgan shaklga o‘xshash rasmni yaratish zarur bo‘lganda, ular katta qiyinchiliklarga duch keladilar. Masalan, kuzatishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, olti burchakli prizma aksonometriyasini o‘qituvchi rahbarligi ostida qurgan o‘quvchilar mustaqil ravishda beshburchak prizma tasvirini qura olmasliklari aniqlandi. Shunday qilib, mavjud o‘quv sharoitida o‘quvchilar ko‘p hollarda mavzuni to‘rtburchaklar tizim koordinatasi bilan birgalikda loyihalash zarurligini tushunmaydilar.

Koordinatalar usuli to‘g‘risida zarur bilimlarning yo‘qligi, shuningdek, ushbu bilimlarni qo‘llash ko‘nikmalari o‘quvchilarga aksonometrik o‘qlarning maqsadini tushunishga to‘sqinlik qiladi. Masalan, o‘quvchilar to‘rtburchaklar shaklidagi obyektning aksonometriyasini qurish vazifasini muvaffaqiyatli bajardilar va boshqa barcha holatlarda obyektning tasvirini yaratish uchun uning sirtidagi individual nuqtalarning koordinatalarini aniqlash zarur bo‘lganda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechirdilar.

Maktab kursida koordinata usuli tushunchasini ko‘rib chiqish zaruriyati aksonometrik proyeksiya usulni amaliyotda qo‘llash xarakteri bilan ham belgilanadi.

Ma’lumki, hozirgi vaqtda aksonometrik tasvirlar fan va texnikaning ko‘plab sohalarida qo‘llaniladi. Masalan, mashinasozlikda yangi mashinalarning tugunlari va murakkab konfiguratsiyaning turli qismlari aksonometrik tasvirlari qurilgan. Qurilishda qurilish konstruksiyalari va binolarning qismlari, turli xil inshootlar, shuningdek, uy-ro‘zg‘or

buyumlari va mebel jihozlarining istiqbolli ko‘rinishi amalga oshiriladi. Aksonometriya kristallografiyada kristallarning shaklini tasvirlash uchun ishlatiladi. Kon qazish jarayonida shaxtalarni qazib olish va qazish rejalari aksonometrik tasvirlari qurilgan. Ushbu tasvirlarning asosiy maqsadi ko‘rib chiqilayotgan obyektning vizual ko‘rinishini berishdir. Shuni ta’kidlash kerakki, bugungi kunda aksonometriyani qo‘llash sezilarli darajada kengaydi, aksonometrik proyeksiyalash ko‘p komponentli qotishma tizimlari va yechimlarini fizik-kimyoviy tadqiqotlarni o‘tkazish uchun, yangi yo‘llar va gidrotexnik inshootlarni loyihalashda, fazoviy statikalar muammolarini hal qilishda va hokazolarda ishlatildi.

Nisbatan o‘zboshimchalik bilan pozitsiyani egallagan predmet elementlari dastlab koordinatali tizimlar, so‘ngra ularning aksonometriyasi shu koordinatalar asosida qurilgan. Shu bilan birga, ularning o‘quvchilarining barcha harakatlari, oqlash tufayli yanada mazmunli bo‘lishini ta’minlaydi.

Koordinata usuli konsepsiyasidan foydalanish o‘quvchilar aksonometriyani chizishda bajargan barcha harakatlarini shunga o‘xshash muammolarni hal qilishda ko‘rsatma beradigan umumiy qoidaga keltirishga imkon berdi. Mashg‘ulot shunday boshlanganki, dastlab o‘quvchilar shakli to‘rtburchaklar va o‘zaro perpendikulyar elementlardan tashkil topgan obyektlarning tasvirlarini qurish usullari bilan tanishdilar, so‘ngra shakli bo‘lgan elementlar bir-birlariga turli xil bo‘lgan narsalarning tasvirlarini qurishda hisobga olindi. Ikkala holatda ham aksonometrik tasvirni qurishning koordinatali usuli ishlatilgan. Ta’kidlash joizki, o‘quvchilar dastlab predmetning shaklini tahlil qilishadi va tasvirni qurish tartibini oldindan belgilab olishadi. Obyekt shaklini tahlil qilish faqat alohida geometrik jismlarni izolyatsiya qilish bilan cheklanmaydi, balki uning alohida elementlari ham hisobga olinadi. Qurilish tartibini belgilashda o‘quvchi obyektning tasvirini berilgan proyeksiyada tasavvur qilishi kerak. Obyektning asosiy shaklini va alohida elementlarni aksonometrik o‘qlarga nisbatan to‘g‘ri yo‘naltirish, obyektning yo‘nalishi esa aksonometrik proyeksiya chizishda o‘lchov ehtiyojlari bilan belgilanadi. Tasvirni qurish tartibini o‘rnatmasdan oldin, o‘quvchi individual elementlarni va obyektning butun shaklini oddiy o‘lchash qobiliyatini aqliy tekshirishi kerak, shundan so‘ng obyektning koordinata o‘qiga nisbatan eng maqbul pozitsiyasi tanlanadi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlaymizki, murakkab geometrik shaklga ega obyektlarning perspektiv ko‘rinishini qurish tartibi obyektning o‘zi shakliga qarab tanlangan. Bir holatda, obyektning shakli bir necha geometrik jismlarning yig‘indisi sifatida qabul qilinadi, ularning aksonometrik proyeksiyasi ketma-ket quriladi. Ikkinchisida, obyektning shakli bir necha geometrik jismlarning farqi sifatida qaraladi. Keyin obyektning asosiy elementining shakli butun aqliy ravishda to‘ldiriladi va undan kichikroq elementning shakli olinadi. Uchinchisida – butun obyektni parallelepipedga yoki boshqa geometrik jismga kiritish maqsadga muvofiq bo‘ladi, shundan keyin berilgan obyektning aksonometrik proyeksiyasi unga to‘g‘ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmonov I., Yuldasheva D., Abdurahmonova M. Chizmachilik (9-sinf o‘quvchilari uchun) – T.: O‘zbekiston, 2019-y.

2. Ushinskiy K.D. Inson bilim olish predmeti sifatida. Pedagogik antropologiya tajribasi. Asarlar to‘plami. – M.,1950-y.

3. Raxmonov I., Xalimov M. Chizmachilik (umumo‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari uchun) – T.: Adabiyot uchqunlari, 2016-y.

Lola BOYMIRZAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti

ONA TILI DARSLARIDA NOSTANDART MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada mashqlar, nostandart mashq va topshiriqlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ilmiy-nazariy asoslari hamda ular asosida ona tili darslari samaradorligini oshirishning o‘rni, ahamiyati tahlil qilinib metodik tavsiyalar berilgan. Nostandart mashq va topshiriqlari tashkil etish, ularga qo‘yiladigan talablar haqida olimlar va pedagoglarning ilmiy ma’lumotlariga fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Mashqlar, nostandart mashq va topshiriqlar, matn, morfologik birliklar, morfemik shakllar, sintaktik qurilma, matn ustida ishlash.

В данной статье представлены технические рекомендации по освоению для них уроков родного языка, важность которых анализируется, наряду с основами научной теории, специфическими для выполнения упражнений, нестандартных упражнений и заданий. Объяснил научные перспективы педагогического образования.

Ключевые слова. Упражнения, нестандартные упражнения и задания, текст, морфологические единицы, морфемические формы, синтаксическое построение, работа над текстом.

This article presents technical recommendations for mastering the lessons of the native language for them, the importance of which is analyzed, along with the basics of scientific theory, specific to the performance of exercises, non-standard exercises and tasks. Explained the scientific perspectives of teacher education.

Key words. Exercises, non-standard exercises and tasks, text, morphological units, morphemic forms, syntactic construction, work on the text.

Respublikamizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosini yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol inson darajasida tarbiyalashdan iboratdir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev, “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” deya ta’kidlagan fikrlarida purma’no hikmat bor. Huquqiy, demokratik davlat jamiyatini barpo etish yo‘lidan yuksak odimlar bilan rivojlanayotgan davlatimizda ertangi kunimizning poydevori bo‘lmish o‘quvchi-yoshlarni erkin va mustaqil fikrlab ijodiy yondashib, zamonaviy bilimlarni chuqur egallab,o‘z vatani taqdiri uchun jonkuyar farzand sifatida faoliyat olib boradigan tashabbuskor yoshlarni voyaga yetkazish asosiy vazifalardan biri ekanligi belgilangan. Tashabbuskor yoshlarni tarbiyalashda til ta’limining o‘rni beqiyosdir. Darslarni yuqori saviyada o‘tkazish, darsga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni olib kirish, yangi-yangi dars uslublarini ishlab chiqish, o‘qituvchilarning o‘z ustlarida ishlab borishlari, zamon bilan hamnafas yashash pedagoglar, yetuk mutaxassislar, o‘qituvchilar oldida turgan eng asosiy vazifaga aylandi.

Bugungi kunda, xususan, til ta’limini rivojlantirishga, farzandlarimizning kuchli bilim-

larini egallab, salohiyatli bo‘lib kamol topishlarini ta’minlash uchun qulay shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilmoqda. Shu imkoniyatlar va sharoitlardan unumli foydalangan holda ona tili fani o‘qituvchilari darslarni zamonaviy texnologiyalar hamda innovatsion usullar tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ona tili darslarida o‘quvchilar mavzuni tushunishi uchun birinchi galdagi manba grammatik qoidalar bo‘lsa, ikkinchisi mashq va topshiriqlar sanaladi. “Ona tili” darsliklariga kirgan har bir mashq o‘quv materiali sifatida o‘quvchilarning ona tili fanidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. I.M.Podgaetskaya mashq va topshiriqlarni bajartirish xususida quyidagicha fikrlaydi: “... metodik jihatdan qiziqish deganda o‘quvchilarda o‘quv fanidan o‘tilayotgan bilimlarni bilib olish istagini uyg‘otadigan va ushbu o‘quv faniga bo‘lgan ishtiyoqni rag‘batlantirib turadigan bir emotsional munosabat tushuniladi. Tashqaridan qaraganda bu munosabat tirishqoqlikda, qiziquvchanlikda namoyon bo‘ladi”.[1] Mashqlarni bajarish natijasida, ular o‘zlari egallagan bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish, uni zarur bo‘lganda amaliy faoliyatda to‘plash imkoniyatlariga ega bo‘ladilar.

Aytish joizki, mashq va topshiriqlarni tuzishga jiddiy e’tibor berish lozim. O. Roziqov boshchiligida tuzilgan “Ona tili didaktikasi” darsligida mashqlarni tashkil etish bo‘yicha fikri o‘rinli. “Mashq qilish uchun o‘quv topshiriqlarini tuzish jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

1. Nutq shakllariga evristik, adaptiv, noadaptiv, alternativ ko‘rinishdagi o‘quv topshiriqlari miqdorini aniqlash.

2. Tuziladigan o‘quv topshiriqlari tizimida o‘quvchilarning ijodiy va qayta xotirlash faoliyatini hisobga olish.

3. O‘quv materiali mazmuniga ko‘ra topshiriqlarning turini aniqlash. Topshiriqlar tuzish jarayonida mavzuni mustahkamlashni inobatga olish bilan birga nutq va tafakkurni rivojlantirish masalalari diqqat markazida bo‘lishi kerak”.[2]

O‘quvchilar o‘quv materialini o‘zlashtirishi bilan bir qatorda ijodiylik, mustaqil fikrlash rivojlanib borishi ijobiy natijani beradi va dars samaradorligi oshadi. Ona tili darslaridagi samaradorlik oshishida grammatik, nutqiy, maxsus mashqlarni ham qo‘llash samaralidir. H.Bakiyevaning fikricha, “O‘quvchilar o‘z fikrini to‘g‘ri va mukammal ifodalash ko‘nikmasini egallashlari uchun o‘qituvchi nutqiy kamchiliklarni bartaraf etuvchi va nutqni lug‘aviy birliklar bilan boyituvchi maxsus mashqlarni muntazam tashkil etishi lozim”.[3] Maxsus mashqlar o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalar hosil qilishda, xato va kamchiliklarni bartaraf etishda muhim o‘rin egallaydi. Bunday mashqlar qatoriga nostandart mashq va topshiriqlarni kiritish mumkin. Nostandart xarakterdagi mustaqil o‘quv topshiriqlar esa bajarish usuli o‘quvchiga noma’lum bo‘lgan va izlab topishga asoslangan, mavjud bilimlarni o‘xshash bo‘lmagan sharoitlarda qo‘llash talab qiladigan topshiriqlardir. Nostandart mashq va topshiriqlar o‘quv jarayonida o‘quvchilarni izlanish natijasida bilimlarni kengaytirishga xizmat qilishi bilan ajralib turadi.

“Ona tili” fani dasturlardagi o‘quv materiallarini o‘qitish va o‘rgatish jarayonida yuqorida qayd etilgan nostandart mashq va topshiriqlardan unumli foydalanishga,

[1] Подгаецкая И.М. Воспитание у учащихся интереса к изучения русского языка. –Т.: Просвещение, 1985. С.–208.

[2] Roziqov O.R v.b. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. –62-b.

[3] Bakiyeva H.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta’lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi. Ped.fan.nom. diss. –T.: 2019. –33-b.

mashg‘ulot davomida qo‘llashga to‘g‘ri keladi. Chunki, ularning har ikkalasi ham o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini taraqqiy ettirishda muayyan imkoniyatlarga egaki, biz quyida ana shu imkoniyatlarni to‘laroq ishga solish choralari haqida qisqacha so‘z yuritamiz. Ta’lim jarayonlarida, jumladan, 9-sinf “Ona tili” darslarida nostandart mashq va topshiriqlarni qo‘llash muhim o‘rin tutadi. Maktab o‘quvchisi berilgan nostandart mashq va topshiriqlarni to‘liq tushunib bajarishi uchun tilshunoslik bo‘limlarini mukammal bilishi, mustaqil so‘zlarni bir-biriga bog‘lovchi grammatik vositalar, sintaktik shakl yasovchi morfologik ko‘rsatkichlar qo‘llanilish o‘rinlari, so‘zlarni tobe bog‘lanishda ishtirok etuvchi kelishik qo‘shimchalari, ko‘makchilar va ohangni o‘rnida ishlatishni o‘rganishi hamda ushbu topshiriqlarni bajarishi uchun matnda ishatiladigan leksik va grammatik vositalar yuzasidan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi. 9-sinf “Ona tili” darsligida tishunoslikning “Sintaksis” bo‘limi bo‘yicha ilmiy-nazariy ma’lumotlar o‘rin olgan bo‘lib, qo‘shma gaplar va ularning turlari o‘rgatiladi. Bizga ma’lumki, tilshunoslikning “Morfologiya” bo‘limini yaxshi o‘zlashtirgan o‘quvchi “Sintaksis” bo‘limini talab darajasida o‘zlashtirib, qo‘shma gaplarni, qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lovchi vositalarni yaxshi anglab,qo‘shma gaplarning ishlatilish o‘rinlari bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. O‘quvchilarning nutqiy faoliyatida og‘zaki nutqqa qaraganda yozma nutqda qo‘shma gaplar ko‘p ishlatiladi. 90-mashq. Matnni o‘qing. Tarkibidagi qo‘shma gaplarni ajratib yozing va qo‘shma gap turini aniqlang.Bu mashq shartini matndan qo‘shma gaplarni topib, fikrning ravshanligi va tiniqligi, fikrlashda o‘ylab, bosiqlik bilan gapirish haqida o‘z fikr-mulohazalaringizni bildiring topshirig‘i bilan bajarilsa, dars jarayonida o‘quvchilar izlanishga harakat qiladilar, ularda zukkolik xususiyatlari yanada rivojlanadi.

“Ravshanlik tilning asosiy fazilatidir. Fikr tiniq bo‘lsa, nutq ravon va chiroyli bo‘ladi. Shoshilib, uzuq-yuluq gapirgan odam so‘z ustasi sanalmaydi. Shuni bilingki, bunday odamlar, ko‘pincha, maqtanchoq va yolg‘onchi bo‘ladi. Demak, o‘z fikrini o‘ylab, bosiqlik bilan gapirgan odam har doim yutadi”.[4] Ona tili darslarida berilgan mashq va topshiriqlar grammatik bilimlarni egallash barobarida o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini takomillashtiradi, darsga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Shu o‘rinda metodist olim I.V.Raxmanov fikrini keltirish o‘rinli. “Til mashqlari til tizimiga oid materialni o‘zlashtirish va uni nutqda qo‘llashga tayyorlash uchun xizmat qiladi, nutqiy mashqlar boshqalar fikrini tushunishga o‘rgatadi.[5] Til mashqlari grammatik qoidani o‘rganishga yordam bersa, o‘quvchilar nutqiy mashqlar vositasida nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini haqidagi bilimlani egallab, aniq va mantiqli nutqni o‘stirib boradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, 9-sinf “Ona tili” darsligida nutqning xususiyatlarini rivojlantiruvchi mashqlar talaygina.

9-sinf “Ona tili” darsligiga turli badiiy asarlardan tanlangan gaplar, tarbiya mazmuni, insoniy faziatlar singdirilgan matnlar, vatan, xalq, til, bilim egallash haqidagi she’rlar kiritilgan.

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman. (A.Oripov)

[4] Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. –T.: Tasvir, –2010.-37-b.

[5] Рахманов И.В. Методические требования к учебникам иностранных языков для восьмилетний школы // иностранных языки в школе. – Москва,1965. №4. С.28-30.

Bu kabi badiiy matn, she’riy parchaga tuzilgan nostandart mashq va topshiriqlar dars samaradorligini oshirishda va mustaqil fikrlash salohiyati o‘sishi o‘zining ijobiy ta’siriga ega.

Nostandart mashq va topshiriqlarni qo‘llash jarayonida ko‘rgazmalardan, testdan foydalanish ham o‘quvchilar uchun qiziqarli jarayonga aylanadi. Bu mashq va topshiriqlarni ekranda ko‘rib bajarishi darsning imkoniyatlaridan unumli foydalanishlariga yordam beradi.

O‘quvchilarning “Ona tili” darsligida berilgan nazariy va amaliy xarakterdagi o‘quv materiallarini o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlashda, egallangan bilim va ko‘nikmalarning qay darajada ekanligini aniqlab olishda testing o‘rni alohida ahamiyatga ega.

Ona tili darslarida testdan foydalanish ham o‘quvchilarning olgan bilimlarini sinovdan o‘tkazadi, bilmagan ma’lumotlarni qidirishni, izlanishni talab qiladi.

“Ona tili” darsliklarida berilgan mashq va topshiriqlarni bajartirish o‘zaro hamkorlikda tahlil qilish, ularning xato va kamchiliklarini bartaraf qilish ona tili darslarida foydalanilgan nostandart mashq va topshiriqlar mahsuli bilan bog‘liq. Maxsus tuzilgan nostandart mashq va topshiriqlar quyidagi vazifalarni bajaradi.

– fanga oid lingvistik kompetensiyalari, nutqiy kompetensiyalari talablari rivojlanadi;

– mavzuni to‘liq o‘rganish uchun izlanishga intilishga harakat qiladi;

– mashq va topshiriqlarni bajarishga qiziqishi ortadi;

– ijodiylik, topqirlik, zukkolik, faollik xususiyatlari yanada rivojlanadi;

– dunyoqarashi, mustaqil fikrlash doirasi kengayadi;

– nutqiy faoliyati takomillashadi.

Xulosa qilib aytganda, til ta’limining barcha bosqichlarida nostandart mashq va topshiriqlardan unumli foydalanish dars o‘tish mobaynida o‘quvchilarning ona tili fanidan puxta va keng bilim va ko‘nikmalar hosil qilishlarida, izlanuvchanlik, ijodkorlik xususiyatlarini rivojlantirishda, egallangan bilimlarni turli vaziyatlarda amaliy tatbiq qilishda muhim ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Ona tili fani ta’lim-tarbiya birligiga asoslanib, o‘sib kelayotgan yosh avlodda siyosiy, g‘oyaviy, ma’naviy-axloqiy, insoniy fazilatlarni, yuksak ong va madaniyatni, intellektual salohiyatni shakllantiradi. Shu bois, ona tili darslarida nostandart mashq va topshiriqlarni qo‘llash o‘qituvchining bilimni yetkazish, olgan bilimlarni mustahkamlash va hayotda amaliy qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishda ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bakiyeva H.S. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ta’lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi. Ped.fan.nom. diss. –T., 2019. –33-b.

2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. –T.: Tasvir, –2010. –37-b.

3. Подгаецкая И.М. Воспитание у учащихся интереса к изучения русского языка. –Т.: Просвещение, 1985. С.–208.

4. Roziqov O.R v.b. Ona tili didaktikasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2005. –62-b.

5. Рахманов И.В. Методические требования к учебникам иностранных языков для восьмилетний школы // иностранных языки в школе. –Москва,1965. №4. С.28-30.

Matluba SHODIYEVA,
Qashqadaryo viloyati XTXQTMOHM “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim” kafedrasi mudiri, p.f.f.d.

O‘QITUVCHINING KASBIY VA IJODIY RIVOJLANISHINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim orqali kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish shakl va vositalari, o‘qituvchilarni mustaqil kasbiy-ijodiy rivojlantirishning tashkiliy jihatlari haqida batafsil bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Mustaqil ta’lim, o‘qituvchining kasbiy kompetentligi va kasbiy layoqati, o‘qituvchining mustaqil kasbiy-ijodiy rivojlanishi.

В данной статье подробно излагается о формах и средствах совершенствования профессиональной компетенции учителей посредством самостоятельного образования, об организационных аспектах самостоятельного профессионально-творческого развития учителя.

Ключевые слова. Самостоятельное образование, профессиональная компетентность и профессиональная способность учителя, самостоятельное профессионально-творческое развитие учителя.

In this article it is thoroughly stated forms and means of improving professional competencies of teachers through self-learning, organizational sides of self-professional – creative development of the teacher.

Key words. Self-study, professional competence and skill of the teacher, self-professional-creative improvement of the teacher.

O‘qituvchi har doim o‘qitishga doir rejalarini amalga oshirishda o‘zining shaxsiy va kasbiy qobiliyatlarini hamda o‘zini-o‘zi anglashi uchun ijodiy salohiyatini oshirishga imkon beradigan cheksiz ehtiyojlar mavjud bo‘ladi. Zamonaviy va innovatsion ta’lim standartlari sharoitida o‘quvchini o‘qitishda shaxsiy va kasbiy rivojlanish natijasi muhim hisoblanadi. Shaxsning o‘zini-o‘zi rivojlantirishini ijodiy o‘zini-o‘zi anglash orqali amalga oshirilib, o‘qituvchi shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan kasbiy tan olinishga erishadi. Istiqbolli pedagog ijodkorlik darajasi, rivojlanish darajasi va tayyorgarlik darajasi bilan ajralib turadi.

Bugungi globallashuv davrida o‘qituvchining shaxs sifatida kasbiy va ijodiy fazilatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, yuqori kasbiy va ijodiy yutuq darajasiga ega emasligi kabi pedagogik muammolar mavjud. Insonning “kasbiy va ijodiy rivojlanishi” tushunchasining o‘zi har xil talqinlarga ega va umuman qabul qilingan ta’rifni topish mumkin emas. Ilmiy tadqiqot va adabiyotlarda bir-birini to‘ldiruvchi, ayrim hollarda bir-biriga zid bo‘lgan bir qator mualliflik ta’riflarini uchratamiz.

Rivojlanish – bu insonning jismoniy va ma’naviy kuchlaridagi (jismoniy, ijtimoiy, aqliy, ma’naviy rivojlanish) ichki sifat va miqdoriy o‘zgarishlar jarayoni va natijasidir. Ko‘pgina mutaxassislar ta’kidicha, inson resurslarini rivojlantirishga doir keng sohalarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bu – shaxsning kasbiy rivojlanishi bo‘lib, odatda, insonning kamolot, shakllanish, o‘zini takomillashtirish, o‘zini rivojlantirish kabi progressiv

rivojlanishi bilan aniqlanadi.

M.T. Mirsoliyeva “kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish – DTS talablari asosida shaxsda maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo‘lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik jarayonidir”, deya izohlaydi.

T.T. Shaymardonovning fikriga ko‘ra, “pedagogning kasbiy kompetentligi va mahoratining rivojlanishida ma’lum fan asoslari sohasida yetarli nazariy hamda amaliy bilimlarning, ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasining shakllanganligi hamda uzluksiz ravishda o‘z-o‘zini mustaqil kasbiy rivojlantirib borish motivatsiyasining qaror topganligi ham muhim omillardan sanaladi”. Muallifning nuqtayi nazariga ko‘ra, “pedagogni o‘z-o‘zini uzluksiz kasbiy-pedagogik rivojlantirishga yo‘naltirish muhim hisoblanadi va bu orqali pedagog o‘z kasbiy o‘sishining maqsadi, shakllari, vositalari hamda individual trayektoriyasini mustaqil belgilaydi”.

Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, “kasbiy rivojlanish”ga kasbiy mavqega erishish yo‘nalishi, kasbiy yutuqlarning mavjudligi, o‘qitish jarayoni va natijalaridan qoniqish, ish joyining, kasbning o‘zgarishi yoki barqarorligi kiradi. Kasbiy rivojlanishning eng asosiy tarkibiy qismi bu – ijodiy rivojlanish hisoblanadi. Ijodiy rivojlanishning bir-birini to‘ldiradigan turli xil ta’riflari mavjud.

Y.N. Kulyutkinning fikriga ko‘ra, insonning ijodiy salohiyatini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun ba’zi muhim fazilatlar zarur: ijodiy faoliyat, o‘ziga xoslik, yangilikni joriy etish qobiliyati va istagi, g‘oyalarni birlashtirish, kuchlarni safarbar etish va o‘tgan tajribani qayta tiklash, rivojlangan tasavvurga va hissiy munosabatlarga egalik qilish.

O‘qituvchining ijodiy salohiyati – bu o‘qituvchi ijodiyoti jarayonida amalga oshiriladigan aqliy jarayonlar va shaxsiy xususiyatlarining kombinatsiyasi. Ijodiy salohiyat shaxsning o‘zini-o‘zi rivojlantirish manbalari asosida amalga oshiriladi.

Mavjud ta’riflarni umumlashtirib, quyidagicha xulosa qilish mumkin: “kasbiy-ijodiy salohiyat bu – kasbiy va ijodiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur va yetarli bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar va fazilatlar to‘plami”. O‘qituvchining o‘zini anglashi, o‘z shaxsi haqidagi tasavvurini shakllantira olishi uning ijodiy faolligini rivojlantirishning kafolati sanaladi. Mutaxassisning kasbiy va ijodiy salohiyatining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

– davlat ta’lim standartining malaka talablari bilan belgilanadigan kasbiy kompetentlikka, shuningdek, asosiy ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish;

– zamonaviy ijodiy metodikaga ega bo‘lish;

– kasbiy va ijodiy fikrlash;

– kasbiy va ijodiy shaxsiyat xususiyatlari, fazilatlari va qobiliyatlariga ega bo‘lish.

Tadqiqotchilarning fikrlarini taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, kasbiy rivojlanishning mohiyatini belgilashda uni shaxsiy o‘zgarishlarga va kasbiy fazilatlarning shakllanishiga olib boruvchi doimiy jarayon sifatida ko‘rib chiqish masalasida fikrlarning o‘xshashligi mavjud. Ushbu muammo bo‘yicha turli xil qarashlarni umumlashtirib, kasbiy rivojlanish kategoriyasi tabiiy o‘zgarish jarayoni, shu jumladan, jamiyat rivojlanishi sharoitida kasbiy faoliyatda miqdoriy va sifat o‘zgarishlari deb ta’riflanishi mumkin. Shunday qilib, kasbiy-ijodiy rivojlanish – bu o‘zini-o‘zi tahlil qilish, baholash va anglash, intellektual va amaliy bilim, ko‘nikma hamda malakalarni egallash, o‘qitish jarayonini tashkil etishga doir iqtidor va kompetentlikka asoslangan yechimlarni topish yuzasidan tayyorgarlik

jarayoni. Bunda ijodiy faoliyat, o‘ziga xoslik, yangilikni joriy etish qobiliyati va istagi, g‘oyalarni birlashtirish, kuchlarni safarbar qilish va o‘tgan tajribani qayta tiklash, rivojlangan tasavvur va hissiy munosabat, ijodiy tashabbus muhim rol o‘ynaydi.

O‘qituvchi shaxsining mustaqil kasbiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish tizimidagi boshlang‘ich rolni tartibga solish tamoyillari – maqsadga muvofiq uning mazmuni, usullari, shakllari va vositalarini belgilaydigan asosiy qoidalarni nazarda tutadi. Mazkur jarayon jamiyatning o‘qituvchiga qo‘yadigan talablarini o‘zgartirish, ilg‘or pedagogik tajriba, o‘z-o‘zini anglash, hamkasblar yutuqlari bilan tanishish, o‘z yutuqlarini boshqalar bilan taqqoslash bilan boshlanadi.

Pedagogning oliy ta’limdan keyingi tizimli yondashuv asosida tashkil qilingan ta’limi jarayonida o‘z-o‘zini uzluksiz ijodiy rivojlantirish tizimining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

– tizimni tashkil etishning omili sifatida maqsadni belgilash;

– o‘z-o‘zini rivojlantirish, mustaqil ta’lim olishga, o‘zini kamol toptirishga intilish;

– pedagogning metodik, ilmiy-metodik, ilmiy-nazariy (psixologik va pedagogik), falsafiy va madaniy tayyorgarligini o‘z ichiga oluvchi o‘zini-o‘zi o‘qitish va tarbiyalash faoliyatining mazmuni, shakli, metodlari va vositalari;

– boshqarish, ya’ni tashkillashtirish, rahbarlik, tahlil, baholash, nazorat, diagnostika tadqiqotlari, boshqaruv faoliyati texnologiyalarini qo‘llash;

– natija sifatida pedagogning ijodiy faoliyatning bir bosqichidan yuqoriroq bosqichiga o‘tishi.

Har qanday o‘qituvchi o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z-o‘zini rivojlantirishga hatto juda kuchli intilishi bo‘lsa ham, o‘zining shaxsiy rivojlanish dasturini maxsus malakalarsiz belgilay olmaydi. Bu pedagogik faoliyatdagi muvaffaqiyatga erishish uchun o‘qituvchining o‘z ustida ishlashga tayyorgarligi, o‘z-o‘zini tahlil qila olishi, o‘z-o‘zini tashxislash qobiliyatining qanchalik shakllanganligi bilan bog‘liq. O‘qituvchining kasbiy faoliyatida shaxsning o‘zini-o‘zi anglash muammosi mehnat samaradorligi mezonlarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. An’anaviy mezonlardan (tezlik, aniqlik, samaradorlik) tashqari, uning oldida turgan vazifalarni amalga oshirishda shaxsning shaxsiy salohiyatining ishtirok etish darajasini aks ettiruvchi ichki, psixologik mezonlarni ham hisobga olish muhimdir. Shaxsning o‘zini anglash mazmuni faoliyat va vaziyatga subyektiv munosabat orqali o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘zini takomillashtirish motivlarini belgilaydi. Shuning uchun, o‘z-o‘zini rivojlantirish sifatida o‘zini anglash – bu inson sifatida o‘zini to‘liq ochib berishga qaratilgan ongli inson faoliyati hisoblanadi.

Pedagogning o‘z-o‘zini uzluksiz ijodiy rivojlantirishi shaxs rivojlanishining umumiy psixologik va pedagogik qoidalariga amal qiladi:

– o‘z-o‘zini kamol toptirish, boshqalar tomonidan munosib qadrlanishga intilish, “nufuzli” bo‘lishni xohlash;

– shaxsning rivojlanishi faqat insonning o‘z faoliyati jarayonida amalga oshadi;

– shaxsning ko‘plab fazilatlari shaxslararo muloqotda shakllanadi;

– alohida iqtidor, shaxsiy xususiyatlarni emas, balki shaxsni har tomonlama yaxlit rivojlantirish lozim;

– shaxsning eng yaxshi jihatlari, uning qiziqishlari, ehtiyojlari, moyilliklari, hissiyotlariga tayanish lozim.

Xulosa qilib aytganda, o‘qituvchining kasbiy-ijodiy salohiyatining shakllanishi va rivojlanishiga quyidagi o‘zaro bog‘liq psixologik-pedagogik shartlarni amalga oshirish yordam beradi: faoliyatni, mustaqillikni, ichki erkinlikni rag‘batlantirish, shaxsiy va

kasbiy shakllanish hamda rivojlanish jarayonida aks ettirishdan foydalanish, shaxsiy va kasbiy qadriyatlarga asoslangan ta’lim jarayonini loyihalashtirish va tashkil etish. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda o‘qituvchilar tarkibini sifatli tayyorlash, ularning ta’limiy ehtiyojlarini aniqlash, mustaqil o‘zini-o‘zi rivojlantirishi kasbiy o‘sishi uchun individual ta’lim trayektoriyasini yaratishda har bir o‘qituvchiga yordam berish, axborot va uslubiy ta’minotni ta’minlash, samarali pedagogik o‘zaro munosabatlarni tashkil etish ko‘zlangan natijani beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Галченко, О. В. Творчество педагога как норма профессиональной деятельности в условиях современных стандартов образования / О. В. Галченко, И. В. Ченцова. – Текст: непосредственный // Актуальные вопросы современной педагогики: материалы VII Междунар. науч. конф. (г. Самара, август 2015 г.). – Самара: ООО Издательство АСГАРД, 2015. – С. 6-8.

2. Зиновкина М.М. Многоуровневое непрерывное креативное образование и школа. Пособие для учителей. - М.: Приоритет-МВ, 2006. С.– 48, Ил. 17. http:// pedlib.ru/Books/4/0328/4_0328-1.shtml.

3. Кулюткин Ю. Н. Изменяющийся мир и проблема развития творческого потенциала личности. Ценностно-смысловой анализ. – СПб.: СПбГУПМ, 2013. С.– 84.

4. Левитан, К.М. Личность педагога: становление и развитие / К.М. Левитан. – Саратов: Издвоунта, 1991. С.– 168.

5. Mirsoliyeva M.T. Pedagogika kollejlari o‘quvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish metodikasi: ped.fan.nom. – T.: 2011. 138-b.

6. Raxmanqulova N., Yuldashev M., Baxramov A., Ahmedov M., Raimov T., Ametov A. Xalq ta’limi xodimlarining malaka oshirish kurslaridan keyingi faoliyatlarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash. – T.: Lesson-press, 2018. 160-b.

7. Shaymardonov T.T. Pedagog kadrlar malakasini oshirish va kasbiy faoliyati monitoringini tashkil etishning metodik tizimi: ped. fan. bo‘yicha fals. dok. (PhD) … diss. –T.: 2017. 148-b.

Po‘lat MAXSUDOV,
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti “Professional ta’lim va jismoniy tarbiya” kafedrasi doktoranti, texnika fanlari nomzodi, dotsent

PROFESSIONAL TA’LIM O‘QITUVCHISINING METODIK FAOLIYATI

Annotatsiya

Maqola professional ta’lim o‘qituvchisining metodik faoliyati masalasiga bag‘ishlangan. Bu metodik faoliyat hozirga qadar yetarlicha tadqiq etilmagan va o‘qituvchi kasbiy faoliyatining mustaqil turi sifatida ta’riflanmagan. Maqolada professional ta’lim o‘qituvchisi tomonidan olib boriladigan metodik faoliyat turlari keltirilgan va ular ahamiyatliligi bo‘yicha tabaqalashtirilgan.

Kalit so‘zlar. Metodik faoliyat, metodik faoliyat vazifalari, o‘qitish, professional ta’lim o‘qituvchisi, metodik faoliyat: maqsadi, obyekti, predmeti, turlari.

Статья посвящена вопросам методической деятельности педагога профессионального обучения. Это методическая деятельность до сих пор не исследована в полной мере и не описана как самостоятельный вид профессиональной деятельности педагога. Также приведены виды методической деятельности, выполняемые педагогом профессионального обучения и они ранжированы по значимости.

Ключевые слова. Методическая деятельность, задачи методической деятельности, обучение, педагог профессионального обучения, цель, объект, предмет, виды методической деятельности.

The article is devoted to the issues of methodological activity of a teacher of professional training. This methodological activity has not yet been fully investigated and is not described as an independent type of professional activity of a teacher. The article presents the types of methodological activities performed by a teacher of professional training and they are ranked by importance.

Key wors. Methodological activity, tasks of methodological activity, training, teacher of vocational training, purpose, object, subject, types of methodological activity.

Professional ta’lim o‘qituvchisining metodik faoliyat hozirga qadar yetarlicha tadqiq etilmagan va o‘qituvchi kasbiy faoliyatining mustaqil turi sifatida ta’riflanmagan. Bugungi kunda pedagogik adabiyotlarda metodik faoliyatni aniqlashga oid kamida ikkita qarash mavjud. Birinchisida, metodik faoliyat pedagogning metodik ishi, o‘qitishning didaktik vositalari va boshqalar bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat sifatida talqin qilinadi. Biz yoqlab chiqayotgan ikkinchi tomon bo‘yicha qarashda metodik faoliyat – o‘qituvchining o‘qitish bilan bog‘liq faoliyati sifatida talqin qilinadi.

Fan o‘qituvchilari metodik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari va muhimligini e’tirof etadilar. Ularning fikricha, metodik faoliyat ahamiyati jihatidan fanni o‘qitish va tarbiyadan so‘ng uchinchi o‘rinni egallaydi.

O‘qituvchining metodik faoliyatini bevosita kuzatish mumkin emas, uning o‘qitish faoliyatinigina tahlil qilish va kuzatish mumkin. O‘qitish jarayonini va uning metodik, moddiy-texnik va tashkiliy jihatdan ta’minotini alohida-alohida holda ko‘rish uchun ularning faoliyat predmetidagi farqlarni aniqlash lozim.

Metodik faoliyatning maqsadi – o‘qitish samaradorligini oshirish. Professional ta’lim

o‘qituvchisi metodik faoliyatining obyekti – o‘quvchilarda hosil qilinadigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalardir.

Metodik faoliyatning predmeti – o‘quv materialining o‘quvchilar tomonidan mukammal o‘zlashtirilishi hisoblanadi.

O‘qituvchining metodik faoliyati o‘quv mashg‘ulotini metodik loyihalash va konstruksiyalash jarayonida yaratilgan metodik mahsulotlar (natijalar) da bilvosita namoyon bo‘ladi.

Quyidagilar metodik faoliyat vazifalari hisoblanadi:

– professional o‘qitish mazmunini istiqbolli rejalashtirish va uni ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan loyihalash faoliyati;

– yangi darsni rejalashtirish (tanlash, o‘quv axborotini kompozitsion loyihalash), yangi bilim va kasbiy ko‘nikma hamda malakalarni hosil qilish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikka olib keluvchi harakatlar tizimini o‘z ichiga olgan konstruktiv faoliyat;

– ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari talablarini, ushbu turdagi ta’lim muassasasida ta’lim jarayonini amalga oshirish shart-sharoitlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi me’yoriy faoliyat;

– tahliliy faoliyat;

Professional ta’lim o‘qituvchisining metodik faoliyati eng avvalo, ta’lim oluvchilarda o‘z kasbi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni, shuningdek, unga bog‘liq bo‘lgan faoliyat xarakteri, qobiliyatlar, qiziqishlar va boshqalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan.

Professional ta’lim o‘qituvchisining metodik faoliyatini o‘rganish va tahlil qilish shu sohadagi mavjud tadqiqotlar asosida o‘tkazildi. Ushbu ish vazifalarini hal etish doirasida Rossiya olimlaridan V.V. Shapkin va V.A Makushev, E.F. Zeer va N.S. Gluxanyuk, N.M. Jukova, N.I. Kravsov, A.K. Radchenko, N.Y. Erganova, V.P. Kosirevlar o‘tkazgan tadqiqot natijalarining empirik ma’lumotlari tanlab olindi.

Bu mualliflar o‘z tadqiqotlarida professional ta’lim o‘qituvchisi metodik faoliyatining umumiy holati, uni adekvat tarzda aks ettiradigan professional ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining o‘qitish va tarbiyalash faoliyati haqidagi mo‘ljalga eng yaqin turlari holatini o‘rganganlar, tahlil qilganlar va baholaganlar.

Shu sababli metodik faoliyat tuzilmasi har xil turdagi faoliyatlar yig‘indisini o‘z ichiga oladi:

– nazariy va amaliy ta’lim darslarini rejalashtirish va konstruksiyalash;

– o‘quv-dasturiy hujjatlarni va metodik majmualarni tahlil qilish;

– nazariy va amaliy ta’lim darsi rejasini ishlab chiqish va tahlil qilish;

– nazariy va amaliy ta’lim darslari uchun o‘quv materiali mazmunini va o‘quv-ishlab chiqarish ishlarini ajratib olish;

– darsda o‘quv materialini taqdim etish shakllarini belgilash;

– o‘quvchilarda texnik tushuncha va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish bo‘yicha faoliyatini konstruksiyalash;

– darsda o‘quvchilar faoliyatini boshqarish va baholash;

– darsga tayyorlanish va uni dars o‘tish faoliyatida aks ettirish.

Mualliflarning ta’kidlashicha, bu sanoq “professional ta’lim o‘qituvchisi pedagogik amaliyotining barcha rang-barangligini qamrab ololmaydi”. Professional ta’lim metodikasini o‘rganish jarayonida o‘qituvchilar faqat asosiy metodik ko‘nikmalar orttiradilar. Metodik faoliyatning barcha tizimlari o‘qituvchining amaliy ishi jarayonida shakllanadi va takomillashadi.

O‘qituvchining metodik faoliyatga birdan kirishib keta olmasligi hammaga ma’lum. Yosh o‘qituvchi dastlab o‘z fanini o‘qitish jarayonini, muvaffaqiyatli metodlarni izlashdan, dars berayotgan o‘quv fani bo‘yicha metodik ishlanmalar ishlab chiqishdan, ko‘rgazmali vositalar, o‘quv materiali, mashg‘ulotning moddiy-texnik ta’minotini tanlashdan boshlab o‘zlashtiradi. O‘quv natijalari uchun metodik faoliyatning ahamiyatini anglashga 1 yildan 3 yilgacha vaqt talab etiladi. Bu davrda o‘qituvchi metodik faoliyatining o‘ziga xosligi kasbiy-pedagogik faoliyatning umumiy tuzilishidagi metodik komponentning ilg‘anmaydigan tavsifi sanaladi.

Aslida metodik faoliyat o‘qitish faoliyatidan keskin farq qiladigan tavsifga egaligini anglash uchun o‘qituvchiga metodik ishlanmalarning o‘qitish natijalariga ta’siri kattaligini tushunishga yordam beradi.

Ba’zi metodik faoliyat turlarining muhimligi va murakkabligini baholash V.V. Shapkin va V.A. Markushevlar tadqiqotlarida yoritilgan. Anketa so‘rovnomalarini o‘tkazish va o‘z-o‘zini har tomonlama baholash metodlari orqali professional ta’lim o‘qituvchisi hamda ustasining professional-pedagogik va o‘quv-tarbiyaviy faoliyatidagi komponentlardan eng murakkab va muhimlari aniqlandi. Ushbu mualliflar tomonidan aniqlangan umumtexnik va maxsus fan o‘qituvchilari metodik faoliyati komponentlarining eng muhimlari quyidagilar hisoblanadi:

1) darsga tayyorlanishda – dars vazifasini belgilash (so‘ralganlarning 25 foiz), shuningdek, kasbni hisobga olgan holdagi topshiriq va mashqlarni belgilash (so‘ralganlarning 22,7 foiz);

2) darsni o‘tkazishda – bilim olishga intilishni, tashabbuskorlikni va qiziqishni shakllantirish (35,49 foiz).

Bevosita faoliyatning eng murakkab komponentlari qatoriga quyidagilar kiradi:

1) darsga tayyorlanishda – dars vazifasini belgilash (25 foiz); kasbni hisobga olgan holda topshiriq va mashqlar belgilash (31 foiz); konspektni yozish (13,6 foiz).

2) darsni o‘tkazishda – dars davomida o‘quvchilarni boshqarish (13,6 foiz) va bilim olishga intilishni, tashabbuskorlikni va qiziqishni shakllantirish (22,7 foiz).

Namangan viloyatidagi professional ta’lim muassasalari maxsus fan o‘qituvchilarining o‘rtasida professional-pedagogik faoliyat mazmunini o‘rganish va baholash bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik-tahliliy tadqiqotlar metodik faoliyatni amalga oshirish uchun mo‘ljalga eng yaqin kompleks xatti-harakatlarini aniqlash imkonini berdi.

Ekspert baholash natijalariga ko‘ra, tizimli bajariladigan metodik faoliyatning mo‘ljalga eng yaqin turlariga quyidagilar kiritildi:

1) tushuntirish, namoyish qilish, yo‘riqnomalar o‘tkazish, bilimlar sifatini baholash va nazorat qilish hamda boshqalar;

2) o‘quv-bilish motivlarini paydo qilish;

3) professional sifatlarni shakllantirish;

4) o‘quv-tarbiyaviy jarayon samaradorligini bashoratlash.

1-jadval

Professional ta’lim o‘qituvchisi faoliyat turlarining ahamiyatliligi bo‘yicha tabaqalanishi

№	Professional ta’lim o‘qituvchisi faoliyatining turlari	Ahamiyatliligi, foiz
1	O‘qitish jarayonini amalga oshirish	25
2	Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o‘tkazish	14
3	O‘quv jarayonini loyihalash	13

4	O‘quv jarayoni uchun jihozlarni ishlab chiqish va tayyorlash	13
5	Tarbiyaviy jarayonni loyihalash	10
6	O‘quv jarayonini tahlil qilish	9
7	O‘quv dastgohlarini ishlatish	8

Metodik faoliyatga tayyorlikni baholash professional ta’lim o‘qituvchisi bajaradigan faoliyatning eng tipik turlari muhimligini baholay va ajrata oladigan, o‘qituvchilarning professional ta’lim muassasalaridagi amaliy faoliyati (o‘rtacha mehnat staji 10 yil) dan kelib chiqib o‘tkazildi. Metodik faoliyat turlarining ahamiyatliligi bo‘yicha ierarxik joylashuvi 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, professional ta’lim o‘qituvchisi va ustalarining metodik faoliyatining eng muhim va sermehnat turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) o‘quv jarayonini amalga oshirish (23 foiz);

2) tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va o‘tkazish (13 foiz);

3) o‘quv jarayonini loyihalash (12 foiz).

Shunday qilib, bo‘lajak professional ta’lim o‘qituvchilarini metodik faoliyatga tayyorlashda, ko‘proq, yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan faoliyat turlariga oid metodik ko‘nikmalarni tarkib topdirishga e’tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуллина О.А. О формировании педагогических умений. Сов. Педагогика, 1972, №11. – С. 93-103.

2. История инженерно-педагогического образования: Меж.вуз.сб.науч. труд. / Под ред.П.Ф.Кубрушко, Л.З.Тенчуриной. – М.: Изд-во Моск. ин-та инж. с-х производства, 1990. – С. 104.

3. Шапкин В.В., Маркушев В.А. Психолого-педагогическая подготовка преподавателей общетехнических и специальных дисциплин. / Социально-психологические особенности инженера-педагога. Сб. науч. трудов – Свердловск: Изд-во Свердл. инж.-пед. ин-та, 1988. – С. 43-45.

4. Зеер Э.Ф., Глуханюк Н.С. Структура и особенности инженерно-педагогической деятельности. // Социально-психологические особенности личности инженера-педагога. Сб. науч. трудов – Свердловск: СИПИ, 1988. – С. 32-43.

5. Жукова Н.М. Мотивационно-ценностные отношение к избранной специальности // В сб. “Формирование профессионально-педагогической напрваленности личности инженера-педагога”. – Свердловск: Изд-во Рос. гос. проф.-пед. ун-та, 2003. – С. 41-47.

6. Кравцов Н.И. Содержание методической работы в системе профессионально-технического образования. – М.: Высш. школа, 1977. – С. 342.

7. Эрганова Н.Е. Теоретические основы учебной дисциплины “Методика профессионального обучения”: Дисс. ... уч.степени д-ра пед. наук. – Екатеринбург, 1997. – С.406.

8. Косырев В.П. Методическая подготовка инженеров-педагогов: Монография. – М.: Изд-во ОНТИ ПНЦ РАН, 1998. – С.156.

Sodiq YULDASHEV,
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

O‘QITUVCHILARNI TEXNOLOGIK TA’LIMGA KREATIV YONDASHISHGA TAYYORLASH METODIKASI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini texnologik ta’limga kreativ yondashuvga tayyorlash metodikasi haqida fikr yuritilgan. Maqoladan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, malaka oshirish kursi tinglovchilari amaliy metodik qo‘llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Kalit so‘zlar. Texnologik ta’limga kreativ yondashuvga tayyorlash, integrallash, xalq og‘zaki ijodi, qiziqarli, zerikishlarsiz.

В статье рассматривается методика подготовки будущих учителей начальных классов к творческому подходу к технологическому образованию. Также может быть использована учащимися начальных классов, учителями начальных классов, учащимися повышения квалификации в качестве практического пособия.

Ключевые слова. Подготовка к творческому подходу к технологическому образованию, интеграция, фольклор, развлечения, без скуки.

The article examines the methodology for preparing future primary school teachers for a creative approach to technological education. The article can be used by primary school students, primary school teachers, and advanced training students as a practical guide.

Key words. Preparation for a creative approach to technology education, integration, folklore, entertainment, without boredom.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini texnologik ta’limga kreativ yondashuvga tayyorlashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi fikrimizni quyidagicha ifodalaymiz. 1-sinfdan boshlab 4-sinfga qadar “O‘qish kitobi” darsliklarida xalq og‘zaki ijodi alohida bo‘lim sifatida ko‘rsatilgan va ularni o‘rganish uchun muayyan soatlar belgilangan.

Xususan, 1-sinf “O‘qish kitobi” darsligining “Xalq o‘giti – baxt kaliti” bo‘limini o‘rganish uchun o‘quv dasturida 9 soat ajratilgan.

“Xalq o‘giti – baxt kaliti” bo‘limiga bolalar qalbiga ona allasi bilan kirib kelgan og‘zaki ijod namunalari kiritilgan bo‘lib, ezgulik, to‘g‘riso‘zlik, sofdillik, nafosat, do‘stlik, o‘rtoqlik, ahillik haqida tasavvur hosil qiladi.

O‘quvchilarning sinfda va mustaqil o‘qishlari lozim bo‘lgan asarlar:

1. “Sher va sichqon” ertagi.
2. “Maymun va duradgor” ertagi.
3. “Rostgo‘y bola” ertagi.
4. “Laylak keldi – yoz bo‘ldi” qo‘shigi.
5. Latifalar.

2-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Ertaklar – yaxshilikka yetaklar” bo‘limini o‘rganish uchun 13 soat ajratilgan.

Bu bo‘lim orqali o‘quvchilar ertaklar olamiga sayohat qilishadi. Nima yaxshi-yu, nima yomonligini ertaklardagi voqea-hodisalar orqali uqib oladilar. Ertak qahramonlarining holatini so‘zlab berish, voqealarni rasmda ifodalashga alohida e’tibor qaratiladi.

3-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limini o‘rganish uchun 17 soat ajratilgan. Bu bo‘limda xalq og‘zaki ijodiga oid qo‘shiq, ertak, masal, maqol, latifa, topishmoqlar kiritilgan. Ular orqali o‘quvchilarga xalqning orzu – umidlari, do‘stlik, ahillik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, fazilatlari ulug‘lanishi, salbiy xislatlarning qoralanishi uqtiriladi. O‘quvchilar qo‘shiq bilan tanishadilar. “Botir mergan va chaqimchi”,”Halollik”, “Donishmand yigit” kabi o‘zbek xalq ertaklarini o‘qiydilar. Shuningdek, “Qaysar buzoqcha”, “Chumoli va tipratikan” masallarini o‘rganadilar. Maqol, iboralar, latifalar, topishmoqlar, tez aytishlarni ham o‘qiydilar. Bo‘limdan “Rustamxon” va “Alpomish” dostonlaridan parcha ham o‘rin olgan.

4-sinf “O‘qish kitobi” darsligidagi “Xalq og‘zaki ijodi” bo‘limini o‘rganish uchun esa 28 soat ajratilgan. Bunda o‘quvchilar xalqimizning ming yillar mobaynida yaratgan sehrli-fantastik ertaklari, xalq dardi, istak-xohishi, orzu-umidlari ifodalangan qo‘shiqlar, bolalarning quvnoq o‘yin-qo‘shiqlari, hozirjavoblik, topqirlikni taqozo etadigan topishmoqlar, xalqning hayotiy xulosasi tarzida yuzaga kelgan purhikmat maqollar, sehr-jozibaga yo‘g‘rilgan rivoyatlarni o‘qib-o‘rganadilar. Bo‘limning o‘zi 5 qismdan iborat:

1-qism “Qo‘shiqlar qanotida” deb ataladi. Bunda “Boychechak” ,“Oftob chiqdi olamga”, “Xo‘p hayda” qo‘shiqlari berilgan.

2-qism “Ertaklar mamlakatida” deb nomlanadi. Undan “Davlat”, “Ilm afzal”, “Ko‘zacha bilan tulki”, “Ochko‘z boy”, “Hiylagarning jazosi”, “Ziyrak uch yigit” ertaklari o‘rin olgan.

3-qism “Adabiy ertaklar bo‘lib, unda Anvar Obidjonning “Bo‘rining tabib bo‘lgani haqida ertak”, Shukur Sa’dullaning “Laqma it”, A.Abdurazzoqning “Baqa bilan taqa” ertaklari mavjud.


4-qism “Topishmoqlar”. Bunda 5 ta topishmoq va G‘afur G‘ulomning “Buni toping, qizlarim” she’riy topishmog‘i berilgan.

5-qism “Maqollar” bo‘lib, bu yerda 11 ta maqol mavjud.


Bu bo‘lim orqali o‘quvchilar ertaklar olamiga sayohat qilishadi. Nima yaxshi-yu, nima yomonligini ertaklardagi voqea-hodisalar orqali uqib oladilar. Ertak qahramonlarining holatini so‘zlab berish, voqealarni rasmda ifodalashga, yasash-qurish ishlariga alohida e’tibor qaratiladi. Keltirilgan dalillar shuni ko‘rsatadiki, agar biz boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalariga texnologik ta’limni xalq og‘zaki ijodi asosida tashkil qilishni o‘rgatadigan bo‘lsak, shu orqali fanlarni integrallashga hamda kreativ yondashishga o‘rgatish imkoniyatini beradi.

Bu fikrlarimizning asosi sifatida boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish yo‘nalishi talabalariga o‘rgatiladigan texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fani mavzulari asosida namuna keltiramiz. Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi fanini o‘rganish jarayonida qog‘ozga ishlov berish, qogozni oddiy usullarda buklash, qog‘ozni murakkab usullarda buklash, loy va plastilin bilan ishlash mavzulari mavjud. Shu mavzularni o‘rganish jarayonini quyidagicha tashkil qilishimiz mumkin.

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim o‘tgan zamonda bir cholu kampirning bir gektar yeri bor ekan. (Biz to‘g‘ri to‘rtburchakni kvadrat shakliga keltirib olamiz).




Cholu kampir o‘zaro kelishib bir gektar yerni to‘rt qismga teng bo‘lishibdi.




Chol-u kampir o‘zaro kelishib 1 gektar yerning ¼ qismiga sabzi, ¼ qismiga sholg‘om, ¼ qismiga kartoshka, ¼ qismiga piyoz ekibdi.







Chol-u kampir yaxshi mehnat qilgani bois, hosil nihoyatda mo‘l-ko‘l bo‘libdi. Ro‘zg‘oridan ortganini bozorga olib chiqib sotishni niyat qilibdi. (Bozor uzoq bo‘lganligi sababli biz funksiyani teskari tomonga bajaramiz).




Chol hamma sabzavotlarni tezgina sotib qo‘yibdi (Pul cholga berilayotganligi sababli biz funksiyani teskari tomonga bajaramiz).








Chol pulni olib, o‘ziga bir ko‘ylak olishni maqsad qilibdi.






Shundan so‘ng chol o‘ziga bir shim ham sotib olibdi.





Farzandlari oilasi bilan birgalikda tovuq sho‘rva qilish maqsadida bir xo‘roz va baliq olibdi.



Nevaralari uchun turli-tuman o‘yinchoqlar ham olibdi (katta nevarasiga raketa, ikkinchi nevarasiga samolyot, keyingi nevarasiga esa to‘pponcha olibdi).


Tovuq sho‘rva va baliqni xontaxta ustida yeyish uchun xontaxta ham sotib olibdi. Yer uchastkasini o‘rab qo‘yish uchun panjara ham olibdi.


Olingan narsa va buyumlarni olib ketish maqsadida kema, kemaga yetkazish uchun esa qayiq olibdi.

Yashash uyini shamollatish uchun shamollatgich va boshiga bir do‘ppi olibdi.



Tovuq sho‘rvani pishirish uchun qozon, baliqni pishirish uchun tova olibdida uyiga qaytibdi. Farzandlari, nevaralari bilan shodu xurram hayot kechiribdi.



Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga shu tariqa darsni tashkil qilish jarayonida talabalarni ham texnologik ta’limga ham kreativ yondashuvga hamda darslarni integrallashga tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan bir qatorda dars jarayoni qiziqarli, zerikishlarsiz va yodda qoladigan namunali dars bo‘lishiga aminmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxriddinova D., Yuldashev S.N. 3-sinf texnologiya fanini o‘qitish metodikasi. Qarshi, Fan va ta’lim nashriyoti. 2020.

2. Baxriddinova D., Yuldashev S.N. 1-sinf mehnat darslari (1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik-qo‘llanma) Qarshi, Nasaf nashriyoti 2016.

3. Yuldashev S.N. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini texnologik ta’limga kasbiy-refleksiv-innovatsion yondashuvni amalga oshirishda manbalar tahlili. Муғаллим ҳам узликсиз билимлендириў 2019-yil 6/1-son.

4. Yuldashev S.N. “Boshlang‘ich ta’lim ixtisosligi talabalarini texnologik ta’limga kreativ yondashuvga o‘rgatish metodikasi” / Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar 3-maxsus son. –T., 2020.

Bahrom QO‘YLIYEV,
Qarshi davlat universiteti professori
Obloqul QUVONDIQOV,
Samarqand davlat universiteti professori
Komiljon TURSUNMETOV,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti professori

MA’RUZA – TA’LIMNING ENG FAOL USULI

Annotatsiya

Ushbu maqolada fizikaviy bilimlarni puxta o‘zlashtirishda va ta’lim sifatini oshirishda ma’ruzaning ahamiyati beqiyos ekanligi, ta’limda ma’ruzaning shakllanish tarixi hamda ma’ruzaga bo‘lgan talablar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Ma’ruza, ta’lim, o‘quv jarayoni, fikirlash jarayoni, o‘quvchilar bilimi.

В данной статье излагаются несравненное значение лекции при освоения знаний по физике и при повышении качества физического образования, также история формирования лекции по физике, сформулированы требования к современной лекции по физике.

Ключевые слова. Лекция, обучение, учебный процесс, процесс мышления, знания студентов.

This article focuses on the fact that the lectures are of great importance for mastering of knowledge and increasing of the quality of education. The history of formation of lecturing process and requirements to lectures are presented.

Key words. Lecture, training, educational process, thinking process, students’ knowledge.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risidagi qonunda ta’lim tizimini rivojlantirish istiqbolini belgilab berdi. Bu muhim hujjatlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan ta’lim tizimini tubdan takomillashtirishga bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyoti, fan rivoji samarali o‘qitish texnologiyasiga bog‘liq. Samarali o‘qitish texnologiyasida ma’ruza muhim ahamiyat kasb etadi.

Fizika fanini sifatli o‘qitishda ma’ruzaning o‘rni yuqori bo‘lishi uchun nimalarga asoslanish mumkinligiga hamda fizika fanining rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan taniqli olimlarning o‘qitish samaradorligini oshirishda ma’ruzaning o‘rni qanchalik muhim ekanligini ko‘rsatganligiga va ularning faoliyatlariga e’tiborni qaratish mumkin.

Oliy o‘quv yurtlarida ma’ruza chuqur ilmiyligi, mukammalligi, fikrlash uchun oddiyligi bilan tavsiflanadi. Materialni bayon qiluvchi ma’ruzachi qanday maqsadda nimani o‘rgatishni xohlaydi? Bilimi va vaqtini nima uchun sarflayapti? Mavzudagi muammolarni jamiyat ehtiyojlari bilan bog‘lay olyaptimi? Auditoriyani umumiy fikrlash jarayoniga jalb qila olyaptimi? Talabalar tomonidan savollar qiziqish bilan ko‘tarilyaptimi? degan savollarga javob bera olishi lozim. Materialni ilmiy bayon qilish fanning hozirgi holatini, uning tadqiqot usullarini va rivojlanish omillarini belgilaydi.

Bizga ma’lumki, professor S.R. Mirotvorsev 35 yil ma’ruza o‘qigan va ularning har biriga tayyorlangan. O‘zining birinchi ma’ruzalarini to‘liq daftarga yozgan va ularni ko‘zgu oldida ertaga o‘qishi kerak bo‘lgan kostyumda ovoz chiqarib o‘qigan.

Siz uni yuzinchi marta o‘qiyotgan bo‘lishingiz mumkin, sizga hammasi tushunarli, lekin bu tinglovchilarga ham hammasi tushunarli degani emas!

Oliy maktab paydo bo‘lgandan beri ma’ruza o‘qitishning shakli va usuli sifatida rivojlanib kelmoqda. Biroq, rivojlanishning har xil tarixiy bosqichlarida ma’ruza samaradorligiga nisbatan bo‘lgan qarashlar tubdan o‘zgargan. Ma’ruza so‘zi lotincha “lectio” – o‘qish so‘zidan kelib chiqqan. O‘rta asr universitetlarida ma’ruza ko‘p hollarda cherkov manbalarini o‘qish va izohlashdan iborat bo‘lgan.

Ishlab chiqarish va savdo sotiqning rivojlanishi bilan kerakli bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj o‘sib bordi. Bu borada ilmiy bilimlarning tarqalishi va o‘zining muhim ishlari bilan Rossiyada M.V. Lomonosov tanildi. Yosh avlodning ma’lumoti haqida katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, u kitoblarda keltirilgan, insoniyat tajribasi va orttirgan bilimlarini egallashning eng qisqa yo‘lini topish ustida ham chuqur o‘yladi. Bunday vaqtda, albatta, yoshlarga yaxshi ustoz kerakligini e’tirof etdi. Ta’lim olish jarayonida asosiy o‘rinni Lomonosov ma’ruza o‘qituvchisining jonli so‘ziga ajratdi.

Fizikaning oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilishi tarixidan, yoshlarni o‘z ma’ruzalari bilan qiziqtirgan va bilimlarga ularning intilishini yo‘naltirgan ko‘p olimlar ma’lum. Ularning ma’ruzalarining asosiy xususiyatlarini kuzatish hamisha foydali bo‘ladi.

Moskva universiteti talabalarida M.G.Pavlovning fizikadan ma’ruzasi kuchli taassurot qoldirgan. Qobiliyatli ma’ruzachi fizikaning oddiy savollari bilan cheklanmasdi, ularni bilishning ishonchliligi bilan, insonning haqiqiy olamga ta’siri bilan bog‘lar edi.

Xuddi shunday, Moskva universitetida fizikani rivojlanishining yangi davri, hamda uning o‘qitilishini taniqli olim A.G.Stoletov faoliyati bilan ham bog‘lash mumkin. O‘sha vaqtda termodinamika va gazlarning kinetik nazariyasi, spektroskopiya va elektrotexnika jadal rivojlandi, ishlab chiqarish sanoati esa ilmiy texnik kadrlarni talab etardi. Shu maqsadda ko‘pgina qobiliyatli yoshlar va shu jumladan, A.G.Stoletov ham chet elga ta’lim olish uchun jo‘natiladi. Chet elda A.G.Stoletov, Veber, Magnus, Krixgof va boshqalar asos solgan ilg‘or fizikani chuqur o‘zlashtiradi. Qaytgandan keyin bu fanning o‘qitilishini yevropa darajasiga ko‘taradi va ajoyib olimlar maktabini yaratadi: R.A.Kolli, N.N.Shiller, P.A.Zilov, A.P.Sokolov, D.A.Golgammer, P.N.Lebedev, V.A.Mixelson va boshqalar.

A.G.Stoletov universitetlarda fizikani o‘qitish hamda o‘quv-qo‘llanmalar yaratilishiga bebaho hissa qo‘shdi. Akustika va optika o‘quv-qo‘llanmasining kirish so‘zida fizikani o‘rganishni uch bosqichga ajratdi:

a) oddiy va yaxshi tanlangan tajribalarga asoslangan boshlang‘ich bosqich;

b) oraliq dalillarning ilmiy aloqalariga yo‘naltirilgan tajriba bilan boyitilgan bosqich;

v) oliy nazariyalarni eksperimental topshiriqlar bilan parallel holatda maxsus o‘rganish bilan bog‘langan bosqich.

Oliy maktabning taniqli fizik arboblaridan yana biri – N.A.Umovning faoliyati ham beqiyosdir. Haqiqatdan ham oliy maktab haqiqiy bilim, hayotga tatbiq etuvchi bilimlarni berishi kerak. Haqiqiy bilimlar boqiylikni ko‘rishdan, sharoitni ilg‘ab olish, ularning hisobini olish va ularga mos bajariladiganlarni topish yoki ko‘pchilik yaroqli yechimni topishidan iborat. Shuning uchun ham oliy maktabda o‘qitish ijodiy ilmiy xususiyatga ega bo‘lishi lozim.

Ta’lim odamlarni bilimlar zahirasi bilan miqdoriy jihatdan emas, sifat jihatdan qurollantirishi kerak: juda keraklisini farqlashni bilish, dunyoqarash va ilmiy faoliyat yo‘nalishini aniqlovchi insonlarni tarbiyalashi lozim. Qolaversa, oliy maktab nafaqat bilimlar berishi,

balki o‘qitishga o‘rgatish, ilmiy fan haqida mustaqil fikrlashni rivojlantirishi kerak. Mana shunda fanning muvaffaqiyatlaridan to‘g‘ri foydalanish va uning kelgusida rivojlanishiga imkon tug‘iladi. Umuman, fizikaning rivojlanish tarixida ma’ruzalar ko‘pgina tajribalar bilan boyigan bo‘lishi lozimligi ta’kidlanadi. Noma’lumlikni tubi orqali ko‘priklar qurish uchun talabalarda izlanuvchanlik ruhini rivojlantirish lozim. Buni xuddi fikrlovchi uyga o‘xshatish mumkin. Bunday muvaffaqiyatga erishishda ma’ruzaning o‘rni beqiyosdir.

Oliy maktab o‘quv jarayonida ma’ruzaning o‘rni quyidagi taniqli pedagoglar va psixologlar: Y.N. Medinskiy, K.N. Kornilov, V.K. Daxshleger, S.I. Zinovev va boshqalar tomonidan har tomonlama yoritilgan, ularda ma’ruzaga muhim ahamiyat beriladi. Haqiqatdan ham yuqorida zikr etilgan olimlarning fikrlarida o‘quv jarayonida ma’ruzaning o‘rni beqiyosligini quyidagicha xulosa qilish mumkin:

• ma’ruza talabalar kuchi, vaqtining sarf bo‘lishida ham, ilmiy-pedagogik kadrlardan foydalanish bo‘yicha ham ta’limning eng tejamli shaklidir;

• ma’ruza talabalarni olimning ijodiy laboratoriyasiga bevosita olib kirishga imkon berib fanning eng yangi yutuqlari va uning muammolari yoritiladi va ilmiy fikrning o‘ziga xos maktabi va talabaning ishini tashkillashtirishga asosdir;

• ma’ruza ta’limning faol usuli bo‘lib, uni tinglash katta miqdordagi axborotni jiddiy ishlab chiqish bilan asosiy qoidalarni ajratib olish va konspektlash tajribalar va formulalar tahlili bilan bog‘liq;

• ma’ruza boshqalarni eshitish mahoratini tarbiyalaydi, mohiyatni tez ilg‘ab olishni, aytilganlarga tanqidiy baho berishni, u haqida asoslangan fikr bildirishga o‘rgatadi;

• ma’ruzani o‘tkazish jarayonida o‘qituvchi ko‘pincha talabalar uchun mos topshiriqlarni aniqlaydi: ma’ruza tayyorlash, eksperimental tadqiqot o‘tkazish, qurilmalar yasash va hokazo, savolni chuqur o‘rganish uchun adabiyotlar tavsiya etadi;

• ma’ruza kitobga nisbatan talabaga ko‘proq psixologik ta’sir o‘tkazadi, boshqacha aytganda, lektor haqiqatda jamoaviy fikrlash jarayonining dirijyori bo‘ladi;

• o‘quvchi va talabalarning rivojlanishi va fikrlash darajalari har xilligini hisobga oladigan o‘qituvchining talaba bilan yaqinlashuviga imkon beradi.

Fizikani o‘rganishda talabalar diqqati quyidagilarga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak:

1. Ko‘rib chiqiladigan hodisaning ichki mexanizmiga kirib borish. Masalan, moddaning agregat holatini o‘zgarish jarayonlarini tushuntirish, gazlarning issiqlik sig‘imining temperaturaga bog‘liqligini, yorug‘lik qutblanishi va dispersiyasi hodisalarini tushuntirishda va hokazolar.

2. Xulosalar va dalillarni umumlashtirishni bilish. Buni hodisalar orasidagi o‘zaro aloqalar va ular orasidagi mutanosibliklarda ko‘rish mumkin. Masalan, issiqlik o‘tkazuvchanlik, elektr o‘tkazuvchanliklar orasidagi aloqalar. Chunki ilmiy bilim qayerda umumlashuv kiritilgan bo‘lsa, shu yerda boshlanadi.

3. O‘xshashliklar bilan fikrlashni va modellashni bilish. Bu asoslar nafaqat fizik jarayonlarni tushunish uchun, balki fizik jarayonlar tadqiqot usuli kabi modellashni o‘zlashtirish uchun ham zarur.

Ma’ruzachi talabalar diqqatini fizika kursining asosiy savollariga, umumlashtirishlarga qaratishi kerak. Bular fanning mantiqiy asoslarini to‘liq tushunishga yordam beradi.

Ma’ruza materiallari tahlilida tadqiqotchilik xususiyatiga ega bo‘lishi kerak, chunki bu holat ularda – xulosa qilishdagi shoshqaloqlikning oldini oladi, maxsus aqliy intizom chegarasini rivojlantiradi, tahlil va tekshiruvga undaydi.

Psixologik nuqtayi nazardan o‘quv jarayonining vazifasi ta’lim oluvchilarning tasavvurlari, tuyg‘ulari va idroklarini shakllantirish va ijodkorligini oshirishdan iborat.

Bu shundan dalolat beradiki, oliy o‘quv yurti ma’ruzachisi talabalarda o‘zi bilan birga o‘ylash va hayajonlanish istagini paydo qilishi zarur.

Bunga quyidagi vositalar bilan erishish mumkin:

• Ko‘rib chiqiladigan materialga talabalarning fikrlarini kerakli darajada moyilligini shakllantirish yuqori ahamiyatga ega. Bunga asoslangan ma’ruza quyidagilarga imkon beradi: muammoni har tomonlama yoritish, uning ahamiyatini nazariya va amaliyot uchun aniqlash, hisoblash kerak bo‘lgan xususiyatlarni ko‘rsatish. Maqsad aniqlangandan keyin nima ixtiro qilindi va hali nimani tadqiq qilish mumkinligi haqida fikr yuritish hamda talabalarning fikri mavzuga muammoga yo‘naltirilishi lozim.

• Auditoriya oldiga oldindan tanlangan, juda muhim materialni ajratib olish bilan ishlab chiqilgan reja bo‘yicha ma’ruzalarni o‘qish.

• Fanga qiziqishni uyg‘otish va fikrni faollashtirish uchun ma’ruza o‘qish jarayonida suhbat elementlarini ishlatish, ya’ni materialni bayon qilishda vaqti-vaqti bilan auditoriyada tinglovchilar bilan doimiy aloqani ta’minlash uchun savollar bilan murojaat qilib turish.

• Fikrni faollashtiruvchi va fanga qiziqishni uyg‘otuvchi muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va ulardan unumli foydalanish.

• AKT dan rentabel foydalanish, ya’ni ma’ruzaning ko‘rgazmalilik aspektlaridagina foydalanib, qolgan qismlarida doskada chizib va sxemalardan foydalanilgan holda mavzuga oid formulalarni keltirib chiqarish, ta’riflash va tavsiflash.

Intel korporatsiyasi ishlab chiqadigan zamonaviy tranzistorlar sekundiga bir yarim trillion marta ochilib yopiladi. Inson uchun oddiy qo‘shib ajratgichni bir yarim trillion marta o‘chirib yoqish uchun 25 ming yil kerak bo‘ladi. Shunday ekan, ma’ruzalarimizda ko‘proq yangi pedagogik va zamonaviy informatsion texnologiyalardan foydalanib mavzuning tub mohiyatini talabalarimizga yetkazishimiz lozim bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, talaba bilim va ilmni qo‘llashni o‘rganishi hamda uning jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushunishi lozim. Ustozlar o‘z talabalarini namunaviy tashkil etilgan ishlab chiqarish korxonalari, mohir ustalar, olimlar, yuqori tajribali pedagoglar bilan tanishtirishi lozim. Pedagogning asosiy mahorati talabalariga bilimlarni samarali berishida va adabiyotlar bilan tizimli ishlashni o‘rgatishida bo‘lsa, donoligi esa bilimlarni qo‘llashni o‘rgatishidadir. Hozirgi zamon fizikasi tasvirlaydigan olam manzarasini tugal deb bo‘lmaganidek, hech bir ma’ruzachining ma’ruzasini ham tugal deb bo‘lmaydi. Fizikaning butun rivojlanish tarixi bilan bog‘liq bugungi taraqqiyoti tabiat hodisalarining bitmas-tuganmasligidan, yangi yanada muhimroq qonuniyatlarning ochilishi to‘xtamasligidan, ularni o‘qitish takomillashishda davom etaverishidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo‘yliyev B.T., Quvondiqov O.Q. va bosh. // Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Qarshi 2012. B. 321-323.

2. Ломоносов М.В. Избранные произведения. В 2т. М. Наука, 1986.

3. Кудрявцев П.С. Курс истории физики. Киев: Вища шк.1993.

4. Петражицкий Л.И. Университети наука: В 2т. СПб. 1907.

5. Воспоминания об А.Ф.Иоффе. Сборник //Под ред. В.П.Жузе. – М.: Наука.1973.

6. Савельев А.А. Памяти учителя //Новости радио. 1925. №14. –С. 23-25.

7. Медынский Е.Н. Лекция как метод учебной работы в вузе. М: Моск. Гос. пед.ин-т.1935.

Rafikjon KAZAKOV,
Andijon davlat universiteti “Kimyo” kafedrasi o‘qituvchisi

8-SINF KIMYO DARSLIGIDAGI MAVZULARNI O‘ZLASHTIRISHDA UY TAJRIBALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitishning bugungi holati yuzasidan ma’lumotlar, kimyo va kimyo sanoatining insonlar kundalik hayoti, qishloq xo‘jaligidagi rolini anglashda o‘quvchilarning eksperimental ko‘nikmalarini shakllantirishni takomillashtirishga imkon beruvchi uy tajribalarini ishlab chiqish va amaliyotda sinovdan o‘tkazishga doir olib borilayotgan ilmiy tadqiqot natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi, kimyo o‘quv predmeti, uy tajribalari, mineral o‘g‘itlar, mevali batareyka.

В данной статье приведены сведения о сегодняшнем состоянии методики обучения в общеобразовательных школах, роли химии и химической промышленности в повседневной жизни человека и в сельском хозяйстве, а также результаты научных исследований, цель которых состоит в повышении интереса учащихся к изучению основ химии.

Ключевые слова. Общеобразовательная школа, предмет химии, домашние опыты, минеральные удобрения, фруктовая батарейка.

This article provides information about the current state of teaching methods in general education schools, the role of chemistry and the chemical industry in human everyday life and in agriculture, as well as the results of scientific research, the purpose of which is to increase students’ interest in learning the basics of chemistry.

Key words. General education school, chemistry subject, home experiments, mineral fertilizers, fruit battery.

Bugungi kunda ta’lim sohasini isloh qilish, uni rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi yutuqlari asosida takomillashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar olib borilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlis senatiga murojaatnomasida kimyo, biologiya, matematika, geologiya fanlarini rivojlantirish, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini kuchaytirish bo‘yicha o‘zlarining takliflarini berib o‘tdilar. Mazkur fan asoslarini o‘rganish maktab bosqichidan boshlanishini hisobga olsak, o‘quvchilarning kimyo o‘quv fanidan eksperimental ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy umummiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyoviy ta’lim mazmuni, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari takomillashtirilmoqda. O‘qitishda yangi yo‘nalishlar belgilanmoqda. Lekin bir jihat – kimyoviy eksperimentga bo‘lgan munosabat o‘zgarmasdan qolmoqda. Kimyo eksperimental fan bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Chunki kimyoviy eksperimentsiz, laboratoriya ishlari va amaliy mashg‘ulotlarni bajarmasdan kimyoviy bilimlarning minimal hajmini ham egallash mushkul.

Zamonaviy kimyo ta’limi konsepsiyasida o‘quv eksperimentini amaliy yo‘naltirishga katta urg‘u beriladi. Lekin hozirda qo‘llanilayotgan maktab eksperimenti vositalari asosida bu fikr to‘laligicha ro‘yobga chiqmaydi. Maktab kimyoviy eksperimentini takomil-

lashtirish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar XX asrning 50-60 yillarida olib borilgan. Bu davrda ishlab chiqilgan tajribalar boshqa o‘quv maqsadlari, dasturlar, maktab moddiy bazasiga, kimyoni o‘rganishga ko‘proq vaqt miqdoriga mo‘ljallangan edi.

Maktab o‘quv eksperimentini amaliy yo‘nalishini kuchaytirish muammosini an’anaviy maktab eksperimenti bilan birgalikda uy sharoitida bajarilishi mumkin bo‘lgan kimyoviy tajribalardan foydalanish orqali yechish mumkin. Hozirgi maktab sharoitida uy tajribalaridan samarali foydalanish metodikasi yetarlicha o‘rganilmagan, unga bo‘lgan ehtiyoj esa kun sayin o‘sib bormoqda. O‘quv jarayoniga har qanday innovatsiyani mexanik kiritish oldindan aytib bo‘lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin (uy tajribalari yurtimiz va chet el ta’lim tizimida oldin ham qo‘llanilgan bo‘lsa-da, ta’limning hozirgi rivojlanishi ularga nisbatan boshqacha yondashuvni talab etadi).

O‘qituvchining faoliyati muvaffaqiyatli borishi uchun ular qanday sharoitda eng ko‘p pedagogik samara berishini bilish talab etiladi. Kimyo ta’limi amaliyotiga uy tajribalarini joriy etish masalasi zarur sharoitlarni tashkil etish, unga mos keladigan motivatsiyani yuzaga keltirish muammosi bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, bugungi kundagi tadqiqot ishlarida o‘quvchilarning bilim sifatini oshirish maqsadida bilishga bo‘lgan motivatsiyani bosqichli tarzda uzluksiz shakllantirish masalasi alohida muammo sifatida ko‘rib chiqilmagan. Bilishga bo‘lgan motivatsiyani shakllantirish muammosini ko‘rib chiqish davomida kimyo o‘qitish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi ziddiyatlar aniqlandi:

– bilish motivatsiyasini shakllantirishning hozirda mavjud psixologo-pedagogik nazariyasi bilan kimyo o‘quv predmetida uni amalga oshirish metodik asoslarini kuchsiz ishlab chiqilganligi;

– sinfda ish olib borishning frontal xarakteri va bilimlarni individual o‘zlashtirish usuli;

– hayotiy holatlarga moslashish maqsadida mustaqillik va ijodiy tashabbusni rivojlantirish zaruriyati va kimyoviy tajribalarga ajratilgan o‘quv soatlarini kamligi sababli buni amalga oshirish imkoniyati yo‘qligi kabilarni keltirish mumkin.

O‘quvchilarni kimyo o‘quv predmetini o‘rganishga qiziqtirishning asosiy omili sifatida uy tajribalarini tavsiya etish mumkin. Uy tajribalari – barcha o‘quvchilar bajarishi shart bo‘lgan individual amaliy ish, mustaqil uy vazifalaridan biridir. Bu tajribalar uy-ro‘zg‘or buyumlari va moddalaridan foydalanib, o‘qituvchining bilvosita rahbarligi va nazorati ostida olib boriladi. Uy tajribalarida katta imkoniyatlar mavjud. Uy tajribalari o‘quv jarayonida alohida o‘rinni egallaydi. Birinchidan bu – amaliy mashg‘ulot bo‘lib, mustaqil kimyoviy eksperiment turlaridan biridir. Uy tajribalari o‘qituvchining bilvosita rahbarligi ostida olib borilganligi sababli kimyoviy eksperiment texnikasi nuqtayi nazaridan o‘ta murakkab bo‘la olmaydi. Bunday tajribalarni bajarishda asosiy maqsad natija emas, balki tajribani bajarish jarayonidir. Bunda umumo‘quv va eksperimental ko‘nikmalar takomillashadi. Uy tajribalarini bajarish davomida o‘quvchilar tajriba maqsadini aniqlaydi, o‘zining faoliyati bosqichlarini belgilaydi, harakat usullarini tanlaydi, xulosa chiqaradi, o‘zini nazorat qiladi. O‘qituvchi o‘quvchilarning bu faoliyatini zarur yo‘nalishda borishini nazorat qiladi.

Uy tajribalarini yaratish muammosi yangi emas. Bu muammo ko‘p yillar davomida ko‘tarilgan va qisman o‘z yechimini topib kelgan. Uy tajribalari maktab kimyoviy eksperimenti bilan bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun bu muammoni yechimini topishida ularni o‘zaro birgalikda ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Uy tajribalaridan foydalanish amaliyotining tarixi uzoq davrga borib taqaladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida ham kimyo o‘quv predmeti sifatida qabul qilinmagan edi. Shu bilan birga, kimyoviy tajribaning vazifasini muhimligi, nazariya va amaliyot

birligi zarurligi haqida kimyo fani darg‘alari o‘z vaqtlarida ta’kidlab o‘tishgan.

“Kimyoni o‘qitishning asosiy maqsadi tajriba yo‘li bilan qonunlarni isbotini ko‘rsatish va bu orqali o‘quvchilarning ongiga kimyoviy jarayonlarning mazmunini yetkazishdan iborat” deb yozgan edi V.I. Golikov.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, XIX asrning ikkinchi yarmigacha maxsus o‘quv tajribalari kam ishlab chiqilgan edi. Aksariyat tajribalar uchun ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga mo‘ljallangan asbob-uskunalardan foydalanish taklif etilar edi. Hozirgi kimyo ta’limi amaliyotida ham ilmiy laboratoriyalarning asosiy asbob va jihozlaridan foydalanilib kelinmoqda. Alohida maktab kimyo laboratoriyasi uchun zarur jihozlar ko‘p ixtiro qilinmagan (masalan fizikadan farqli ravishda).

Bu davrda metodist olimlar tomonidan o‘quvchilar eksperimentining mazmuni va uning metodikasining asosiy masalalari ishlab chiqilgan. O‘quvchilar va o‘qituvchilar uchun kimyo laboratoriyasida ishlash uchun birinchi qo‘llanmalar, ularni bajarish uchun ko‘plab metodikalar, asbob va uskunalar, jihoz va kimyoviy moddalar tavsiya etilgan.

Mazkur davrda nemis metodisti F. Vilbrant g‘oyasi ilg‘or bo‘lib, u o‘qitish asosi etib o‘quvchilar tajribasini tanlagan. Uning fikricha, eng yaxshi o‘qitish yo‘li ilmiy tadqiqot yo‘li bilan mos keladigan yo‘ldir. O‘qitish asosiga “izlanuvchi fikr” qo‘yilib, tajriba bu fikrning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini isbotlab berishi kerak bo‘ladi. O‘quvchi kimyoning qonunlarini, elementlar va ularning birikmalarini “kashf” etishi kerak.

Vilbrant g‘oyasi ta’sirida uy sharoitida tajribalar o‘tkazishga doir adabiyotlar paydo bo‘la boshladi. Bular asosan nemis adabiyotlaridir.

Mazkur kitoblar mualliflarining fikricha, kimyoni uy sharoitida ham o‘rganish mumkin. Bunda bu faoliyat har doim tajribalar bajarish bilan olib borilishi kerak. Bu tajribalarning ayrimlari namoyishli tajribalar sifatida hozirda ham foydalanib kelinmoqda, masalan xlorovodorod olish. Ayrimlaridan esa hozirda umuman foydalanish ta’qiqlangan, masalan oq fosfor bilan tajribalar. Lekin ularda eng havfli tomoni tajriba bajarish davomida rioya etiladigan xavfsizlik texnikasiga yetarlicha e’tibor berilmagani edi.

Hozirda kutubxonalar, Internet tarmog‘idan ko‘plab kimyoviy tajribalar bilan tanishish imkoni mavjud. Lekin ularning aksariyati zaharli, agressiv reagentlar, maxsus laboratoriya uskuna va jihozlari talab etadi. Ayrimlarida esa reaksiya mahsulotlari zaharli bo‘lgani uchun ulardan uy tajribalari sifatida foydalanib bo‘lmaydi. Shunga bog‘liq holda uy sharoitida bajarish uchun tajribalar tanlashda mezonlar ishlab chiqildi.

Ular:

– xavfsizlik;
– moddalar mavjudligi;
– jihozlar mavjudligi;
– kamchiqimlik;
– bajarish soddaligi;
– ko‘rgazmalilik.

Birinchi va barcha kimyoviy tajribalarga doir talab – xavfsizlikdir. Shunga bog‘liq holda xavfsiz, zaharli bo‘lmagan moddalar ishtirokidagi, ko‘p miqdorda issiqlik ajralib, yong‘in xavfi tug‘dirmaydigan tajribalar tanlab olinadi.

Modda va jihozlarning mavjudligi uy tajribalarini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki qimmat reaktiv va maxsus laboratoriya jihozlarini izlash o‘quvchi uchun yengib bo‘lmas to‘siqqa aylanadi. Buning uchun dorixona, oziq-ovqat do‘koni yoki har bir xo‘jalikda bo‘ladigan modda va jihozlar ishtirokidagi moddalar tavsiya etiladi.

Kam sarf talab etadigan tajribalar turli moliyaviy sharoitdagi oilalardagi o‘quvchilarning

ham oila byudjetiga og‘irligi tushmasdan tajribani bajarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuning uchun bu mezonni ham albatta inobatga olish kerak.

Bajarish soddaligi uy tajribalari uchun zarur, chunki ular o‘qituvchining tashkiliy, metodik va nazorat qiluvchi ishtirokisiz olib boriladi. Murakkab bo‘lmagan tajribani o‘quvchi tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishi, tugatilmagan murakkab tajribaga nisbatan kattaroq pedagogik qiymatga egadir.

Uy tajribasining ko‘rgazmaliligi – tajribalar tanlashning yana bir muhim mezoni bo‘ladi. 90 foiz ma’lumotni inson vizual analizatorlar orqali qabul qilishini hisobga olinsa, uy tajribalarining tashqi effekti tajribani yaxshiroq xotirada qolishini ta’minlaydi, bu effektlar esa tajriba to‘g‘ri bajarilayotganligini belgisi bo‘lib xizmat qiladi.

Psixologlar I.V.Dubrovina va B.S.Kruglov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar 8-sinf o‘quvchilari material ma’nosini o‘zlashtirishda taxmin, tasdiqni emas, balki asosan ayrim faktlar yoki ular yig‘indisini “mahkam ushlab qolishlarini” ko‘rsatadi. 50 foizga yaqin sakkizinchi sinf o‘quvchilari abstrakt, nazariy ma’lumotlarni sistemali qabul qilish va ularni aks ettirishga tayyor emas.

Bugungi kunda kimyo o‘qitish amaliyotining maktab bosqichida kimyo o‘quv fanini nazariy qismini o‘rganishning miqdorini ortishi va o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash ko‘nikmasining to‘liq shakllanmaganligi orasidagi ziddiyat o‘quv predmetiga bo‘lgan qiziqishning keskin pasayib ketishiga olib kelmoqda. Bu salbiy jarayonni 7-sinf o‘quvchilarida ikkinchi yarim yillikdan so‘ng kuzatish mumkin.

Mazkur salbiy jarayonni bartaraf etish imkoniyatlarini aniqlashtirish uchun biz tomonimizdan bir necha yillar davomida 8-sinf o‘quvchilarning kimyo o‘quv fani bo‘yicha eksperimental ko‘nikmalarini takomillashtirish, ularning tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini oshirish, kimyo o‘quv fani mavzulari mazmunida aks etgan tushunchalarni amaliy ahamiyatini kundalik turmush, hayotda anglashlari uchun uy sharoitida bajarilishi mumkin bo‘lgan kimyoviy tajribalar ishlab chiqilgan va eksperimental sinovlardan o‘tkazilgan.

Quyida shunday uy tajribalaridan misollar keltirilgan.

Mevali batareyka

Zarur jihoz va mevalar: sitrus mevalar: limon, greyfrutlar yoki apelsinlar, taxminan 6 sm uzunlikdagi mis sim, taxminan 6 sm uzunlikdagi rux qoplangan temir mix, svetodiod (ularda simlar bilan ulash uchun zarur uzunlikdagi simlar bo‘lishiga e’tibor bering), izolyasion lenta.

Ishning borishi: tajriba uchun mevalarni yaxshilab har tarafidan ezg‘ilang. Kuchli siqib yubormang. Lekin uni kuchsiz ham siqib bo‘lmaydi, chunki uning shirasi ajralishi kerak.

Mixlarni bir-biridan 5 sm masofada joylashtiring. Mixlarning o‘tkir qismlari mevalar markaziga yo‘nalgan bo‘lishi, lekin bir-biriga tegmasligi kerak.

Svetodiod simlaridagi izolyatsiyani mixlar atrofida o‘rash mumkin bo‘lgan uzunlikda tozalang.

Simning birini ruxlangan mixga ulab, izolyatsiya bilan o‘rang. Boshqa uchini mis mix atrofiga o‘rang. Ikkinchi mixga simni o‘rashni boshlaganingizda lampochka yonadi!

Yana qanday mevalar mevali batareyka tajribasi uchun yaraydi? Sabzavotlar-chi? Qaysi meva yaxshiroq o‘tkazuvchanlikka ega? Sizningcha, siz tajriba qilib ko‘rgan meva bir necha soat, kun lampochkani energiya bilan ta’minlay oladimi? Mevaning hajmi kuchlanishga ta’sir etadimi? Olib borilgan tajriba bo‘yicha hisobotni tayyorlang.

Mineral o‘g‘itlar

Ishning maqsadi:

A) Ta’limiy maqsad: Mineral o‘g‘itlarga doir o‘zlashtirilgan BKMlarni mustahkamlash

B) Rivojlantiruvchi maqsad: uy sharoitida mavjud moddalar yordamida nostandart sharoitlarda mineral o‘g‘itlar olishga doir tajribalar olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirish

S) Tarbiyaviy maqsad: Mavzuga doir tushunchalarini mustahkamlash orqali ekologik tarbiya berish, atrof-muhitdagi jarayonlardan mavzuga doir tegishli xulosalar chiqarishga o‘rgatish.

Metodik ko‘rsatmalar: Oldin o‘qituvchi o‘quvchilarni uylarida zarur modda va jihozlar borligini aniqlaydi. O‘qituvchi yozma shakldagi yo‘riqnomani tarqatadi, ishni bajarishda benzin bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya etishga doir tushunchalarni eslatib o‘tadi. Ishni bajarib bo‘lgach, kundalik kuzatuvlar natijalari aks etgan hisobotni topshirishlari uqtirib o‘tiladi.

Suyaklardan mineral o‘g‘it

Zarur modda va jihozlar: maydalangan suyaklar, benzin, gaz gorelkasi alangasi, xovoncha, uy gullari.

Ishning borishi: maydalangan suyaklarni gaz gorelka alangasida yaxshilab kuydirib olamiz. Ular tarkibidagi organik moddalar kuyib bo‘lgach, suyaklarni xovonchada maydalaymiz. Maydalangan suyak tolqonini uy gullari tuprog‘iga solib, ularning rivojlanishiga ta’sirini kuzating. Nazorat uchun boshqa gullarni ham tanlashni unutmang.

Qishloq xo‘jaligida kimyoviy birikmalarning ahamiyati

Tajriba o‘tkazish uchun uch xil o‘g‘it (mineral, mineral-organik, organik) tayyorlab oling. Tomorqangizdagi yer maydonidan eni 3 m, bo‘yi 6 m yer maydoni ajratib oling va uni uch qismga bo‘ling. Har bir qism yerga teng miqdorda biror madaniy o‘simlik urug‘idan (kartoshka, pomidor, poliz ekinlari) ni ekib, ularga ota-onangiz bilan maslahatlashgan holda birinchi yer maydoniga mineral, ikkinchisiga mineral-organik, uchinchisiga esa faqat organik o‘g‘itlar bilan ishlov bering. Kundalik daftaringizga har kuni yer maydonidagi o‘simliklarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni yozib boring. Hosil yig‘ish vaqtida har bir yer maydonida yetishtirilgan hosilni alohida yig‘ib, tarozida tortib oling. Qaysi o‘g‘it turi solingan yer maydonida hosildorlik yuqoriroq ekanligini aniqlang va sababini tushuntirib bering. Kundalik daftar va olib borilgan ishlar yuzasidan tayyorlangan yozma hisobotlarni o‘simliklar rasmi bilan topshiring.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 8-sinflarda kimyoviy eksperimental ko‘nikmalarni shakllantirishni takomillashtirish uchun darsda va maktabdan tashqari ishlarda mustaqil ishlardan foydalanishda ta’limning amaliyot, hayot bilan bog‘liqligiga amal qilish masalalariga doir ilmiy-metodik, ilmiy-ommabop adabiyotlar, ilmiy-tadqiqot ishlari, ilg‘or pedagoglarning ish tajribalari va tavsiyalari atroflicha o‘rganildi, tahlil etildi, ular tadqiqot maqsad va vazifalaridan kelib chiqib qiyosiy tahlil etildi hamda ulardan kelib chiqqan natijalar asosida ta’limning amaliyot, hayot bilan bog‘liqligiga ilmiy tadqiqotlar, Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, darslik va metodik qo‘llanmalarda e’tiborni yanada kuchaytirish zarurligi, uy vazifalari sifatida foydalanish uchun uy tajribalari ishlab chiqish zarurligi aniqlandi.

Kimyo ta’limining maktab bosqichida (8-sinf) o‘qitiladigan barcha mavzularni o‘rganishda ta’limning amaliyot, hayot bilan bog‘liqligi tamoyili mavqeini kuchaytirish asosida uy tajribalarini ishlab chiqish va ulardan o‘quvchilarning eksperimental ko‘nikmalarini shakllantirishni takomillashtirishda foydalanish pirovard natijada maktab

o‘quvchilarining kimyo o‘quv fani asoslarini o‘rganishga qiziqishlarini ortishiga, kreativ fikrlagan holda nostandart sharoitlarda tajribalar olib borish va ulardan tegishli xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini bugungi talab darajasida shakllanishiga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi VM–997-son “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

3. Иванова Р.Г. Общая методика обучения химии в школе. Химический эксперимент – основа изучения химии. – М.: Дрофа, 2008. – С.170-184.

4. Желоховцева П.Д. Домашние самостоятельные практические работы по химии в седьмых классах //Сборник Опыт учебно-воспитательной работы по биологии и химии в средней школе. – Известия АПН РСФСР 1949 – С. 5-14.

5. Полосин В.С. Домашние опыты учащихся. // Семья и школа 1952 № 9 –С. 29.

6. Балаев И.И. Домашние опыты для учащихся 7-8 классов. //Химия в школе 1969 № 3 – С. 73-75.

7. Шипарева Т.А. Домашний эксперимент по химии как средство формирования мотивов к изучению учебного предмета. Дис. ... канд. пед. наук. – М.: 2001. –С. 160.

8. Щукина Г.И. “Педагогические проблемы формирования познава-тельных интересов учащихся”. Москва, Педагогика, 1988, –С. 43.

9. Маркова А.К. Формирование мотивации учения в школьном возрасте: Пособие для учителя. - М., Просвещение, 2001(1983).–С. 96(157).

10. Антонова С.С. Методическое обеспечение прикладной направленности обучения химии во внешкольной работе. Дис. ... канд. пед. наук. – М.: 2004. –С.139.

11. Шадрина Т.В. Мотивация учебной деятельности у подростков. – Л., 1975.

12. Шейд. К. Опыты по химии для начинающих. – СПб.: Брокгауз и Эфрон, 1906.

13. Экспериментальная химия для начинающих. (Пер. с нем.). В 2-х ч. СПб. Вестник знаний, 1909.

14. Рабочая книга школьного психолога. Под.ред. И.В. Дубровиной, - М. .-Просвещение, 1991.

Iroda SUVANOVA,
Navoiy viloyati 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

UYDA TA’LIM OLAYOTGAN O‘QUVCHI BILAN ISHLASH USULLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada uyda ta’lim olayotgan o‘quvchi bilan ishlash usullari, dars o‘tish jarayonlari, metodlar, o‘quvchini darsga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish uchun turli o‘yinlar haqida fikr-mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Iste’dod, ta’lim, o‘quvchi, uyda ta’lim, ta’lim-tarbiya, qonun, qaror, yangi bosqich.

В этой статье обсуждаются способы работы с учеником, обучающимся на дому, процесс обучения, методы и различные игры для повышения интереса ученика к уроку.

Ключевые слова. Талант, образование, студент, домашнее обучение, образование, право, решение, новый этап.

This article discusses ways to work with a home-schooled student, the teaching process, the methods, and the variety of games to increase the student’s interest in the lesson.

Key words. Talent, education, student, home schooling, education, law, decision, new stage.

Mamlakatimizda ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha bir qancha qonun, qaror va chora-tadbirlar ishlab chiqilgan bo‘lib, ulardan biri 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ga muvofiq “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi” tasdiqlangan.

Bosh qomusimiz Konstitutsiyaning 41-moddasida ham “Har kim bilim olish huquqiga ega, maktab ishlari davlat tomonidan kafolatlanadi”, bundan ko‘rinib turibdiki, rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham, sog‘lom tengdoshlari qatori bilim olish, tarbiyalanish huquqiga egadirlar.

O‘quvchiga O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan o‘quv reja asosida ta’lim-tarbiya beriladi. O‘quv rejadagi haftalik soatlar miqdori 8 soat bo‘lib, maktab tomonidan o‘quvchining sog‘lig‘i holati inobatga olinib, ota-onalar bilan kelishgan holda haftasiga kamida uch kunga moslab tuziladi.

2017-yil 6-aprelda “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlari tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarorlari asosida izchil yondashilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Mashg‘ulotlar jarayonida turli interfaol metodlardan foydalangan holda darslarni o‘tish eslab qolishlari uchun oson va sodda usullarni qo‘llash yaxshi samara beradi. 1-sinf o‘quvchilarga o‘zbek alifbosidagi harflarni o‘rgatish jarayonida analitik-sintetik tovush metodlaridan foydalanish foydali. Uyda yakka tartibda ta’lim olayotgan o‘quvchi bilan ishlashda ko‘rgazmalilik usullaridan ko‘proq foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki bunday

o‘quvchilar ko‘proq ko‘rgan, ishlatgan, eshitgan narsalari orqali xotirasida qoladi. Oddiy o‘tilgan dars bilan, innovatsion metodlardan foydalanib, tashkil etilgan darslar ko‘proq natija berganligi uchun men quyidagi metodlardan darslarim jarayonida ko‘proq qo‘llayman.

Quyida dars jarayonida foydalanish uchun innovatsion va interfaol mashqlardan-namunalar keltiriladi. Ulardan nafaqat boshlang‘ich ta’limda balki yuqori sinflarda ham foydalanish mumkin.

“Porloq yulduz” metodi.

Bu metodda uchburchaklarga so‘zlar yoziladi, so‘ngra ularni doskaga yopishtirib chiqiladi. Doskada nima hosil bo‘ldi. Doskada yulduz shakli hosil bo‘ldi.

Yulduz so‘ziga so‘roq beraylik!

– Nima?

– Narsa va shaxsning nimasini bildirayapti?

– Nomini, ushbu so‘z narsa va shaxsning nomini bildirsa ot so‘z turkumiga kiradi.

– Yulduzimizda nechta qirra bor so‘roq beramiz. (Nechta? 5ta)

– Narsa va shaxsning sanog‘ini bildirsa bu so‘z turkumi son deyiladi.

– Yulduzimiz qirralarida qanday so‘zlar porladi?

Mehribon, jonkuyar, fidoiy, bolajon, shirinso‘z.

– Bu so‘zlarga so‘roq beramiz. Qanday?

– Narsa va shaxsning belgisini bildirsa, bu so‘z turkumi sifat so‘z turkumi deyiladi.

– Yulduz nima qiladi?

Chiqadi, porlaydi, so‘nadi. So‘roq beramiz (nima qiladi?)

Shaxs va narsaning harakatini bildirgan so‘z fe’l so‘z turkumiga kiradi.

“Uchburchak” metodi.

Bu metodda biror kasbning rasmi uchburchak ichiga joylashtirilib u kasb egasi qanday vazifalar bajarishi birin-ketin yoziladi.

“Bir qadam olg‘a” ta’limiy o‘yini.

Bu metoddan o‘tilgan yoki yangi mavzuni mustahkamlash uchun qo‘llasa bo‘ladi. Mavzu yuzasidan bir qancha savollar beriladi. O‘quvchini doska yoniga qo‘yib, savollar birin-ketin berib boriladi. Savollarga to‘g‘ri javob bersa, bir qadam olg‘a yuradi, javob bera olmasa bir qadam orqaga yuradi.

“Bo‘g‘indan so‘z top” metodi.

To‘rtburchak shakldagi qog‘ozlarga bo‘g‘inlarni yozib, ularni bir nechtasini birlashtirib so‘z hosil qilinadi. So‘zlardan esa gap tuziladi.

Bu metod orqali o‘quvchini diqqati jamlanib, tezkorlik bilan harakat qilishga o‘rgatadi. So‘zlarni esa o‘z o‘rnida qo‘llash ko‘nikmasi shakllanadi.

“So‘zdan so‘z top” ta’limiy o‘yini.

Bu ta’limiy o‘yinda o‘qituvchi so‘zni doskaga ilib qo‘yadi. So‘ngra o‘quvchi topgan so‘zlarini daftarga yozadi.

So‘z: Ko‘zmunchoq

Topilgan so‘zlar: ko‘z, o‘z, un, munchoq, qoch, oq.

So‘z: Belkurak

Topilgan so‘zlar: bel, el, kura, kar, ur, kurak.

“Ha-yo‘q” o‘yini

O‘qituvchi har bir darsni boshlashdan oldin o‘quvchi diqqatini jalb qilish maqsadida bu metoddan foydalanish maqasdga muvofiq deb o‘ylayman.

– Hozir o‘lkada bahor faslimi?

– Kitob insonning do‘stimi?

– Gul ochiladimi?
– Qushlar yuradimi?
– Sen ustozmi?
– Baliq suzadimi?
– Qovun pishadimi?
– Mushuk vovullaydimi?

“Issiq kartoshka” ta’limiy metodi.

O‘qituvchi ko‘paytirish jadvali so‘rash yoki og‘zaki savol-javob vaqtida bu metoddan foydalansa bo‘ladi. Diqqatni jamlashga o‘rgatadi. O‘qituvchi 4X5 deb koptokni o‘quvchiga otadi, o‘quvchi 20 deb koptokni o‘qituvchiga qaytaradi.

“Xotira mashqlari”

O‘quvchiga bir nechta sonlar aytiladi (masalan: 12,18, 70, 81, 54)

O‘quvchiga bir nechta matematik maqollar aytiladi.

– Bir yigitga qirq hunar ham oz.
– Sanamay sakkiz dema.
– Yetti o‘lchab bir kes.
– Yeridan ayrilgan yetti yil yig‘lar, elidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar. Maqollardan so‘ng sonlar so‘raladi.

“Ortiqchasini top” ta’limiy o‘yini

Tabiat darslarida keng qo‘llansa bo‘ladigan metod hisoblanadi. Mavzular kesimidan kelib chiqib, rasmlar tanlanadi va bitta mavzuga tegishli bo‘lmagan rasm qo‘yiladi. Bu metod orqali farqni topishga o‘rgatadi.

“Harflar marjoni”

Alifbo davrida yangi harfni o‘tishdan oldin o‘tilgan harflarni eslash, sanash, yozish o‘quvchi xotirasida muhrlanib qoladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, o‘quvchining bilim, ko‘nikma, malakalarini hamda kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion metodlardan foydalanish dars jarayonida o‘quvchining faolligini oshiradi.

Ushbu metodik tavsiyada keltirilgan innovatsion mashqlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning dars jarayonida qiziqishlari ortibgina qolmay, dars davomida o‘rgangan bilimlarini kundalik hayotda ham qo‘llay olish ko‘nikmalari shakllanadi.

O‘quvchi shaxsining dunyoqarashi, tafakkurini bilish, sezgi, idrok va xotirasi o‘sishida yaqindan yordam beradi.

Uslubiy tavsiyada keltirilgan innovatsion va interfaol mashqlar orqali uyda yakka tartibda ta’lim olayotgan o‘quvchini darslarga bo‘lgan qiziqishining ortishi yoki biror fanni chuqur o‘rganishi maqsadida qo‘llash orqali ta’lim va tarbiya sifat samaradorligi oshiriladi.

Ushbu metodik tavsiya dars va to‘garak mashg‘ulotlarini yanada qiziqarli bo‘lishida yaqindan yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz” –T.: O‘zbekiston, 2017-yil

2. Xalq ta’limi Vazirligining 2015-yil 10-iyundagi 15-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan “Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarning uyda yakka tartibda ta’lim olishlarini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi.

Mamanazar DJUMAYEV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim fanlari” kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi

TA’LIM SIFATINI BAHOLASH SOHASIDAGI XALQARO TADQIQOTLAR TO‘G‘RISIDA

Annotatsiya

Maqolada PISA xalqaro baholash tadqiqotlari (The Programme for International Student Assessment) bo‘yicha matematik savodxonlik tushunchasi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. PISA xalqaro tadqiqoti, matematik savodxonlik, baholash, tabiiy yo‘nalish, aniqlash, tashkilot.

В статье исследуется концепция математической грамотности в Программе международной оценки учащихся (PISA).

Ключевые слова. Международное исследование PISA, математическая грамотность, оценка, естественная ориентация, определение, организация.

This article explores the concept of mathematical literacy in the Program for International Student Assessment (PISA).

Key words. PISA International Study, mathematical literacy, assessment, natural orientation, definition, organization.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-son qarori Respublika xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o‘rnatish, o‘quvchi-yoshlarning ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish maqsadida chiqarilgan. Qarorda quyidagi xalqaro baholash dasturlari bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar (keyingi o‘rinlarda xalqaro tadqiqotlar deb ataladi) tashkil etilishi qayd etilgan:

Progress in International Reading and Literacy Study (PIRLS) – boshlang‘ich 4-sinf o‘quvchilarining matnni o‘qish va tushunish darajasini baholash uchun;

Trends in International Mathematics and Science Study (TIMSS) – 4 va 8-sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan o‘zlashtirish darajasini baholash uchun;

The Programme for International Student Assessment (PISA) – 15 yoshli o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash uchun;

The Teaching and Learning International Survey (TALIS) – rahbar va pedagog kadrlarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitish va ta’lim olish muhitini hamda o‘qituvchilarning ish sharoitlarini o‘rganish uchun.

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy

markazi, uning asosiy vazifalari va faoliyatining yo‘nalishlari matematika va tabiiy fanlar savodxonlik darajasini belgilashni asosiy vazifalardan biri ekanligini ilgari surmoqda.

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirishning asosiy vazifalari va faoliyatining yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilangan:

– xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O‘zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etish;

– ta’lim tizimida o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;

– ta’lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalar o‘rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish, xalqaro ilmiy anjumanlar va simpoziumlarni tashkil etish va o‘tkazishda ishtirok etish;

– ta’lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o‘tkazish;

– ta’lim sifatini baholash bo‘yicha tadqiqotlarni ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlash;

– umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishini ta’minlash;

– O‘zbekiston Respublikasining xalqaro baholash dasturlarida qayd etilgan natijalarni boshqa davlatlar natijalari bilan qiyosiy taqqoslash;

– xalqaro baholash dasturlarini ta’lim jarayoniga joriy etish bo‘yicha tizimli monitoring olib borish, ushbu sohadagi ilg‘or tajribani ommalashtirish va uning asosida ta’lim muassasalari uchun tavsiyalar va qo‘llanmalar ishlab chiqishda ishtirok etish;

– o‘qitishning innovatsion usullaridan foydalangan holda o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlar bo‘yicha o‘quv-uslubiy tavsiyalar tayyorlash.

TIMSS tadqiqoti haqida ham to‘xtalib o‘taylik:

Maktab matematika va tabiiy fanlar ta’lim sifatining Xalqaro monitoringi (inglizcha – TIMSS – Trends in Mathematics and Science Study) – bu dastur bilim yutuqlarini baholash xalqaro uyushmasi tomonidan tashkil etilgan (IEA). Ushbu tadqiqot boshlang‘ich ta’limning 4-sinf o‘quvchilari va 8-sinf o‘quvchilarini turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlarga oid bilimlarining darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta’lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko‘maklashadi.

TIMSS xalqaro tadqiqotining asosiy vazifasi maktabning matematika va tabiiy fanlar ta’limi sifatiga solishtirma baho berishdan iborat. Har 4 yil davomida 4- va 8-sinf o‘quvchilarining ta’lim yutuqlariga baho berib boriladi va shu bilan birga, nafaqat ularning bilim va ko‘nikmasi, balki ularning ushbu fanlarga bo‘lgan munosabati, qiziqishi, hamda ta’limga bo‘lgan motivatsiyasini solishirishga imkon beradi. Tadqiqotning asosiy rejasi: 4 yil davomida 4-sinf o‘quvchisi 8-sinfga yetgunga qadar uning matematika va tabiiy fanlar bilimining natijalari kuzatib boriladi. Shu yo‘sinda maktabning boshlang‘ich va yuqori sinf o‘quvchilarining bilim yutuqlarining monitoringi amalga oshiriladi.

Tadqiqot o‘tkazuvchi davlatlarda maktabda matematika va tabiiy fanlar ta’limning mazmun mohiyati va o‘quv jarayoni, ta’lim muassasasi, o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ularning oilalari bilan bog‘liq omillar qo‘shimcha o‘rganiladi. Xalqaro testga qo‘shimcha bo‘lib tadqiqotda ishtirok etuvchi maktab ma’muriyati, o‘quvchilar va o‘qituvchilar so‘rovnomadan o‘tkaziladi. Olingan ma’lumotlar test natijalariga, ya’ni o‘quvchilarning bilimiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashga, tadqiqotda ishtirok etuvchi davlatlarda matematika va tabiiy fanlar holatini ko‘rsatib berishga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotni olib borishda va majmua ishlanmasida dunyoning ko‘plab ilmiy tadqiqot markazlari va professional tashkilotlar ishtirok etadi. Ta’lim sohasidagi test

xizmatlari: (ETS – Educational Testing Service SSHA), Kanadaning statistik markazi (Statistics Canada), ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining Sekretariati (IEA, Niderland(gollandlar)lar), ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasining ma'lumotlar markazi (DPC IEA – Data Processing Center IEA, Germaniya) va hokazo. Turli davlat mutaxassislarining koordinatsiyasini kuchaytirish uchun dunyoning yetuk mutaxassislaridan iborat bo'lgan maslahat qo'mitalari tashkil etildi. Hozirgi tadqiqot koordinatsiyasi Boston kollejida xalqaro koordinatsiya markazi tomonidan amalga oshirilgan (ISC – International Study Center, Boston College SSHA)

TIMSS tadqiqotini ishlanmasiga asos qilib maxsus "TIMSS Assessment Frameworks and Specifications" hujjati olingan, unda ushbu yo'nalishlarga umumiy yondashgan holda matematika va tabiiy fanlardan test va test topshiriqlariga izoh berilgan, shuningdek, o'quvchi topshiriqni bajarayotganda o'rganish faoliyatining barcha turlari namoyish etiladi.

Xalqaro TIMSS tadqiqoti o'z ichiga quyidagilarni oladi:

– test yutuqlari;
– so'rovnomalar;
– uslubiy ta'minlanganligi;
– dastur ta'minoti.

Xalqaro testlar quyidagi omillar orqali ishlab chiqiladi:

– tekshirilayotgan ishlar va ta'lim turlarining mosligi;
– loyihada ishtirok etgan davlatlarning xalqaro testlariga mosligi;
– testlarning bir-biriga bog'liqligining ta'minoti;
– tekshirilayotgan ishlarning yo'nalishlar bo'yicha mohiyati;
– testlarning o'quvchi yoshiga mosligi;
– ommaviy tadqiqotning qo'yilgan talablarga mosligi.

Yo'nalishlar bo'yicha matematika va tabiiy fanlardan har bir variantga baholash uchun savollar kiritilgan. Turli tipdagi topshiriqlar qo'llaniladi (qisqa, to'liq va mukammal javoblarni, amaliy topshiriqlarning javoblarini tanlagan holda).

4- 8-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan baholashda test topshiriqlar nazariyasidan foydalaniladi (inglizcha, ruscha). Ushbu nazariya cheklangan miqdorda 60-70 tadan topshiriqni o'z ichiga olib, har bir davlatdan ishtirok etgan o'quvchi, o'qituvchi va ta'lim muassasasining ko'rsatkichlarini (so'rovnomaga asosan) aniqlab beradi.

1999-yili PISA tadqiqotining mualliflari 15 yoshli o'quvchilarning zamonaviy jamiyatga moslashishga tayyorligini aniqlash masalasini qo'yishgan. So'nggi yillarda hayotimizda ro'y bergan o'zgarishlar matematika fani kundalik hayot, ta'lim, kasb-hunar, ijtimoiy va ilmiy faoliyatda duch kelinayotgan ko'plab muammolarni samarali hal etish uchun muhim vosita ekanligini ko'rsatmoqda. Bu holat PISA tadqiqotining yo'nalishlaridan biri sifatida – 15 yoshli o'quvchilarning kundalik hayotidagi muammolarini hal qilish uchun matematika fanidan foydalanish darajasini baholash yo'nalishini belgilaydi.

15 yoshli o'quvchilarning matematik tayyorgarligini baholash mazmuni matematik savodxonlik tushunchasiga asoslanadi. Matematik savodxonlik – bu "inson va olam munosabatlarida matematikaning o'rnini aniqlash va tushunish, asosli matematik mulohaza yurita oladigan, fikrli, qiziquvchan va ijodkor fuqaroning mavjud va kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish maqsadida matematikadan foydalana bilish qobiliyatidir".[1] Mazkur ta'rif 2009-yilgacha qo'llanilgan. Keyinchalik unga berilgan masalani matematika

[1] Amabile, T. (2012), "Componential theory of creativity", No. 12-096, Harvard Business School, (accessed on 28 March, 2018.), 84-b.

yordamida tafakkur jarayonlari bilan bog‘liq holda yechishga oid o‘zgarishlar kiritilgan. Ma’lumki, qo‘yilgan masalani yechish uchun uni matematik yo‘nalishda ifodalash, ma’lum matematik tushunchalar, dalil, usul va mulohazalarni qo‘llash, olingan matematik natijalarni masala kontekstidan kelib chiqqan holda talqin qilish va baholash zarur. Matematik savodxonlikning yangi ta’rifida turli muammolarni matematikani qo‘llagan holda yechish jarayonida intellektual faoliyatning shu tomonlari o‘z aksini topadi.

Matematik savodxonlik – shaxsning matematikani turli kontekstlarda formalizatsiya qilish, qo‘llash va talqin qilish qobiliyatidir. U hodisalarni tushunish, tushuntirish va bashorat qilish uchun o‘z ichiga matematik mulohaza yuritish, matematik tushuncha, usul, dalil va vositalarni qo‘llash kabi jihatlarni oladi. Matematik savodxonlik insonga dunyoda matematikaning o‘rnini tushunishga, mulohaza yuritish hamda qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

PISA tadqiqotining maqsadi – o‘quvchilarni kundalik hayotda matematikani qo‘llashga tayyorlashdan iborat – u alohida turdagi topshiriqlar guruhini ishlab chiqishni taqozo etadi. Bunda an’anaviy baholashda qo‘llanadigan tipik o‘quv topshiriqlari o‘rniga real muammoli vaziyatlarga yaqin, o‘quvchi matematik tayyorgarligiga mos topshiriqlar taklif qilinadi. Masala konteksti atrof-muhitning belgilangan vaziyatga mos elementlari va xususiyatlarini ifodalaydi. Ushbu vaziyatlar hayotning turli jihatlarini aks ettirib, u yo bu darajada matematikalashtirishni talab etadi. PISA tadqiqoti bo‘yicha asosan o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otadagan hamda ularning shaxsiy dunyosiga yaqin bo‘lgan vaziyatlar o‘rganiladi. Jumladan, o‘quvchilarning shaxsiy turmushi, maktabda berilayotgan ta’lim-tarbiya, kasbiy faoliyat; jamiyat va insoniyat hayoti, professional faoliyat, mahalliy jamoa va insoniyatning kundalik hayoti real dunyoning eng yaqin qismi sifatida nazarda tutiladi.

Global innovatsion indeks innovatsion faoliyat to‘g‘risidagi eng muhim axborot manbai hamda qaror chiqaruvchi organlar uchun foydali nazorat vositasi sifatida dunyo miqyosida e’tirof qilingan.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalari shiddat bilan rivojlanayotgani islohotlarni mamlakatimizning jahon sivilizatsiyasi yetakchilari qatoriga kirish yo‘lida tez va sifatli ilgarilashini ta’minlaydigan zamonaviy innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarga asoslangan holda amalga oshirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020. Qarori.

2. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

3. Amabile T. (2012), “Componential theory of creativity”, No. 12-096, Harvard Business School, (accessed on 28 March, 2018).

4. Amabile T. (1997), “Motivating creativity in organizations: on doing what you love and loving what you do”, California Management Review, Vol. 39-58.

5. Amabile T. and M. Pratt (2016), The dynamic componential model of creativity and innovation in organizations: Making progress, making meaning,http://dx.doi.org/10.1016/j.riob.2016.10.001.

Jasur PARDABOYEV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
sirtqi (maxsus sirtqi) bo‘lim o‘qituvchisi

MAKTABDAN TASHQARI TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA STEAM-TA’LIM TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilar kasbiy ko‘nikmalarini uzluksiz rivojlantirishda “STEAM – ta’lim” texnologiyasi va zamonaviy yondashuv masalasi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, texnologiya, STEAM – ta’lim, muhandislik, STEAM – yondashuv, integratsiya.

В статье обсуждается проблема технологии “STEAM – образование” и современного подхода к непрерывному развитию профессиональных навыков студентов.

Ключевые слова. Инновация, технология, STEAM – образование, инжиниринг, подход STEAM, интеграция.

The article discusses the issue of “STEAM – education” technology and a modern approach to the continuous development of professional skills of students.

Key words. Innovation, technology, STEAM – education, engineering, STEAM approach, integration.

XXI asr axborot va zamonaviy ilmiy bilimlar asri hisoblanadi, shuning uchun zamonaviy jamiyat rivojlanishi har birimizdan yuqori darajadagi tayyorgarlikni talab qiladi. Turli sohalardagi bilim va tayyorgarlik darajasini rivojlanganligi, ya’ni sanoat va ishlab chiqarish sohalarining rivojlanishida yuqori malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlardan kelib chiqadi. Shu munosabat bilan bugungi kunda uzluksiz zamonaviy ta’lim tizimi axborot va mobil sharoitda yashash va ishlashga asoslangan muammolarni hal qilishga harakat qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qaroriga va 2019-yil 30-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4467-sonli qarorlari asosida yosh avlodni ma’naviy barkamol etib tarbiyalash, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishini ta’minlashda “Barkamol avlod” bolalar maktablarida 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab “STEAM – ta’lim” (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – muhandislik, Art – san’at, Mathematics – matematika) dasturi joriy etilishi kerakligi ta’kidlandi. Ushbu qaror ijrosini hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda maktabdan tashqari ta’lim jarayoni modernizatsiyalash va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali o‘quvchilar kasb-hunar tayyorgarligini rivojlantirish vazifasiga aylandi.

Texnik fanlarga qiziqishni rivojlantirish. Uzluksiz ta’limning maktabgacha ta’lim muassasalarida, maktablarda, institutlarda va boshqa ixtisoslashtirilgan hamda mak-

tabdan tashqari ta’lim muassasalarda ilg‘or tizimning joriy etilishi o‘quvchilarni o‘quv jarayoniga jalb qilish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini takomillashtirish orqali o‘quvchilar va talabalar turli xil tajribalarni sinab ko‘rish, o‘tkazish orqali nostandart vazifalarni bajarishni o‘rganishi, bularning barchasi ularning kasb – hunar o‘rganishga tayyorgarlik ko‘rish imkonini beradi hamda ularning g‘ayrioddiy, nostandart muammolarni hal etishga o‘rganishi uchun STEAM – ta’lim asos bo‘ladi.

Muloqot ko‘nikmalarini faollashtirish. Ushbu tizimni amalga oshirish asosan jamoaviy ishlarni o‘z ichiga oladi. Axir, ko‘pincha o‘quvchilar birgalikda tadqiqot olib borishadi va o‘z modellarini ishlab chiqishadi. Shuning uchun STEAM – ta’lim – bu ta’lim jarayoni, shaxsiy karyera va keyingi kasbiy o‘sishni bog‘laydigan o‘ziga xos ko‘prikdir. Ta’limning innovatsion konsepsiyasi o‘quvchilarni professional darajada texnik rivojlangan dunyoga tayyorlashga imkon yaratishdir.

STEAM TEXNOLOGIYASINING ASOSI NIMA?

STEAM ta’limining asosiy tarkibiy qismlarining kiritilishi har bir o‘rta maktabda ayniqsa, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash uchun eng yaxshi muhitni yaratishga yordam beradi. STEAM 21-asrning innovatsion texnologiyalariga asoslangan yangi o‘quv tizimi sifatida, uning asosiy maqsadi o‘quvchilarda yangi fikrlash turini rivojlantirishdir. Bu mutlaqo yangi yondashuv bo‘lib, u an’anaviy o‘qitish maktab modelidan keskin farq qiladi va ijodiy-tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga asoslanadi.


STEAM o‘quv maydoni odamlarga o‘z-o‘zini o‘rganish va jamoaviy ishlash bilan birga samarali, interfaol yondashishni ta’minlaydi. Keling, bunday o‘quv jarayonini batafsil ko‘rib chiqaylik: bu yerda an’anaviy o‘qitish turidan nimasi farq qiladi va o‘quvchilarning fikrlashi qanday rivojlanadi.

Albatta, STEAM yondashuvi an’anaviy usuldan sezilarli darajada farq qilishini ko‘rasiz. O‘quvchilar ko‘proq vaqtni o‘z-o‘zini tarbiyalashga bag‘ishlashadi, muammolarni topishni va ularni mustaqil ravishda hal qilishni o‘rganadilar. O‘quvchilar o‘zlarining muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz o‘quv tajribalari bilan o‘rtoqlashadilar, birgalikda loyihalar ustida ishlashadi yoki muayyan muammolarni hal qilishadi. Sinfdoshlar yangi ko‘nikmalar va bilimlar yordamida ta’lim muammolarini hal qilishda bir-birlariga yordam berishadi va qo‘llab-quvvatlashadi.

Oxir oqibat, STEAM yondashuvi, birinchi navbatda, o‘qituvchi tomonidan berilgan materialni yodlashga emas, balki o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. U quyidagilarga asoslanadi; yangi g‘oyalarni yaratish qobiliyati, o‘zini-o‘zi mashq qilish qobiliyati, jamoada ishlash, doimiy xatolarni tuzatish va ta’lim muammolarini hal qilish.

Xalqaro tajribalar asosida STEAM ni joriy etilishi bugungi kunda ta’lim tizimiga innovatsion yondashuvni o‘rganish va ta’limga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. O‘quvchilar amaliy ko‘nikmalarga e’tibor qaratish orqali irodani, ijodkorligini, moslashuvchanligini rivojlantiradi va boshqalar bilan hamkorlik qilishni ham o‘rgatadi. Bugungi kunda barcha sohalardagi rivojlanish davrida aniq va tabiiy ilmiy fanlarni integratsiyalash ham STEAM – ta’lim (Sciense, Technology, Engineering, Mathematic) tushunchasi bilan bevosita bog‘liqdir. Mutaxassislarni tayyorlashga yangicha qarash aniq texnologik, muhandislik ilmi va matematikasiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Ba’zida ushbu yig‘indiga mos bo‘lgan “A”, Art – “san’at” (STEAM) komponenti qo‘shiladi. STEAM ning jadal rivojlanishi va ta’limga tatbiq etilishi oxirgi 15 yil ichida zamonaviy jamiyatning uchta

talabi bilan bog‘liqdir.



Zamonaviy texnologiyalar innovatsion iqtisodiyotning poydevori bo‘lib xizmat qiladi, barcha darajalarda kadrlarga bo‘lgan yangi talablarni qo‘yadi.

Buyurtmachilar tomonidan ishlab chiqaruvchilarga qo‘yiladigan talablarni uchta qismga bo‘lish mumkin:

1. Yangi avlod mutaxassislarining texnologik fikr yurita olishi va ixtirochi potensial talablarni o‘zlashtirganligi, texnologiyalarni boshqarish, rivojlantirishga kompetensiyaviy birlik talabi.

2. (STEAM – ishchilar) murakkab texnologik obyektlarda kvalifikatsiyaga ega mutaxassislarning amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish talabi (maxsus kompetensiyaga ega bo‘lganligi).

3. STEAM – umumiy intellektual salohiyatli va muammolarni ko‘ra olish, barcha sohadagi kasbiy sohalar bo‘yicha (meditsinada, robototexnika, biotexnologiya, axborot texnologiyalari, nanotexnologiya, aviasozlik va boshqa sohalar) raqamli va ijtimoiy kompetensiyalarga ega mutaxassislarga qo‘yilgan talab.


Bu talablar shunchaki mavjud ta’limni yaxshilash emas, aksincha ta’limga yangicha yondashuv, atrofimizdagi dunyoda mavjud real muammolarni hal eta oladigan shaxslarni tayyorlash vazifalarini qo‘yadi. Shuning uchun bo‘lajak mutaxassislarda gibrid malakalarga ega bo‘lgan, bir vaqtda gumanitar va texnik malakalari yaxshi rivojlanganligiga e’tibor qaratish maqsadida STEAM yondashuv amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda kommunikativ, hamkorlik, kreativlik va tanqidiy fikrlay oladigan sifatlarga ham alohida urg‘u berilmoqda.

STEAM – TA’LIMNI QANDAY AMALGA OSHIRISH MUMKIN?

STEAM – bu yondashuv bo‘lib, juda keng harakatlar majmuasi bo‘lib, amaliy va metodik jihatdan jamiyat va insonlarni kelajakka tayyorlashdan iborat.

STEAM – ta’limni darajasi va chegarasi, oxiri, aniq konsepsiyasi mavjud emas. Bu yondashuvga aniq refleks, tahlil va maxsus tadqiqotlarni umumlashtirish hamda yondashuv bo‘yicha aniq bir to‘xtamga kelish talab etiladi.

Bugungi kunda biz asosiy ikkita yo‘lni ajratib ko‘rsatib berishimiz mumkin:



Ta’lim tizimining rivojlanishiga bu ikki qarash bir-birini o‘zaro eksklyuziv emas, ammo turli harakatlar strategiyasini tatbiq qilishni ko‘zda tutadi. STEAM – savodxonlikga urg‘u berganimizda, barcha dolzarb masalalarda maktab va oliy ta’lim mazmuni va tamoyillarini ko‘rib chiqish talab etiladi, unga yangi asoslarini kiritilishi zarurligi ko‘rinadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, STEAM – ta’limni joriy qilinishi o‘quv reja va dastur ishlab chiqishda, o‘quvchi va talabalarning o‘zaro harakatlarini tashkil etishda alohida o‘ringa ega. STEAM – yondashuv asosidagi rivojlantirish haqida so‘z borganda STEAM – bu rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar ta’lim tizimini asosini tashkil etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimidagi maktabdan tashqari ta’lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4467-sonli qarori.

2. Pardabayev J.E. “STEAM” – Education as an innovative approach to the development of vocational training for students” // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 3, 2020. ISSN 2056-5852.

3. STEAM in out-of-school time frameworks in under-served community-based organizations: Evaluation and lessons learned / M. Caplan // ASEE Annual Conference and Exposition (24–28 June 2017). – Columbus, Ohio, 2017.

4. Sabirova F.M., Deryagin A.V. // International Journal of Engineering & Technology. – 2018. – Vol. 7 (2.13). – P. 150. –154.

5. The sound of STEAM: Acoustics as the bridge between the arts and STEM / C. B. Goates, J. K. Whiting, M. L. Berardi, K. L. Gee, T. B. Neilsen // Journal 172nd Meeting of the Acoustical Society of America. – 2017.

6. Chanthala Ch. Instructional designing the STEM education model for fostering creative thinking abilities in physics laboratory environment classes / Ch. Chanthala, T. Santiboon, K. Ponkham // Journal 5th International conference for science educators and teachers (ISET 2017). – 2018.

Umidaxon TURSUNOVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Ingliz tili” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK IQTISODCHILARDA KASBGA YO‘NALTIRILGAN MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak iqtisodchilarda kasbga yo‘naltirilgan muloqot kompetensiyasini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari talaba-yoshlarni kasbga yo‘naltirishda va ularning kasbiy muloqotmandligini rivojlantirishdagi maqsad va vazifalari aytib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Kasbga yo‘naltirilgan muloqot, kompetensiya, rivojlantirish, globallashuv, raqobatbardoshlikni oshirish.

Статья посвящена развитию навыков профессионального общения у будущих экономистов. Также упоминаются цели и задачи профессоров высших учебных заведений в отношении ориентации студентов на профессию и развития их профессионального общения.

Ключевые слова. Карьерное общение, компетентность, развитие, глобализация, конкурентоспособность.

The article focuses on the development of professional communication skills in future economists. The goals and objectives of higher education professors in guiding students to the profession and developing their professional communication are also mentioned.

Key words. Career-oriented communication, competence, development, globalization, competitiveness.

Bugungi kunda ta’lim – inson faoliyatining barcha sohalariga yangi texnologiyalarni joriy etish, raqobatbardoshlikni oshirish, turmush darajasini ko‘tarishning muhim shartiga aylanib bormoqda. Ta’limning ijtimoiy mas’uliyati ko‘p jihatdan har bir insonning tez o‘zgaruvchan mehnat bozorida xaridorgir bo‘lib qolishi, rivojlanib borayotgan innovatsion iqtisodiyotda to‘laqonli ishtirok etishi va shu yo‘l bilan o‘z farovonligini hamda umuman jamiyat farovonligini ta’minlash imkonini beradigan malakaviy va ijtimoiy ko‘nikmalar olishidan iboratdir. Ko‘pgina mamlakatlarda ta’limning oshib borayotgan rolini hisobga olgan holda uni rivojlantirish strategiyasi milliy strategiya ustuvorliklari bilan belgilanadi va u ta’lim sifatini oshirish hamda uni olish imkoniyatini kengaytirishga yo‘naltirilgandir.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish, magistratura ilmiy-ta’lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish asosida yanada takomillashtirish asosiy va bosh maqsad bo‘lib qolmoqda.[1]

Oliy ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foy-

[1] O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, PQ – 2909-sonli, 18-son, 313-modda, 2017-yil 20-aprel.

dalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni hayotga tatbiq qilish, ko‘proq talabalarni mustaqil ishlashga undash, ilg‘or tajribalardan saboq berishning turli yo‘llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana muhim bir jihati shundan iboratki, oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan talabalarning kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularning tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb egallashlari uchun maxsus fanlarni o‘qitishni samarali tashkil qilishni ta’minlash lozim.

O‘zbekistonda davlat va jamiyat iqtisodiy boshqaruv tizimi yangidan shakllanayotgan tuzilmalarning faolligi, mutaxassis kadrlarning qobiliyatliligi bilan birga, ushbu jarayonda yetakchi o‘ringa chiqadigan kadrlarning faolligiga bog‘liq. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va yangi jamiyat qurish talablariga javob beradigan yosh kadrlarni tarbiyalash, qayta tayyorlash va shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadbirlarni amalga oshirishga alohida ahamiyat berish bilan birga, uni mamlakat oldida turgan eng dolzarb vazifa qilib qo‘ydi.

Bugungi zamonaviy globallashuv sharoitida mamlakatimizda fan, madaniyat va ta’lim sohalarida ham katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda, islohotlarning sur’atlari tobora jadallashmoqda. Biroq axborotlar asri talablariga muvofiq o‘zgarayotgan hayotimiz ehtiyojlari jamiyat oldiga yangidan-yangi vazifalarni ko‘ndalang qilib qo‘ymoqda.

Jahon tajribasida bunday integratsiya o‘quv-ilmiy ishlab chiqarish markazlari, komplekslari, bog‘lari, texnopolislari singari omillar shaklida amalga oshiriladi. Ularda yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash, ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish hamda bu tadqiqotlar natijasini sanoatda o‘zlashtirish vazifasi mujassamlashadi. Bunday birlashmalarda jamiyat ehtiyojlari asosida tegishli tarmoq o‘quv-ilmiy-texnik siyosatni amalga oshiradigan oliy ta’lim muassasalari asosiy tashkiliy bo‘g‘in hisoblanadi.

Integratsiyalashgan turli xildagi o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari iqtisodiyot va jamiyatning barqaror taraqqiyoti paytidagina emas, balki shuni alohida ta’kidlash lozimki, jamiyat, iqtisodiyot hamda ta’lim tizimini qayta isloh qilish jarayonida, bu ish uchun tegishli kadrlarni tayyorlashda nihoyatda zarurdir.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari kredit-modul tizimiga o‘tayotgan bir davrda, bunday loyihalarni amalga oshirish tegishli me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda moddiy-moliyaviy xarajatlarni tayyorlashdan tashqari, ta’lim-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalarini tashkil etadigan omillarni psixologik jihatdan qayta tayyorlashni ham taqozo etadi. Aslida ta’lim uzoq davom etadigan, barcha uchun bir xil davom etadigan jarayon hisoblanadi. Ta’limdagi sifatga uni berishda ishtirok etadigan kishilarning fazilatlari katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi bilim emas, balki ta’lim beradi, talabalar esa, ta’lim jarayonida bilimga ega bo‘ladi. Bilim esa ta’limning uzluksizligi vositasida beriladigan mavhum tushunchaga ega bo‘lgan hodisadir. Bilim; 1) mavjudot haqidagi yoki muayyan sohaga oid ma’lumotlar majmuidir; 2) o‘qimishlilik darajasi, ma’lumotni ifodalaydi. Bilim xususiylikka ega bo‘lsa, ta’lim umumiylikka egadir. Bilim obyektiv borliqdagi voqea-hodisalarning in’ikosi natijasida inson miyasidagi mushohada va tasavvurlar natijasida hosil bo‘ladigan tushunchalar yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Bilim individuallikka ega hisoblanadi.

Ta’lim bilan bilimni bir tarozining ikki pallasiga qo‘yib, o‘lchash mumkin emas, chunki, ular ikki jarayon va ikki hodisadir. Yuqorida aytganimizdek, ta’limda umumiylik hukmron bo‘lsa, bilimda individuallik ustunlik qiladi.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’limni amalga oshirishda uni joriy qilish bazasi, imkoniyati, sharoiti, professor-o‘qituvchilarning salohiyati, muassasaning o‘quv adabiyotlari

bilan ta’minlanganlik darajasi va boshqalar katta rol o‘ynaydi. Talabalarning bilim olishi, uning sifatiga katta ta’sir ko‘rsatadi, shuning uchun ta’limning ana shu tomonlariga katta e’tibor qaratiladi.

Iqtisodiy ta’lim-tarbiyaning rivojlanishini vaqt va bosqichlar bilan chegaralab bo‘lmasligi uning uzluksizligidir. Uzluksizlikni ta’minlovchi iqtisodiyotga yo‘naltirilgan ta’lim tizimidagi markaziy siymo – bu jahon andozasiga mos keluvchi ijodkor shaxsdir. Shaxsning iqtisodiyot fanini, ilmini o‘rganib, olgan bilimini amalda qo‘llab, kamolga intilishi ijodkorlikni ta’minlovchi omildir. Boshlang‘ich iqtisodiy bilim berishdan tortib, to iqtisodiy madaniyatlilik darajasigacha bo‘lgan jarayon har bir shaxsni hayotiy ehtiyojini qondirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta’lim muassasalarida uzluksiz iqtisodiy ta’limni amalga oshirishning maqsadi, iqtisodiy ta’lim berishning barcha bo‘g‘inlari va bosqichlarida, ayniqsa, iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashda hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti talablarini tushuna oladigan xo‘jalik yurituvchi mutaxassis sifatida malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lgan malakali iqtisodchilar tayyorlash ularni kasbiy uzluksizligi va uzviyligini ta’minlashning asosi hisoblanadi.

Oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiy ta’limning asosiy vazifalaridan biri – iqtisodiyotning asosiy bo‘g‘inlari, milliy iqtisodiyot tarmoqlari, iqtisodiy xavfsizlik tizimi, xizmat ko‘rsatish sohalarida sodir bo‘ladigan ham sifat, ham miqdor o‘zgarishlarini ilg‘ay oladigan, iqtisodiyotni rivojlanishini ta’minlashning me’yoriy-huquqiy asoslarini bilimdoni bo‘lgan mutaxassislar, nafaqat ana shu xislatlarga ega, balki iqtisodiy ta’lim tizimini samarali tashkil etuvchi yetuk mutaxassislar tayyorlashdir.

Ijtimoiy yetuk shaxslarni tarbiyalash gumanitar ta’lim-tarbiyaning muhim qismlaridan biri sifatida talaba-yoshlar ruhiy olamining shakllanishida, hayotiy pozitsiyalarning mustahkamlanishida, ularning ijtimoiy faolligining o‘sishi va ixtisoslik bilimlari hamda umumnazariy tayyorgarligining oshishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Insoniyat tomonidan to‘plangan behisob madaniy boyliklardan bahramand bo‘lish, ularni o‘zlashtirish yoshlarda gumanistik dunyoqarashning vatanparvarlik, vijdon, e’tiqod, or-nomus, sha’n, mardlik, jasorat, fidoiylik, insonparvarlik kabi qadriyatlarning shakllanishiga yordam beradi.

Ayniqsa, kadrlar tayyorlashning barcha bo‘g‘inlarida fundamental fanlar salmoqli o‘rin egallaydi. Ular tatbiqiy va umummutaxassislik fanlarini rivojlantirishda dasturamal, zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarning eng muhim muammolarini hal etish uchun asos bo‘la oladi. Bu esa, o‘z navbatida, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini ilmiy va amaliy tadqiqot jihatidan ta’minlash infrastrukturasini vujudga keltirib, mamlakatimiz ilm-fanining jahon ilm-faniga bo‘lgan integratsiyasini mustahkamlaydi. Shuning uchun ham ilmiy tadqiqotlarimiz natijalari kelajak texnikasi va texnologiyasi uchun asos bo‘lishi bugungi kun uchun o‘ta dolzarbdir.

Oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari talaba-yoshlarni kasbga yo‘naltirishda va ularning kasbiy muloqotmandligini rivojlantirishda o‘z oldilariga quyidagi maqsad va vazifalarni qo‘yishlari kerak bo‘ladi:

Asosiy maqsad. Oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitish jarayonida har tomonlama kamol topgan yetuk shaxsni voyaga yetkazishda tarbiyaviy tadbirlarni muntazam o‘tkazish usullarini ishlab chiqish, ta’limni insonparvarlashtirish usullarini yaratish, o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishda ta’limni takomillashtirish bilan birga barkamol shaxsni tarbiyalash usullarini vujudga keltirish, fanni singdirish orqali ularning dunyoviy tushunchasini kengaytirish, talabalarni mustaqil

fikr yuritishi uchun insonparvarlik va ma’naviy-axloqiy malakalarini rivojlantirish kabilar.

Dolzarb vazifalar. Oliy ta’lim muassasalarida barkamol shaxsni tarbiyalashda ta’lim jarayonida tarbiyani rivojlantirish usullarini ilmiy-metodik jihatdan asoslash bilan birga uzluksiz ta’lim tizimidagi mutaxassislik fani o‘qituvchilariga nazariy hamda amaliy yordam berish maqsadida qator tavsiyalarni ishlab chiqish.

Bo‘lajak iqtisodchilarda kasbga yo‘naltirilgan muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga erishish, ta’limning tarbiyaviy rivojlantirish usullarini maqsadga muvofiq tarzda ishlab chiqish, barkamol shaxsni tarbiyalashda ta’limni insonparvarlashtirishni to‘g‘ri yo‘naltirishga to‘siq bo‘ladigan asosiy sabablarni o‘z vaqtida aniqlash, taqdim etilayotgan, dastur, darslik, o‘quv-qo‘llanma va sillabuslarning sifati tarbiyaviy omillarni takomillashtirishga qaratish, Davlat ta’lim standartlariga mos metodik tomondan talab darajasida bo‘lishligiga erishish, oliy ta’lim tizimidagi talaba yoshlarning dunyoqarashi, insonparvarlik his-tuyg‘ulari to‘g‘ri rivojlanib boradi, barkamol shaxsni voyaga yetkazishga va yetuk insonni shakllantirishga, ularni kasbga ongli yo‘naltirishga, muloqotmandligini oshirishga erishiladi.

Ta’limni raqamlashtirish sharoitida milliy dastur strategiyasi asosida yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash uning hayotiy siklning uchta asosiy bosqichlariga kompleks yondashilgan.

Birinchi bosqichda – zamonaviy kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarni prognozlashtirish va shaxs, jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda bozor iqtisodiyotini rivojlantirish belgilangan va bu o‘rinda mutaxassislarning malaka darajasining o‘sib borishi belgilanadi.

Ikkinchi bosqichda – oliy ta’lim muassasalarida iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashni ta’minlash va ularning malaka darajasini amalga oshirish.

Uchinchi bosqichda – professional faoliyat sohasida kadrlar salohiyatidan samarali foydalanish, vaqti-vaqti bilan ularni malakani oshirish va qo‘shimcha professional ta’lim doirasida malaka darajasini ta’minlash va yangilab turishdan iborat.

Shunday qilib, bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodchi mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishni jahon talablari darajasida amalga oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shuni alohida ta’kidlab o‘tishimiz joizki, oliy ta’lim tizimida ta’lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi o‘zaro integratsiyalashuvni yanada chuqurlashtirish masalasiga asosiy e’tibor qaratilishi talab qilinadi. Shunday bo‘lgandagina, respublikamizda iqtisodchi mutaxassislar tayyorlash tizimidagi sifat kriteriyasini kutilgan darajada rivojlantirish imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, PQ-2909-sonli, 18-son, 313-modda, 2017-yil 20-aprel.

Ziyoda MURATXO‘JAYEVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” o‘qituvchisi

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QITUVCHILARINI KASBIY PEDAGOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya

Maqola boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Muallif o‘qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatini integrativ yondashuv asosida tashkil etish bo‘yicha o‘z mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, integrativ yondashuv, kasbiy mahorat, bilim, malaka, ko‘nikma.

Статья посвящена вопросам развития профессиональной подготовки учителя начальных классов. Автор высказал свои замечания по организации профессионально-педагогической деятельности педагога на основе комплексного подхода.

Ключевые слова. Начальное образование, комплексный подход, профессиональные навыки, знания, квалификация, навыки.

The article is devoted to the development of professional training of primary school teachers. The author expressed his comments on the organization of professional and pedagogical activities of the teacher on the basis of an integrated approach.

Key words. Primary education, integrated approach, professional skills, knowledge, qualifications, skills.

Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta’lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi – murakkab ijtimoiy hodisa sifatida umum e’tiborli va ma’naviy qiziqishga molik jarayonga aylanadi. Ta’lim tizimining umumiy maqsadi – teng huquqli demokratik davlat talabiga javob beradigan barkamol jamiyat a’zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir.

O‘qituvchini kasbiy pedagogik tayyorgarligini tekshirish usullaridan biri – bu attestatsiya. Attestatsiyaning maqsadi o‘qituvchining o‘ziga mos kasbiy-pedagogik mahorat darajasini va o‘qituvchining barcha faoliyatining tomonlarini tekshirishdan ibrat.

O‘qituvchi o‘sib kelayotgan avlodimizning tarbiyachisidir. U o‘quvchilarni vatanparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari ruhida tarbiyalashi va dunyoqarashni shakllantirish kerak.

Umumiy o‘rta ta’lim boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining ta’lim va tarbiya berishida, mahorat turlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

– ta’lim berish mahorati;
– ta’limning zamonaviy usullarini qo‘llay olish mahorati;
– tarbiyalay olish mahorati;
– inson omilini ta’minlovchi fazilati;
– bilimlarni holisona baholash va nazorat qila olish mahorati;
– mehnat ta’limiga bo‘lgan ehtiyojni qondira olish mahorati.

Umumiy o‘rta ta’lim boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi o‘zining pedagogik mahoratini takomillashtirish, o‘z malakasi saviyasini oshirish ustida har doim ishlashi, bu borada

o‘qituvchilar malakasini oshirish institutlari ancha yordam beradi. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi pedagogik faoliyatini nazorat qilishda quyidagi jihatlarga e’tibor qaratishi lozim:

a) ta’lim-tarbiya ishining aniq maqsadga yo‘naltirilganligini, ilmiy jihatdan asoslanganligini hamda uning mazmunini to‘g‘ri tanlanganligini aniqlash;

b) ta’lim sifatini aniqlash, rivojlanish bosqichlari, taraqqiyot darajasini belgilash hamda istiqboldagi yo‘nalishlarini yoritish;

v) ta’lim va tarbiyaning muqobil samarali uslublarini ishlab chiqish, o‘quvchi va o‘qituvchilarning dunyoqarashlarini shakllantirishga, pedagogik jamoaning barcha a’zolari orasida o‘zaro ishonchga, do‘stlikka, hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o‘rnatishga qaratilgan yagona maqsad sari intilish kabi vazifalarni aniqlashga e’tibor berish zarur.

Zamonaviy jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellektual va axloqiy rivojlanishidir.

O‘qituvchilarini kasbiy, amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisini kasbiy-pedagogik mahoratini shakllantirish bilan boyib bormoqda. Boshlang‘ich ta’limi o‘qituvchisining kasbiy – pedagogik faoliyatga moslashish muammolarini o‘rganish uchun, avvalo, bu tushunchaning mohiyatini, ijtimoiy – ma’naviy asoslarini aniqlash hamda uni takomillashtirish yo‘llarini bilish zarur.

Pedagogning bilish faoliyati ko‘p jihatdan o‘rganilayotgan narsalarning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta’siri, ularni izlash, noaniqlik bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish uquvini nazarda tutadi. Mazkur holda o‘z-o‘zini tartibga solish xususiyatlari o‘z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlarga qaratilgan o‘z xatti – harakatini qat’iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi. Faoliyat usullarini tanlash shaxsning ma’naviy dunyosiga faqat boshqa shaxs – pedagogning ma’naviy dunyosi bilan ta’sir ko‘rsatish mumkin degan qoida bilan aniqlanadi.

O‘rta ta’lim o‘qituvchilarini integrativ yondashuv asosida kasbiy – pedagogik faoliyatini rivojlantirish mezonlari pedagogik-psixologik, metodik, umummuhandislik hamda ixtisoslik fanlar mazmuni quyidagilardan tarkib topadi:

– motivatsion xislatlarga egaligiga ko‘ra – kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga undovchi rag‘bat (eng yangi bilimlarni o‘zlashtirishga intilish, axborot resurs markazi orqali yangi axborotlarni olish ehtiyoji, ilg‘or tajribalarni o‘rganish ehtiyoji, pedagogik mahoratning yuqori darajasiga erishishni ko‘zlash, pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatga erishishni ko‘zlaganlik, o‘qituvchilar va ularning ota-onalari bilan muloqot qilish xohishi, pedagogik jamoasidagi barcha kasbdoshlari tomonidan tan olinishga intilish, ilmiy-texnik taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlarini bilishga intilish, ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan yangi materiallar, texnika va texnologiyalar haqida bilimlarga ega bo‘lish, konstruksiyalash, loyihalash va boshqa shu kabilar);

– intellektual salohiyatga ko‘ra – pedagogik fikrlash (pedagogik dalil, hodisa, jarayon hamda tizimlarni tahlil qila olish);

– pedagogik vaziyatlarda ijodiy, moslashuvchan, tanqidiy, tizimli, harakatchan, tezkor fikrlay olish, pedagogik eruditsiya, pedagogik sezgirlik, pedagogik ziyraklik, pedagogik bashorat qila olish, kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, bashoratlash, pedagogik ijodkorlik, mehnat vositalari, texnologik jarayonning asoslari; ishlab chiqarish jarayoni funksiyalari, texnologik mashinalarning umumiy tuzilishi, ishlash prinsipi, analiz,

sintez, texnika va texnologiyalar orasidagi umumiylik, tipiklik hamda xususiylikni bilish va boshqalar;

– irodaviy sifatlariga ko‘ra – pedagogik muloqotda chidam va o‘zini tutib tura olishda, pedagogik faoliyatni amalga oshirishda, pedagogik maqsadlarga erishishda, o‘z faoliyatining ahamiyatini oshirishda, o‘zligini rivojlantirishda, texnik fikrlashda, texnik obyektlarni ishga tushirishda, sozlashda, ta’mirlashda, rejalashtirilgan texnologik jarayonni oxiriga yetkazishdagi qat’iylik;

– hissiy sifatlariga ko‘ra – o‘quvchilarning o‘y-kechinmalari, quvonch va tashvishlarini tushuna olish, hamfikrlik, mamnunlik, bolajonlik, ochiqlik, hissiyoti, o‘quvchilarning yosh-fiziologik xususiyatlarini e’tiborga olish, texnik obyektlar hamda amaliy harakatlarning murakkabligini his qilish, texnologik jarayonlarni, izlanuvchanlik, ixtirochilik, kashfiyot, texnik ijodkorlik, shuningdek, ruhiy muhitni boshqara olish;

– amaliy ko‘nikmalarga egaligiga ko‘ra – pedagogik qobiliyatlar, pedagogik ko‘nikmalar, rejalashtirish, grafik-chizma ishlarini bajara olishi, texnologik xaritalarni o‘qiy olish, texnologik jihozlarni boshqarish, sozlash, nuqsonlarini bartaraf etish, texnik obyektlarga ishlov berish ko‘nikmalari, bir harakat holatidan ikkinchi harakat holatiga ko‘chira olishi, harakat va amallarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olishi, yangi axborotlar ichida tez yo‘nalish olishi, o‘zini kasbiy-axloqiy jihatdan tutishi;

– o‘z-o‘zini boshqara olishiga ko‘ra – faoliyati va o‘zini tahlil qilish, baholash; faoliyati, individual muloqot metodini ijtimoiy-kasbiy sohadagi tajribalar bilan qiyosiy baholash; ijodiy jarayonda refleksiya qila olish qobiliyati, o‘z individualligining rivojlanishi, kasbiy faoliyati va xulqidagi shaxsiy fazilat hamda kamchiliklarini aniqlay olish qobiliyati, kasbiy rivojlanishda davom etish imkoniyatlarini aniqlash ko‘nikmasi, unga nisbatan o‘z munosabatini boshqara olish. Bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy shakllanishining yuqorida ko‘rsatilgan tarkibiy omillarining yaxlitligi fikrlash va pedagogik faoliyatning yangi asoslarda amalga oshirishini ta’minlaydi, bu esa uning betakror kasbiy tajribasi ahamiyatining ortishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: Nizomiy nomli TDPU, 2000.

2. Моисеев А.М. Качество управления школой: каким оно должно быть.– Москва, 2001.

3. Кузьмина Н. В., Пожарский С. Д., Паутова Л. Е. Акмеология качества профессиональной деятельности специалиста: монография. – СПб.; Коломна; Рязань : Изд-во Рязан. обл. ин-та развития образования, 2008.– С.375.

Saidaxbor BULATOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, pedagogika fanlari doktori, Rossiya xalqaro pedagogik ta'lim fanlar akademiyasining akademigi

BADIIY TAHLIL JARAYONIDA TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

Annotatsiya

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va bugungi kunda butun ma'rifatli dunyoni hayratga solib kelayotgan ilmiy merosi faqat bir millat yoki xalqning emas, balki butun insoniyatning ma'naviy mulki bo'lib, bu bebaho boylik yangi va yangi avlodlar uchun donishmandlik va bilim manbai ekanligi va ularni badiiy ta'lim tizimida yanada chuqurroq va atroflicha o'rgatish hamda san'at asarlarini badiiy tahlili jarayonida talabalarni vatanparlik ruhida tarbiyalash yo'llari haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Ramz, timsol, vatanparvarlik, xarita, mantiq, falsafa, kompozitsiya, harakat, spiral, turna, tinchlik, arka, muhabbat tuyg'usi, badiiy tahlil, simmetrik, assimetrik, tarbiya, haykal va haykaltarosh.

Научное наследие, созданное нашими предками и поразившее сегодня весь просвещенный мир, является духовным достоянием не только одной нации или народа, но и всего человечества, и это бесценное богатство является источником мудрости и знаний для новых и новых поколений. Углубленное и всестороннее обучение в системе образования, а также способы воспитания учащихся в духе патриотизма в процессе художественного анализа произведений искусства.

Ключевые слова. Символ, герб, патриотизм, карта, логика, философия, композиция, движение, спираль, журавль, мир, спина, история любви, художественный анализ, симметричный, асимметричный, образовательный, скульптура и скульптор.

The scientific heritage created by our ancestors and which has amazed the entire enlightened world today is the spiritual heritage of not only one nation or people, but of all mankind, and this priceless wealth is a source of wisdom and knowledge for new and new generations. In-depth and comprehensive training in the education system, as well as ways to educate students in the spirit of patriotism in the process of artistic analysis of works of art.

Key words. Symbol, coat of arms, patriotism, map, logic, philosophy, composition, movement, spiral, crane, peace, back, love story, artistic analysis, symmetrical, asymmetric, educational, sculpture and sculptor.

Hozirda O'zbekiston Respublikasida yoshlarni zamonaviy ruhda, xalqimizning ko'p asrlik milliy, madaniy qadriyatlarini hisobga olgan holda tarbiyalash va yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lgan kasb sohiblarini tayyorlash muammosi davlat miqyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bugungi kunda respublikamizda qator dasturlar Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari talablari asosida rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, ota-bobolar tomonidan yaratilgan va jahonga mashhur milliy san'atimiz na'munalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Markaziy Osiyo san'ati qadimiyligi, o'ziga xosligi bilan dunyoga mashhur. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan betakror, teran mazmunli, yuksak badiiy qiymatga ega madaniy

yodgorliklar, xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz, Toshkent, Farg‘ona va yurtimizning boshqa shaharlardagi tarixiy obidalar, xalq amaliy bezak san’ati namunalari xalqimizning buyuk o‘tmishidan hikoya qiluvchi jahon madaniyatining noyob durdonalari safidan joy olgan. Bu zaminda qad ko‘targan obidalar va tuproq osti qatlamlaridan topilayotgan osori atiqalar xalqimizning boy madaniy o‘tmishidan darak beradi. Shu jihatdan qaraganda, har bir xalqning o‘ziga xos milliy timsol va ramzlari yaratilgan.

Jamiyatimizning tubdan yangilanish sharoitida milliy ma’naviyatimizning o‘ziga xos asoslaridan bo‘lgan milliy timsol va ramzlarni keng joriy etish ehtiyoji yuzaga keldi. Milliy qadriyatlarni asrab-avaylash bilan bog‘liq ravishda tafakkur va til ham o‘zgarib, yangi shakl va mazmun kasb etmoqda. Muammolarni tizimli tadqiq etish, xalqimiz ma’naviyatining yorqin timsollarini avloddan-avlodga yetkazishda timsol va ramzlar falsafasini ishlab chiqish zarur bo‘lib qolmoqda. Aynan belgilar bilan shug‘ullanuvchi olimlar timsol va ramzlarni turli nuqtayi nazarlardan o‘rganish jarayonida ular haqida ko‘plab diqqatga sazovor fikr-mulohazalarni bildirganlar. Jumladan, shveytsariyalik psixolog Karl Gustav Yung ramz to‘g‘risida gapirib, uni “inson ruhini barcha yutug‘larga olib boradigan ko‘prik” deb ataydi.

Bitta ramz birdan ortiq turlicha ma’noga ega bo‘lishi mumkinligini inobatga olib, rang-barang manbalarga murojaat etgan holda qadimiy ramzlar olamiga chuqurroq kirib borishga, u yoki bu predmet, hodisa, mavjudot, mavhum jismlar simvolikasi, mifologiya va folklorshunoslikda, din va ikonografiyada, astrologiya va alkimyoda, magiya va mantikada, geraldika va emblematikada qanday ko‘rinishga ega ekani, ular adabiyot va tasviriy san’atda, tarix, siyosat, harbiy san’at va inson faoliyatining boshqa turlarida qay taxlit aks etganini ko‘rishga harakat qilindi.

RAMZ – (arab. – ishora qilmoq) badiiy adabiyotda – voqea, predmet va tushunchalarni buyum va hodisalar orqali shartli tasvirlash usuli. Masalan, sher - mardlik, jasorat, tulki – makkorlik ramzi. Adabiyot tarixida asrlar davomida ishlatilib kelinayotgan ramziy obrazlar sistemasi mavjud: gul – go‘zallik, ma’shuqa, bulbul – sadoqatoshiq, boyqush – baxtsizlik, sariq rang – mahzunlik , qora rang – motam, Hotam – saxiylik, chumoli – xokisorlik, donolik ramzi va boshqalar.

Sirli timsollar va ramzlar tili – turli tasavvurlarga asoslangan shartli belgilarda mujassam bo‘lib, ularda ming yillar davomida jamlangan xalq donishmandligi yashiringan juda qadim davrlarning qimmatli ma’naviy merosi hisoblanadi. Qudratli saltanatlarni tarix qa’riga g‘arq qilgan vaqt inson tafakkuri oldida ojizlik qilgan. Qadimiy ramzlar hali-hamon bizni har tomondan o‘rab turibdi, biroq biz ba’zan ularni payqamaymiz ham. Masalan, LAYLAK – tinchlik, osoyishtalik, beg‘uborlik, poklik va ezgulik ramzidir.

Toshkent shahridagi “Ezgulik arkasi” darvozasi tepasidagi badiiy haykallar kompozitsiyasi bu manzilga alohida fayz bag‘ishlab turibdi. Prezidentimiz g‘oyalari asosida yaratilgan ushbu kompozitsiyada laylaklarning O‘zbekiston zaminiga qanot tekkizib, quyoshga intilishi, ramziy ma’noda mamlakatimizning yuksalishini anglatadi.

Masalan “Ezgulik arkasini” quyidagi tizimda tahlil qilish mumkin. “Mustaqillik va ezgulik monumenti”dagi kompoziyasini quydagicha badiiy tahlil qilib berdik.

Ezgulik arkasi 2005-yil 1-sentabrda qurib bitkazilgan, muallifi birinchi darajali Davlat mukofoti sovrindori, akademik Rustam Yormetov. Uzunligi 150 metr, ikki tomoni o‘n, o‘rta peshtoqi o‘n ikki metr balandlikka ega, qator ketgan o‘n oltita oq marmar ustunlardan iborat bo‘lib, Mustaqillik maydonida joylashgan “Mustaqillik va ezgulik monumenti” majmuasining bir qismi hisoblanadi.

Mustaqillik va ezgulik monumenti – Toshkent shahridagi Mustaqillik maydonida

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov g‘oyasi bilan bunyod etilgan me’moriy – badiiy majmua. Ramziy ravishdagi yer sharida O‘zbekiston Respublikasi xaritasi aks etgan ushbu obida jahon xaritasida mustaqil O‘zbekiston mustahkam o‘rin olganini ifodalaydi. Mustaqillik monumenti bilan uyg‘unlashgan holda uning oldiga “Baxtiyor ona” haykali (haykaltarosh I. Jabborov) va maydonining quyi qismida Ezgulik arkasi o‘rnatildi. “Baxtiyor ona” mustaqillik tufayli yuzida shukronalik balqib turgan munis o‘zbek ayoli – baxtli oila timsolidir. Haykal quyida oq poyandozli ayol bilan Ezgulik arkasiga tutashadi. Ezgulik arkasini maydonning ramziy darvozasi deyish mumkin. Oppoq marmardan qad rostlagan bu me’moriy qurilma tepasidagi parvozga shaylangan baxt va tinchlik, farovonlik elchisi hisoblangan laylaklar quyoshning zarrin nurlarida kumushdek tovlanib, dillarda ezgu tuyg‘ular uyg‘otadi. Arkaning baland va mustahkam ustunlari – mustaqil mamlakatimizning baquvvat tayanchlari ifodasidir. Ustunlar eng qattiq material bo‘lgan granitdan ishlangan buning ma’nosi shundaki, O‘zbekiston poydevori mustahkam va kuchliligini Davlatimiz mustahkam qad rostlaganini hamda ulug‘vorlik timsolini bildiradi. Ezgulik arkasini oq rangda bajarilganligi O‘zbekistonni mustaqillik yo‘li oq bo‘lsin, ezgulik bo‘lsin, tinchlik, ruhiy poklik yo‘lida ekanligi va O‘zbekistonning kelajaki buyukligi timsolida berilgan. Mustaqillik monumenti va “Baxtiyor ona” haykali, Ezgulik arkasi oq poyandoz shaklidagi keng yo‘lak bilan birga yaxlit ansamblni tashkil etadi. Bular mustaqillik va ezgulik tushunchalarini ramziy tarzda o‘zida uyg‘un ifodalaydi.

“Mustaqillik va ezgulik monumenti”dagi kompoziyaning ikkala tomonida viqori bilan bir oyoqda turgan to‘rtta laylaklar yurtimizda va uning to‘rt tomonida ya’ni butun dunyoda har doim tinchlik bo‘lishini tilakdoshlik ramzidir. Laylak agar hech qanday xatar sezmasa, bir oyoqda bamaylixotir turadi. Mustaqillik maydoniga deb bergan “Ezgulik arkasi” haykaltaroshlik san’atining ana shunday yorqin va chuqur ramziy ma’noga ega asari sifatida taassurot qoldiradi.

Mustaqillik maydonidagi “Mustaqillik va ezgulik monumenti”dagi kompozitsiya ezgulik, tinchlik va mustaqqillik darvozasidir. Ezgulik – ma’naviy-axloqiy kategoriyalar orasidagi eng muhim talablardan biri. Ezgulik inson faoliyatining asl mohiyatini anglatadi. Tangri irodasining inson qalbidagi tajassumi sifatida namoyon bo‘ladi. “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” g‘oyasi “Avesto”dan tortib barcha muqaddas kitoblarda yetakchi o‘rin egallashi ham shundan.

Ezgulik arki bir davrdan, ikkinchi davrga o‘tish darvozasidir. Yurtimizni mustaqilikka o‘tish timsolidir. Yana ezgulik arkasidagi tinchlik darvozasidir. Ezgulik arkning markazidagi yer shari va undagi O‘zbekiston xaritasi ya’ni O‘zbekiston tasvirlangan.Uchta laylakni spiralsimon harakati va yuksaklikka intilishi o‘ziga xos hikmatlar bor. Uchta laylak oilani ya’ni ota ona va farzand, u Vatanni bildiradi yana “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” g‘oyasini bildiradi. Bu bilan oila va ona Vatan doim harakatda va o‘sishda hamda yuksak cho‘qqiga chiqishni xalqimiz orzu-umidlar bilan yashaganining timsolidir. Spiral esa abadiylik timsolidir, ya’ni mustaqilligimiz abadiy bo‘lsin, degan ma’noni anglatadi.

Arkning ikki tomonida to‘rtta laylaklarni bitta oyoqda turishi tinchlik timsolidadir. Chunki qayerda laylak bir oyoqda tursa, o‘sha joy yoki yurtda tinchlik bo‘ladi, deydilar xalqimiz. Demak to‘rtta laylakni bir oyoqda turishi – bu Vatanimizda va butun olamda tinchlik bo‘lishi timsolida tasvirlangan. Ustunlar Vatanimizni va uning xalqlarini ulug‘lik timsolida hamda, yoshlari kelajak ustunlaridir, degan ramziy ma’noga egadir.

Ezgulik arkida nima uchun 7 ta laylak tasvirlangan chunki 7 raqami muqaddas raqamdir. Xalqimiz orasida yetti iqlim, yetti xil rang, yetti qavat yer, yetti daryo, yetti

go‘zal, yetti donishmand kabi tushunchalar mavjud. Hatto xalqimiz maqollarida ham yetti so‘zini ko‘p uchratamiz. “Yetti bukilib salom bermoq”, “Yetti qavat ko‘rpacha to‘shamoq”, “Yetti yo‘lning boshida turmoq”, “Yetti qavat osmon”. Yetti yulduz, musiqada yetti nota kabi iboralarni xalqimiz ko‘p tilga oladi. Hafta kunlari ham yetti kun, kamalakning ranglari ham aynan yetti rangdan iborat.

Yetti narsa borki, har kim bu yetti narsaga amal qilsa, dunyoda yaxshi omil bo‘ladi. Birinchi – dunyoda donolar maslahati bilan ish qilsa, ikkinchisi – o‘z vatanida bo‘lsa, uchinchi – odil bo‘lsa, to‘rtinchi – sabrli bo‘lsa, beshinchi – qaysar bo‘lmasa, oltinchi – foydasidan boshqalarni ham bahramand qilsa, yettinchi – kamtar bo‘lsa.

Ezgulik arkasidagi 7 laylak orqali, O‘zbekiston yoshlarini kelajakda ajdodlarimiz singari yetuk va komil bo‘lishligi timsolidir.

Inson sinov dunyosida har qanday og‘ir holatga tushmasin, o‘zining kuchli irodasi, sabr-toqati bilan chiday olsa, u o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha oladi.

Hayot ezgulik va yovuzlik o‘rtasida kurashdan iboratdir. Olamda ziddiyat bo‘lmasa hayotda rivojlanish va taraqqiyot bo‘lmaydi. Xulosa qilib aytganda, dunyoda harakat bor ekan hayot bor, hayot bor ekan, kurash bor. Demak, hayot kurash demakdir degan mantiqiy g‘oya keladi. Haykaltarosh Vatanini og‘ir damlarini qalban his qilib, o‘z vataniga bo‘lgan mehr-muhabbatida yonib, o‘z ichki his-tuyg‘ularini tasvir orqali xalqqa yetkaza olgan, Xalq Vatan uchun fidoyilikka chaqirgan. Bu asar talabalar vatanparlik ruhida tarbiyalash uchun ham xizmat qiladi.

Berilgan bunyodkor g‘oya, ya’ni insonni ulug‘laydigan, uning kuch-g‘ayrati va salohiyatini oshirib, xalqi, Vatan, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o‘zida mehnat, taraqqiyot, do‘stlik, tinchlik, adolat, halollik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etadigan g‘oya ko‘tarilgan.

Vatanparvarlik – bu ona zaminga bo‘lgan muhabbat, uni sevish, e’zozlash, vatan ravnaqi uchun qo‘lidan kelgan o‘z hissasini qo‘shishdir.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy rivojlangan mamlakatlardagi oliy ta’lim tizimida “Ramzshunoslik”, “Shakl psixologiyasi” va “Fizognomika” fanlari o‘tiladi. O‘zbekistonda badiiy ta’lim tizimida ushbu fanlar o‘qitilmas ekan, kadrlarimizni sifatli deya olmaymiz. Vaholanki, tayyorlayotgan kadrlarimiz ramzlar alifbosini bilmas ekanlar, ular tasviriy san’at asarlarini shu jumladan, haykaltaroshlik asarlarini mantiqiy ma’nosini idrok qila olmaydilar. O‘tiladigan ayrim fanlar o‘rgatilishi yuqori natija beradi. O‘z navbatida, tayyorlayotgan kadrlarimizning sifat darajasi yanada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida “O‘zbekistonda islom madaniyati markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 23-iyundagi ma’ruzasi. Ma’rifat gazetasi, 2017-yil 24-iyun, №50 (9011).

2. Bulatov S. S., Saipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. (Tasviriy, amaliy va me’morchilik san’at asarlari misolida). Monografiya. –T.: Fan va texnologiya, 2016, 260-b.

3. Bulatov S.S., Saipova M.S., Xalilova F. Milliy timsollar va ramzlar. Ensiklopediya. –T.: Ta’lim nashriyoti, 2018, 352-b.

4. Sulaymonov A. Tasviriy san’at ta’limi sifati va samaradorligini oshirishning didaktik imkoniyatlari. –T.: BAYOZ, 2017, 136-b.

Ne’mat MANSUROV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti

TA’LIMDA ZAMONAVIY TASVIRIY SAN’ATNI O‘QITISH VA UNI IDROK ETISHNING METODIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada milliy tasviriy san’atning rivojlanishi, ma’naviy va ma’rifiy jihatdan yangi ijodiy izlanishlarni kengayishi, jahonning ilg‘or san’at uslublariga taqlid qilmagan holda o‘zbek san’ati uslubining taraqqiy topishi bilan tasviriy san’at fani rivojiga katta hissa qo‘shayotganligi haqidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Dizayn ta’limi, ijtimoiy faoliyat, badiiy san’at, ijodkorlik, estetik va badiiy faoliyat, dizaynerlik malakalar.

В статье рассматриваются вопросы развития национального изобразительного искусства, развитию духовности и просветительства, расширению новых путейтворческих поисков, не подражающих мировому авангарду, воплощение в искусство узбекской модели развития предмета изобразительной деятельности.

Ключевые слова. Дизайнерское образование, социальная деятельность, художественное исскуство, творчество, эстетическое и художетвенная деятельность, дизайнерская квалификация.

The paper considers the problems of the development of national fine arts, the authors examines, development end formation of spirituality and enlight went to expanding new views of creative researches, not imitating to the world avangarde and realisation of the Uzbek model of development of fine arts into life

Key words. Design education, social activity, art, creativity, aesthetic and artistic activities, design skills.

Ma’lumki, har bir millatning taraqqiyoti uning madaniyati va san’ati darajasi bilan belgilanadi. O‘z navbatida, davlatning madaniyat va san’atga bo‘lgan munosabati jamiyatning rivojlanish darajasini aniqlaydi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan tarixiy damlarda o‘z davri va tomoshabini bilan jonli, millat hayotining muhim bo‘g‘inlari ayniqsa ta’lim-tarbiya sohasida kechayotgan islohotlar jarayonini, mavjud muammolarni mo‘ljalga ola bilish imkoniyati ilm-fan va san’atni ijtimoiy hayotning oldingi qatoriga ko‘tarib chiqara boshladi.

“Respublikamiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ta’lim mazmunini umuminsoniy kadriyatlar va xalqimizning tarixiy-madaniiy an’analari asosida tashkil etishga keng yo‘l ochib berdi. Natijada, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodi yaratildi. Ayni paytda ular takomillashtirilmoqda, modernizatsiya qilinmoqda. Komil inson g‘oyasi – ham milliy, ham umumbashariy mohiyatga ega bo‘lgan, odamzotga xos eng yuksak ma’naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan olijanob g‘oyadir”.[1]

“Haqiqatdan ham insoniyat yaratib qoldirgan madaniy qadriyatlar oddiy boyliklar bo‘lib qolmay, balki o‘zida inson aql-zakovati, hayot to‘g‘risidagi fikr-o‘ylarini aks ettiruvchi ko‘zgu hamdir. Jahon san’ati tarixini o‘rganish, uning taraqqiyot qonunlarini

[1] Karimov I.A. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O‘zbekiston, 2001,. -8-b.

tushunish, nodir yodgorliklar bilan tanishish, o‘tmish odamlarning his-tuyg‘u, hayotiy tajribalarini o‘zlashtirish g‘oyaviy-estetik qarashlarning shakllanishini bilish demakdir”.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2017-yil 3-iyundagi “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari talablari asosida takomillashtirilgan o‘quv dasturlarini tasdiqlash va amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 190-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan va umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 1-9-sinflari uchun tasviriy san’at fani bo‘yicha yillik o‘quv rejasi ishlab chiqilgan. Mazkur rejada belgilangan mavzular va ularning maqsad-mazmuni albatta, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda madaniyat, qadriyat, milliy san’at namunalaridan, ota-bobolar tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo‘lgan ajoyib san’at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat qaratilgan.

Shu ma’noda bugungi kunda tasviriy san’at fanini o‘qitish, kasbiy o‘rganish, ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, qolaversa iqtidorli yoshlarni har tamonlama o‘z malaka bilimlarini keng ilmiy-badiiy tilda bayon eta olish, o‘z ijod namunasining mazmun-mohiyatini to‘la tahlil qila olish darajasi borasida o‘ziga xos muammolar borligi sir emas.

Yana bir masala, butun dunyo davlatlari shiddat bilan rivojlanish, taraqqiyot sari odimlab borayotgan davrda, aynan ilm-ma’rifatli, salohiyatli, o‘z kasbi va mutaxassisligining nazariy-amaliy bilimlari bilan birgalikda ijodiy asar va yutuqlarini hayotda ilg‘or tajribalar, xalqaro innovatsion ko‘rgazmalarda yuksak darajada namoyish eta oladigan yetuk kadrlarga bo‘lgan talabni inobatga olib, ta’limda kasbiy-ijodiy fanlarga undagi mavzularga ajratilgan vaqt me’yorlari qay darajada yetarli yoki sermahsul va to‘la o‘zlashtiriladi deya olamiz?

Yuqoridagi muammoga e’tibor berib o‘rta ta’lim maktablarida alohida iqtidor va malakalarni o‘rgatuvchi, hamda kasbiy-ijodiy bilimlarni rivojlantiruvchi tasviriy san’at fanidan o‘qitiladigan aksariyat mavzularga bir soatdan ajratilgan bo‘lib, bu qisqa vaqtda berilgan mavzuni to‘laqonli ochib berish va o‘zlashtirish uchun yetarlimi degan savol tug‘ilishi tayin. O‘qitishdan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun o‘quvchi har bir mavzuni amaliy bajaribgina qolmay, uni ishlashdan maqsad, mazmun-mohiyati va provard natija, uning jamiyatga tegadigan foydasi, hamda badiiy qiymatini ochib berish, ya’ni badiiy tahlil qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur deb o‘ylayman.

“Qaysi millat o‘z bolalariga rasm ishlashni xuddi xat-savodni, o‘qish va hisob-kitobni o‘rgangandek qunt bilan o‘rgatsa, bu millat fan, san’at va hunarmandchilikda boshqa xalqlardan o‘zib ketadi” – degan edi Deni Didro.

Mazkur fikrda bayon etilganidek, millatimizning tarixda jahonga mashhur ilm-fan va san’at maktablariga tamal toshini qo‘ygan buyuk allomalarimiz asarlari umumjahon taraqqiyotiga hali xanuz xizmat qilib kelmoqda.

Biz bilamizki, “tasviriy san’at yo‘nalishi bo‘yicha kompozitsiya o‘rgatiladi. Turli mavzularda kompozitsiyalar o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga rassomlarning asarlari badiiy tahlil qilinadi. Shu o‘rinda asarni tahlil qilib berish orqali mantiqiy mazmunini tushuntirib berish kerak bo‘ladi.

1-misol, oddiy uch predmetdan tashkil topgan natyurmortni chizish, bo‘yash kabi amaliy tajribalar o‘rgatiladi. Chizishdan avval kompozitsiyani simmetriya, asimmetriya, ufq chizig‘i, muvozanat, harakat, uyg‘unlik, rang, kolorit kabi mezonlar tushuntirib beriladi. Shulardan keyin natyurmotni badiiy tahlil qilishga o‘tiladi. Tahlil qilish jarayonida natyurmortni mazmunini bilish va g‘oyasi tushuntiriladi. Natyurmort asosan uch predmetdan tashkil topgan. Guldon, gul va olma. Ularni ramziy ma’nolarini aniqlaymiz.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori. 16.08.2017-y. PQ-3219.

Ko‘zada suv bo‘ladi, ya’ni suv – hayotni bildiradi, guldasta ya’ni gul – go‘zallikni bildiradi. Olma esa muhabbatni bildiradi.

Natyurmortning mantiqiy yechimi. Demak, tasvirlangan narsalarning ramziy ma’nolari: ko‘za – hayot, gul – go‘zallik, olma – muhabbat ma’nosini bermoqda. Agar biz uch so‘zni birga o‘qib chiqsak natyurmortdagi g‘oya chiqadi, demak, bu “Hayotimizda go‘zallikka bo‘lgan muhabbatimiz hech qachon so‘nmasin” degan falsafiy g‘oyani anglatadi. Oddiy natyurmort kompozitsiyasi yoshlarimizning ma’naviy muhabbatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Fikrlash orqali natyurmortni taxlil va sintez qilish, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish va xulosa qilish singari xayoliy harakatlar amalga oshiriladi.

Tasviriy va amaliy san’at asarlarining badiiy tahlili orqali o‘quvchilarni fikrlash tizimi

San’at asarlarining badiiy tahlili orqali o‘quvchilarni fikrlashga o‘rgatish ularni tahlil, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, umumlashtirish xulosalashlarning ma’nolarini anglab olishlariga kerak bo‘ladi.

Fikrlash – dars davomida amalga oshiriladi, fikrlash davomida ta’lim oluvchilar o‘zlari duch kelgan fikrlarga va o‘zlari o‘zlashtirgan ma’nolarga qaytadilar va savollar beradilar, talqin va tahlil qiladilar, qo‘llaydilar, munozara yuritadilar va ushbu ma’noni qo‘llashning yangi sohalariga qadar kengaytiradilar.[3]

Shakllantirish – rivojlanib yetilmoq, aniq mazmun yoki yo‘nalish kasb etmoq.

Tahlil (analiz) – manbani, muammoni, natijani ilmiy o‘rganish uslubi. Bunda tadqiqot obyekt fikran yoki ehtimoliy ravishda tarkibiy qismlarga ajratiladi yoki obyektga mos belgilar va ko‘rsatkichlar hamda ularning aloqadorligi o‘rganiladi.

Tahlil metodi – bunga quyidagi komponentlar kiradi:

– ma’lumotlarni axborot ko‘rinishiga keltira bilish;

– axborotlarni anglab idrok etish;

– ma’lum va noma’lumlarning muhim belgi va munosabatlarini ajrata bilish;

– elementlarga ajratish va boshlang‘ich strukturali birlikni topish;

– aloqalarni anglash (elementlar yoki tashkil etuvchilar orasidagi) va tushuntirish hamda sintez qila bilish.

Sintez – (yunon. “synthesis” qo‘shish, birlashtirish) sintez, fikr obyekt hisoblangan narsa va hodisalarning tarkibiy qismlari, sifat hamda xususiyatlarini fikran yoki amaliy ravishda bir butun qilib qo‘shishdan iborat bo‘lgan aqliy operatsiya. Masalan, narsa va hodisalarning muhim belgilari qo‘shilishidan yaxlit bir tushuncha hosil bo‘ladi. Sintez tafakkur hamda hayolning ijodiy faoliyatini tashkil qiladi. Sintez bevosita analiz bilan umumlashtirish, taqqoslash, sistemalashtirish kabi aqliy operatsiyalar bilan bog‘liq.[4]

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda mavzuga xos quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

O‘zini-o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi – doimiy ravishda o‘z-o‘zini jismoniy, ma’naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o‘qib-o‘rganish, kognitivlik ko‘nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o‘z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

---

[3] Xasanboyev J., Turakulov X va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. –T.: “Fan va texnologiya”, 2009, 540-bet.

[4] Turg‘unov K. Ruscha – o‘zbekcha psixologiya terminlarining izohli lug‘ati. –T.: “O‘qituvchi”, 1975. 165-bet.

Milliy va umummadaniy kompetensiya – vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

2-misol. Tasdiqlangan rejaga muvofiq umumta'lim 7 – sinf o'quvchilari uchun "Tasviriy san'atdagi oqim va yo'nalishlarda tur va janrlar" mavzusi berilgan bo'lib, ajratilgan uch soatda Tasviriy san'at janrlari haqida umumiy ma'lumot berish hamda asarlarni badiiy idrok qilish masalalarini qamrab olish nazarda tutilgan.

Zamonaviy tasviriy san'at ijodi bir-biriga o'xshamagan iste'dodli rassomlardan iborat rang-barang mozaikaga o'xshaydi.Turli badiiy maktab, yo'nalishlarda ijod qilayotgan O'zbekiston rassomlari asarlari o'zbek madaniyatining milliy o'ziga xosligini namoyon etadi. Faxriy akademiklar R.Ahmedov, A.Abdullayev, N.Qo'ziboyev, M.Saidov, R.Choriyev, M.Nabiyev hamda haqiqiy a'zolari – V.Burmakin, A.Ikromjonov, T.Qo'ziyev, T.Mirjalilov, J.Umarbekov, B.Jalolov, A.Mirzayev, J.Izentayev, L.Ibragimov, B.Boboyev, Y.Tursunnazarov, S.Abdullayev, A.Nuriddinov va bulardan ayniqsa, B.Jalolov, J.Umarbekov, A.Nur, A.Ikromjonovlarning o'ziga yarasha maktablari ham bor. Turli avlod rassomlaridan iborat akademiklar tarkibi ramziy ma'noda mamlakat tasviriy san'atining XX asrda bosib o'tgan turli xil uslubiy yo'nalishlarini, o'ziga xos taraqqiyot yo'lini ifoda etdi.

Mustaqillik sharofati bilan tasviriy san'atdagi badiiy uslubiy jarayon yangi ko'rinishlarga ega bo'ldi va boyidi. Umuman olganda, O'zbekistonning milliy san'ati, jahonning istalgan hududidagi davlatlar san'ati orasida mahalliy ham, avangard ham bo'lmagan holda namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Badiiy akademiyasi faoliyatini rivojlantirish va yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. 16.08.2017-y. PQ-3219.

2. Karimov I.A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2001. -80-b.

3. Bulatov S.S, Soipova M.S. Badiiy tahlil tamoyillari. –T.: Fan va texnologiya, 2016. 11-13 bet.

4. Oydinov N. Tasviriy san'at tarixi. –T., 1997.

5. Gilmanova N.V. Rang-tasvirda yorug'lik va rang. –T., 2012.

6. Turg'unov K. Ruscha – o'zbekcha psixologiya terminlarining izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1975., 165-bet.

7. Xasanboev J., Turakulov X. va boshqalar. Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T.: Fan va texnologiya, 2009, 540-bet.

Munavvarjon ESONOV,
Qo'qon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

MATEMATIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHDA MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA AXBOROT MUHITINING O'RNI

Annotatsiya

Maqolada 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda fikrlash qobiliyatlari rivojlanishining qisqacha tavsifi keltirilgan. Bolalar bog'chasining katta guruhlari tarbiyalanuvchilarda tafakkurni bosqichma-bosqich shakllantirish, ya'ni maktabning boshlang'ich sinflarida davomiy rivojlanishi uchun maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tafakkurning shakllanishi kelajakda tanqidiy, mustaqil fikrlash imkoniga ega jamiyat a'zolarining shakllanishida juda muhim davr bo'lgani haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar. Matematik fikrlash, tafakkurni vizualizatsiya qilish, kichik maktab o'quvchilari va maktabgacha yoshdagi bolalar, matematik tushuncha, bo'lajak tarbiyachilar va boshlang'ich maktab o'qituvchilariga ta'lim berish.

В статье дается краткая характеристика развития мыслительных навыков у детей до 12 лет. Постепенное формирование мышления в больших группах дошкольников, то есть формирование математического мышления у дошкольников для дальнейшего развития в младших классах школы, является очень важным периодом в формировании у будущих членов общества критического, самостоятельного мышления.

Ключевые слова. Математическое мышление, визуализация мышления, обучение детей младшего и дошкольного возраста, математическое понимание, будущие педагоги и учителя начальных классов.

The article provides a brief description of the development of thinking skills in children under 12 years of age. The gradual formation of thinking in large groups of preschoolers, that is, the formation of mathematical thinking in preschoolers for further development in the lower grades of school, is a very important period in the formation of critical, independent thinking in future members of society.

Key words. Mathematical thinking, visualization of thinking, teaching elementary school and preschool children, mathematical understanding, future educators and primary school teachers.

Maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshdagi bolalarda tasavvurni, atrof-muhit to'g'risidagi tasviriy tasavvurlarni tarbiyalash va matematik tushunchalarni shakllantirishga bosqichma-bosqich tayyorgarlik haqida gap ketganda, bizning maktabgacha va maktab yoshidagi tarbiyalanuvchilarimiz, doimiy ravishda taqlid qilish usuli bilan ta'lim olish jarayonida mukammallashib borishlari, sekin-astalik bilan savollar va tajriba usuliga o'tib borishayotgani hamda xat-savodlarining oshib borishi barobarida mavhumlikdan muayyan mazmundagi tushunchalarga o'tayotganlarini payqaymiz. O'yinlar jarayonida bolalarda asta-sekin aqliy tasavvur shakllana boradi va shu bilan birga yuqoridagi barcha o'qitish usullari takomillashadi va rivojlanadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni rivojlantirish dasturlari bo'yicha nutqiy idrok

faoliyatini, tasavvur va tafakkurni rivojlantiruvchi mashg‘ulotlarga alohida e’tibor beriladi.

Gimnastika mashqlarini bajarayotganda ular quyidagi so‘zlarni ishlatadilar: qo‘llaringizni yuqoriga, yon tomonga, yelkangiz kengligida ko‘taring. Bunday kompleks shakllarni tasvirlash va ularning qismlarini ko‘rib chiqish, shuningdek, “yuqoriroq”, “pastroq”, “yuqoriga”, “pastga”, “o‘ngga”, “chapga” kabi so‘zlar hamda borliq va vaqt tushunchalariga yo‘naltiruvchi boshqa jismoniy mashqlarni bajaruvchi mashg‘ulotlar tushunchalarni idrok etishda maksimal darajada ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu konseptual komplekslar matematik xususiyatlarga ega mavhum tushunchalarni shakllantirishning keyingi rivojlanishiga asoslanadi. Pedagoglar, tarbiyachilar, bu harakatlar, shakllarning barchasini ko‘rgazmali tarzda ta’kidlashadi. Shunday tarzda bolalarda harakat va buyumlarning vizual tasavvurlari rivojlanadi.

Fanni o‘qitishdan maqsad – elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi predmeti rivojlanishi qonuniyatlarini va maktabgacha ta’lim muassasasidagi maqsadga qaratilgan ta’lim jarayonida bolani talabga to‘liq javob beradigan darajada matematik rivojlantirishni ta’minlovchi pedagogik sharoitni o‘rganish. Bolalarda predmetlarning shakli haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. Geometrik figura predmetlarning shaklini idrok qilish etaloni sifatida. Bolalarning predmetlar shakli va geometrik figuralarni idrok qilishning o‘ziga xos xususiyatlari. Tadqiq qilish amallari va ularning shaklini bilishdagi roli. Shakl haqidagi tasavvurlarni idrok qilish va shakllantirishda so‘zning roli.

Geometrik figuralarni turli belgilari bo‘yicha guruhlarga ajratish. Geometrik figuralarni burchaklari, tomonlari, soni bo‘yicha taqqoslash; ularni o‘lchash; umumlashgan tushunchalarni shakllantirish.

Bolalarda fazoviy tasavvurlarni shakllantirish. Fazo va fazoda mo‘ljal olish haqida tushuncha. Bolalarda fazoda mo‘ljal olishni rivojlantirishning xissiy asosi. Idrok qilish va fazoda mo‘ljal olishda so‘zning roli. Bolalarning tevarak atrofidagi fazoda mo‘ljal olishni o‘zlashtirish. Ko‘rib idrok qilish va o‘lchash asosida fazoni idrok etishi.

Ushbu fanning maqsadi – bo‘lajak tarbiyachilar va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan matematik tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish nazariyasi va metodologiyasini o‘rganishdir. Tadqiqotlarimizda bolaning operatsion ko‘nikmalarni to‘plashida aniqlangan moddiy, harakat va predmetning birikmasiga aylanuvchi vizual holatlardagi matematik tushunchalar ko‘rib chiqildi.

O‘quvchida abstrakt tushunchalar va aqliy fikrlash qobiliyati yordamida geometrik tasvirlarning shakllanishini rivojlantirish asosiy vazifamiz hisoblanadi.


Bu nimaga asosan sodir bo‘ladi? Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, bu mavhum shakl, rangdan batafsil ma’lumot beruvchi jismoniy o‘yin mashqlari va qiyosiy tasvirlar birikmasini hamda gapirish, ya’ni o‘quvchilarni kuzatish manbai haqida hikoya qilib berishga o‘rgatishdir.

Quyida biz, xususan geometriyani o‘rganish nuqtayi nazaridan o‘qituvchining ish faoliyatini tashkil etuvchi matematik atamalar lug‘atini keltiramiz:

Atamalar – tarbiyachi yoki o‘qituvchi tomonidan taqdim etiladigan tushunchalarning qo‘shimcha tavsifi.

O‘qituvchilarni o‘qitish metodikasida shu kabi lug‘atlar muhim o‘rin tutishi lozim. Avvalambor, ular atamalar propedevtikasi bilan shug‘ullanadi va ko‘nikmalarni takrorlaydi yoki takomillashtiradi, o‘quvchilarda keyingi o‘qitish jarayoni uchun zarur bo‘lgan aqliy faoliyatni tarbiyalaydi. Misollar yordamida quyidagi topshiriqlarni o‘z ichiga olgan rasmli masalalarni berish mumkin.

Masalan so‘roq o‘rnida qaysi sonni yozish kerak?



Ko‘proq, kamroq tushunchalari kiritiladi: ... ga ko‘proq, ... ga kamroq. Matnli topshiriq asosida chizma chizish; chizma asosida masala matnini tuzish. Bu kabi mashqlarning maqsadi – o‘quvchilar ongida tasavvurni va matnlarni shakllantirishni rivojlantirishdir. Vaqt o‘tishi bilan olingan bu ko‘nikma va mahoratlardan yuqori sinflarda “Geometriya” fanini o‘rganishda foydalaniladi.

Geometrik masalalarda albatta qisqa talqin keltiriladi, ma’lum formuladan foydalanish uchun asos topiladi, masala yechimi talqin qilinadi (mantiqiy asos) hamda chizma shakllantiriladi (chiziladi) va masala shartida berilgan talablar bajariladi.

Maktab geometriya kursida quyidagi bo‘limlarni o‘rganayotganda, “Aralash va vertikal burchaklar”, “Uchburchaklarning tenglik belgilari”, “Uchburchak burchaklarining yig‘indisi”, “Geometrik qurilmalar” muayyan dalillar va chizmalar bilan bog‘liq masalalardan foydalaniladi.

Shu kabi masalalarni yechishda nafaqat chizmalarning qat’iy tasviridan, balki chizmaning bir-biriga mos keladigan o‘lchamlarini rangli belgilar bilan qiyoslash va ko‘rsatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. (Ostrogradskiy M.V. uslubi (sinoptik jadval), Shatalov V. F. uslubi). Ular chizmalar va tasvirlarni tezroq tushinish imkonini beradi. Bu mantiqni rivojlantiradi va rangli tasvirlardan geometrik masalalar tuzish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ma’lum parametrlarni ko‘rsatish uchun yorqin ranglardan, aniqlanayotgan qism uchun esa qora rangdan foydalangan yaxshiroq. Qora rang – bu biz bilmagan narsa. Zulmatda nima borligini toping.

Masalalar uchun berilgan ko‘rgazmali chizmalar nutqning rivojlanishi, masala haqidagi vizual tasavvur, tegishli parametrlarni taqqoslash va qiyoslash, masala shartlarini tezda eslab qolish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha ta’limda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi. Fan dasturi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Ro‘yxatga olindi. BD-5111800 –T., 3.09.2016.

2. 5111800 – Maktabgacha ta’lim. O‘quv reja. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashida ma’qullangan, 2016-y 23.03 2-sonli bayonnomasi.

3. Djanpeisova G.E. “Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi” fan o‘quv moduli o‘quv-metodik majmuasi –TDPU “Maktabgacha ta’lim” kaferdasi.

4. Jumayev M. “Maktagacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi” –T., 2007-y.

Gulnora ERGASHEVA,
Namangan viloyati XTXQTMOHM “Tillarni o‘qitish metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA INGLIZ TILINI O‘RGATISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda didaktik o‘yin va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligini oshirishni nazariy jihatdan asoslab berishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif bolalarning ingliz tilidagi lug‘aviy boyligini ko‘paytirib, so‘zlashish ko‘nikmalarining shakllanganligini eksperimental ravishda sinovdan o‘tkazish ham ilmiy tadqiqotning asosiy masalalari haqida aytib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Didaktik o‘yin, axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, ko‘nikma, shakllantirish, eksperimental, mashg‘ulotlar jarayoni.

В статье дается представление о теоретическом обосновании повышения эффективности использования дидактических игровых и информационно-коммуникационных технологий в обучении английскому языку воспитателей дошкольных образовательных организаций. Автор также затронул основные вопросы научного исследования, в том числе увеличение словарного запаса детей на английском языке, экспериментальную проверку сформированности разговорных навыков.

Ключевые слова. Дидактическая игра, информационно – коммуникационные технологии, навыки, формирование, экспериментальный, учебный процесс.

The article provides an idea of the theoretical justification for improving the effectiveness of the use of didactic game and information and communication technologies in teaching English to teachers of preschool educational organizations. The author also touched upon the main issues of scientific research, including increasing the vocabulary of children in English, experimental testing of the formation of conversational skills.

Key words. Didactic game, information and communication technologies, skills, formation, experimental, educational process.

Mamlakatimizdagi mustaqil, huquqiy, demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidagi ulkan ishlar inson mohiyatini yangidan kashf qilishga, uning o‘zligini anglashga, imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga va ma’naviy barkamol, intellektual, aqliy-amaliy jihatdan yetuk kadrlarni tayyorlash uchun yangi shart-sharoitlar yaratib bermoqda. Buni amalga oshirish maqsadida, hukumatimiz tomonidan tasdiqlangan qator qonun va farmonlar bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida chet tillar, jumladan, ingiz tilini o‘rganish, o‘rgatish hozirgacha zamonaviy talablar darajasida emasligi barchaga ayondir. Bunga sabab ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy saviyasining yetarli darajada emasligi, darslarda yangi pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilmasligi, o‘rganilayotgan ingliz tili tabiiy muhitining mavjud emasligi kabi sabablarni e’tirof etish mumkin. Shuni inobatga olgan holda, yuqorida ketirilgan Prezidentimizning, “Chet tillarni o‘rgatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori bizga, bu borada dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur Qarorga ko‘ra, ta’lim tizimining barcha bosqichlari oldiga – chet

tillarni uzluksiz o‘rganishni tashkil qilish, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta’minlashni yanada takomillashtirish vazifasi qo‘yildi.

Xalqaro munosabatlar rivojlanayotgan globallashuv davrida chet tillarni bilish katta siyosiy-madaniy jarayon sanaladi. Mashhur qomusiy olimlarimiz Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Ibn Sinolar bir necha tillarni mukammal bilishgan. Ingliz tilini o‘rgatishda tarbiyachining mohirligi, kuzatuvchanligi, sezgirligi, til o‘rgatishning o‘ziga xos jihatlari borligi, til o‘rganish uchun bolaning mustaqil faoliyati bo‘lishi, bu faoliyatning tarbiyachi faoliyati bilan uyg‘unlashib ketishi kabi holatlar ham hisobga olinishi, ehtimol, juda ahamiyatli bo‘ladi. Ana shuni tushungan tarbiyachi faoliyati, haqiqatan ham, til o‘qitishda birinchi omillikka da’vogarlik qila oladi. Ma’lumki, boshqa tillarni bilish, o‘rganish hech qachon o‘z ona tilini kamsitish, esdan chiqarish, unutish hisobiga bo‘lmaydi. Ana shu nuqtayi nazardan qaralsa, boshqa tillarni o‘rganishga da’vat, avvalo, o‘z ona tilini ham bilishga, shu bilan birga, boshqa tillarga ham hurmatni shakllantirish, o‘rganishni yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ingliz tilini o‘rgatishda o‘yin faoliyati muhim vosita hisoblanadi. Shu faoliyat vositasida u tashqi ijtimoiy olamni biladi, uning dunyoqarashi va ma’naviyatiga aloqador bilimlar zaxirasi to‘planadi. Ijtimoiy tasavvurlar bola ongidagi shunday bilim, tushuncha, g‘oya va tasavvurlar majmuiki, ular bevosita bolani o‘rab turgan ijtimoiy hodisalar, qadriyatlar mohiyatidan kelib chiqadi va bunda o‘yin faoliyati yetakchi rol o‘ynaydi. Biroq ingliz tili o‘qituvchilari va metodistlarining pedagogik faoliyatida ta’limning boshqa vositalari kabi o‘yinlardan ommaviy foydalanish masalasi ham o‘z ijobiy yechimini topmagan. Buning asosiy sabablari sirasiga bog‘chalarda o‘yinlarni o‘tkazish metodikasi bo‘yicha yetarlicha asoslangan uslubiy ishlanmalarning yo‘qligi, mashg‘ulotlar jarayonida o‘tkaziladigan o‘yinlarning o‘rni mavhumligi, ingliz tilini o‘rganishda turli o‘yinlarga qo‘yiladigan talablarning ishlab chiqilmaganligini kiritish mumkin. Vaholanki, didaktik o‘yinlar bolalarda ingliz tilida gapirish motivlarini vujudga keltiradi, ingliz tiliga qiziqishini uyg‘otadi, bu esa o‘z navbatida bola shaxsining ta’limi, tarbiyasi va kamoloti samaradorligini ta’minlaydi. O‘yinlardan foydalanish g‘oyasi nisbatan eski bo‘lsa-da, Amerika va Angliya olimlari tomonidan ancha yuqori darajaga ko‘tarildi, uning afzalliklari ilmiy-metodik jihatdan isbotlana boshlandi.

Bugungi kunga kelib rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimida mashg‘ulotlarni imitatsiya o‘yinlari, jumladan, kompyuter o‘yinlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Zero, mashg‘ulotlarda kompyuterlardan foydalanish orqali bolalar qiziqishini orttirish va buning natijasida ta’lim samaradorligiga erishish mumkinligi aniqlangan. Ammo ingliz tili ta’limini tashkil qilishning noan’anaviy shakllari tizimida bu xildagi kompyuterli didaktik o‘yinlardan foydalanish tajribasi respublikamizda keng ommalashgan emas. Buning asosiy sababi o‘zgaruvchan pedagogik texnologiyalar sharoitida kompyuterli didaktik o‘yinlardan foydalanish yo‘l-yo‘riqlari ishlab chiqilmaganligi, uning turlari va afzalliklari yetarlicha targ‘ib etilmaganligi bilan bog‘liq. Muhokama qilinayotgan mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, uning ijtimoiy ahamiyati bilan belgilansa, ikkinchidan, mazkur muammo bo‘yicha hozirgacha nufuzli ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib borilmaganligidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘qitishning didaktik xususiyatlari va ingliz tilini bolalarga o‘rgatish bilan bog‘liq masalalarni tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ingliz tilini o‘rgatishda didaktik o‘yin va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligini oshirishni nazariy jihatdan asoslab berish, ularning ingliz tilidagi lug‘aviy

boyligini ko‘paytirib, so‘zlashish ko‘nikmalarining shakllanganligini eksperimental ravishda sinovdan o‘tkazish ham ilmiy tadqiqotning asosiy masalalaridandir. Mazkur maqsadlarni amalga oshirish, o‘z navbatida, quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo etadi:

• maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ingliz tilini o‘qitishning ahamiyatiga oid adabiyotlarni tanqidiy o‘rganib chiqib, ulardan tadqiqot jarayonida tahliliy foydalanish;

• maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun mo‘ljalangan ingliz tilidagi darslik, o‘quv qo‘llanma va dasturlarni o‘rganish hamda tahlil etish;

• ingliz tilini o‘qitish maqsadlariga aniqlik kiritish va o‘quv predmeti oldida qo‘yilgan dasturiy vazifalarni zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqish.

Maktabgacha ta’lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta’limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o‘qishga tayyorlash, bolani rivojlangan, sog‘lom, mustaqil shaxs bo‘lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o‘qishga, tizimli ta’limga bo‘lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Maktabgacha ta’lim maqsadi va vazifalarini amalga oshirishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilari bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko‘rishlari kerak. Bu, o‘z navbatida, tarbiyachilarning kasbiy qiziqishlari ko‘lamini kengaytirishga, ya’ni ularning adabiyotlarni zamonaviy pedagogga qo‘yiladigan talablar:

– o‘qitish (dars berish) mahorati;

– tarbiyalash mahorati;

– o‘quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta’minlaydigan shaxsiy sifatlar;

– ta’lim olayotganlarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati.

O‘qib-o‘rganishdan, to nazariy psixologik-pedagogik va fundamental tadqiqotlar olib borishiga ham imkoniyatlar yaratadi. Yaxshi ilmiy-pedagogik tayyorgarlik innovatsion faoliyatning samaradorligini ta’minlaydi. Innovatsion jarayonlarda faol ishtirok etuvchi tarbiyachi-pedagog muntazam ravishda o‘zini-o‘zi rivojlantirishi va maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimini takomillashtirishning katalizatoriga aylanishi, ya’ni mazkur jarayonlarning tezlashishida muhim ahamiyat kasb etishidir. Ayni paytda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachisining mustaqil ravishda bilim egallab, til o‘rganib, inglizchada suhbatlashish ko‘nikmalarini oshirib borishi va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi – bir tomondan, pedagogik faoliyatning muvaffaqiyatli borayotganligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan, muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi. Chunki, bu kechiktirib bo‘lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Demak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori barcha fuqarolarning chet tillarini, jumladan, ingiz tilini yanada puxta o‘rganishlari uchun keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tizimining malakali tarbiyachisi va pedagog kadrlari zimmasiga yanada mas’uliyat yuklaydi. Shu bilan birga, Davlat ta’lim standarti va milliy kadrlar tayyorlash to‘g‘risidagi qonunga ko‘ra, har bir bo‘lajak mutaxassis o‘z sohasini mukammal bilishi bilan bir qatorda axborot-kommunikatsion texnologiyalarini yetarlicha o‘zlashtirgan, hamda undan amaliyotda foydalanish malaka va ko‘nikmasini egallagan bo‘lishi kerak. Maktabgacha ta’lim tizimi tarbiyachisi ingliz tilini o‘rganishi, uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishi, erkin fikrlashi, shuningdek, boshqalarda ham innovatik g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mashg‘ulotlarni zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilinsa, rang-barang dars shakllari, vositalari va usullaridan foydalanib, bolalarni bilim olishga rag‘batlantirilsa, ularning mustaqil fikrlashi, yozma va og‘zaki

ifoda qilish imkoniyatlari rivojlantirilsa, ta’limdan kutilgan natija qo‘lga kiritiladi. Chunki nutq tadbirkorligiga dastlabki poydevor boshlang‘ich ta’limda qo‘yiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi 25-sonli Qarori: “Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”. –T., 2006.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 25-oktabrdagi 225-sonli qarori. “Maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”. – T.: O‘zbekiston qonun hujjatlari to‘plami. – 2007.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. – T., 2008. – 60-b.

4. Махкамова Г.Т. Формирование навыков и умений устной иноязычной речи у дошкольников (5-6) лет. Автореф дисс.на соиск. учен.степ.канд. пед.наук. – Т.: УзГУМЯ, 2004. – С. 21.

5. Махкамова Г.Т. Формирование навыков и умений устной иноязычной речи у дошкольников (5-6) лет: дис. …канд. пед. наук. – Т., 2004. – С. 238.

Kamola ABRORXONOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti kafedra mudiri
Feruza BERDIBEKOVA,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

EKOLOGIK TARBIYA VA SHAXSNING HAR TOMONLAMA RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Hozirgi kunda eng muhim shaxs taraqqiyotini ta'minlovchi ta'lim jarayonini tashkil etish g'oyasi hisoblanadi. Kelajagi buyuk davlatda yashagan xalqni har tomonlama komil insonlar bo'lishi talab etiladi. Shaxsning komilligi deyilganda aqliy, axloqiy, ruhiy va ekologik jihatdan kamolotga erishgan kishilar tushuniladi. Shaxs kamolotida ekologik tarbiyaning o'rni ushbu maqolada o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar. Tarbiya jarayonida ekologik tarbiya, shaxs kamoloti, ekologik va axloqiy tarbiyasining uzviy bog'liqligi, milliy ekologik tarbiya, yangi pedagogik texnologiyalar, ekologiya mashg'ulotlari.

В этой статье сегодня самое главное – это идея организации учебного процесса, обеспечивающего развитие личности. Роль экологического образования в зрелости в этой статье отражена меньше.

Ключевые слова. Экологическое образование в процессе воспитания, личностная зрелость, целостная связь экологического и нравственного воспитания, национальное экологическое воспитание, новые педагогические технологии, экологические уроки.

In this article, the most important thing today is the idea of organizing the educational process that ensures the development of the individual. The role of environmental education in maturity is less reflected in this article.

Key words. Ecological education in the educational process, personal development, the interdependence of ecological and moral education, national ecological education, new pedagogical technologies, ecological lessons.

Shaxs taraqqiyotini ta'minlovchi ta'lim jarayonini tashkil etish g'oyasi kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosini ifodalaydi. O'quv-biluv jarayonida o'quvchilarning o'ziga xosligini, pedagogik qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish bugun o'ta muhimdir.

Hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifamiz – jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan o'quvchilarni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir.

Avvalo, o'quvchilar dunyoqarashining yangilanishi ijtimoiy jarayondir. Ya'ni u taraqqiyotning bir bosqichidan ikkinchisiga o'tayotgan mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlardagi uzluksiz o'zgarishning tarkibiy qismidir.

Tafakkur o'zgarishi jamiyatdan, o'z davrida ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlardan tashqarida sodir bo'ladigan hodisalar yig'indisi emas, balki u o'zida ularning barcha asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Demak, bu mustaqillikka erishgan va uni mustah-

kamlashga harakat qilayotgan mamlakatimiz uchun tarixiy zaruratdir.

Ya’ni u tasodifiy namoyon bo‘ladigan o‘tkinchi hodisa emas, balki o‘tish davrining zaruriyati, jamiyat ma’naviy hayotini tubdan isloh qilish, fuqarolarda yangicha tafakkurni shakllantirishdagi asosiy yo‘nalishlardan biridir.

Ikkinchidan, o‘quvchilar dunyoqarashining yangilanishi nafaqat umumiy ma’naviy muhit, balki har bir jamiyat a’zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o‘zgarishi hamdir. Shu ma’noda, u alloma bobolarimiz orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantiradigan va takomillashtiradigan jarayondir.

Kelajagi buyuk davlatda yashayotgan xalqni har tomonlama komil insonlar bo‘lishi talab etiladi. Shaxsning komilligi deyilganda aqliy, axloqiy, ruhiy va ekologik jihatlardan kamolotga erishgan kishilar tushuniladi. Bunday sifatlarga erishish uzoq davom etadigan jarayon bo‘lib, ko‘pgina omillarga bog‘liqdir. Shaxs kamolotining eng asosiy omillari sifatida irsiyat (biologik), ijtimoiy muhit, ta’lim va tarbiya hamda faollik tushuniladi.

Ekologik tarbiya shaxsning barkamolligining bir ko‘rinishi hisoblanib, tabiat manzaralari, yilning turli fasllarida unda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarda namoyon bo‘ladi. Shahar va qishloqlarning qiyofasi ulardagi noyob binolar, bog‘-rog‘lar, me’morchilik yodgorliklari, xiyobonlar, maydonlar, favvoralar, har-xil bezaklar, xatto tozalik, saranjom-sarishtalik bolalarning yuksak didli bo‘lishlariga ta’sir etadi. Shu o‘rinda ayniqsa, muzeylar, teatr va kinoxonalarning ahamiyatini alohida ta’kidlamoq kerak.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida ta’rif-tavsif etgan kishilarning ko‘pchiligidagi ekologik sifatlarga yuqori baho bergan. O‘zi har shoh, sarkarda, olim va shoir bo‘lishi bilan birga ekologik mashqlar va chiniqishni o‘ta qadrlagan inson ekanligi bayon etilgan.

Xazar kun zi dardi darunxoi resh,
Ki reshi daruy oqibat sar kanad.
Baxam barmakun to tavoniy dile,
Ki oxe jaxone baxam bar kanad[1]*.*
(Tarjimasi: Dilni yaralama, ohidan cho‘chi
Bu yara biror kun sirtga tepadi.
Birorta ko‘ngilga bermagil ozor,
Jahonni o‘rtashga bir oh yetadi.)

(G‘afur G‘ulom tarjimasi)

Ekologik tarbiya darsiga guruhlarda o‘tkaziladigan umumiy ekologik tayyorgarlik kelib qo‘shiladi.

Shuni hisobga olish kerakki, tanaffusda turli ekologik tarbiyaga ega bo‘lgani bolalar yig‘ilishadi, shuning uchun har qiziqarli o‘yin kulgilarni o‘quvchilarning tanlash imkoniyati bo‘lishi uchun turli joylarda tashkil qilish lozim. Tanaffuslarda uyushtiriladigan o‘yinlar asosan o‘quvchilarga tanish bo‘lishi, mazmuni sodda, kam qoidali va vaqt jihatidan uzoq davom etmasligi darkor. 2-3 kishi ishtirokidagi o‘yin savol-javob tariqasida o‘tkazilishi darkor. O‘tkazish uchun juftlik musobaqalari juda qulay. – “O‘yla, izla, top!”, “Nima uchun chiroyli?” shular jumlasidandir.

Ekologik tarbiya va sportni o‘quvchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va dam olishlarini ta’minlash maqsadida joriy qilish barcha o‘quvchilarni darsdan tashqari vaqtda muntazam ekologik tarbiyaga jalb qilish uchun mavjud imkoniyatlardan keng foydalanishni taqozo etadi.

[1] Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”, “O‘qituvchi nashriyot manbaa uyi” Toshkent 2018-y. 12-bet.

Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli asarida “badan tarbiyasi”ga alohida e’tibor qaratgan. Badan tarbiyasi boshqa barcha tarbiyalar uchun zamin hozirlaydi deb uqtirgan.

Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila terisi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo‘yib astarini yuvub ovora bo‘lmoq kabidurki har vaqt ustidagi kiri ichiga uradi. Fikr tarbiyasi uchun maxkam va sog‘lom bir vujud kerakdur. Shuning uchun ota-onalar bolalari kasal bo‘lgan zamon beparvolik qilmay, tezlik ila tabib yoki do‘xturga boqizmak kerak.[2]

Mustaqil ekologik mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish tizimiga oiladagi ekologik mashqlarni, maktabda darsdan tashqari ekologik tayyorgarlikni, sport to‘garaklari va seksiyalardagi mashg‘ulotlarni, ertalabki badan-tarbiya mashqlarini, sog‘lomlashtiruvchi mashg‘ulotlarni, sport mahorati mashqlarini, harakatli o‘yinlar, sport musobaqalari, turistik sayohatlar, bayramlarni kiritish mumkin.

Pedagogik va metodik adabiyotlarda ularning ahamyati, tashkil etilish tartibi, shart-sharoiti haqida ko‘plab fikrlar bildirilgan. Biz izlanishlarimizda mustaqil ekologiya mashg‘ulotlari mashqlari bilan shug‘ullanishga qo‘yiladigan talablar, ekologiyachi o‘quvchilarga mo‘ljallangan mashqlarning mazmuni va bajarish tartibi, umumiy ekologik rivojlanishga ta’siri, shug‘ullanuvchining o‘zini-o‘zi nazorat qilishi hamda ayrim metodik tavsiya va ko‘rsatmalarni ishlab chiqishga harakat qildik.

Ekologiya mashg‘ulotlari inson organizmini chiniqtiradi, kuchlilik va chaqqonlikka o‘rgatadi. Sog‘liqni mustahkamlaydi, gavdani to‘g‘ri shakllanishini ta’minlaydi. Ekologiya mashg‘ulotlari orqali ekologik mahorati tarkib topadi va eng yuksak natijalarni qo‘lga kiritishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Inson umrini uzaytiradi va sog‘-salomat hayot kechirishga zamin hozirlaydi.

Shular qatori insonning aqliy, axloqiy va mehnat tarbiyalariga har kuchli ta’sir etadi. Bir so‘z bilan aytganda, shaxsdagi komillik belgilarining ortib borishiga ta’sir qiladi. Faqat ekologiya mashg‘ulotlari tor ma’nodagi ekologiya mashg‘ulotlari darslari shaklida emas, keng ma’noda, har qanday ekologik tadbirlarda ishtirok etish shaklida tasavvur qilish zarur bo‘ladi. Chunki murakkab ekologik mashqlarni bajarishda, sport o‘yinlari va musobaqalarda ishtirok etishda eng noyob insoniy fazilatlar namoyon bo‘ladi. Oddiy holatda o‘ylab ham ko‘rilmaydigan fazilatlar o‘yin va musobaqalar jarayonida osonlik bilan amalga oshiriladi.

Ekologik tarbiya o‘quvchilarda xulq-atvor, odob, yurish-turish normalarining tarkib topishi va ularga amal qilishni ta’minlaydi. Xalq orasida axloqlilik va axloqsizlik degan tushunchalar mavjud bo‘lib, ular ko‘pchilik hollarda tarbiyalanganlik va tarbiyasizlik degan ma’nolarini anglatadi. Shunday ekan, axloqiy tarbiya inson ma’naviy qiyofasini asosini tashkil etadi. Ma’naviy qiyofa tashqi qiyofa bilan uyg‘un bo‘lgandagina kishi har tomonlama tarbiya ko‘rgan deb tan olinadi.

Ekologik va axloqiy tarbiyasining uzviy bog‘liqligi haqida mulohaza yuritganda, ulug‘ rus yozuvchisi A.P.Chexovning “Insonda hamma narsa go‘zal bo‘lishi kerak...”, degan qoidasini eslamasdan bo‘lmaydi. Avvalo, insonning tashqi qiyofasi, gavda tuzilishi, yurish-turishi ekologik qoidalariga amal qilgandagina atrofdagilarning e’tiborini o‘ziga tortadi, muloqotga kirishishga, do‘stlashishga ehtiyoj tug‘iladi.

Inson ma’naviy tomonidan ham go‘zal bo‘lmog‘i darkor. Xulq-atvori, faxm-farosati,

[2] Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” www.islom.uz kutubxonasi. Toshkent, 2008-y. 11-bet.

didi shakllangan kishilarni, xushfe’l va ochiqko‘ngil, mard va adolatli kishilar ma’naviy go‘zal deb hisoblanadi. Bu kabi insoniy sifatlarning ko‘plari ekologik mashg‘ulotlar bilan shug‘ullangan, sport sohasida ulkan yutuqlarga erishgan kishilarda mavjud bo‘ladi.

Ekologiya mashg‘ulotlarining eng yuqori darajasi mahorat va uning madaniyatga aylangan ko‘rinishida aks etadi. Mahoratning sayqallashuvi san’at hisoblanadi. Juda ko‘plab o‘z ishining ustalari, mohir murabbiylar o‘z kasbiy fazilatlarini san’at darajasiga ko‘targanlar.

Ekologiya mashg‘ulotlaring ekologik tarbiya bilan uzviy bog‘liqligi haqida mulohaza yuritganda ot sportidagi go‘zallik to‘g‘risida gapirmaslik adolatsizlik bo‘lar edi. Ota-bobolarimiz ming yillardan beri otga mehr qo‘yib, hayvonot dunyosi vakillaridan o‘zlariga sodiq do‘st topganlar.

O‘quvchilarning milliy ekologik tarbiyasi va intellektual imkoniyatlarini milliy mafkura va umuminsoniy qadriyatlar asosida kengaytirish dialektik jarayondir. Shunday ekan, o‘quvchilar – bu jarayonda fuqarolik jamiyatini, ijtimoiy hayotni o‘z maqsadiga muvofiqlashtirish asosida qayta ishlab chiqarish uchun, avvalo, ma’naviy-ekologik hayotni, uning taraqqiyot qonunlarini chuqur bilib olishlari lozim.

Ta’lim jarayonida darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – tarbiya jarayonining asosiy subyektlari bo‘lgan o‘qituvchi hamda o‘quvchilar o‘rtasida yuzaga keluvchi muloqotning samarali bo‘lishi bu tizimning yangicha mazmun kasb etishiga erishishdan iborat. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida olib borilgan tajriba-sinov ishlaridan boshlang‘ich sinf darslarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, bu borada ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan shartlar xususida o‘qituvchilarni xabardor etishga yordam beradigan tadbirlarning o‘rin olishiga alohida e’tibor berildi. Mazkur tadbirlar vositasida quyidagi pedagogik vazifalarning ijobiy hal etilishi nazarda tutildi:

1. Ta’lim jarayonida darslari o‘qituvchilarining tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish borasidagi nazariy-amaliy bilimlarini o‘zlashtirishlari uchun muayyan shart-sharoit yaratish.

2. Ta’lim jarayonida darslari o‘qituvchilariga tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va uning o‘ziga xos jihatlari xususida ma’lumot berish.

3. Ta’lim jarayonida darslari o‘qituvchilarida tarbiya jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish borasidagi nazariy bilimlarni hosil qilish.

4. Ta’lim jarayonida darslari o‘qituvchilarida pedagogik texnologiyalar asosida tarbiya jarayonini tashkil etish borasidagi nazariy bilimlarining amaliy ko‘nikma va malakaga aylanishiga erishish.

5. Ta’lim jarayonida darslari o‘qituvchilarida tarbiya jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etishga nisbatan raxbatni yuzaga keltirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muxammadiyev A. “Tabiatni muhofazasi va ekologiyasi”. –T.: O‘qituvchi, 1997. 5-13-betlar.

2. Otaboyev Sh. Nabiyev K. “Inson va biosfera” –T.: O‘qituvchi 1997. 5-13-betlar.

3. Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” O‘qituvchi nashriyot manbaa uyi”, – T., 2018-y. 12-bet.

4. Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” www.islom.uz Kutubxonasi. –T.,2008-y. 11-bet.

Muzaffarjon JO'RAYEV,
Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti
"Matematika-informatika" kafedrasi o'qituvchisi

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINING O'QUV-METODIK TA'MINOTINI ISHLAB CHIQISHDA UZVIYLIKNI TA'MINLASH

Annotatsiya

Informatika va AT fanini o'qitishnng o'quv-metodik ta'minoti tarkibi, Informatika ta'limining o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, Informatika ta'limi bo'yicha o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish uchun talablar va uni amalga oshirish prinsiplari ushbu maqolada muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. O'quv-metodik ta'minot, kompetensiyalar va fanlararo bog'liqlik, uzviylik, uzliksizlik, didaktik talablar, ilmiy-metodik talablar, pedagogik-psixologik talablar, estetik talablar, gigienik talablar.

В статье рассмотрены структура учебно-методического обеспечения обучения информатике и ИТ, приоритеты развития учебно-методического обеспечения информатики, требования к разработке учебно-методических комплексов информатики и принципы его реализации.

Ключевые слова. Учебно-методическая поддержка, компетенции и междисциплинарная связь, членство, преемственность, дидактические требования,научно-методические требования, педагогико-психологические требования, эстетические требования, гигиенические требования.

The structure of educational and methodical support of teaching computer science and IT, priorities for the development of educational and methodical support of computer science, requirements for the development of educational and methodical complexes of computer science and the principles of its implementation discussed in the article.

Key words. Educational-methodical support, competencies and interdisciplinary connection, membership, continuity, didactic requirements, scientific-methodical requirements, pedagogical-psychological requirements, aesthetic requirements, hygienic requirements.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.[1] Mamlakatimizdagi ta'lim tizimi – uni tashkil etish prinsiplari, mazmuni, talim-tarbiya jarayonining shakl va usullarini yangi ta'lim texnologiyalari talablari darajasida tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4851-son qarori 06.10.2020

hisobga olgan holda informatika ta’limi me’yoriy hujjatlarini ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta’minlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Informatika va AT fanini o‘qitish jarayonida o‘quv-metodik ta’minoti tarkibiga quyidagilar kiradi:

– Informatika va AT fani bo‘yicha tayanch o‘quv reja;

– Informatika va AT fani bo‘yicha davlat ta’lim standartlari;

– Informatika va AT fani bo‘yicha o‘quv dasturlari;

– Informatika va AT fani bo‘yicha malaka talablari;

Informatika va AT fani bo‘yicha o‘quvchilarning kompetensiyalarini baholash tizimi asosida amalga oshiriladi.

Informatika va AT fanini o‘qitishning mazmuni, usullari va pedagogik texnologiyalarini modernizatsiya qilish, uni moddiy-texnik va kadrlar bilan ta’minlash (shu jumladan informatika fani o‘qituvchilarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash)ga yangicha yondoshish va ta’lim sifati yaxshilash informatika ta’limini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi.

Barcha o‘quv predmetlari mazmuniga kiritilgan bilim va tushunchalar, o‘quvchining maktabdan keyingi hayoti va ish faoliyatida kerak bo‘lishi, yaroqliligini ta’minlashga erishish, buning uchun pedagogik prognoztikaning imkoniyatlaridan keng foydalanish zarur. Maktab, professional ta’lim va oliy ta’lim tizimidagi informatika va axborot texnologiyalari fani uchun tuziladigan yangi o‘quv dasturlari DTS talablariga mos bo‘lishi, shu bilan bir qatorda o‘quvchilarning salomatligini muhofaza qilish maqsadida o‘quvchini mantiqiy mushohada qilishga undovchi o‘quv topshiriqlari va o‘quv materiallarini belgilab berishga asos bo‘lishi kerak. O‘quv dasturida nazariy didaktik qarashlar, yondashuvlar, mezonlar, o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar bayonidan iborat bo‘lishi kerak. Bunda o‘quvchilarga muayyan o‘quv fanidan taqdim etiladigan muayyan nazariy bilimlar mavzular shaklida bayon qilinadi. Turli yo‘nalishdagi amaliy topshiriqlar hamda interfaol ish turlarini kengaytirishga imkon yaratish zaruriyati vujudga kelmoqda. Shuningdek, o‘quv qo‘llanmalari tarkibida beriladigan talimiy materiallar, savol va topshiriqlar, mustaqil ishlar, uy vazifalari, o‘quvchining individual bilim olishi, voqea-hodisalarni tahlil qilishi, egallagan bilimlarini amalda qo‘llashi uchun qulay bo‘lishi kerak. Mustaqil talim olish va ma’lumotlarni tahlil qilib amaliy ko‘nikmalarini shakllantiruvchi topshiriqlar ko‘lamini kengaytirish orqali ta’lim mazmunini maqsadga muvofiq tarzda belgilash imkoniyati vujudga keladi. Bu esa dars jarayonida o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishlariga imkoniyat yaratadi.Ularning individualliklarini taminlaydi.

Informatika ta’limining o‘quv-metodik ta’minotini rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish va buni amaliyotga tadbiq etish zarur hisoblanadi:

1. Ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an’analar uyg‘unligida informatika ta’limi bo‘yicha davlat ta’lim standartini ishlab chiqish.

2. Informatika ta’limi bo‘yicha uzviylikni e’tiborga olgan holda ta’lim bosqichlari uchun alohida tartibda bitiruvchilarga qo‘yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish.

3. Informatika ta’lim tizimi o‘quv yuklamalarining minimal hajmi hamda ularning taqsimoti yuzasidan takliflar tayyorlash.

4. Informatika ta’lim tizimi bo‘yicha o‘quv-metodik majmualarni (darslik, mashqdaftari, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovasi va boshqa) yangi avlodini bosqichma-bosqich ishlab chiqish.

5. Informatika ta’lim tizimi mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va

shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish.

6. Xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablarini ishlab chiqish.

Informatika ta'limi bo'yicha o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish uchun ushbu talablarni amalga oshirishda, quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

1. O'quv-metodik majmualar ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi.

2. O'quvchi-yoshlarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi.

3. O'quvchi-yoshlarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilganligi.

4. O'quvchi-yoshlarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

5. Uzluksizlik muammosi kontekstida o'quv dasturlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: ijtimoiy va pedagogik ta'limning to'liqligi, yaxlitligi, tarkibning barcha elementlarining izchilligi va o'zaro bog'liqligi; axborot ta'limi tarkibidagi sikllararo aloqalarni amalga oshirish; yangi va takrorlanadigan o'quv materiallari o'rtasida aniq farq; mavjud tajribaga tayanishni hisobga olgan holda o'quv materialini murakkablashtirish va chuqurlashtirish; talimning har bir bosqichida tarkibni tanlashni asoslash; nazariy va dasturiy-uslubiy darajalarda izchil aloqalar mavjudligi; boshqa axborot fanlari va axborot texnologiyalari bilan mantiqiy munosabatlar mavjudligi.

O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo'yiladi:

A) didaktik talablar:

– o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash;

– matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

– qiziqarli, lo'nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo'lishi;

– ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

– ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

– rasmlar ko'rinishidagi illyustratsiyalar: xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi;

– yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, tariflar va shu kabilar lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

b) ilmiy-metodik talablar:

– fan-texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

– o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;

– o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

– mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

– milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli illyustratsiyalar bilan boyitilishi;

– savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi; o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

– keltirishda mavhumlikka yo‘l qo‘yilmasligi;

– kasb-hunarga yo‘naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug‘at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo‘lishi lozim.

v) pedagogik-psixologik talablar:

– keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma’lumotlar, o‘quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va amaliy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyojlarini to‘laqonli qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

– o‘quv fani mavzularining yosh va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, malum faktlar, tushunchalar, qoidalar vafanlararo bog‘liqliknihisobga olgan holda tushunarlibayon qilinishi;

– o‘quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o‘zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo‘lishi lozim.

g) estetik talablar:

– imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo‘lishi;

– matnlar o‘quvchi-yoshlarga ma’lum ijobiy hissiy ta’sirlarni o‘tkazishi va o‘quv faniga qiziqish uyg‘otishi;

– bo‘lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi ta’minlanishi;

– rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

d) gigiyenik talablar:

– matn va illyustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo‘lishi;

– harflarning kattaligi va qog‘ozning sifati (og‘irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos bo‘lishi lozim.

Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirish;

Informatika va AT fan yo‘nalishida o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog‘liqligini ko‘rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quv tadqiqotlarini o‘tkazish, loyihalashtirishga yo‘naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Mamlakatimizdagi ta’lim tizimi – uni tashkil etish prinsiplari, mazmuni, talim-tarbiya jarayonining shakl va usullarini yangi ta’lim texnologiyalari talablari darajasida tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda.

Informatika ta’limining o‘quv-metodik ta’minotini amaldagi joriy holati va to‘plangan tajribalar tahliliga ko‘ra, bir qator tavsiyalarni berishimiz mumkin:

1. Amaldagi informatika va axborot texnologiyalari fani mazmuni, mustaqil hayotda qo‘llash imkoniyati bo‘lgan raqamli savodxonlikni va madaniyatni, tanqidiy fikrlash va kreativ axborot kommunikatsion kompetensiyalarini shakllantirish.

2. Informatika ta’limining o‘quv-metodik ta’minotini ishlab chiqishda fanlararo kompetensiyalar va fanlararo bog‘liqlik, uzviylik va uzliksizlikni taminlash.

3. Informatika va axborot texnologiyalari fanining o‘quv metodik taminoti (o‘qituvchi kitobi, multimedia ilovalar, didaktik materiallar va boshqa) yetarli darajada ishlab chiqish.

4. Informatika va axborot texnologiyalari fani mazmuniga elektron kutubxona,

virtual va intellektual bog‘liq, robototexnika, Arduino, masofadan o‘qitish, ta’lim kontentini boshqarish tizimlari, to‘ldirilgan borliq, hisoblash matematikasi, ijtimoiy tarmoqlar, internet tijorat, raqamli axborotlar bilan ishlash va ularni qayta ishlash texnologiyalar kabi O‘zbekiston iqtisodiyoti rivoji uchun zarur bo‘ladigan elementlarning kiritish.

5. O‘quvchilarda ta’lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish uchun bugungi kunda mustaqil hayotga qadam qo‘yish, ta’limning keyingi bosqichiga o‘tish uchun zarur kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv metodik, didaktik, dasturiy ta’minot, jihoz va uskunalarni shakllantirish.

Ushbu tavsiyalar asosida Informatika talimining o‘quv-metodik taminotini ishlab chiqishda uzviylikni taminlash, o‘quvchilarga ilm-fan asoslari to‘g‘risidagi bilimlarni amaliyotga joriy qilish, inson faoliyati, umumiy, raqamli va moddiy madaniyatning turlarini shakllantirishning umumiy tamoyillari, o‘ziga xos ko‘nikmalarini o‘zlashtirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida amaliy muammolarning innovatsion yechimlarini topish va hayotga tatbiq etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jahon ta’lim tizimi. O‘quv uslubiy majmua. / Miraliyeva D /T.: Iqtisodiyot, 2016.

2. Mutalipova va Imomov M. “Ta’limda ilg‘or xorijiy tajribalar” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua / 2017 –T.: Nizomiy nomli TDPU.

3. Jahon ta’lim tizimi / O‘quv-qo‘llanma / Fayzullayeva N. –T.:TDIU, Iqtisodiyot, 2016.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidan 29.12.2020-yil.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851-son qarori 06.10.2020.

6. https://www.tdi.uzhttp://uzviylik.tdi.uz/comment/?ELEMENT_ID=77&ID=20

Odiljon QO'YSINOV,
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i o'rinbosari, pedagogika fanlari doktori, dotsent

FINLANDIYA VA O'ZBEKISTONDA TEXNOLOGIYA FANI O'QUV MAQSADLARINI BELGILASHDA QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya

Maqolada Finlandiya va O'zbekistonda texnologiya fanini o'qitish maqsadi va vazifalari, o'quv maqsadlarini shakllantirishda e'tiborga olinadigan komponentlar hamda kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Texnologiya, qiyosiy tahlil, maqsad, vazifa, kompetensiya, baholash, ko'nikmalar, darajalar, texnik obyekt va jarayonlar, mehnat ta'limi va malakalari.

В статье описаны цели и задачи технологии обучения в Финляндии и Узбекистане, компоненты, которые необходимо учитывать при формировании образовательных целей и развитии компетенций.

Ключевые слова. Технология, сравнительный анализ, цель, задача, компетенция, оценка, навыки, уровни, технический объект и процессы, трудовое образование и навыки.

The article describes the goals and objectives of teaching technology in Finland and Uzbekistan, the components to be taken into account in the formation of educational goals and the development of competencies.

Key words. Technology, comparative analysis, purpose, task, competence, assessment, skills, levels, technical object and processes, labor education and skills.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga texnologiya fanidan ta'lim berishning zamonaviy innovatsion uslublarini joriy etish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti keyingi 10 yil ichida dunyoning taraqqiy etgan sanoat-texnologik lokomotivlari qatoriga kirishi, ya'ni 2030-yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir.

Jahon ta'lim tizimida fan va innovatsiya faoliyatining yutuqlaridan keng foydalanish, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishning muhim omilidir. Yuqori kasbiy kompetentlikka ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ta'limda innovatsiyalar, o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini keng joriy etish o'quvchilarning motivatsion, kognitiv, operatsion, refleksiv va o'z-o'zini baholash kabi indikatorlar asosida ilmiy izlanishlarni amalga oshira oladigan qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Texnologiya fanini o'qitish maqsad va vazifalari tahlilidan ko'rinib turibdiki, Finlandiyada texnologiya fani o'quvchilarni ko'proq hayotga tayyorlashga hamda ularning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ijodkorlikka yo'naltirilgan ta'lim sifatida qaralganini ko'rish mumkin. O'zbekistonda esa texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarda ko'proq kompetensiyalarni shakllantirishga hamda kasbga yo'naltirish orqali vatanparvarlik hislatlarini tarkib toptirishga qaratilgan.

Finlandiyada texnologiya fanidan o‘quv maqsadlarini shallantirishda quyidagi komponentlar va o‘zaro bog‘liqlikka e’tibor berilishini ko‘rishimiz mumkin:

O‘quvchilarga hunarmandchilikning turli sohalarida ko‘p qirrali tajriba orttirish va turli hunarmandchilik mahoratlarini o‘rganishga imkon beradi. Asosiy kompetensiyalar turli xil o‘quv materiallarini birlashtirgan izchil o‘quv topshiriqlarini shakllantirish maqsadida foydalaniladi.

C1 G‘oyalarni shakllantirish: o‘quvchilar mehnat qilish konsepsiyasi, xususiyatlari va belgilaridan foydalangan holda ijodiy va innovatsion mahsulotlarni loyihalash bo‘yicha topshiriqlarni bajaradi. Ular o‘z loyihalarini amalga oshiradi, o‘zlarini namoyon etishni rivojlantirib boradi, hunarmandchilik jarayonining turli bosqichlarida o‘zlarini baholash va o‘zaro baholashni amalga oshiradi.

C2 Dizayn: o‘quvchilar uy-joy, transport va kiyim-kechakning ijtimoiy, madaniy va texnologik rivojlanishi bilan tanishadi. Loyihalarni rejalashtirish, loyihalashtirish va amalga oshirishda o‘quvchilar mahalliy an’analar va imkoniyatlardan, shuningdek, o‘tmish, hozirgi va turli madaniyatlarning an’analaridan foydalanadi.

C3 Tajriba: o‘quvchilar materiallarni o‘zgartirish, birlashtirish va qayta ishlashning turli usullarini amalda qo‘llaydilar va turli xil an’anaviy, yangi materiallar va ishlab chiqarish usullaridan ijodiy hamda ishonchli foydalanadi. O‘rnatilgan tizimlar mehnatda qo‘llaniladi, ya’ni dasturlash, loyihalashtirish va ishlab chiqarishda qo‘llaniladi.

C4 Ta’rif va baholash: Mahsulotlarni loyihalash va ishlab chiqarish jarayonida o‘quvchilar turli xil usullar bilan taqdim etilgan imkoniyatlar bilan tanishadi. Ular mahsulotlarning dizayni va foydalanishga yaroqliligini tahlil qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida barcha ishlab chiqarish jarayonini hujjatlashtirish amalga oshiriladi.

C5 Ishlab chiqarish: o‘quvchilar ekologik va axloqiy jihatdan barqaror bo‘lgan turli xil yuqori sifatli va funksional mahsulotlar yoki qismlarni ishlab chiqaradi. Ular hunarmandchilik asboblari, mashinalari va jihozlaridan har xil va mos ravishda foydalanadi.

C6 Mehnat xavfsizligi: o‘quvchilar mehnat xavfsizligi bilan tanishib, ishning bir qismi sifatidagi ishning xavfli va xavf keltiruvchi omillarini kuzatadilar va baholaydi. Ular xavfsiz ravishda ishlaydi.

C7 Tadbirkorlik faoliyati: o‘quvchilar tadbirkorlik faoliyati, ishbilarmonlik va tashkilotlar bilan hamkorlikda ko‘rgazmali, virtual va o‘quv safari yoki ish safari orqali tanishib. hunarmandchilik mahoratining mehnat faoliyati uchun ahamiyati ham hisobga olinadi. Madaniyat muassasalarining takliflari ham g‘oya manbai sifatida qo‘llaniladi.

C8 Xabardorlik va ishtirok etish: o‘quvchilar hunarmandchilik va ulardan yaratilgan mahsulotlarning turli xil ta’sirini shaxslar, jamiyat va atrof-muhit nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Ular hunarmandchilikni farovonlikni oshirish va kundalik hayotda barqaror rivojlanish vositasi deb bilishadi. Ular o‘z amaliyotini ishtirok va muloqot orqali sinaydilar.

7-9 sinflar uchun “Texnologiya” (mehnat) kursi doirasida o‘quv natijalarini baholash: O‘qishni baholash rag‘batlantiradi va ilhom baxsh etadi. Baholash to‘liq mehnat jarayoniga, uning maqsadlari va mezonlariga, shuningdek, butun o‘quv jarayonini doimiy baholash va hujjatlashtirishga asoslanadi, o‘quvchilar baholash mezonlarini bilishlari kerak. Mehnat jarayonining turli bosqichlarida hujjatlashtirish baholash vositasi bo‘lib xizmat qiladi, o‘quvchilar o‘zlarining rivojlanishi va mahoratlari to‘g‘risida chuqur mulohazalar olishadi. Baholash hunarmandchilikning turli ko‘nikmalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlaydi, o‘quvchilarga o‘zlarining yutuqlarini namoyish qilish uchun turli xil imkoniyatlar beradi, kuchli tomonlarini saqlab qolish hamda rivojlanish qobiliyatlarini

boshqarish uchun rag‘batlantiradi. O‘quvchilar o‘zlarining bilimlari hamda o‘zaro baholashda turli usullarni taklif qilishadi. Fikr-mulohazalar ham o‘zaro bog‘liq bo‘lib, u ham o‘qituvchiga ish uslublari va qo‘llanilgan yondashuvlar haqida fikr-mulohazalar olish imkoniyatini beradi.

Yakuniy baholash o‘quvchi asosiy mavzuni o‘rganishni yakunlagan yili amalga oshiriladi. Yakuniy baholash kursni tugatishda o‘quvchining “Texnologiya” (mehnat) kursining maqsadlariga qanday darajada erishganligini aks ettiradi. Yakuniy baho ma’lum bir o‘quvchining tayyorgarligi darajasini texnologiya (mehnat) bo‘yicha yakuniy baholashning milliy mezonlari bilan taqqoslash asosida tuziladi. Turli mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalar kumulyativ ravishda rivojlanadi. Yakuniy baholashning barcha milliy mezonlari mahalliy o‘quv dasturlari mezonlaridan qat’i nazar hisobga olinadi. O‘quvchi tilni bilishning milliy mezonga javob beradigan o‘rtacha darajasini namoyish qilsa, unga 8 ball qo‘yiladi. Ba’zi jihatlardagi muvaffaqiyat boshqalaridagi bo‘shliqni qoplashi mumkin.

O‘zbekistonda. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘quvchilarning texnologiya fanini o‘zlashtirish bosqichlari:

Ta’lim bosqichi	Bitiruvchilar	Umumevropa xalqaro standarti darajalari	Daraja nomlanishi Mehnat ta’limi fani-
Umumiy o‘rta ta’lim	Boshlang‘ich sinf (4-sinf)	A 1	ning boshlang‘ich darajasi Mehnat ta’limi
	9-sinf bitiruvchilari	A 2	fanining tayanch darajasi Mehnat ta’limi
	Mehnat ta’limi fanini chuqurlashtirib o‘qitiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinf bitiruvchilari	A 2 +	fanining kuchaytirilgan darajasi

Texnologiya o‘quv fanini o‘rganish bosqichlari va fanning mazmunidan kelib chiqqan holda, o‘quvchilarda fanga oid quyidagi 3 ta umumiy kompetensiyalar shakllantirilishi belgilangan:

1. FK1-Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi.

2. FK2-Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiya.

3. FK3-To‘g‘ri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi: O‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi 6 ta tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilandi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari texnologiya fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarning hunarmandchilikka oid qo‘yiladigan tayanch kompetensiyalar ishlab chiqilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilari texnologiya fanini o‘zlashtirish jarayonida quyidagi tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishlari belgilangan.

1. Kommunikativ kompetensiya:

– texnologiya faniga oid atamalarni muloqot jarayonida qo‘llay olish;
– tayyorlanadigan buyum ko‘rinishini sodda bayon qilish;
– mavzu bo‘yicha savollar berish hamda savollarga javob berish;
– muloqotda muomala odobiga rioya qilish, suhbatdoshining fikrini tinglay
– olish, o‘z fikrini tushuntira bilish;
– maktabda, ko‘chada, uydagi turli vaziyatlarda o‘zini tuta olish muloqotga kirish-ishda muomala madaniyatiga rioya qilish;
– olgan bilimlari asosida mustaqil fikr yuritish;
– yasalgan buyumlarga mustaqil ravishda munosabat bildirish;
– texnologiya faniga oid atamalarni xorijiy tillardan ifodalay olish, o‘z do‘stlari bilan texnika tilida muloqotga kirisha olish;
– mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to‘g‘ri qo‘ya olish va javob berish;
– o‘zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
– texnologiya faniga oid suhbat jarayonida suhbatdosh fikrini tahlil qilgan holda o‘z pozitsiyasini himoya qilish va unga ishontirish;
– turli ziddiyatli vaziyatlarda o‘z ehtiroslarini boshqarish, kelishmovchiliklar odilona, haqqoniy va ijobiy yondashgan holda munosabat bildiirish va zarur bo‘lgan qarorlarni qabul qilish.

2. AKT va elektron axborot-ta’lim muhitidan foydalanish kompetensiyasi:
– texnologiya faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko‘rish, o‘rganilgan ish usullarini bajarish, jurnal va gazetalarda berilgan ma’lumotlarni texnologiya faniga oid atamalarni topishda media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish;
– fayllarni ochishda media-madaniyatga rioya qilish;
– mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta orqali xabar jo‘natish) foydalana olish;
– media vositalardan texnologiya fanini o‘rganishga oid zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlashda xavfsizligini ta’minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioya qilish;
– kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish, texnologik xarita va sxemalarga oid manbalarni qidirib topish, o‘rganish, tahlil qilish, tatbiq qilish.

3. O‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z ustida ishlash kompetensiyasi:
– texnologiya fanini o‘rganish;
– amaliy ishni bajarishda tozalikka rioya qilish, kattalarni gapiga quloq tutish, “Mohir qo‘llar” to‘garagida fanlarni o‘qib-o‘rganish, mehnatsevarlik, to‘g‘rilik, hurmat qilish kabi sifatlarga ega bo‘lish;
– to‘g‘riso‘z bo‘lish, o‘rtoqlarining xatosini tushuntirish, kattalarga, kichiklarga, o‘rtoqlariga yordam berish, o‘qib-o‘rganish orqali bilimini oshirib borish;

A1+ texnologiya faniga oid turli yo‘nalishdagi kitoblarni muntazam o‘qish va o‘rganish;
– o‘zini xato va kamchiligini to‘g‘ri tushunish, xatolarini tuzatishga harakat qilish, o‘zini nazorat qilish;

A2 texnologiya fanini yo‘nalishlar bo‘yicha chuqurroq o‘rganish, yo‘nalishlarni bugungi kun talabi bo‘yicha o‘z ixtirolarini olib kirish, har bir buyumni tayyolashda dizayner-modelerlik kasbi bo‘yicha yondasha olish, shaxs sifatida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirish;
– guruhlarda ishlashda ma’suliyatni o‘ziga olish, lider bo‘la olish, turli muammoli

vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qila olish;

– konstitutsion huquq va burchlaridan to‘g‘ri foydalana olish;

– jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

A2+ shaxs sifatida o‘z qiziqishlariga qarab, qobiliyatlarini namoyon qila olish, ongli kasb tanlash, halollik, to‘g‘rilik kabi insoniy fazilatlarga ega bo‘lish.

4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetetsiya:

A1 o‘zining o‘quvchilik burchi va vazifalarini bilish, unga rioya qilish, sinfda va oilada o‘z o‘rniga ega bo‘lish;

– o‘zidan kattalarga, o‘rtoqlari va o‘zidan kichiklarga yordam berish, maktabdagi va maktabdan tashqari tadbirlarda ishtirok etish va muomala madaniyatga amal qilish;

– kattaga hurmat, kichikka izzatda bo‘lish kabi sifatlarga ega bo‘lish, oiladagi o‘z o‘rnini hamda vazifalarini anglay olish;

A1+ mebellarni asrab-avaylash farzandlik va o‘quvchilik burchini bilish, unga amal qilish;

– o‘zining yoshiga nisbatan qanday huquqlari borligini bilish, sinfdagi jihozlar, o‘quv qurollarini asrab-avaylash;

– maktabda, oilada, turar joyida bo‘layotgan jarayonlarda (turli tadbirlar, shanbalik va h.k.) ishtirok etish;

A2 sog‘lom e’tiqod va dunyoqarash tushunchalarini bilish;

– jamiyatda bo‘layotgan voqea-hodisalarga befarq bo‘lmaslik, o‘z munosabatini bildirish;

– kasblarning mohiyatini tushunish va ongli ravishda tanlash;

A2+ Inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlarini bilish va unga amal qilish.

5.Milliy va umummadaniy kompetensiya:

A1 orasta kiyinish va doimo shunga amal qilish, do‘stlariga, yaqinlari va atrofdagilarga mehribon bo‘lish, orasta kiyinish, yurish-turishda kattalardan o‘rnak olish, o‘z uyi, maktabi, turar mahallasini qadrlash;

– ozodalikka rioya qilish, milliy bayramlarini bilish, o‘quvchining odob-axloq qoidalari tushunchaga ega bo‘lish, o‘zi yashab turgan diyordagi tarixiy obidalarni bilish;

A1+ san’at turlarini bilish va ularni bir-biridan farqlay olish, san’at asarlarini tahlil qilish, maktabning ichki tartib-qoidalariga rioya qilish;

– yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish, ziyorat qilish odobiga amal qilish, milliy qadriyatlarni (milliy-madaniy an’analar, bayramlar, sayillar) bilish;

A2 xalq hunarmandchiligi yo‘nalishlarida ularning tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini o‘rganish, avaylab asrash, an’ana va marosimlarini hurmat qilish.

A2+ xalq hunarmandchiligi yo‘nalishlarida ularning tarixiy, ma’naviy va madaniy merosini o‘rganish, avaylab asrash, an’ana va marosimlarini hurmat qilish;

– umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni bilish va unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish.

6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiya:

A1 oilasida nechta odam borligi, kim katta, kim kichikligini bilish, maktabga kelib ketadigan vaqtni bilish;

– kundalik rejalarini tuza olish; kundalik faoliyatda turli chizmalarni chiza olish, mamlakatimizdagi bayram kunlarini bilish;

– isrof va tejamkorlikning ma’nosini tushunish va kundalik hayotda unga amal qilish.

A1+ dars jarayonida zarur bo‘ladigan o‘quv qurollari, xomashyolardan foydalaniladi;

– tejamkorlikka rioya qilgan holda foydalanish, bir kunlik xarajatlarini hisoblashni bilish;

– texnika turlari va ularni qachon paydo bo‘lganligini bilish.

A2 inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish;

A2+ mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga tutgan o‘rni va tarixiy shakllanish davri haqida aytib bera olish, mustaqillik yillarida mamlakatimizdagi barcha sohalarda o‘sish sur’atlarini bilish;

– kundalik faoliyatda turli formula, model, chizmalarni o‘qiy olish va foydalana olish.

Demak, Finlandiya va O‘zbekistonda texnologiya fanini o‘qitishda o‘quv maqsadlarini belgilashda ta’lim oluvchilarning texnik tafakkurini hamda texnologik ko‘nikmalarini shakllantirishga hamda xayotga qo‘llash malakalarini rivojlantirishga alohida e’tibor berilar ekan. Ayniqsa, Finlandiya ta’lim tizimida texnologiya fanini ta’lim oluvchilarni xayotga tayyorlashda ustuvor fan sifatida e’tibor berilishi hamda o‘quvchilarning ijodkorlikka yo‘naltirilgan ta’lim tizimida tahsil olishlari mamlakat ishlab chiqarishi uchun yetakchi kadrlar tayyorlash omili sifatida qaralishi e’tiborga molik. Shunday ekan O‘zbeksitonda ham texnologiya fanini hayotga bog‘lash hamda ta’lim oluvchilarda kreativ fikrlaydigan, o‘z oldiga muhim xayotiy pozitsiyasini mustaqil qo‘yaoladigan kadrlar tayyorlash nuqtayi nazaridan yondoshgan holda tashkillashtirish hamda ta’lim taraqqiyotini ta’minlash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Umumiy o‘rta (tayanch) ta’lim davlat majburiy ta’lim dasturi”. Finlandiya milliy ta’lim agentligi. Nashr 2016:5. ISBN 978-952-13-6004-6. Maket: Grano Oy. Tarjima: Lingsoft Oy. www.oph.fi. Pechat: Next Print Oy, Helsinki 2016.

2. O‘zbekiston Respublikasi majburiy ta’lim tizimining davlat ta’lim standarti. (mehnat ta’limi fani bo‘yicha majburiy ta’lim tizimida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar). Loyiha. 2016-yil.

3. Qo‘ysinov O.A., Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. –T.: Fan, 2009. - 92-b.

Madina JALILOVA,
Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti

OG‘IR NUTQ NUQSONIGA EGA BO‘LGAN BOLALARGA LOGOPEDIK YORDAMNI TASHKIL ETISHDA OTA-ONALARNI JALB ETISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarga logopedik yordam ko‘rsatishda ota-onalar bilan hamkorlik masalalari yoritilgan. Muallif nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlash bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, logopedik yordam, nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar, ravon nutq, defektolog, surdopedagog.

В статье рассматриваются вопросы взаимодействия с родителями при оказании логопедической помощи детям с нарушениями речи в дошкольных организациях. Автор высказал собственные взгляды и отзывы о работе с детьми с дефектами речи.

Ключевые слова. Дошкольное образование, логопедическая помощь, дети с дефектами речи, беглая речь, дефектолог, сурдопедагог.

The article deals with the issues of interaction with parents in the provision of speech therapy assistance to children with speech disorders in preschool organizations. The author expressed his own views and reviews about working with children with speech defects.

Key words. Preschool education, speech therapy, children with speech defects, fluent speech, speech pathologist, sign language teacher.

Bolalarda nutq kamchiligini aniqlash, o‘rganish, bartaraf etish va logopedik yordamni tashkil etish defektologiyaning barcha sohalari (logopediya, oligofrenopedagogika, tiflopedagogika va surdopedagogika) uchun dolzarbdir. Nutqdagi kamchiliklar bolalarning muomala qilish va o‘qitish uchun salbiy ta’sir etadi. Nutq kamchiligi o‘z-o‘zidan mustaqil bartaraf etilmaydi. Nutq buzilishlari uzoq vaqt bartaraf etish ishlarini olib borishni talab etadi. Nutq kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalarga ta’sir etishni to‘g‘ri tashkil etmoq uchun nutq faoliyati buzilishining sabab va mohiyatini to‘g‘ri anglab olish, nutqidagi kamchiliklarning paydo bo‘lishi nutq buzilishlarining rivojlanishi va uni bartaraf etish qonuniyatlarini bilib olish kerak. Bu esa ravon to‘g‘ri nutqning yuzaga chiqishiga, aniq maqsadni ko‘zlab harakat qilishga kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Nutq kamchiliklarini mexanizmi va sabablarini bilish, nutq kamchiligiga ega bo‘lgan bolalar nutqidagi kamchiliklarini aniqlashda asosiy rolni o‘ynaydi.

Ushbu mavzusining asosiy maqsadi nutq kamchiliklarni bartaraf etishda ota-onalarni korreksion faoliyatga jalb etish, birgalikda nutq kamchiliklarini bartaraf etish, shakllantirish va rivojlantirish.

Bu ayniqsa, tizimli: maxsus, ommaviy va inklyuziv ta’lim jarayonida o‘sib kelayotgan avlodning aqliy, nutqiy, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishing asosiy bosqichi hisoblangan maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalar bilan ishlash o‘ziga xos xususiyatlari bilan ishlaydigan o‘qituvchi-logopedlari va ota-onalar uchun ahamiyatli-

dir. Shunday ekan, yordamga muhtoj, og‘ir nutq nuqsoniga ega bo‘lgan, bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash, uzluksiz logopedik-korreksion ta’limi va tarbiyasini ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishni taqozo etadiki. Bir tomondan, nutq buzilishlari maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar psixojismoniy rivojlanishidagi keng tarqalgan muammolardan biri bo‘lib qolmoqda, bu o‘z navbatida, logopedik jarayonida oila bilan hamkorlikni tashkil etish katta ahamiyatga egadir. Logopedning ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishlashi ham korreksion ta’limning umumiy muvaffaqiyatini belgilaydi. Logoped ota-onalar bilan doimiy ravishda uchrashishi, ularning farzandlari bilan ishlashdagi muvaffaqiyatlar va qiyinchiliklar to‘g‘risida ogohlantirishi zarur. Mazkur maqsadlarda quyidagi ishlar amalga oshiriladi: ota-onalar majlislari, konsultatsiyalari, ochiq logopedik mashg‘ulotlar, seminarlar-praktikumlar; maxsus stendlar, ko‘rgazmali papkalar tayyorlanadi.

Birinchi ota-onalar majlisi avgust oyining oxirida yoki sentabr oyining boshida o‘tkaziladi. Unda ota-onalarni mazkur muassasaning tuzilishi, butun o‘quv yili davomidagi ishning vazifalari va mazmuni, maktabgacha ta’lim tashkilotlari qoidalari va kun tartibi bilan tanishtiradilar. Odatda, mazkur majlisni maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktori barcha guruhlar logopedlari bilan birgalikda olib boradi. Ikkinchi majlis oktabr oyida har bir logoped tomonidan o‘z guruhida o‘tkaziladi. Bu vaqtga qadar logoped tekshiruvni yakunlaydi va uning natijalari bilan ota-onalarni tanishtiradi, har bir bolaning umumiy va nutq rivojlanishiga tavsif beradi. Bolalarning nutq rivojlanishlaridagi asosiy buzilishlar, ularning yuzaga kelish sabablari, me’yordan ortda qolish darajasi va mazkur nuqsonni bartaraf etishdagi hamkorlik harakatlarining zarurligini ota-onalarga tushunarli shaklda yoritib berish muhim. Ish rejasida logoped ta’limning dastlabki davri, uning vazifalari va mazmunini ochib beradi. Uchinchi ota-onalar majlisi yanvar oyida o‘tkaziladi. Unda birinchi yarim yillik yakunlari chiqariladi, kelgusi korreksion ta’limning asosiy yo‘llari ochib beriladi. Har bir bolaning nutq va umumiy rivojlanishi tavsifi beriladi, bolalarning muvaffaqiyatlari va korreksion mashg‘ulotlar jarayonida yuzaga kelgan hamda yaqinlari e’tibor qaratishlari lozim bo‘lgan qiyinchiliklar ochib beriladi.

Yakuniy ota-onalar majlisi may oyida o‘tkaziladi, yil davomidagi ta’limiy ishlar sarhisob qilinadi, o‘tilgan materialni mustahkamlash bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Logoped ota-onalarni bolalarni kelgusida umumta’lim yoki maxsus maktabda o‘qishlarini davom ettirishlari yoki zarur hollarda maxsus guruhda qaytadan qolishlari to‘g‘risidagi komissiyaning qarori bilan tanishtiradi. Komissiyaning qarorlari batafsil asoslanib beriladi.

Har hafta o‘tkaziladigan ochiq eshiklar kuniga ish jarayonida qiyinchiliklar yuzaga kelgan ota-onalar taklif etiladi. Logoped ota-onalarni tovushlarni to‘g‘ri talaffuzini o‘rgatish asosiy usullari bilan tanishtiradi, bolaning daftarida yozilgan uyda bajarish lozim bo‘lgan mashqlarni tushuntiradi va ko‘rsatib beradi.

Ota-onalarning ochiq logopedik mashg‘ulotlarga tashrif buyurishlari o‘quv yili davomida amalga oshiriladi (kamida 3 oyda 1 marta). Mazkur mashg‘ulotlarda logoped ota-onalarni o‘qitishning asosiy usullari, ko‘rgazmali suratli va nutq materiallari tanlovi, shuningdek, mashg‘ulotlar davomida bolalar nutqiga qo‘yiladigan talablar bilan tanishtiradi.

Ota-onalar uchun stendlarni logoped va tarbiyachi hamkorlikda yil davomida tayyorlaydilar. Unda bolaning me’yoriy nutqi rivojlanishi, turli nutq nuqsonlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtiriladi, tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati keltiriladi. Mazkur guruh bolalarida tovush talaffuzi, nutqni shakllantirish bo‘yicha materiallar vaqti-vaqti

bilan yangilanadi. Bolalarning nutq holatlarini aks ettiradigan maxsus stendlar tayyorlanishi tavsiya etish mumkin. Bu ularning nutq rivojlanishida o‘zgarishlarni kuzatishga imkon beradi. Ota-onalar uchun stendning maxsus bo‘limida ota-onalar majlisi sanasi, mutaxassislar konsultatsiyalari vaqti, logoped bilan suhbat uchun taklif to‘g‘risidagi ma’lumot joylashtiriladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, nutq nuqsoniga ega farzandi bor bolani tarbiyalash, kamol toptirish, dolzarb muammolardan biri bo‘lib, ota-onalardan, oila a’zolaridan yuksak diqqat-e’tiborni, g‘amxo‘rlikni, ishonchni, bilim va xushmuomilalikni talab etadi. Bundan tashqari, bolaning har xil yoshdagi jismoniy va ruhiy rivojlanish normada va noanomal rivojlanish to‘g‘risida fiziologik qonuniyatlar haqida mukammal bilimga ega bo‘lishlari lozim.

Logoped uchun eng muhim masalalaridan biri nutq nuqsoniga ega farzandi bor bolalarning oiladagi tarbiyaviy vazifalarini aniqlashdan iboratdir. Nutq nuqsoniga ega bolalarni tarbiyalashda oila uchun xos bo‘lgan asosiy qonuniyatlar – bolalarning shaxsiy xislatlarini va nutqini shakllantirish, tarbiya maqsadi, vazifasi va prinsiplari mushtarakligiga amal qilishdir.

Nutq nuqsoniga ega farzandlari bor ota-onalar tibbiy xodimlar bilan bir qator logoped-o‘qituvchilar bilan uzviy hamkorlikda bolani nutqini tarbiyalash va hayotga moslashtirish yo‘llarini izlashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ayupova M.Y. Logopediya O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti. –T., 2007.

